



ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ

www.soliqvahayot.uz



**“СОЛИҚ ВА ҲАЁТ” ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ-ОММАБОП ЖУРНАЛИ
ТАҲРИРИЯТИ ҲАЙЪАТИ ТАРКИБИ**

Таҳририят кенгаши раиси: и.ф.д. Юсупов Кахрамон Ахмедович

Бош муҳаррир: и.ф.д. проф. Қурбанов Зият Ниязович

Таҳририят аъзолари:

и.ф.д. Қудбиев Шерзод Давлатович

и.ф.д. проф. Засько Вадим Николаевич (Россия Федерацияси)

и.ф.д. проф. Роздольская Ирина Владимировна (Россия Федерацияси)

ю. ф. д. проф. Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович

т.ф.д.доц. Акбаралиев Бахтиёр Бакирович

и.ф.ф.д. PhD Вассилис Полименис (Греция)

и.ф.н. доц. Эргашев Зафар Тоштургунович

и.ф.д. проф. Тошматов Шухрат Аманович

и.ф.д. проф. Ҳотамов Комил Раббимович

и.ф.д. проф. Қўзиева Наргиза Рамазановна

и.ф.д. проф. Худойкулов Садриддин Каримович

и.ф.д. проф. Исманов Иброҳим Набиевич

и.ф.д. проф. Ўрманов Жаҳонгир Жалолиддинович

и.ф.д. проф. Уразов Комил Бахрамович

и.ф.д. проф. Исаев Фахриддин Икромович

Маъсул муҳаррир: Назаров Абдукарим Кушарович

Веб администратор: Қуйлиев Улуғбек Рашидович



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

www.soliqvahayot.uz



I SON. 2025

Axmedov F.B.	<i>O'zbekistonda shubhali soliq to'lovchilarni aniqlash va kamaytirishning metodolik asoslari.....</i>	5
Babajanov D.J.	<i>O'zbekistonda bilvosita soliqlar iqtisodiy mohiyati hamda huquqiy asoslari.....</i>	17
Berdiyev G'I.	<i>O'zbekiston iqtisodiyotida uy xo'jaliklarini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish algoritmi.....</i>	26
Kamolova F.K., Elboyev B.B.	<i>Analysis of the state of accounts receivable and payable in textile enterprises.....</i>	37
Misirov K.M.	<i>Yashil iqtisodiyotning ahamiyati va rivojlanish istiqbollari.....</i>	43
Mukimov B.M.	<i>Respublikamizda 2025-yil soliq-byudjet siyosati konsepsiyasiga soliq ma'murchiligini takomillashtirishga oid taklif hamda tavsiyalar.....</i>	49
Mustafayev B.R.	<i>Strategik rejalashtirishni shakllantirish va uning hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholash.....</i>	58
Pardayev A.X., Pardaeva Z.A.	<i>Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish.....</i>	68
Sanokulova N.	<i>Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish.....</i>	75
Sodiqov A.A.	<i>Kompaniya elektron tijorat axborot tizimining funksional jihatlarini takomillashtirish texnologiyalari.....</i>	82
Арифханова Х.Ш.	<i>Солиқ харажатлари ҳисобининг назарий ва услубий асослари.....</i>	95
Атамуратова З.А.	<i>Повышение эффективности мер налогового контроля в Республике Узбекистан: ключевые аспекты и пути развития.....</i>	102
Бабаев Ф.М.	<i>Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришнинг халқаро тажрибалари: муаммо ва ечимлар.....</i>	107
Курбанов З.Н.	<i>Молиявий активларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш.....</i>	114
Мамедова Г.К.	<i>Тижорат банкларини солиққа тортишнинг мамлакат иқтисодиётига бевосита таъсири.....</i>	122
Турабов У.О.	<i>Ўзбекистонда махсус иқтисодий зоналарда фаолият кўрсатаётган корхоналарига солиқ имтиёзлари беришнинг хусусиятлари.....</i>	128



Туракулов Т.А.	Минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашувнинг асосий вазифалари.....	139
Уразов К.Б., Боронов Б.Ф.	Ёғ-мой саноати корхоналарида билвосита харажатлар ҳисобини такомиллаштириш.....	146
Уразов К.Б., Мухаммадиев З.У.	Рақамли иқтисодиётни шакллантириш шароитида капитал инвестициялар ҳисобининг таснифий асосларини такомиллаштириш.....	155
Хайдаров Х.Л.	Ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамияти.....	164
Шарипова Ш.А.	Бошқарув ҳисобида харажатларни ҳисобга олиш ва маҳсулот таннархини калкуляция қилиш.....	172
Шодмонов Д.	Солиқ тизимини рақамлаштириш шароитида мониторинг назорати.....	180
Эргашев Х., Зарипова С., Хабибуллаев А.	Зелёная экономика: концепция, социально-экологические аспекты и перспективы развития.....	186
Эргашева Т.А.	Солиққа оид халқаро ҳужжатлар турлари ва уларнинг таҳлили.....	192



О'ZBEKISTONDA SHUBHALI SOLIQ TO'LOVCHILARNI ANIQLASH VA KAMAYTIRISHNING METODOLIK ASOSLARI

PhD Axmedov F.B.

TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish, aholining soliq ma'murchiligi bo'yicha savodxonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste'molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag'batlantirishga asoslangan ma'murchilikni takomillashtirish yoritilgan. Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli byudjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor bermoqda. Shu bilan birgalikda noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to'lashdan bo'yin tovlash jarayonlarining ilmiy-nazariy jihatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация. В данной статье описано совершенствование администрирования на основе вывода услуг субъектам предпринимательства на новый уровень, дальнейшего повышения грамотности населения в налоговом администрировании, поддержки предпринимательства, создания равной конкурентной среды и обеспечения прав потребителей, поощрения активного участия. широкой общественности в сдерживании теневой экономики. В последние годы страны мира при разработке своих краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетно-налоговой политики уделяют особое внимание реализации различных механизмов предотвращения и сокращения уклонения налогоплательщиков от уплаты налогов. При этом одним из приоритетных направлений остается проведение научных исследований, направленных на сокращение незаконных финансовых потоков, анализ факторов, вызывающих уклонение налогоплательщиков от уплаты налогов, сокращение теневой экономики, а также сосредоточение внимания на научно-теоретических аспектах процессов уклонения от уплаты налогов. Одновременно изучались отрасли, формировался зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые доходы, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract. *This article describes the improvement of the administration based on bringing services to business entities to a new level, further increasing the tax administration literacy of the population, supporting entrepreneurship, creating an equal competitive environment and guaranteeing the rights of consumers, and encouraging the active participation of the general public in curbing the underground economy. In recent years, countries around the world have been paying special attention to the implementation of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers when developing their short-term and long-term budget-tax policy strategies. At the same time, conducting scientific research aimed at reducing illegal financial flows, analyzing the factors that cause tax evasion by taxpayers, reducing the hidden economy, and focusing on the scientific and theoretical aspects of tax evasion processes remains one of the priorities. At the same time, the fields were studied, foreign experience, scientific-practical conclusions and proposals were formed on its application in our country.*

Key words: *tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.*

1. Kirish.

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to'lashdan qochishning turli xil yo'llarini izlash va undan soliq to'lovchilar o'z manfaatlari yo'lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni "foydani o'tkazish" amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o'tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda¹. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning turli xil ko'rinishlari natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarni minimallashtirish sxemalarini qo'llash, soliq to'lovchilar tomonidan olingan foydani samarasiz foydalanish va qayta investitsiyalash natijasida yo'qotilayotgan solikli tushumlar ham yiliga 250-300 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

S.M.Olennikovning (2017) fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to'lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi.

A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskaya (2017) kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" deydi.

E.Guver "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash istagi tug'ilish istagidan kuchliroqdir" deganda soliqdan bo'yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko'rsatib o'tgan edi (Kottke, 1998).

¹ Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61. Окончательное исследование по вопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года международных финансовых обязательств государств для полного осуществления всех прав человека, в частности экономических, социальных и культурных прав.

Rossiyalik olim L.Aleksandrova (2017) bu boradagi tadqiqotlari natijasida “Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o‘tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo‘ymoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo‘llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir” deb ta’kidlaydiki, muallif soliqdan bo‘yin tovlash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi.

A.R.Abdullina (2016) fikricha, soliqdan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarni monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarni o‘zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashmaganligi oqibatida soliqdan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo‘lishiga ta’sir qilmoqda.


Ukrainalik olimlar S.A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskayalarning (2017) fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yoki soliq solinadigan bazani kamaytirishning ko‘plab usullarini tasniflash masalasida ko‘plab tadqiqotchilar yagona nuqtai nazarga kelishadi va ikkita guruhni ajratib ko‘rsatishadi. Ba’zi manbalarda kulrang sxemalar mavjudligi qayd etilgan. Bunda soliqlarni kamaytirish tartibi qonunlarda belgilangan kamchiliklar, bo‘shliqlar yoki noto‘g‘ri talqinlardan foydalangan holda amalga oshiriladi”.

I.Vachugov (2019) soliqdan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” tushunchasini ham tushuntirib o‘tadi. Uning fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yashirin tuzilmalarning faoliyati bizga “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” atamasini kiritish imkonini beradi, uning ta’rifi quydagicha ifodalanishi mumkin: soliq to‘lovchilarning o‘zlari ham, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni ta’minlaydigan xizmatlarni ko‘rsatadigan soya tuzilmalari tushuniladi”.

3. Tahlil va natijalar.

Soliqdan kochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar sirasiga boshqa omillar bilan bir qatorda shubhali korxonalar bilan bog‘liq jarayonlar soliqdan qochish holatlarida diqqat markazida turgan masalalardan biri hisoblanadi. Qayd etish joizki, shubhali korxonalarni aniqlash ma’lum bir mezonlar asosida amalga oshiriladi. Ammo, bunday korxonalar bilan soliq ma’murchiligini normal tashkil etish qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shubhali korxonalar toifasiga korxonalarni kiritish ma’lum bir mezonlarga asoslanadi, buni odatda kontragent korxonalar yoki soliq to‘lovchilarni to‘g‘ri, ob’ektiv baholashni taqozo etadi. Bu davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shartnoma tuzishdan oldin kontragentlarni to‘g‘ri tanlash bo‘yicha beradigan tavsiyalari ham katta o‘rin tutadi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan shubhali korxonalarni haqida boshqa korxonalarga ochiq ma’lumotlarni taqdim etish “darajada ehtiyotkorlik qilish” tamoyiliga asoslangan holda o‘zlarining kontragentlarini to‘g‘ri aniqlashga ko‘mak berish maqsad qilib qo‘yilgan. Bunda soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlari orqali tanlayotgan kontragentning STIR raqamini kiritish orqali aniqlash imkoniyati tug‘ilgan, bunda ayniqsa, bu interaktiv dastur soliq to‘lovchilar to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summasini kamaytirish tarzidagi huquqni suiiste’mol qilish borasida tekshirish imkonini bermoqda. Agar soliq to‘lovchi bu xizmatdan foydalanishda ro‘yxat turishligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘la turgan holatda ham iqtisodiy munosabatlarga kirishsa, u holda soliq ma’murchiligida shubhali korxonalar bilan bog‘liq jarayonlarning murakkablashuviga, soliq xizmati organlarining faoliyatiga, qolaversa, bunday korxonalar bilan aloqa qilgan

korxonalarning soliq xavfini oshirishga olib kelishi mumkin. Shu boisdan shubhali korxonalarni aniqlash va ular bilan soliq ma'murchiligi qoidalarini to'g'ri aniqlab olish, ularni to'g'ri boshqarish soliq tizimidagi dolzarb muammolar sifatida qolmoqda.



1-rasm. Kontragentlarga qo'yilgan iqtisodiy-huquqiy belgilar va talablar
(Ismailov, 2024)

Darhaqiqat xufiyona iqtisodiyot sohasida shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni aniqlash va ularga nisbatan ta'sir choralari qo'llash tartibini belgilash davlat soliq xizmati organlaridagi asosiy muammodir, ammo, kontragent buning uchun kontragentlarga qo'yilgan iqtisodiy-huquqiy belgilar va talablarni belgilab olish ularni aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Buni biz iqtisodchi olim B.Ismoilov tomonidan keltirilgan yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan kontragentlarga qo'yilgan iqtisodiy-huquqiy belgilab va talablarda buni ko'rish mumkin. Darhaqiqat B.Ismoilovning ilmiy yondoshuviga ko'ra, kontragent korxonalar shubhali korxonalar sifatidagi maqomini aniqlash uchun "ishlab chiqargan (ko'rsatadigan xizmati) mahsulotiga MXIK (mahsulot, xizmatlarga identifikatsiya kodiga ega bo'lishi, mahsulot realizatsiyasi (qonunchilik asosida istisno holatlardan tashqari)

elektron hisob faktura orqali amalga oshirishi, davlat soliq organlari tomonidan tuziladigan shubhali korxonalar ro'yxati kirmagan bo'lishi, muddati o'tgan kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan ko'p bo'lmasligi, kreditorlik qarzi uchun sud tomonidan moliyaviy jarima surunkali qo'llanilmaganligi hamda o'z xodimlari va boshqalar oldida korporativ obro'si saqlanganligi"² kabi ko'rsatkichlarga ega bo'lganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi, B.Ismoilovning ilmiy yondoshuviga qo'shilgan holda shubhali korxonalarni aniqlash ma'lum bir boshqa muhim ko'rsatkichlarga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ya'ni bunda korxonaning birinchidan, ta'sischiligida (rahbarligida) ro'yxatdan o'tgan ikki va undan ortiq tadbirkorlik sub'ektlari 1-yil muddatgacha faoliyat yuritgan holda 100 mln so'm va undan ortiq soliq majburiyatini (soliq qarzini) bajarmagan holatlar mavjudligini tahlil qilish kerak bo'ladi, chunki, soliq qarzdorligi ko'rsatkichi soliq to'lovchining soliqdan qochish holatlariga moilligini asoslovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, ikkinchidan, bir yil davomida 3 va undan ortiq hududga yuridik manzilini o'zgartirganligiga ham alohida e'tibor berish zarurdir. Tashkiliy-funksional jihatdan qaraganda soliq to'lovchining yuridik manzili kam holatlarda o'zgaradigan va vaziyatni kam taqozo etuvchi holatlardan biri hisoblanadi, shu boisdan soliq to'lovchi 3 va undan ortiq yuridik manzilini o'zgartirilganligi bu shubhali faoliyatdan dalolat berishi mumkin, bundan asosiy maqsad esa, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holati bo'lishi mumkin degan ilmiy taxminlarga asos bo'ladi. Bundan tashqari shubhali korxonalarni aniqlashda soliq to'lovchi tomonidan qayd etilgan manzil uch va undan ortiq soliq majburiyatini bajarmaganligi natijasida bankrot deb topilgan, shuningdek soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan boshqa soliq to'lovchilar tomonidan ko'rsatilgan manzil bilan mos kelishiga ham e'tibor berish uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi. To'rtinchidan, yana bir muhim masala borki bu soliq to'lovchi korxonaning faoliyat boshlagan davrdan boshlab, qisqa muddatlarda yirik miqdorda tovar aylanmasini amalga oshirib, rasmiy ishlayotgan xodimlar sonini kam ko'rsatishi masalasidir, sababi bu jarayon soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi jarayon hisoblanadi. Beshinchidan, rasmiylashtirilmagan yoki kirim qilinmagan tovarlarni saqlashi, ulardan foydalanishi va realizatsiya qilinishi holatlarni ham tahlil qilish kerak bo'ladi, oltinchidan esa, xarid qilingan tovarlarni realizatsiya qilmasdan qoldiqda aks ettirilishi yoki tovar qoldig'i mavjud bo'lgan holda qo'shimcha ravishda aynan shu tovarlarni xarid qilinishi jarayonlarini jiddiy tahlil qilish zarur bo'ladi. Yettinchidan esa, shubhali korxonalarni aniqlashda soliq majburiyatini bajarmagan sub'ektlarni o'ziga qo'shib olish natijasida bankrotlik e'lon qilish holatini ham jiddiy qarash kerak bo'ladi, chunki, sun'iy bankrotlik davlat budjeti manfaatlariga va aksionerlar (agar aksionerlik jamiyat bo'lsa)ning manfaatlariga jiddiy moliyaviy ta'sir qiladi hamda huquqni suiiste'mol qilish, qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun bitimlar tuzish, operatsiyalar amalga oshirish orqali soliqlarni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik faktlarininng ilgari amalga oshirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Umumiy olganda soliq to'lovchilarning shubhali operatsiyalari bu soliq to'lovchilarning rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa faktura va yoki bank operatsiyalarining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar nomenklaturasiga muvofiq emasligi, soliq to'lovchi tomonidan bitim tuzishda ko'zlangan asosiy maqsad soliqlarni to'lamaslik hamda operatsiya bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligini bildiradi.

² Қаранг: Ўша манба.



2-rasm. Shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarni aniqlashning metodologiyasi³

³ Муаллиф томонидан тузилган.

Bunday operatsiyalarni bajargan soliq to'lovchilar esa, yagona yoki ustuvor maqsadi soliq to'lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olishdan yoxud o'zi to'laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo'lgan operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirgan sub'ektlar sifatida soliqdan qochishga moil korxonalar sifatida tavsiflanadi.

Shubhali korxonalarni aniqlashda ichki va tashqi manbalar muhim hisoblanadi. Tashqi manbalarni bu jarayonda Davlat soliq qo'mitasining Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari departamenti mas'ul hisoblanadi, bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-sonli qarori asosida tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarni belgilangan tartibda qo'mitaning yagona integratsiyalashtirilgan ma'lumotlar bazasida shakllanishini ta'minlab boradi.

Davlat soliq qo'mitasining tegishli tuzilmalar tomonidan xar bir sub'ekt bo'yicha xulosalarni tayyorlab, uni har oyning 5, 15 va 25-sanalarida majburiy tarzda va tezkorlik talab etilgan hollarda kunlik tartibda xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga EHA tizimi orqali yuborib, Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamenti esa, o'tkazilgan tahlillar natijasida shubhali operatsiyalarni amalga oshirganligi aniqlangan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni (xulosani) umumlashtirgan holda "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" avtomatlashtirilgan dasturiga yuklashi lozim bo'ladi. Bunda Dastur orqali soliq xavfi darajasi baholab, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ro'yxati shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

2-rasmda keltirilgan "Shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarni aniqlashning metodologiyasi"ning muhim mohiyati shundaki, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarning QQS guvohnomalarini bekor qilish (tiklash) hamda bankdagi hisobvaraqaalari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish (aktivlashtirish)ni amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun maxsus dasturda shakllangan ro'yxat asosida: shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarning QQS guvohnomasi avtomatik tarzda qarorlar rasmiylashtirilib bekor qilish; soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga QQS guvohnomasini bekor qilinganligi to'g'risida xabarnoma avtomatik tarzda yuborish, bir vaqtning o'zida soliq to'lovchilarning o'zi ko'rsatgan manzilda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash yuzasidan soliq organlarining soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tuzilmalariga axborot EHA tizimi orqali yuborish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tuzilmalari 1 kunlik muddatda manzilda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab, tegishli dalolatnomani Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash tuzilmasiga EHA tizimi orqali taqdim etish, soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash tuzilmalari manzilda mavjud emasligi aniqlangan soliq to'lovchilarning bankdagi hisobvaraqaalari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida qaror rasmiylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash tuzilmalari Soliq kodeksiga muvofiq 10 kunlik muddati kelgan soliq to'lovchilar bo'yicha sudga da'vo arizalari va iltimosnomalar yuborilishini ta'minlash, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarning QQS guvohnomasi, soliq tekshiruvlari natijalarida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng maxsus mezonlar asosida dastur orqali har oyning yakuni bilan baholanash kerak bo'ladi va shakllangan ro'yxat asosida avtomatik tarzda tiklab berish lozim bo'ladi. Shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarning QQS guvohnomasi tiklangan taqdirda soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash tuzilmalari 1 kun muddatda bankdagi hisobvaraqaalari bo'yicha operatsiyalarni faollashtirish bo'yicha qaror rasmiylashtirish lozim bo'ladi, ammo bu yerda shunga ham e'tibor berish lozimki, "Shubhali korxonalar" ro'yxatiga kiritilgan, korxonalarning QQS guvohnomasi qayta tiklanmasligi kerak.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan "Shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarni aniqlashning metodologiyasi"dagi yana bir muhim jihat bu shubhali

operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilarda soliq tekshiruvlarini tashkillashtirish asosida ularning faoliyatida soliqdan qochish holatlarini kamaytirish hisoblanadi.

Bunda "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" avtomatlashtirilgan dasturida shakllangan shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan soliq to'lovchilar ro'yxati avtomatik ravishda "Kameral soliq tekshiruvi" dasturiga yuborish kerak bo'ladi.

Kameral soliq tekshiruvi tuzilmalari tomonidan agar 15 kun, yirik miqdorda (5 mlrd.so'mdan ortiq) shubhali operatsiyalarni amalga oshirganligi aniqlansa, u holda ular bo'yicha ko'pi bilan 1 oy muddatda tekshirishlar o'tkazish lozim bo'ladi, va natijalar "Kameral soliq tekshiruvi" dasturidan Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" avtomatlashtirilgan dasturiga yuborish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yerda soliq tekshiruvlari natijasida shubhali operatsiyalarni amalga oshirganligi tasdiqlangan soliq to'lovchilar hamda ularning kontragentlari tomonidan noto'g'ri hisobga olingan QQS summalariga tuzatish kiritishni amalga oshirish zarur bo'ladi, buning uchun esa, davlat soliq organlari tomonidan (asosan Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamenti) soliq tekshiruvlari natijasi bo'yicha soliq to'lovchining faoliyati soxta tadbirkorlik deb baholashi hamda "Shubhali korxonalar" ro'yxatiga kiritishi va uni "Shubhali korxonalar" ro'yxatini qo'mitaning rasmiy veb-saytiga joylashtirishi lozim bo'ladi.

Bu borada ayrim muammolarning asosi sifatida yuqorida 1-jadvalda QQS bo'yicha soliq qochishdan holatlari tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda qurilish tarmog'ida shubhali operatsiyalarni amalga oshirib katta miqdorda soliq qarzdorligi hosil qilgan obnal korxonalar tahlili keltirilmoqdaki, ko'rish mumkin.

Bundan tashqari yil davomidayiliga 10 mln so'mdan kam soliq to'lagankorxonalar sonida ham qurilish korxonalari soni ko'pchilikni tashkil etadi. Ta'kidlaganimizdek, QQS mexanizmida kontargentlarni to'g'ri baholash to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini ular tomonidan shubhali operatsiyalarni amalga oshirib katta miqdordasoliq qarzdorligi hosil qilish hajmi oshadi, ammo davlat soliq xizmati organlari tomonidan tavsiya etiladigan va qo'llaniladigan "lozim darajada ehtiyotkorlik" tamoyiliga soliq to'lovchilarning amal qilmasligi bunday soliqdan qochish holatlariga ham tabiiy ham sun'iy ravishda keltirib chiqaradi.

1-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha shubhali operatsiyalarni amalga oshiribkatta miqdordasoliq qarzdorligi hosil qilgan asosida soliqdan qochish holatlarining tarmoqlar kesimida tahlili ⁴ (mln so'm)

Soha va tarmoqlar	shubhali operatsiyalarni amalga oshiribkatta miqdordasoliq qarzdorligi hosil qilgan qarzi		
	2021	2022	2023
Shubhali operatsiyalarni amalga oshirib katta miqdordasoliq qarzdorligi jami:	613 745	945 216	1 080 655
Ishlab chiqarish	14 587	22 259	24 830
Qurilish	187 214	192 246,4	206 838,6
Transport	33 639	45 114	51 994
Qishloq xo'jaligi	25 147	42 268	50 853,8
Savdo	489 212	547 423	641 786
Xizmat ko'rsatish	136 054	288 152	104 352

Yana bir yirik soliq to'lovchi hisoblangan "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ misolida soliqdan qochish holatlarini tahlil qilganimizda shunday xulosaga kelish mumkinki, bu korxonada ham mahsulotlarni kirimi va chiqimi jarayonidagi shubhali operatsiyalar natijasida

⁴ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

soliqdan qochish holatlari kelib chiqqan (2-jadval).

2-jadval

**“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan soliqdan qochish holatlarining
paydo bo'lish tahlili⁵ (mln.so'm)**

Ko'rsatkichlar	yillar		
	2022	2023	2024
Kirim qilingan elektr energiyasi miqdori (mln kvt/soat)	67 391,06	73 037,93	31 007,57
Chiqim qilingan elektr energiyasi miqdori (mln kvt/soat)	57 720,08	67 383,55	27 152,28
Tabiiy yo'qotilgan elektr energiyasi miqdori (mln kvt/soat)	4 043,46	4 382,28	1 860,45
Farqi			
Miqdori (mln kvt/soat)	5 627,51	1 610,92	1 994,84
Summa (mln.so'm)	1 480 035,84	423 671,27	524 641,91
Qo'shimcha hisoblanishi lozim bo'lgan summa:			
Foyda	222 005,38	63 550,69	78 696,29
QQS	222 005,38	50 840,55	62 957,03

Bu korxona tomonidan kirim qilingan elektr energiyasi miqdori (mln kvt/soat) va chiqim qilingan elektr energiyasi miqdori (mln kvt/soat) o'rtasidagi farq: 2022-yilda 5 627,51 mln.kvt/soat, 2023-yilda 1 610,92 mln.kvt/soat, 2024-yil to'qqiz oyligida 1 994,84 mln.kvt/soatni tashkil etgan holda birgina 2024-yilda 78696,29 mln.so'mlik foyda solig'i bo'yicha va 62957,03 mln.so'mlik QQS bo'yicha soliqdan qochish holatlari yuzaga kelgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ko'pgina energiya ishlab chiqaruvchi va uning realizatsiyasi bilan shug'ullanuvchi korxonalarda haqiqiy realizatsiya hajmi bilan uni EHFda qiymatini ko'rsatishdagi tafovutlar doimiy paydo bo'lishi bo'lib, bunday holatning yuzaga kelishi va yillar davomida ko'rsatkichlarning saqlanib qolishi bu kabi korxonalarda soliqdan qochishga bo'lgan moyillik saqlanib qolinayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning moliyaviy hisobotlarini tahlil shuni ko'rsatmoqdaki “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan foyda solig'i hisobotlarida qo'shimcha aniqlangan soliq summasi tahlilida shubhali operatsiyalarni amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Xulosa qilish mumkinki, bu jamiyatda ham boshqalarda bo'lgan kabi foyda solig'i bazasini haqiqiy holatda shakllantirib soliq hisobotida aks ettirishda muammo mavjuddir. Shu sababli bu jamiyatda ham 2021-yilda 364,31 mln.so'mlik foyda solig'ini qo'shimcha hisoblangan bo'lsa, 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 1750,64 mln so'mlik foyda solig'idan qochganligi aniqlangan, o'z navbatida ushbu jamiyatda yashirilgan soliq summasi (foyda solig'i bo'yicha) oxirgi yillarda keskin oshgan. Biz tomondan taklif etilayotgan yuqori likvidli tovarlar kirim chiqimi bo'yicha “Elektron hisobvara-fakturalar orqali “Shubhali” holatlarni aniqlashning metodologik algoritmi”da soliq to'lovchilar tomonidan shubhali operatsiyalarni amalga oshirishni aniqlashning metodologiyasi keltirilgan. Buning uchun albatta bunday turdagi mahsulotlarning kamida 50 tasi tanlab olish lozim bo'ladi hamda ro'yxatga kiritilgan 50 ta yuqori likvidli tovarlar bo'yicha EHF rasmiylashtirgan korxonalar ajratib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi bosqichda esa, tovarlar nomenklaturasi bo'yicha xarid va sotuvida farq aniqlangan korxonalar ajratib olinish kerak bo'ladi, yakunida kirimi mavjud bo'lmagan tovarlar realizatsiya qilgan korxonalar ro'yxati shakllantirib olinadi. Bundan tashqari, EHF dasturidagi tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodlari ustunidan olinadiki, ularni tahlil qilishda albatta algoritm tuzib olish lozim bo'ladi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари ҳамда “Худудий электр тармоқлари” АЖ молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Elektron hisobvara-q-fakturalar orqali "Shubhali" holatlarni aniqlashning metodologik algoritmi⁶
(Yuqori likvidli tovarlar kirim chiqimi bo'yicha)

№	Mezonlar	Kerakli ma'lumotlar	Ma'lumotlarni olish manbai	Ma'lumotlarni jamlash va qayta ishlash tartibi	Hisoblash algoritmi
1.	Yuqori likvidli tovarlar kirim chiqimi bo'yicha:	x	x	x	x
1.1	Tovarlar nomenklaturasi (MXIK kodlar asosida) bo'yicha guruhlariga ajratiladi; (50 ta yuqori likvidli tovarlar ro'yxati)	1.Tovar MXIK kodlari - (a1,a2,.....a50) 2.Korxonalar - (k1,k2,....kn)	EHF dasturidagi tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodlari ustunidan olinadi	Ro'yxatga kiritilgan 50 ta yuqori likvidli tovarlar bo'yicha EHF rasmiylashtirgan korxonalar ajratib olinadi	a1=k1,k2,.....kn; a2=k1,k2,.....kn; a50=k1,k2,.....kn;
1.2	Tovarlar nomenklaturasi bo'yicha xarid va sotuvda farq aniqlangan korxonalar ajratib olinadi	Ro'yxatga kiritilgan 50 turdagi yuqori likvidli tovarlar xarid va sotuvini amalga oshirgan korxonalar - (k1,k2,....kn)	EHF dasturidagi Buyer_tin va Seller_tin ustunlarida ko'rsatilgan korxonalarga tegishli DELIVERY_SUM ustunidagi summalar jamlanadi.	EHF dasturidagi Buyer_tin va Seller_tin ustunida ko'rsatilgan korxonalarga tegishli DELIVERY_SUM ustunidagi summalar a1,a2,.....a 50 tovarlar bo'yicha alohida jamlanib, o'zaro soltishtiriladi.	a1=Buyer_tin(k1,k2,.....kn) - Seller_tin(k1,k2,.....kn); a2=Buyer_tin(k1,k2,.....kn) - Seller_tin(k1,k2,.....kn); a50=Buyer_tin(k1,k2,.....kn) - Seller_tin(k1,k2,.....kn); Natija "Nol"dan katta bo'lsa xarid qilinib, sotilmasdan turgan tovarlar qiymati, aksincha holatda kirimi mavjud bo'lmasdan sotilgan tovarlar qiymati kelib chiqadi.
1.3	Kirimi mavjud bo'lmagan tovarlar realizatsiya qilgan korxonalar ro'yxati shakllanadi				

⁶ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Bu algoritm shakli va uslubi yuqoridagi jadvalning (3-jadval) oxirgi ustunida keltirib o'tilgan algoritmdan foydalanishni tavsiya etiladi. Bu algoritmning qo'llash natijasida agar, Natija "Nol" dan katta bo'lsa xarid qilinib, sotilmasdan turgan tovarlar qiymati, aksincha holatda kirimi mavjud bo'lmasdan sotilgan tovarlar qiymatini aniqlash imkoni bo'ladi, shunga asoslangan holda yuqori likvidli mahsulotlar bo'yicha shubhali operatsiyalarni aniqlab, ularga tegishli soliq nazoratini qo'llash mumkin bo'ladi.

Bu metodologiya asosida xarid qilingan tovarlar qiymatiga nisbatan kam miqdorda EHFlar rasmiylashtirilishi natijasida shubhali operatsiyalarni aniqlash mumkin. Buning uchun esa, tovarlar xaridi va sotuvi bo'yicha rasmiylashtirilgan EXFlarning umumiy summasini, tovarlar xaridiga nisbatan kam miqdorda sotuvni amalga oshirib, ketma-ket tovarlar xarid qiluvchi korxonalar ro'yxatini hamda tovarlarni naqd pulda sotib, Nizom jamg'armasini shakllantirish maqsadida kirim qilib, tovarlar xarid qiluvchi korxonalar ro'yxati shakllantirib olish lozim bo'ladi. Bunda algoritmni qo'llash natijasida aniqlangan natijada agar, "o" chiqsa unda shubhali soliq to'lovchilar ro'yxati shakllantiriladi va yuqorida ta'kidlanganidek, soliq nazorati tadbirlari amalga oshiriladi. "Elektron hisobvara-q-fakturalar orqali "Shubhali" holatlarni aniqlashning metodologik algoritmi" da yana alohida tahlil qiladigan jihatlardan biri bu bank hisobraqamiga pul mablag'lari kelib tushmasda EHFlar orqali tovarlar realizatsiya qilinishi holatini tahlil qilish va uning natijasida kelib chiqadigan shubhali operatsiyalarni aniqlash jarayonidir. Bunda esa, ikkita korxona o'rtasidan rasmiylashtirilgan yirik miqdordagi EHFlar ajratib olinadi hamda ushbu korxonalar o'rtasida bank hisobraqamlari orqali amalga oshirilgan to'lovlar o'rganiladi. Agar, qnqd pulda sotib yuborilgan tovarlarni yashirish maqsadida bank hisobraqamiga pul mablag'i kelib tushmasdan EHF orqali tovar yetkazib bergan korxonalar ro'yxati shakllantiriladi. Bunda natija sifatida bir mlrd.co'mdan katta bo'lgan korxonalar ro'yxati shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan korxonalar sifatida shakllantirish mumkin bo'ladi.

4. Xulosa.

Eksport tushumlarini xorijiy banklardagi hisoblari orqali amalga oshirish, shuningdek QQS qaytarish bo'yicha xorijiy banklarga kelib tushgan mablag'larni ham hisoblash tizimi joriy etish. Yakka tartibdagi tadbirkorlar (jismoniy shaxslar)ga chet eldan investitsiya kiritish maqsadida xorijiy valyutada yuborilgan mablag'larni soliqdan ozod qilish bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish. Tekshiruvlar o'tkazish bo'yicha yilning ma'lum bir aniq davrini belgilash va bir xo'jalik sub'ektini tekshirish davriyligini belgilash bo'yicha yangi tizim ishlab chiqish. Xo'jalik sub'ekti vakillari tomonidan to'g'ri va sifatli rejalashtirish va samaradorligini amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

Abdullina A.R. (2016) *Predstaviteli kak sub'ekty ukloneniya ot uplaty nalogov s organizatsii // Nauchnaya perspectiva. № 10. S. 37-38,*

Aleksandrova L.I. (2017) *Osnovnye osobennosti i problemy vyuyavleniya ukloneniya ot uplaty nalogov. // Aktualnye problemy pravovogo regulirovaniya. S.2.*

Axmedov F.B. (2023) *Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent.*

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son farmoni.*

Ismailov Bobir Salomovich (2024) *Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda kontragentlarni tekshirish amaliyotini takomillashtirish. 08.00.07– Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 13 b.*

Kottke K. (1998) «Gryaznye» den'gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti «gryaznyh» deneg. M.

Makoveskiy S.A., Zareskaya Ye.A. (2017) Uklonenie ot uplaty nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik instituta ekonomicheskix issledovaniy, № 3(7) 156.

Makoveskiy S.A., Zareskaya Ye.A. (2017) Uklonenie ot uplaty nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik instituta ekonomicheskix issledovaniy, № 3(7) 156.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi <https://lex.uz/docs/4674902>.

Olennikov S.M. (2017) Kvalifikatsiya ukloneniya ot uplaty nalogov po ob'ektivnym priznakam sostava prestupleniya. // Yuridicheskaya otvetstvennost i otvetstvennyye yuristy. №4. S.37-42.

Vachugov I.V. (2019) Uklonenie ot uplaty nalogov, kak sostavlyayuyushaya tenevoy ekonomiki: rost ili sokraushenie? // Nalogi i nalogooblojenie. – № 6. – S. 42.



O'ZBEKISTONDA BILVOSITA SOLIQLAR IQTISODIY MOHIYATI HAMDA HUQUQIY ASOSLARI

Babajanov D.J.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada bilvosita soliqlarni O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida tutgan o'rni, soliq tizimini isloh etish, soliqlar mexanizmini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish shuningdek, soliq sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni ko'rib chiqiladi, ilg'or xalqaro tajribalardan xulosalar olinadi. Unda nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, asosiy e'tibor soliq organlarida siyosat islohotlari, texnologik integratsiya va salohiyatni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Soliq yuki, soliq qonunchiligi, bilvosita soliqlar mexanizmi, soliq imtiyozlari, egri soliqlap, to'g'ri soliqlap, soliq tushumlari, qo'shilgan qiymat solig'i, import, bojxona boji, aksiz solig'i, bojxona to'lovlari, soliqlar va soliqqa tortish, aksizosti mahsulotlar, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti.

Аннотация. В статье рассматривается роль косвенных налогов в налоговой системе Республики Узбекистан, реформирование налоговой системы, дальнейшее совершенствование и повышение эффективности налогового механизма, а также общепризнанные международные нормы и стандарты в области налогообложения, а также общепризнанные международные нормы и стандарты в области налогообложения. делает выводы из передового международного опыта. Он определяет основные направления совершенствования механизмов контроля, основной упор делается на реформирование политики, технологическую интеграцию и наращивание потенциала налоговых органов.

Ключевые слова: Налоговое бремя, налоговое законодательство, механизм косвенных налогов, налоговые льготы, косвенное налогообложение, прямое налогообложение, налоговые поступления, налог на добавленную стоимость, импорт, таможенная пошлина, акциз, таможенные платежи, налоги и налогообложение, подакцизная продукция, практика налогообложение акцизных товаров.

Abstract. The article examines the role of indirect taxes in the tax system of the Republic of Uzbekistan, reforming the tax system, further improving and increasing the efficiency of the tax mechanism, as well as generally recognized international norms and standards in the field of taxation, and draws conclusions from advanced international experiences. . It defines the main directions of improvement of control mechanisms, the main focus is on policy reforms, technological integration and capacity building in tax authorities.

Key words: Tax burden, tax legislation, mechanism of indirect taxes, tax benefits, indirect taxation, direct taxation, tax revenue, value added tax, import, customs duty, excise tax, customs payments, taxes and taxation, excise products, practice of taxation of excise goods.

1. Kirish.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligini haqiqatdan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni bilvosita soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi. Bilvosita soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlabchiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarni bo'lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Bilvosita soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan-to'g'ri ta'siretmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Shu sababli, respublikamizda bilvosita soliqlar solig'ini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish hamda shu asnoda bahsli masalalar yechimini ishlab chiqish bilvosita soliqqa tortish va soliq ma'murchiligining nazariy omillari hamda jahon tajribasini tadqiq etish va tahlil etish nuqtai nazaridan olib qaragandagina maqsadga muvofiqdir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator davlatlarda bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi.

Q.A.Yahyoevning (2003) fikricha, "Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq, to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni xuquqiy to'lovchisi ham, xaqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Busoliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi. Egri soliqlarni xuquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni xaqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan". -deb ta'rif bergan.

A.V.Vahobov, A.Jo'raevlar (2009) soliq nazoratiga to'xtalib, "Soliqqa oid qonunbuzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlarni va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqazo qiladi. Soliqqa oid jinoyatlarning o'sishi davlatning moliyaviy resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buningoqibatida davlat soliqsiz tushumlarni qidirishga majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida davlatning ichki va tashqi qarzlarining o'sishiga olib keladi" deb fikr bildirishgan.

M.M.Shadurskaya (2019) bilvosita soliqlarga to'xtalib, - Bilvosita soliqlar-bu tovarlar va xizmatlar tarifi qo'yilgan qo'shimcha narx ko'rinishidagi soliqdir, deb ta'rif berishgan.

D.E.Giles, L.M Tedds (2002) tomonidan kontrabanda faoliyatini soliq organidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari barcha operatsiyalar deb ta'riflagan. Bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda, ayniqsa bojxona tariflari bo'yicha jinoyatlar bilan bog'liq. Kontrabanda jinoyatlari yembargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi pul va pul bo'lmagan daromadlarga ta'sir qiladi.

O.T.Hai va L.M. See (2011a) tomonidan soliq to'lovlariga qasddan yoki qasddan jalb qilingan kompaniyalar, jismoniy shaxslar ishtirokidagi o'lchovlar bo'yicha duch kelgan qiyinchiliklar tufayli mos kelmaslik bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor soliq to'lovchi sifatida import qiluvchilar o'rtasida aksiz solig'ini bajarmaslik hodisasi va omillariga qaratilgan.

O.R.Tegetaeva (2016) fikricha, "aksiz solig'i egri soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste'molining holati va istiqbolini baholash mezonidir ekanligidir".

M.A.Troyanskaya va Y.O.Nizamievalar (2013) ta'kidlashicha, "bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida aksiz solig'idan iste'molni tartibga soluvchi va ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ularning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etayotir".

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida solig'i ma'muriyatchiligi mavzusi juda kam o'rganilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining bilvosita soliqlarni turlari, bilvosita soliqlarni O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida tutgan o'rni, soliq ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlarni o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Soliq qo'mitasi ma'lumotlarining tahlilida statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiyva tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil va solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Soliq tizimidagi islohotlar tadbirkorlikni rag'batlantirish bilan birga, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, soliq tizimining samaradorligi ortishi natijasida budjetga tushumlar oshadi, bu esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlarni kengaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, soliq yukini kamaytirish orqali iste'molchilar daromadlari ko'payishi va ular tomonidan ko'proq xarajatlar qilinishi mumkin, bu esa ichki iste'molni oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning turli sohalarida o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sababli, soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uzoq muddatda umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ko'plab mamlakatlar tajribasiga ko'ra, soliq tizimidagi islohotlar tadbirkorlik muhiti va investitsiya oqimlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, xalqaro moliya institutlari ham tadbirkorlik va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun soliq islohotlarini qo'llashga chaqirmoqda. Soliqlarni soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonlari esa davlat boshqaruvini optimallashtiradi va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Elektron tizimlarning keng joriy etilishi soliq organlari faoliyatini shaffoflashtirishga, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajarish jarayonini esa soddalashtirishga imkon beradi.

Umuman olganda, soliq tizimini takomillashtirish orqali davlatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, tadbirkorlik muhitini yaxshilashi va davlat budjeti tushumlarini oshirishi mumkin. Soliq islohotlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, soliq siyosatini zamonaviy talablar va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda takomillashtirish davom etmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Evropa Ittifoqi (EI) davlatlarida QQS tizimi samarali ishlasa-da, QQSning salbiy farqi qaytarilish jarayoni ko'plab bizneslar uchun murakkabliklar tug'dirishi mumkin. Germaniya iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilgan bo'lgani sababli, QQS bo'yicha qaytarilish miqdori juda yuqori. Har yili milliardlab yevro QQS ortiqchasi bizneslarga qaytariladi. Germaniyada soliq idoralari QQS qaytarish bo'yicha yaxshi infratuzilmaga ega bo'lishiga qaramay, ba'zi hollarda murakkab audit jarayonlari bu qaytarishlarni cho'zib yuborishi mumkin. Italiya va Ispaniya davlatlarida QQSning salbiy farqi qaytarilishi nisbatan sekin amalga oshiriladi. Bu davlatlarda soliq to'lovchilar QQSni qaytarishda uzoq vaqt mobaynida kutishlari mumkin, bu esa bizneslarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Ispaniyada o'rtacha QQS qaytarish muddati 12 oygacha cho'zilishi mumkin.

Dunyo bo'ylab QQSning salbiy farqi summasini qaytarish bo'yicha jarayonlar har xil davlatlarda turlicha kechadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli texnologiyalar yordamida

qaytarish jarayoni soddalashtirilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda byurokratik murakkabliklar va infratuzilmaning yetishmasligi kechikishlarga sabab bo'ladi. Jahon bo'yicha QQS salbiy farqining qoplab berilishi ko'pincha uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu ko'plab korxonalar uchun moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ko'plab davlatlar raqamli islohotlarni amalga oshirishga intilib, qaytarish jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish yo'lida ishlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) jahon miqyosida zamonaviy soliq tizimlarining asosiy bo'lagi sifatida hukumatlar uchun muhim daromad manbai sanaladi va shu bilan birga iqtisodiy qarorlarga ta'sir ko'rsatadi. Uni turli davlatlarda joriy qilish va rivojlantirishga ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillar, siyosiy sabablar va xalqaro tendensiyalar ta'sir qiladi. O'zbekiston misolida, QQSning kiritilishi mamlakat moliyaviy tarixi uchun muhim bosqich bo'lib, u umumiy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotimiz O'zbekistonda QQSning paydo bo'lishi, uning amalga oshirilishi va muammolari, shuningdek, keyingi islohotlarni o'rganishga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida QQS joriy etilish jarayonini tahlil qilish orqali bu tadqiqot uning iqtisodiyotga ko'rsatgan ta'siri, daromadlarni shakllantirishdagi samaradorligi va soliq-budjet siyosatini yaratishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimi rivojlanishiga ham ichki islohotlar, ham xalqaro tajribalar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu holat uning fiskal siyosatidagi barqaror o'sishni ko'rsatib beradi. Mamlakatda QQS tizimining shakllanishi va uning samaradorligi global omillar va soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan mahalliy o'zgarishlar natijasida yuzaga keldi. Yevropa davlatlari bilan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, QQS stavkalari nisbatan past bo'lsa-da, O'zbekistonda iqtisodiy yukni yengillashtirishga qaratilgan samarali islohotlarga erishilgan. O'zbekiston QQS tizimi boshqa davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini qabul qilib, soliq yig'ish jarayonidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va yanada adolatli hamda barqaror soliq tizimiga o'tish yo'lida o'zgargan. O'zbekistonning QQS siyosati, asosan, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida xalqaro amaliyotlar ta'sirida amalga oshirilgan islohotlar orqali shakllandi. Iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tizimini yaxshilash borasida soliq stavkalarining ayrim o'ziga xosliklarini ta'kidlaydilar. Birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar nafaqat davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, balki iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirishda qo'shilgan qiymat solig'i muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror o'sishga olib chiqish uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi, chunki bu soliq davlat budjeti daromadlarining taxminan 50 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) Yevropada eng muhim bilvosita soliq turlaridan biri sifatida tan olingan. Barcha Yevropa Ittifoqi a'zolari ushbu soliqni joriy qilgan va bu uning majburiy qoidalariga kiritilgan. Shu bilan birga, Yevropaga qo'shilishni xohlagan yangi a'zolar uchun QQS tizimini joriy qilish Yevropa Ittifoqiga qo'shilishning muhim sharti hisoblanadi. QQSning bunday keng tarqalganligi bir necha sabablarga ko'ra asoslanadi. Avvalo, QQSning eng katta ustunliklaridan biri – bu soliq mahsulot yoki xizmat narxiga ishlab chiqarish

va tarqatishning har bir bosqichida qo'shiladi va natijada mahsulotning aniq soliq to'lash qismi aniq ko'rsatiladi. Bu esa soliqlarni takroran to'lash muammosini oldini oladi va har bir bosqichda tushum aniq hisoblanadi. Buning orqali birinchidan, soliqning samaradorligi oshiriladi va ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchilar uchun soliq yuklamasi moslashtiriladi. Bu soliq tizimi ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan mol-mulk yoki xizmatlardan soliq undirib olish imkonini beradi, bu esa qayta-qayta soliq to'lash holatlarini bartaraf etadi. Ikkinchidan, QQSning yana bir muhim afzalligi – bu uning eksport va import soliqlariga ta'siri. Eksport operatsiyalarida mahsulot va xizmatlar QQSdan ozod qilinadi, bu esa milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshiradi. Import esa QQS bilan soliq bilan birga to'lanadi, bu esa ichki bozorni himoya qiladi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik beradi. Bu amaliyot Yevropa Ittifoqi doirasidagi ichki fiskal chegaralarni bekor qilishga va Yevropa bozorida teng raqobat muhitini ta'minlashga yordam beradi. Shu orqali a'zolar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanadi va umumiy bozorning barqarorligi ta'minlanadi.

Yevropa Ittifoqi uchun QQSni keng joriy qilish nafaqat iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirishga qaratilgan, balki a'zolar o'rtasidagi savdo jarayonlarini soddalashtirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. QQS ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida aniq taqsimlangan bo'lib, har bir bosqichda aniq hisoblanadigan va muvozanatlangan to'lovni taqozo etadi, bu esa ichki bozorning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim mexanizmlardan biridir. Shuningdek, yangi a'zolar uchun QQSning majburiy joriy qilinishi Yevropa Ittifoqi doirasidagi iqtisodiy va soliq siyosatining yagona qoidalariga rioya qilishni ta'minlaydi. Bu Yevropa Ittifoqi doirasida soliq tizimlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi, natijada ittifoq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yanada samarali bo'ladi. Bunday yondashuv Yevropa bozoridagi teng sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilarga ham, iste'molchilarga ham foyda keltiradi. Ta'kidlash mumkinki, QQSning majburiy joriy qilinishi Yevropa Ittifoqi uchun umumiy soliq siyosatini yagona qoidalar asosida boshqarish va a'zolar o'rtasida soliq yuklamalarini teng taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Shu orqali bozordagi samaradorlik va barqarorlik yanada mustahkamlanadi.

Bilvosita soliqlar ko'p yillik tarixga ega. Temuriylar saltanati davrida g'aznani to'g'ri soliqlar, jumladan yer solig'i (xiroj), jon solig'i (juzya), salt xayvonlar yetkazib berish majburiyati (uloq) va ba'zi bir favqulotda soliqlar (ovorizot) kabi asosiy soliqlar hisoblanar edi. Temuriylar davrida bevosita soliqlar sifatida "tamg'a" yig'imi keng tarqalgan, bu yig'im asosan hunarmand va savdogarlardan olinar edi.

Tarixan, aksiz solig'i iste'molga emas, balki ishlab chiqarishga solinadigan soliq hisoblangan, yani ishlab chiqarish joyining o'zida ishlab chiqaruvchilardan undirilgan. Aksiz solig'i mahsulot birligiga qat'iy belgilangan summada yoki tovar qiymatiga nisbatan foizda belgilanishi soliqning ma'muriy afzalligini yanada to'ldiradi. Bundan tashqari, aksiz solig'i, ayniqsa ma'muriy xarajatlar birligiga nisbatan hisob-kitob qilinganda, agar aksiz osti tovarlari guruhi puxta o'ylanib, cheklangan tovarlar guruhini o'z ichiga olsa, yuqori daromad keltirishi mumkin.

Aksiz solig'ining boshqa iste'mol soliqlari va majburiy to'lovlaridan asosiy farqi: birinchidan, ularning amal qilish doirasining o'ziga xosligi — aniq bir tovar (xizmat) yoki tovarlar (xizmatlar) guruhi iste'moliga qo'llanilishi, ikkinchidan, ekvivalentsizdir. Birinchi xususiyat aksiz solig'ini keng qamrovli soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan iste'mol soliqlari — qo'shilgan qiymat solig'i yoki sotuvga solinadigan soliqdan farqlasa, ikkinchi xususiyat — jamoatchilik tovarlari va xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan turli to'lovlar va yig'imlardan ajratadi.

Bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqqan holda aksiz solig'ini asosiy uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin: birinchi guruhga, an'anaviy aksiz solig'i (alkogol ichimliklari va tamaki mahsulotlariga) kiradi. Mazkur guruhdagi aksiz solig'ini undirilishidan asosan ikkita maqsad ko'zlanadi: ijtimoiy zarar mahsulotlar iste'molini cheklash hamda fiskal, ikkinchi guruhga, neft

va neft mahsulotlariga solinadigan aksizlar kiradi, uchinchi guruh hasham buyumlarga solinadigan aksiz solig'ini o'z ichiga olib, odatda aniq yo'naltirilgan fiskal maqsadni ko'zlamaydi. Bunday guruhdagi aksiz solig'i aksariyat hollarda qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi, chunki mazkur buyumlar iste'molchisi aholining boy qatlami hisoblanadi. Bundan tashqari, quyidagi boshqa maqsadlarni ham aytish joiz, masalan, kapital sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish mahsulotlariga ayrim davlatlarda hasham buyumlar sirasiga mansub tovarlar (avtomobillar, qimmatbaho elektronika mahsulotlari va h.k.)ga aksiz solig'ini solish orqali mehnat sig'imi yuqori bo'lgan sohalarni rag'batlantirish, import tovarlariga solinadigan bojxona bojlariga qo'shimcha ravishda aksiz solig'ini joriy etish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish yoki tashqi savdo balansini yaxshilash mumkin. O'tish davri iqtisodiyoti oqilona yo'lga qo'yilgan soliqlar tortishning aksizli tizimi orqali ijobiy natijalarga erishishi mumkin, chunki aksiz solig'i orqali o'tish davrining dastlabki bosqichlarida solikli tushumlarning sezilarli darajadagi salmog'ini shakllantirish mumkin.

Aksiz solig'i egri soliq bo'lganligi sababli uning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali harakterlanadi. Shu bois, aksiz solig'i o'ziga xos fiskal iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi lozimdir.

Aksiz solig'i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umum soliq siyosatida muhim o'rin egallaydi. Aksiz solig'i korxona mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki ta'rifiga ustama shaklda to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi hisoblanadi. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati budjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig'i ob'ektlari (aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi.

Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan bilvosita soliqdir. Uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan keyinchalik kiritilgan va respublika iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq o'zgarish va qo'shimchalarni hisobga olgan holda ilk marotaba 1992-yilda joriy etilgan edi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan aksiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida budjetga undiriladigan, narxda va qo'shilgan qiymat solig'i bazasida hisobga olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'i bilan ma'lum bir o'xshashliklarga ega, lekin o'zining alohidalik, aniq tovarlar bilan bog'liqlik darajasi bilan ajralib turadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutloq summada (qat'iy), shuningdek advalor va qat'iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada belgilanadi. Aksiz solig'ining stavkalari mutloq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Ish xaki hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Bizga ma'lumki, respublikamizda aksiz solig'i ikkita yo'nalishda, ya'ni respublikamizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aksiz osti tovarlaridan hamda

respublikamiz hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan import qilinayotgan tovarlaridan undirilmokda. Mamlakatimizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aksiz osti tovarlaridan aksiz solig'ini undirish Jahon mamlakatlarining ko'pchiligida aksiz solig'i zararli odatlardan voz kechishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanib, bu hayot sifatini va davomiyligini yaxshilaydi. Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, AQShda aksiz soliqlari Federal ahamiyatga ega bo'lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog'inisbatan kichik. Aksiz solig'itamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig'ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari bilvosita soliqlarning tarkibida salmog'iga ko'ra qo'shilganqiymat solig'idan keyingi o'rinni egallaydi. Aksiz solig'i yoqilg'i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oralikda tebranadi.

Germaniyada aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning asosiy qismi Federal budjetga o'tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'i bo'yicha tushumlar federal budjetga kelib tushmaydi. Aksiz solig'ining stavkalari tovarlarning noto'g'ri birligiga nisbatan foizlarda va "evro"da belgilangan. Masalan, sug'urta bitimlari bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi sug'urta polisi summasining 12 foiz miqdorida belgilangan. Shampän vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0,75 litr uchun 2 evroni tashkil kiladi.

Masalan, Rossiya davlatida aksiz solig'i ma'muriyatini takomillashtirish soliqlarni samarali yig'ish va ularga rioya qilishni ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar va muammolarga duch keladi. Aksiz solig'ini ma'muriyatchiligining asosiy muammolaridan biri soliq to'lashdan bo'yin tovlash va aksiz to'lanadigan tovarlar kontrabandasiga qarshi kurashdir.

Bu hukumatning daromadlarini sezilarli darajada yo'qotishiga olib keladi va talablarga javob beradigan korxonalar uchun notekis o'yin maydonini yaratadi. Rossiyada aksiz solig'i to'g'risidagi qonunlar murakkab bo'lishi mumkin va tez-tez o'zgarib turadi, bu esa korxonalar uchun rioya qilishni qiyinlashtiradi. Soliq qonunchiligini soddalashtirish va aniqlashtirish qonunchilikka rioya qilishni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, aksiz solig'i bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarning samarali bajarilishini ta'minlash soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Rossiya davlati o'zining aksiz solig'i ma'muriyatini kuchaytirishi va adolatli va adolatli soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlagan holda daromadlarni yig'ishni kuchaytirishi mumkin.

Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, AQShda aksiz soliqlari Federal ahamiyatga ega bo'lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog'i nisbatan kichik. Aksiz solig'i tamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig'ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari bilvosita soliqlarning tarkibida salmog'iga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'idan keyingi o'rinni egallaydi. Aksiz solig'i yoqilg'i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oralikda tebranadi.

Qozog'istonda esa aksiz solig'iga faqatgina respublika hududida ishlab chiqarilgan tovarlar emas, balki import tovarlari va o'yin biznesi tortiladi. Aksizosti tovarlar ro'yxati ichki ishlab chiqaruvchilarga ham, import qilinayotgan tovarlarga ham yagona bo'lib hisoblanadi. Tovarlar uchun aniq stavkalar hukumat tomonidan tasdiqlanadi.

Universal aksiz aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ayniqsa og'irlik qiladi. Barcha iste'mol tovarlarining oborot soligiga tortilishi, narxlarning umumiy o'sishiga sabab bo'ladi va aholi turmush darajasining keskin yomonlashuviga olib keladi. Aksizlar — asosan ommaviy iste'mol tovarlari (xizmat ko'rsatish)ning narxi yoki tarifiga kiritiladigan bilvosita soliqlar turidir. Aksizlarning to'lovchilari — tovarlarga yoki xizmat ko'rsatilishiga haq to'layotgan iste'molchilardir. Aksizlar harid qiluvchilar real daromadlarining qisqarishiga olib

keladi va aksiz solig'i solinishi regressiv xarakterga egadir. To'zga va boshqa ommaviy iste'mol buyumlariga solinadigan aksiz soliqlari hatto qadimiy Rimda ham mavjud bo'lgan. Tovar — pul munosabatlari rivojlanishi bilan soliqqa tortishning aksiz shakli ko'proq qo'llanila bordi. Soliqqa tortishning turli usullari: aksizga tortiladigan tovarlar xomashyosi yetishtiriladigan yer, so'ngra xom ashyo, keyinroq yarim tayyor mahsulotlar va, nihoyat, soliq solishning asosiy ob'ekti bo'lgan tayyor mahsulotlarga nisbatan qo'llanilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan soliqlardan tashqari Yevropa Iqtisodiy Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda juda ko'p boshqa turdagi soliqlar mavjud. Odatda, bu soliqlar yagona tizim doirasida ko'rib chiqilishi qiyin. Ular o'ziga xos ravishda shakllangan va davlatlarning o'zok tarixiy rivojlanishida turli ta'sirga uchragan. Masalan, GFRda bu oborot kapitaliga solinadigan soliqlar (ustav kapitalining 1% asosida firma tashkil qilinadi va 2,5% kapitalda qatnashish usuliga ega bo'lganda), hunarmandchilik solig'i (ishlab chiqarish fondining 5% daromadi va 0,2% qiymatidan), mol-mulkdan olinadigan soliq (0,5—0,6%), yer solig'i, transport vositalariga solinadigan soliqlarni tashkil etadi. Fransnyada bo'lar kapitalni oshirishga solinadigan soliq, (yoki ro'yxatga oid yig'im — 1%), kasbiy korxona egasiga taallukli soliq va boshqalardan iboratdir. YeIHa'zolari bo'lgan mamlakatlarning soliq, tizimlari turli imtiyozlar sonining ko'pligi bilan ham ancha murakkabdir.

Yuqorida keltirilgan konkret misollardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning ichki va tashki siyosatini muvofiklashtirish maqsadida soliq tizimlarini, byudjet jarayonlarini, davlat xarajatlarini, nazorat tizimini muvofiklashtirish zarur. Bunday kelishuv ayniqsa, soliqlar sohasi bo'yicha juda zarur. Aynan shu yo'lni Yevropa Iqtisodiy hamdo'stliga mamlakatlari bosib utmokdalar. Shu bilan birga, hozirgi kunda MDH davlatlarning har birida bir-biri bilan kelishiladigan o'ziga xos soliq qonunchiligi ishlamokda. Bunday o'zaro kelishilmagan moliyaviy siyosat hozirgi kundayoq, aynan bir mahsulotga turli narxlar qo'llanishi, turli soliqlar va stavkalar mavjudligi sababli o'zaro hisob-kitoblarda o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Bu kabi tafovutlar shunga olib keladiki, aynan o'sha bir mahsulot uchun ayrim davlatlar ortiqcha pul to'lasa, boshqalari ularga nisbatan kam pul to'laydilar, ya'ni MDXdagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda narxlar tengligi bo'ziladi.

5. Xulosa.

Amaldagi qonunchilikda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlar miqdori hududlardan kelib chiqib bir oyda:

- chakana sotish huquqi uchun 1,2 mln.so'mdan 300 ming so'mgacha;
- umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan realizatsiya qilish uchun 600 ming so'mdan 150 ming so'mgacha belgilangan. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlarning amaldagi miqdorini saqlab qolish.

Soliq organlariga alkogol mahsulotlarini chakana savdosini amalga oshirish va umumiy ovqatlanish korxonalarida qo'lbola tayyorlangan, aksiz markasiz yoki qalbaki aksiz markali, markirovkalanmagan va soliq bazasini yashirganlik uchun sotish huquqini o'n kun muddatga to'xtatib turish vakolatini berish va kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng qayta faoliyat yuritishga ruxsat berish. Inson sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida, alkogol mahsulotlarini chakana savdosini amalga oshirish va umumiy ovqatlanish korxonalarida ularning faoliyatini qat'iy tartibga solish taklif etilmoqda.

Misol uchun: Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanida qo'lbola tayyorlangan alkogol mahsulotlari iste'moli (chakana savdosi va umumiy ovqatlanish korxonalarida sotilgan) natijasida 7 nafar fuqaro zaharlangan, shundan 4 nafari vafot etgan.

Amaldagi qonunchilikda qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) to'g'risidagi ariza tushgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan, tezlashtirilgan tartibda esa yetti kundan kechiktirmay qaytarilishi belgilangan. QQS manfiy summalarini byudjetdan qoplab berish eksporter, investor va diplomatik vakolatxonalar murojaati bo'yicha har oyda va qolgan

xo'jalik sub'ektlari bo'yicha 90 kun ichida qoplab berish amaliyotini joriy etish taklif etilmoqda. QQSning salbiy farq summasi nol stavka qo'llanilishi natijasida hosil bo'lishidan tashqari boshqa hollarda keyinchalik tovar(xizmat)lar realizatsiya qilinganda byudjetga qayta to'lanishi lozim hisoblanadi.

Boshqa hollarda arizani 90 kun muddatda ko'rib chiqish soliq to'lovchilar tomonidan byudjetdan asossiz QQS qaytarib olish holatlarini oldini oladi.

Joriy yilning 9 oy davomida QQS summasini qoplash yuzasidan kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda nol stavkadan tashqari 176,9 mlrd.so'm salbiy farq summasi qoplangan 135 ta korxona tomonidan QQS summasi qoplangandan keyin hisoblangan 87,2 mlrd.so'm QQS summasi byudjetga to'lanmagan.

Misol uchun: "P-W" MCHJga import tovarlar qoldig'i hisobidan 26 may kuni 3,7 mlrd.so'm QQS qoplab berilgan, jamiyat tomonidan import qilingan tovarlar iyul-avgust oylarida realizatsiya qilingan bo'lsada hisoblangan 3,1 mlrd.so'm QQS bugungi kunga qadar byudjetga to'lanmagan.

Xorijiy mamlakatlarda QQS qaytarish muddatlari Qozog'istonda 55–75 kun, Xitoyda 60–90 kun va Rossiyada 60 kunni tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

Borovko L.V. *Formirovanie sotsialno-orientirovannoy modeli aksiznogo nalogooblojeniya i effektivnost yeyo razvitiya. // Problemy ekonomiki i yuridicheskoy praktiki*, 2012, № 6, s. 71-75.

Delipalla, S. (2009). *Commodity tax structure and informal activity. Bulletin of Economic Research*, 61(3), 283-294.

Djamalov X.N., Urazmetov J.M. *Zadachi analiza finansovo-xozyaystvenno-sifrovoy deyatelnosti v novoy sisteme finansovogo menedjmenta. // Iqtisodiyot va ta'lim*, 2021. № 3, s. 96-103.

Giles, D. E., Tedds, L. M., & Werkneh, G. (2002). *The Canadian underground and measured economies: Granger causality results. Applied Economics*, 34(18), 2347-2352.

Hai, O. T., & See, L. M. (2011a). *Behavioral intention of tax non-compliance among sole-proprietors in Malaysia. International Journal of Business and Social Science*, 2(6), 142-152.

Kodeks (2020) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi*- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi. - 640 b.

Tegetaeva O.R. (2016) *K problemam reformy aksiznogo nalogooblojeniya. // Nalogovyy menedjment*. № 6. S. 23-27.

Troyanskaya M.A., Nizamieva Yu.O. (2013) *Sovershenstvovanie aksiznogo nalogooblojeniya kak instrumenta nalogovogo regulirovaniya. // Biznes v zakone*, № 8, s. 121.

Б.А.Норматов. *Ўзбекистон Республикасида солиқ текширувларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати*. 2020 йил.

Ваҳобов А.В., Жўраев А.С. (2009) *Солиқлар ва солиққа тортиш*.–Тошкент: Шарқ, -309-бет.

Шадурская М.М., Смородина Е.А., Бакунова Т.В. (2019) *Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. Екатеринбург: 207 стр.*

Яхёев Қ.А. (2003) *Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти*–Тошкент: Фан ва технологиялар маркази, 40-бет.



О'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA UY XO'JALIKLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH BO'YICHA IQTISODIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH ALGORITMI

Berdiyev G'.I.

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida uy xo'jaliklari sektorini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir algoritmik yondashuv ishlab chiqilgan. Tadqiqotda sektordagi holatni tahlil qilish, asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali diagnostika olib borish, hamda ko'p omilli regressiya asosida ta'sir etuvchi determinantlarni aniqlash orqali samarali davlat siyosatini shakllantirish yo'nalishlari ilgari surilgan. Empirik tahlil jarayonida uy xo'jaliklarining daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – inflyatsion kutilmalar, iste'mol narxlari indeksi, ishsizlik darajasi va boshqa statistik ko'rsatkichlar asosida regresion model tuzilgan. Tadqiqot natijalari asosida uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlovchi soliq, kredit, infratuzilmaviy va institutsional mexanizmlarni o'z ichiga oluvchi besh bosqichli algoritmik model ishlab chiqilgan. Ushbu model sektorni tizimli tahlil qilish, davlat siyosatini qayta ko'rib chiqish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: uy xo'jaliklari, davlat tartibga solishi, mehnat migratsiyasi, uyda ishlash, regressiya tahlili, oilaviy tadbirkorlik, iqtisodiy algoritm, iqtisodiy faollik.

Аннотация. В статье разработан алгоритмический подход к совершенствованию экономических механизмов государственного регулирования сектора домашних хозяйств в экономике Узбекистана. В исследовании предложены направления формирования эффективной государственной политики путем анализа ситуации в секторе, проведения диагностики по ключевым экономическим и социальным показателям, выявления влияющих детерминант на основе многофакторной регрессии. В процессе эмпирического анализа была построена регрессионная модель на основе факторов, влияющих на доходы домохозяйств – инфляционных ожиданий, индекса потребительских цен, уровня безработицы и других статистических показателей. На основе результатов исследования была разработана пятиэтапная алгоритмическая модель, включающая налоговые, кредитные, инфраструктурные и институциональные механизмы поддержки домохозяйств. Эта модель позволяет проводить систематический анализ сектора, обзор государственной политики и эффективное использование ресурсов.

Ключевые слова: домохозяйства, государственное регулирование, трудовая миграция, работа на дому, регрессионный анализ, семейное предпринимательство, экономический алгоритм, экономическая активность.

Abstract. The article develops an algorithmic approach to improving the economic mechanisms of state regulation of the household sector in the economy of Uzbekistan. The study puts forward directions for the formation of effective state policy by analyzing the situation in the

sector, conducting diagnostics through key economic and social indicators, and identifying influencing determinants based on multifactor regression. In the process of empirical analysis, a regression model was constructed based on factors affecting household income - inflation expectations, consumer price index, unemployment rate and other statistical indicators. Based on the results of the study, a five-stage algorithmic model was developed, which includes tax, credit, infrastructural and institutional mechanisms supporting households. This model allows for a systematic analysis of the sector, revision of state policy and ensuring the efficient use of resources.

Keywords: households, state regulation, labor migration, working from home, regression analysis, family entrepreneurship, economic algorithm, economic activity.

1. Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda uy xo'jaliklari sektori nafaqat iste'molchi, balki ishlab chiqaruvchi va jamg'aruvchi subyekt sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida bu sektorni faollashtirish, tartibga solish va davlat siyosatining integral qismina aylantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyati ortadi. O'zbekiston sharoitida uy xo'jaliklari ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarayotganiga qaramay, ularning iqtisodiyotdagi ishtiroki ko'p hollarda statistik va institutsional jihatdan yetarlicha aks ettirilmagan.

So'nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar fonida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, uy sharoitida mehnat faoliyatini rag'batlantirish, notekis daromadlar muvozanatini ta'minlash, mehnat migratsiyasining iqtisodiy oqibatlarini yumshatish kabi dolzarb masalalar davlat siyosatining muhim yo'nalishlariga aylangan. Shu bilan birga, uy xo'jaliklarining daromadlariga ta'sir etuvchi omillar kompleks va ko'p qatlamli bo'lib, ularga turli iqtisodiy, demografik va hududiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda (Avdeeva va boshq., 2018; Быстров & Побежимова, 2014).

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklari sektorini samarali tartibga solish uchun davlat tomonidan yagona yondashuv emas, balki algoritmik asosda qurilgan, bosqichma-bosqich kechuvchi va omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga oluvchi tizimlar ishlab chiqiladi (Lusardi & Mitchell, 2014; Guiso et al., 2002). Bunda regression tahlil, sektorlararo bog'liqlik, mehnat bozori muvozanati va hududiy farqlar asosiy tahliliy vositalar sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda ayrim chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud davlat tartibga solish mexanizmlari ko'proq byudjetga yo'naltirilgan, markazlashgan va vertikal xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish, ularni davlat siyosati markaziga qo'yish va zamonaviy tahliliy yondashuvlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarurati mavjud.

Ushbu maqolaning maqsadi – uy xo'jaliklari sektorining holatini iqtisodiy indikatorlar asosida tahlil qilish, ko'p omilli regressiya asosida determinant omillarni aniqlash va algoritmik tartibga solish modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari uy xo'jaliklari sektorini kompleks baholashga, davlat siyosatini optimallashtirishga va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy tizimdagi o'rni va unga nisbatan davlat siyosatini takomillashtirish masalasi global iqtisodiy adabiyotlarda alohida e'tibor markaziga aylangan. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi davrda aholi daromadlarining o'zgarishi, mehnat bozori transformatsiyasi, masofaviy ish shakllari va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samarasizligi fonida uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligi va barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy izlanishlar faollashgan.

Abate va boshqalar (2020) ta'kidlaganidek, pandemiya sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo'jaliklari daromadlari keskin pasaygan, norasmiy bandlik kuchaygan, davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlov mexanizmlariga bo'lgan ehtiyoj esa ortgan. Bunday sharoitda markazlashtirilmagan, moslashuvchan va ijtimoiy-adolatli tartibga solish yondashuvlari dolzarb hisoblanadi.

Yana bir muhim yondashuv — Gentilini va boshqalar (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "Dynamic Social Protection" modeli bo'lib, u uy xo'jaliklariga mo'ljallangan yordam choralari real vaqtda moslashtirishni, algoritmik tahlil asosida ehtiyoj darajasini aniqlashni taklif etadi. Ushbu yondashuv davlat siyosatini maqsadli, samarali va iqtisodiy jihatdan asosli tashkil qilish imkonini beradi.

Fernández va Ortiz-Juarez (2021) esa, aholi turmush darajasini tartibga solishda davlat va bozor mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi haqida so'z yuritib, uy xo'jaliklari sektorini iqtisodiy siyosatning asosiy obyektiga aylantirish zarurligini asoslaydi. Ular fikricha, aholining segmentlari kesimida farqlangan yondashuv siyosiy qarorlarning samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy inklyuziya va uy xo'jaliklarining rasmiy moliyaviy sektor bilan aloqadorligi bo'yicha World Bank (2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar va mikrofinans infratuzilmasi kengaygani holda, real sektor bilan bog'lanish sust rivojlanmoqda. Bu esa jamg'armalarni investitsiyalash, daromadlarni oshirish va barqaror mehnat shakllarini rag'batlantirishda cheklov bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston bo'yicha esa Mahmudova va boshqalar (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mehnat resurslarini hududlar bo'yicha muvofiqlashtirish va davlat qo'llovi vositalarini differensiallashgan tarzda qo'llash bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Ularning fikricha, mavjud davlat dasturlari uy xo'jaliklarining real iqtisodiy salohiyatini to'liq safarbar etishga hali imkon bermayapti.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ilmiy adabiyotlar uy xo'jaliklari sektorini iqtisodiyotning mustaqil va strategik bo'g'ini sifatida ko'radi. Uni samarali tartibga solish uchun statistik monitoring, differensiallashtirilgan yondashuv, algoritmik modellash va real vaqt rejimidagi iqtisodiy tahlillar zarur deb topiladi. Aynan shu tamoyillar tadqiqotda ilgari surilgan algoritmik modelning nazariy asosini tashkil etadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini tahlil qilish, unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy algoritmik modelini ishlab chiqish maqsadiga xizmat qiladi. Tadqiqotda tizimli, kompleks va empirik yondashuv asosida ishlangan bo'lib, sifatli va miqdoriy tahlil uslublari uyg'unlashtirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan uy xo'jaliklari sektori tanlab olindi. Predmet esa ushbu sektorni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlaridir. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Jahon banki, ILO (Mehnat tashkiloti), UNDP hamda so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va ilmiy-tadqiqot ishlari asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: deskriptiv (tasviriy) tahlil — uy xo'jaliklarining daromad manbalari, xarajat tuzilmasi, bandlik shakllari va iqtisodiy faolligi bo'yicha mavjud holat baholandi; komparativ tahlil — O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi solishtirilib, uy xo'jaliklarini tartibga solish bo'yicha xalqaro yondashuvlar tahlil qilindi; regressiya tahlili — uy xo'jaliklarining real daromadiga ta'sir etuvchi omillar (inflyatsiya, ishsizlik, migratsiya, narxlar indeksi va b.) aniqlanib, ko'p omilli regressiya modeli orqali baholandi; model yaratish yondashuvi — tadqiqot asosida algoritmik qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi 5 bosqichli boshqaruv modeli ishlab chiqildi.

Statistik tahlil Microsoft Excel va SPSS dasturlarida amalga oshirildi. Regressiya tahlili uchun 2019–2023 yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Model sifatida quyidagi ko'rinishdagi ko'p omilli regressiya tenglamasi qo'llandi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda:

Y – uy xo'jaligi daromadi (asosiy natijaviy o'zgaruvchi),

$X_1, X_2, \dots, X_n$ – ta'sir etuvchi omillar (ishsizlik darajasi, inflyatsiya, migratsiya, kredit resurslari mavjudligi va h.k.),

ε – tasodifiy xatolik.

Nazariy asos sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi:

- Dynamic Social Protection Framework (Gentilini et al., 2022) – uy xo'jaliklariga ijtimoiy-iqtisodiy yordam choralari moslashtirishga qaratilgan model.

- Precautionary Saving Theory (Carroll, 1997) – daromadlardagi noaniqlik sharoitida ehtiyotkorlik asosida qaror qabul qilish nazariyasi.

- Segmentatsiya yondashuvi – uy xo'jaliklarini turmush darajasi, bandlik shakli va faoliyat turiga ko'ra guruhlash va mos siyosiy choralarni aniqlash.

Tadqiqotda, shuningdek, “mehnat migratsiyasi – daromadlar – sarmoya” zanjirli tahlil asosida migratsiyaning uy xo'jaliklari iqtisodiy salohiyatiga ta'siri empirik tarzda aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida davlat siyosatini algoritmik asosda qayta tuzishga xizmat qiluvchi gibril yondashuv ishlab chiqilgan.

4. Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida uy xo'jaliklar sektorini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish algoritmi — bu bosqichma-bosqich yondashuv bo'lib, u sektorning joriy holatini kompleks tahlil qilish, uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash, tegishli davlat qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish va joriy etish hamda amalga oshirilayotgan tadbirlarni doimiy monitoring qilish va zarur hollarda tuzatish imkonini beradi. Ilmiy nuqtai nazardan ushbu algoritm quyidagi tarzda tuziladi (1- rasmga qarang).

Birinci bosqichda uy xo'jaliklar sektorining holati batafsil diagnostika qilinadi. Bu jarayonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad, iste'mol narxlari indeksi, iqtisodiy faol aholining soni, aholining inflyatsion kutishlari kabi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'iladi va tizimlashtiriladi. Tahlil doirasida ko'p omilli regressiya usuli qo'llanilib, har bir omilning uy xo'jaliklar umumiy daromadiga ta'siri baholanadi, bu esa keyingi tahlil uchun empirik asosni shakllantiradi. Korrelatsion tahlilni o'tkazish va regressiya modelini qurish indikatorlar o'rtasidagi kuchli va zaif bog'liqliklarni aniqlash imkonini beradi, bu esa keyingi bosqichlar uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Alohida e'tibor uyda ishlash omiliga qaratiladi — bu O'zbekistonda tobora kengayib borayotgan tendensiyadir va u ham ish beruvchilar, ham xodimlar uchun bir qator afzalliklarga ega. Ish beruvchilar uchun uyda ishlash xarajatlarni kamaytirish, unumdorlikni oshirish va malakali mutaxassislar doirasini kengaytirish imkonini beradi. Xodimlar esa moslashuvchanlik, qulaylik va ish bilan oilaviy majburiyatlar o'rtasida muvozanatni saqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.



1-rasm. Davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish algoritmi

Manba: muallif ishlanmasi.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonda so'nggi yillarda uy mehnati hisobidan yaratilgan ish o'rinlari soni keltirilgan (1-jadval). Ko'rinib turibdiki, uyda ishlash asosida yaratilgan ish o'rinlari soni barqaror ravishda oshib bormoqda va yaqin kelajakda bu yo'nalishda yanada ko'proq ish o'rinlari yaratilishi uchun real salohiyat mavjud.

1-jadval

O'zbekistonda uy mehnati asosidagi bandlik statistikasi

Ko'rsatkich	Miqdor (kishi)
Uyda ishlayotgan ta'tildagi avollar	500 000
Uy mehnati (2019-yil, sanoat tarmoqlari kesimida)	274 200
Uy mehnati (2019-yil, qishloq hududlarida)	1 000 000
2022-yil uchun prognoz qilingan uy mehnati o'rinlari	280 000

Manba: statistika agentligi ma'lumotlari.

Uyda ishlashning afzalliklari:

A. Bola parvarishi ta'tilida bo'lgan ayollar uchun bandlik imkoniyatlarini yaratadi.

B. Qishloq hududlarida ish o'rinlari yaratadi.

V. Moslashuvchan tarzda amalga oshiriladi, bu ota-onalar va tarbiyachilar uchun qulaylik tug'diradi.

G. Ishga qatnash xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Uyda ishlashdagi qiyinchiliklar:

A. Ijtimoiy ajralganlik hissini yuzaga keltirishi mumkin.

B. Ishonchli ish topish qiyin bo'lishi mumkin.

V. Ish va oilaviy majburiyatlarni muvofiqlashtirish murakkab bo'lishi mumkin.

Uyda ishlash O'zbekistonda bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish uchun muhim vositaga aylanishi mumkin. Biroq, bu modelni yanada samarali va barqaror qilish uchun ayrim muammolarni hal etish zarur.

Yirik sanoat korxonalari tomonidan uy mehnatiga qaratilgan e'tibor natijasida faqatgina 2019-yilning o'zida 274,2 mingta ish o'rni yaratilgan. Bu tashabbus ayniqsa qishloq hududlarida samarador bo'lgan — sanoat korxonalari 2019-yilda taxminan bir million ish o'rni yaratishga erishgan.

Bundan tashqari, 2022-yilda bu yo'nalish yanada kengayib, uyda ishlovchilar uchun ish o'rinlari yaratgan barcha tarmoqlardagi korxonalar uchun imtiyozlar joriy etilishi evaziga qo'shimcha 280 ming ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

2-jadval ushbu bandlik holatining qisqacha sharhi va uning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston mehnat bozorining asosiy xususiyatlari va muammolari

Mehnat bozori xususiyatlari	Qisqacha tavsif
Mehnat kuchi taklifi va talabi	Taklif ortiqligi mavjud, bu norasmiy sektorda yuqori bandlik va mehnat migratsiyasiga olib kelmoqda.
Ish izlovchilar	Ro'yxatdan o'tgan ish izlovchilar soni kamaymoqda.
Yoshlar orasida ishsizlik	O'sishda davom etmoqda: 2012-yilda umumiy ishsizlarning 54,5%ini talaba bo'lmagan yoshlar tashkil qilgan.
Yuqori texnologiyali ish o'rinlariga talab	Juda past; yuqori texnologiyalar sektori jami bandlikning atigi 1,4%ini tashkil etadi.
"Ishlovchi kambag'allar"	Davlat sektori va kichik biznesdagi past ish haqi tufayli ortib bormoqda.
Ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlar	Yangi shakllanayotgan o'rta qatlam ish sifati va ish haqi bo'yicha yuqori talablarni qo'yimoqda.

Manba: statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ayon bo'lishicha, yangi bandlik siyosatining asosi yuqori daromadli va barqaror ish o'rinlarini yaratish bo'lishi kerak. Biroq, aynan bandlik sohasida har qanday ehtiyotsiz yondashuv kuchli ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bois, aniq siyosiy vositalarni tanlash masalasi ochiq qolmoqda.

Mehnat migratsiyasi — moliyaviy kompensatsiya va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini izlab, shaxslar tomonidan ongli ravishda amalga oshiriladigan ko'chish — zamonaviy davrning keng tarqalgan va dolzarb hodisasi hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi tarixan chuqur ildizlarga ega bo'lsa-da, uning hozirgi miqyoslari va sifat jihatlarini uni mutlaqo yangi bosqich sifatida ajratib turadi.

O'zbekistonda ayniqsa mehnat resurslari hisobiga aholining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. So'nggi yillarda umumiy demografik o'sish sur'atlari pasaygan bo'lsa-da, ilgari shakllangan demografik jarayonlar sababli mehnat kuchining ko'payishi davom etmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–mart oylarida mamlakat doimiy aholisi 82 300 kishiga oshib, umumiy soni 3,5 millionga yaqinlashgan. Bunday demografik tarkib mehnat bozoriga kuchli bosim o'tkazmoqda.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi uzoq tarixga ega bo'lib, ichki ko'chishlar — masalan, janubiy hududlarga piyoz va guruch yetishtirish uchun yo'nalgan "gektarchilar" harakati — hamda xalqaro migratsiyani qamrab oladi. Fuqarolarning xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini ta'minlaydigan huquqiy baza O'zbekiston Respublikasining 1992-yil fevral oyida qabul qilingan "Aholini band qilish to'g'risida"gi qonuniga borib taqaladi. Ushbu qonun fuqarolarning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakatning jahon

iqtisodiyoti va xalqaro mehnat bozorlariga integratsiyalashuvi uchun zamin yaratgan. 1998-yil may oyidagi tahrir esa bu huquqning mazmun va doirasini yanada kengaytirgan.

Mehnat migratsiyasi – xalqaro yordam va xorijiy investitsiyalardan keyin respublikaga chet el valyutasini jalb etishning muhim manbalaridan biridir. U ijobiy va salbiy ta'sirlarga ega bo'lib, qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilagan, ishsizlikni kamaytirgan, bozor munosabatlarini faollashtirgan hamda turmush darajasini oshirgan.

“Respublika aholisining farovonligini oshirish strategiyasi”da ta'kidlanishicha: “qishloq joylarda bo'shayotgan mehnat kuchini band qilish, shuningdek, shaharlardagi ishsizlik muammosi qisman aholi tomonidan vaqtinchalik mehnat migratsiyasi orqali hal etilmoqda — ya'ni qishloq aholisi shaharlarga, shuningdek, qishloq va shahar aholisi chet davlatlarga ishlash uchun chiqmoqda.”

Turmush darajasini oshirish loyihasi (ELS) doirasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, barcha o'rganilgan hududlarda uy xo'jaliklarning 10% dan 27% gacha bo'lgan qismini kamida bir mehnat migrantiga ega oilalar tashkil etgan. Ko'p hollarda bunday migratsiya oilaning daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan — mehnat migrantidan olingan o'rtacha daromad uy xo'jaligining boshqa daromad manbalaridan 5–10 baravar yuqori bo'lgan.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi yil sayin ortib bormoqda. Zamonaviy mehnat migratsiyasi avvalgi bosqichlardan ko'lam, mazmun va ishtirokchilar tarkibi bo'yicha farq qiladi. Bandlik vazirligi bilan birgalikda olib borilgan baholashlarga ko'ra, hozirda 6–7 millionga yaqin fuqaro mehnat migratsiyasida ishtirok etmoqda. Eng faol qatlamni talabalar, yosh mutaxassislar va malakali ishchilar tashkil qiladi. Asosiy migratsiya oqimi Rossiyaga yo'naltirilgan bo'lib, nisbatan kichik qismi Ukrainaga (asosan qrim tatarlar) yo'nalgan.

Shuningdek, O'zbekiston fuqarolari AQSH, Isroil, Gretsiya va boshqa Yevropa davlatlarida ham ishlamoqda. “Chilanchilik” biznesi bilan shug'ullanuvchilar esa BAA, Turkiya va Eron kabi mamlakatlarga safar qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonga ham boshqa davlatlardan, xususan Turkiya, Koreya va Xitoydan mehnatkashlar kelmoqda, biroq ularning soni nisbatan kam. O'zbekiston asosan mehnat kuchini eksport qiluvchi mamlakat sifatida qolmoqda.

Noformal mehnat migratsiyasini aniq hisoblash mushkul, chunki u rasmiy ro'yxatga olinmaydi. Masalan, AQSH har yili O'zbekiston fuqarolari uchun kamida 5 000 mehmon vizasini beradi, va ularning 75–80%ga yaqini mehnat maqsadida ketgan deb baholansa, faqat AQSHning o'zida har yili qariyb 4 ming kishi ishlash uchun chiqmoqda.

Mehnat migratsiyasiga bo'lgan talab yuqori — Bandlik vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, xorijda ishlash istagini bildirganlar soni yuz mingdan oshadi. Rasmiy migratsiya imkoniyatlari esa bu talabning kichik qismini qamrab oladi. Bu holat, ayniqsa, uzoq muddatli shartnomalar tuzishdagi muammolar bilan izohlanadi. Ko'plab muzokaralar niyat protokollari bilan yakunlanib, ba'zi kelishuvlar esa cheklangan kvotalar bilan chegaralanadi.

Mehnat migratsiyasi mamlakat va fuqarolar uchun iqtisodiy foyda keltiradi: qattiq valyuta oqimini ta'minlaydi, ishchi kuchi ortiqligini yumshatadi (ayniqsa, Farg'ona vodiysi kabi zich aholi yashovchi hududlarda), tadbirkorlik salohiyatini kuchaytiradi, xalqaro tajriba orttirgan fuqarolar sonini oshiradi. Ko'plab mehnat migrantlari chet eldan qaytgach, o'z biznesini boshlaydi yoki mavjud faoliyatga investitsiya kiritadi. Bu jarayon kichik biznes va savdo rivojlanishini rag'batlantiradi.

Xorijdagi fuqarolarning bandligini tashkil etish siyosatida asosiy e'tibor ularni xalqaro mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashga qaratilishi kerak. Siyosatning maqsadlari — chet el valyutasining mamlakatga kirimini oshirish, xalqaro mehnat hamkorligini rivojlantirish, ichki mehnat bozoridagi demografik bosimni yumshatish, ishchi kuchining malakasi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbekiston xizmatlar bozorining cheklanganligi sababli xorijda ish topishga ko'maklashuvchi xususiy vositachilarni legallashtirish zarur. Shuningdek, O'zbekiston BMTning mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasiga qo'shilishi tavsiya etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xorijda fuqarolar bandligini tashkil etish davlat tomonidan faol boshqarilishi va mamlakat manfaatlariga mos olib borilishi lozim. Buning uchun vaqtinchalik mehnat migratsiyasiga oid mustahkam huquqiy baza va samarali tartibga solish mexanizmlari zarur.

Mehnat migratsiyasi bo'yicha mavjud qonunchilikka qaramay, xalqaro mehnat kuchi uchun raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida doimiy takomillashtirish talab etiladi. Xalqaro kelishuvlarni kengaytirishda nafaqat Bandlik vazirligi, balki boshqa vazirliklar ham o'z aloqalari orqali ishtirok etishi kerak.

Shuningdek, hozirgi Mehnat migrantlari bo'yicha Respublika agentligidan ko'ra kengroq vakolatli tashkiliy tuzilma — masalan, Tashqi mehnat bandligi departamenti tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu boradagi ishlar hozirda olib borilmoqda.

Ikkinchi bosqichda uy xo'jaliklarning iqtisodiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinantlar aniqlanadi va baholanadi. Regression tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, iste'mol narxlari indeksi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, inflyatsion kutishlarning ortishi esa daromadni pasaytiradi. Olingan koeffitsientlar tahlili davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi: narx barqarorligini saqlash, inflyatsion kutishlarni pasaytirish va iqtisodiy bandlik sifatini oshirish zarurati yuzaga chiqadi. Shuningdek, omillararo o'zaro ta'sir baholanib, sektor faoliyatiga ta'sir etuvchi jarayonlarning to'liq manzarasi shakllantiriladi.

Uchinchi bosqichda davlat tartibga solishini takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Empirik natijalar asosida mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini quyidagilar orqali yangilash taklif etiladi: investitsiya muhiti yaxshilanishi, aholining xarid qobiliyati oshirilishi, fiskal va pul-kredit siyosati vositalari joriy etilishi hamda inflyatsion kutishlarni kamaytirish va xonadon xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi. Konseptual model qisqa va uzoq muddatli choralarni integratsiyalashgan holda amalga oshirishni ko'zda tutadi, bu esa davlat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarning muhim funksiyalaridan biri — oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishdir. Oilaviy tadbirkorlik — bu daromad olishga yo'naltirilgan, oilaviy kapitaldan samarali foydalanishga asoslangan mustaqil faoliyatdir. Bu kapital jismoniy, ijtimoiy, moliyaviy va intellektual resurslar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Oilaviy biznesning keng miqyosda rivojlanishiga xizmat qilgan omillardan biri — iqtisodiyotda yuz bergan tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida xizmatlar sohasi (savdo, ovqatlanish, dam olish va h.k.)ning jadal o'sishidir. Oilaviy korxonalar daromad, bandlik va o'zini oqlash ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, foyda maksimallashtirishni maqsad qilmaydi.

2022–2025-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida munosib ish o'rinlari, raqobatbardosh ish haqi, zamonaviy uy-joy, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, shuningdek, keng ko'lamli dam olish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha zarur shart-sharoitlar belgilangan. Shuning uchun asosiy ustuvor vazifa — nafaqat eng kam ish haqi, balki o'rtacha ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy to'lovlarni bosqichma-bosqich oshirishdir.

O'zbekistonning tabiiy, iqlimiy va hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, har bir hududda istiqomat qiluvchi oilalarni samarali tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning daromadlarini oshirish maqsadida hududiy ixtisoslashuvga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalada ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi amaliy natijalar berishi shubhasizdir.

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha hududlarida bir qator normativ hujjatlar asosida aholining moddiy farovonligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Uy xo'jaliklar asosidagi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston o'zining qishloq xo'jalik salohiyatidan foydalangan holda qishloq aholisi iqtisodiy farovonligini oshirish imkoniyatiga ega (3-jadval).

3-jadval

**Maishiy faoliyat asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha
afzalliklar va tavsiyalar**

Afzalliklar	Tavsiyalar
Ish o'rinlari yaratish	– Kichik biznes va maishiy korxonalar uchun soliq imtiyozlarini berish; – Kichik biznesni tashkil etish uchun kredit va moliyaviy xizmatlarga kirishni yengillashtirish.
Qashshoqlikni kamaytirish	– Aholi o'rtasida o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini oshirish; – Mahalliy hamjamiyatlarda daromad manbalarini kengaytirish.
Daromadlar tengligini yaxshilash	– Resurslarga adolatli kirishni ta'minlash; – Xonadon a'zolari uchun moliyaviy savodxonlik va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish.
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	– Uy xo'jaliklar daromad manbalarini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash; – Yangi texnologiyalar va ilg'or amaliyotlarni joriy etishga ko'maklashish.
Bozorning moslashuvchanligini oshirish	– Innovatsiyalar va raqobatni rag'batlantirish; – Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga texnik yordam ko'rsatish.
Infratuzilmani rivojlantirish	– Qishloq infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish; – Tashish, saqlash va bozorga kirish imkoniyatlarini yaxshilash.
Qo'llab-quvvatlovchi siyosat va qonunchilik	– Qishloq xo'jaligini subsidiyalash va qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish; – Biznes ochish uchun grantlar va texnik yordamlar taqdim etish.

Manba: muallif ishlanmasi..

To'rtinchi bosqichda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasi amaliyotga joriy etiladi. Bu jarayonda iqtisodiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul davlat organlari uy xo'jaliklar sektori vakillari, moliyaviy institutlar va ekspertlar bilan institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yadilar. Chora-tadbirlar pilot loyihalar orqali, byudjet moliyalashtirishini optimallashtirish, subsidiyalar va soliq imtiyozlari ajratish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini yaxshilashga qaratilgan dasturlar orqali amalga oshiriladi. Maxsus e'tibor xorijiy tajribani milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirishga qaratiladi, bu esa taqqoslamali tahlillar va iqtisodiy-matematik modellashirish yordamida amalga oshiriladi.

Beshinchi, yakuniy bosqichda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimi joriy etiladi. Buning uchun asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, inflyatsion kutishlar, bandlik darajasi, xarid qobiliyati) dinamikasini real vaqt rejimida kuzatishga imkon beruvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqiladi. Samaradorlik bahosi regressiya modellari asosida doimiy yangilanadi va bu davlat siyosatini tashqi va ichki o'zgarishlarga muvofiq holda moslashtirish imkonini beradi. Bunday monitoring tizimi amaliy natijalar bilan siyosiy tuzatishlar o'rtasida teskari aloqani ta'minlab, uy xo'jaliklar sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda uy xo'jaliklar sektorini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) statistik ma'lumotlar yig'ish va ko'p omilli regressiya asosida sektor holatini tahlil qilish;

2) uy xo'jaliklar daromadiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va baholash;

3) strategiya ishlab chiqish va davlat tartibga soluvini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini shakllantirish;

4) ishlab chiqilgan choralarni barcha manfaatdor tomonlarni jalb etgan holda amaliyotga tatbiq etish;

5) monitoring va baholash tizimini joriy etish orqali siyosatni moslashtirish.

Ushbu algoritmnining qo'llanilishi uy xo'jaliklar sektorini tizimli va moslashuvchan tartibga solish, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Uy xo'jaliklar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi — ular iqtisodiyotda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi sifatida faol rol o'ynaydi. Ular iqtisodiy barqarorlik, o'sish va rivojlanish uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda uy xo'jaliklarning ish o'rinlari yaratish, qashshoqlikni kamaytirish, daromad tengligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikdagi o'rni ko'rib chiqildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, uy xo'jaliklar iqtisodiy faollikni harakatlantiruvchi, moliyaviy bozorlarga sarmoya va jamg'armalar kirituvchi faol ishtirokchilardir.

Shuningdek, uy xo'jaliklar o'zining ta'lim va ko'nikmalar rivoji orqali ijtimoiy kapitalga hissa qo'shadi va iqtisodiy sharoitlar o'zgarishiga moslashadi. Ularning iqtisodiy qarorlari ishlab chiqarish hajmi va bozor talabi kabi umumiy iqtisodiy tendensiyalarga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois uy xo'jaliklar rolini tan olish va kuchaytirish muvozanatli va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun muhim hisoblanadi.

5. Xulosa.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari uy xo'jaliklari sektorining O'zbekiston iqtisodiyotidagi strategik o'rnini tasdiqladi. Empirik tahlillar uy xo'jaliklari daromadlariga inflyatsiya, ishsizlik, mehnat migratsiyasi, kreditga kirish imkoniyati kabi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi. Hozirgi sharoitda bu sektorni tartibga solish bo'yicha amaldagi yondashuvlar ko'proq statistik va umumiy xarakterga ega bo'lib, ehtiyoj darajasi, ijtimoiy guruhlariga differensial yondashuv, algoritmik tahlil mexanizmlari yetarli darajada qo'llanilmayapti.

Mehnat bozori transformatsiyasi, masofaviy ish shakllari, oilaviy tadbirkorlik, migratsiyadan kelayotgan pul o'tkazmalari, yashirin iqtisodiy faollik singari jarayonlar fonda uy xo'jaliklarining funksional yuklamasi ortib bormoqda. Shu sababli ushbu sektorni zamonaviy iqtisodiy tahlil vositalari asosida boshqarish va davlat siyosatini maqsadli yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan 5 bosqichli algoritmik model uy xo'jaliklarini segmentatsiya qilish, muammolarni diagnostika qilish, omillarning ta'sir kuchini baholash, real vaqt rejimida tahlil qilish va samarali siyosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etadi. Bunday yondashuv an'anaviy "yuqoridan pastga" tartibga solish modeliga nisbatan ancha moslashuvchan, ijtimoiy adolatli va samarador hisoblanadi.

Shu asosda quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

Uy xo'jaliklari sektorini davlat siyosatining mustaqil obyekti sifatida tan olish va unga oid maxsus dasturiy hujjat (masalan, "Uy xo'jaliklarini iqtisodiy faollashtirish konsepsiyasi") ishlab chiqish.

Algoritmik tahlil va real vaqt rejimidagi monitoring tizimini joriy etish – bu orqali sektor holati bo'yicha avtomatlashtirilgan baholash, ehtiyojga mos chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Uy xo'jaliklarini iqtisodiy faol guruhlariga ajratgan holda segmentatsiyalangan siyosat yuritish – masalan, oilaviy tadbirkorlar, kam ta'minlanganlar, migratsiyadan daromad oluvchilar, masofaviy ishchilar kabi.

Uyda ishlash, norasmiy bandlik va migratsiyadan kelayotgan daromadlarni legallashtirish va tartibga solish bo'yicha soliq, kredit va ijtimoiy kafolatlar tizimini ishlab chiqish.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir mahalliy infratuzilmani kuchaytirish, ayniqsa ayollar va yoshlar ishtirokidagi faoliyat turlariga grant va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmlarini kengaytirish.

Umuman olganda, uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish, ularni sarmoyador va ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ko'rish, davlat siyosatini esa differensial va analitik asosda tashkil qilish O'zbekiston iqtisodiy barqarorligining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Uy xo'jaliklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- soliq stimullarini joriy etish;
- moliyaviy xizmatlarga kirishni yengillashtirish;
- ta'lim va kasb-hunar dasturlarini rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- qishloq infratuzilmasiga investitsiya kiritish;
- ijtimoiy himoya choralari kuchaytirish;
- minimal ish haqini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash;
- barqaror amaliyotlarni rag'batlantirish;
- huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlash;
- uy xo'jaliklar hissasini monitoring qilish va baholash.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali davlat boshqaruv organlari uy xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hissasini oshirib, barqaror va gullab-yashnagan iqtisodiyotni shakllantirishga erishishi mumkin. Natijada, uy xo'jaliklar iqtisodiy muammolarni samarali hal etuvchi va milliy rivojlanishga faol hissa qo'shuvchi subyektlarga aylanishadi.

Adabiyotlar:

Abate, G. T., de Weerd, J., & Poschke, M. (2020). COVID-19 and informal work: Evidence from 11 cities. *World Development*, 139, 105330. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2020.105330>.

Campbell, J. Y., & Mankiw, N. G. (1991). The response of consumption to income: A cross-country investigation. *European Economic Review*, 35(4), 723–756. [https://doi.org/10.1016/0014-2921\(91\)90031-M](https://doi.org/10.1016/0014-2921(91)90031-M).

Carroll, C. D. (1997). Buffer-stock saving and the life cycle/permanent income hypothesis. *The Quarterly Journal of Economics*, 112(1), 1–55. <https://doi.org/10.1162/003355397555133>

Fernández, M., & Ortiz-Juarez, E. (2021). Inequality and COVID-19: Income, race, and gender. *UNDP Working Paper*. <https://www.undp.org>.

Gentilini, U., Almenfi, M., & Dale, P. (2022). Social Protection and Jobs Responses to COVID-19: A Real-Time Review of Country Measures. *World Bank*. <https://documents.worldbank.org>

Guiso, L., Haliassos, M., & Jappelli, T. (2002). *Household portfolios*. MIT Press.

Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44. <https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5>.

Mahmudova, Z., Raximov, A., & Eshquvvatov, N. (2023). Oilaviy tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligi: muammolar va yechimlar. *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 5(2), 44–53.

World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. <https://globalfindex.worldbank.org>.

Абалкин, Л. И. (1997). Рыночной экономики. *Вопросы экономики*, (6), 3–12.

Авдеева, И. Л., Головина, Т. А., & Полянин, А. В. (2018). Государственное регулирование приоритетных направлений предпринимательства в условиях цифровой экономики. *Государственное и муниципальное управление. Ученые записки*, (4), 13–21.

Быстров, Г. Е., & Побежимова, Н. И. (2014). Государственное регулирование сектора домашних хозяйств. *Евразийский юридический журнал*, (2)69, 148–156.



ANALYSIS OF THE STATE OF ACCOUNTS RECEIVABLE AND PAYABLE IN TEXTILE ENTERPRISES

Kamolova F.K., Elboyev B.B.

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the procedure for accounting for accounts receivable and accounts payable in textile enterprises. The author also studied the analysis of accounts receivable and accounts payable. When analyzing accounts receivable, it is important to take into account such indicators as debt repayment terms, the share of overdue payments, the structure of the accounts receivable base (for example, the share of large clients) and the probability of default. This allows you to determine the level of risk and the effectiveness of credit risk management. The analysis of accounts receivable begins with an assessment of its share in the overall structure of current assets. Then attention is paid to the absolute amounts of debt both at the beginning and at the end of the period under consideration.

Keywords: analysis, accounts receivable, accounts payable, risk level, profitability, solvency, dynamics, structure, overdue debt.

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarida debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga olish tartibi ko'rib chiqiladi. Muallif, shuningdek, debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlilini o'rgangan. Debitorlik qarzlarni tahlil qilishda qarzni to'lash muddati, muddati o'tgan to'lovlar ulushi, debitorlik qarzlari bazasining tuzilishi (masalan, yirik mijozlar ulushi) va qarzlarni to'lash ehtimoli kabi ko'rsatkichlarni hisobga olish muhimdir. Bu risk darajasini va kredit riskini boshqarish samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Debitorlik qarzlarni tahlil qilish uning aylanma aktivlarning umumiy tarkibidagi ulushini baholashdan boshlanadi. Keyin ko'rib chiqilayotgan davr boshida ham, oxirida ham qarzning mutlaq summalariga e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: tahlil, debitorlik qarzi, kreditorlik qarzi, risk darajasi, rentabellik, to'lov qobiliyati, dinamika, tuzilma, muddati o'tgan qarz.

Аннотация. В статье рассматривается порядок учета дебиторской и кредиторской задолженности на предприятиях текстильной промышленности. Автором также изучен анализ дебиторской и кредиторской задолженности. При анализе дебиторской задолженности важно учитывать такие показатели, как сроки погашения задолженности, доля просроченных платежей, структура дебиторской базы (например, доля крупных клиентов) и вероятность невыполнения обязательств. Это позволяет определить уровень риска и эффективность управления кредитным риском. Анализ дебиторской задолженности начинается с оценки ее доли в общей структуре оборотных активов. Затем обращается внимание на абсолютные суммы задолженности как на начало, так и на конец рассматриваемого периода.

Ключевые слова: анализ, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, уровень риска, рентабельность, платежеспособность, динамика, структура, просроченная задолженность.

1. Introduction.

Analysis of the state of accounts receivable and accounts payable is an important aspect of the financial analysis of an enterprise, which allows assessing its liquidity, the effectiveness of working capital management and financial stability.

The assessment of accounts receivable includes an analysis of their current status, including the probability of bad debts. This is critical for effective working capital management. The assessment is carried out for different categories of accounts receivable, taking into account the timing of their occurrence and by groups of major debtors.

Analysis of accounts receivable and accounts payable is a key tool for assessing the financial condition of a company. It allows you to assess the effectiveness of working capital management, as well as identify potential payment problems.

When analyzing accounts receivable, it is important to take into account such indicators as debt repayment terms, the share of overdue payments, the structure of the accounts receivable base (for example, the share of large clients) and the probability of default. This allows you to determine the level of risk and the effectiveness of credit risk management.

On the other hand, an analysis of accounts payable helps to understand how a company manages its obligations to suppliers and other creditors. This includes assessing the maturity of the debt, the proportion of overdue payments, and the possibility of using deferred payments to manage liquidity.

Both analyses help identify potential payment problems, optimize a company's working capital, and improve its financial stability.

2. Research methodology.

The study was based on the analysis of legislative acts, national and international accounting standards, as well as information on the work of the International Accounting Standards Board. To achieve the stated goals, methods of comparative analysis and review of data available on the single portal of corporate information in the Republic of Uzbekistan, as well as research by the national association of accountants and auditors were used. This study employed a literature review methodology, gathering information from primary IFRS documentation, scholarly journals, and case studies

3. Analysis and results.

The research states that lengthier loan lengths are typically the consequence of textile enterprises' competitive market challenges and the need to build strong client relationships. Among the significant findings are:

- High Average Collection time: Compared to other industrial sectors, the textile industry has a higher average collection time, ranging from 60 to 90 days. Issues with liquidity arise as a result of the influence on cash flow.

- Turnover of Receivables: The ratio indicates that textile firms are taking longer to convert receivables into cash, which might indicate inefficient collection practices.

- Credit Risk Management: Many textile firms use permissive terms that increase the likelihood of poor credit instead of having robust credit risk management practices.

Accounts payable are essential in the textile sector. According to the report, the difficulties of a competitive market and the need to build long-lasting relationships with clients typically force textile companies to cope with lengthy loan terms. Among the significant findings are:

- High Average Collection period: Textile companies have an average collection period of 60 to 90 days, which is greater than that of other manufacturing industries. This has an impact on cash flow and leads to liquidity issues.

- Receivables Turnover: The receivables turnover ratio indicates that textile firms are slower at converting receivables into cash, which might be a result of ineffective collection practices.

To analyze the turnover of accounts receivable, the following indicators are used:

- 1) accounts receivable turnover ratio;
- 2) the period for repayment of accounts receivable;
- 3) the share of accounts receivable in current assets;
- 4) the share of doubtful debt.

Table 1

Dynamics of accounts receivable in 000 "Chust Textile"⁷

Accounting balance	Value of the indicator					
	In thousands of sums			IN %		
	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023
Long-term assets						
OS	67 363765,80	70 492854,70	86 530 894,30	37.8%	33.30%	28.06
investments	40,000.00	40,000.00	40,000.00	0.022%	0.018%	0.01
Other A	4 599 063.8	3 516 638.6	8 463 780.4	2.58%		2.744
Total for the section	72,002,829.60	74 049493,30	95 034 674,70	40.43%	34.98	30.81
Current assets						
stocks	68 538 337,60	93 226 777,40	110 504 249,90	38.48%	44.04	35.83
Deb.back	37 288 162,30	40 330 150,10	85 591 492,60	20.93%	19.05	27.75
Cash	105 530,30	3 977 312,70	17 159 857,60	0.059%	1.87	5.56
Other current A	144 146.1	40 414 998	65 493.4	0.008%	19.09	0.02
Total for the section	106 076176,30	137 619088,10	213 321093,50	59.57%	65.01	69.18
Balance	178 079005,90	211 668581,40	308 355768,20	100%	100%	100%

As can be seen from this table, at the enterprise "Chust Textile", 40% of assets are long-term assets and 60% are current assets. According to the table, we can say that the share of accounts receivable in the total balance sheet increased from 21% to 27.75%.

The share of long-term liabilities in liabilities increased from 21.14% to 25.77% over three years. This may indicate that the company is attracting long-term loans and borrowings to finance large projects or business expansion. An increase in the share of long-term liabilities may be a positive sign if these liabilities are used to finance assets that will generate income in the future.

The share of current liabilities in liabilities decreased from 26.84% to 11.89%. This indicates improved management of short-term debt and a possible decrease in dependence on short-term loans and credits. A decrease in current liabilities may indicate a good level of liquidity and the company's ability to meet its short-term obligations in a timely manner.

⁷The author's developments based on research

Table 2

Dynamics of accounts payable in 000 "Chust Textile"⁸

Accounting balance	Value of the indicator					
	In thousands of sums			IN %		
	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.21	31.12.22	31.12.23
UK	40,000,000	40,000,000	40,000,000	22.46%	18.89%	12.97%
NRP	37 119 471,80	66 792 504,40	134 090 674,50	20.84%	31.55%	43.48%
Total for the section	92 623 372,10	123 301 684,80	192 199 129,20	52.01%	58.25%	62.33%
Long-term Ob-va	37,648,463.80	46 060 970,30	79 470 341,80	21.14%	21.76%	25.77%
Current Society	47 807 170,00	42 305 926,30	36 686 297,20	26.84%	19.98%	11.89%
Total for the section	85 455 633,80	88 366 896,60	116 156 639,00	47.98%	41.74%	37.66%
Balance	178 079 005,90	211 668 581,40	308 355 768,20	100%	100%	100%

Table 3

Analysis of accounts payable of 000 "Global Textile"⁹

No.	Indicators	on 31.12.2022	On 12/31/2023	The difference
1	Total accounts payable, thousand soums	123 713 835,00	249 885 792,00	126 171 957
2	Cost price of manufactured products, thousand soums	385 480 311,00	395 023 169,00	9 542 858
3	Total liabilities, thousand soums	294 902 041,00	427 943 821,00	133 041 780
4	Accounts payable turnover ratio 2/1	3.11	1.58	-1.53
5	Duration of accounts payable repayment (1*360/2)	115.53	227.73	112.2
6	Share of accounts payable in liabilities (1/3*100) %yes	41.95	63.25	21.3

Accounts payable increased more than twofold (by 102%), which may indicate an increase in purchases on deferred payment terms or difficulties in paying creditors. The cost of products increased by 2.5%, which is relatively insignificant compared to the increase in accounts payable. This may indicate that the increase in accounts payable is not directly related to the increase in cost. The total amount of liabilities increased by 45%, which is also a significant increase. This may indicate an increase in the company's financial liabilities.

The accounts payable turnover ratio has decreased significantly, which may indicate an increase in the payment period to creditors. The company needs more time to repay its obligations. The turnover period has increased almost twofold, which confirms the conclusion that the company has taken longer to repay its debts to creditors. The share of accounts payable in total liabilities has increased, which means that accounts payable constitute an ever-larger portion of the company's total liabilities. Based on the data, it can be concluded that the

⁸The author's developments based on research

⁹The author's developments based on research

company has significantly increased its liabilities, in particular accounts payable, which has led to a deterioration in accounts payable turnover ratios. The company needs to take steps to improve debt management and solvency to prevent possible financial difficulties in the future.

Table 4**Analysis of accounts receivable of “OOO GLOBAL TEXTILE”**

	Indicators	Last year	Current year
1	Total accounts receivable	195 378 126,70	181 090 895,00
2	Net sales revenue	235 453 896,40	204 452 446,30
3	Current assets	324 635 502,90	277 019 492,90
4	Accounts receivable turnover ratio 2/1	1.20	1.12
5	Duration of repayment of accounts receivable $1 \cdot 360 / 2$	298.72	318.86
6	Share of accounts receivable in current assets $1/3 \cdot 100$	60.18	65.37

Accounts receivable decreased by 7.31%. This is a positive indicator, since a decrease in accounts receivable means that the company has become more efficient in collecting debts from customers. Net sales revenue decreased by 13.16%, which may indicate a decrease in sales or other income. This may be an alarming signal and requires additional analysis of the reasons for the decrease in revenue. Current assets decreased by 14.67%. This may be due to a decrease in accounts receivable or other factors affecting current assets. A decrease in current assets may affect the company's liquidity. The accounts receivable turnover ratio has decreased, which means that the company has become slower in converting accounts receivable into cash. This may indicate a deterioration in the effectiveness of accounts receivable management. The duration of collection of accounts receivable increased by 20.14 days. This indicates that the company has been waiting longer for payments from customers, which has a negative impact on cash flows.

5. Conclusions.

In a number of the analyzed enterprises (for example, “Chust Textile”) the share of accounts receivable increased from 21% to 27.75%. This indicates an increase in unpaid debts from buyers, which may increase the liquidity risks of the enterprise.

The analysis shows that at some companies, such as Global Textile, the duration of accounts receivable collection has increased by almost 20 days. This indicates a decrease in the efficiency of accounts receivable management and may negatively affect the company's cash flow.

In the case of Global Textile, accounts payable have more than doubled, indicating either an increase in purchases on deferred terms or difficulties in paying creditors. This worsens turnover indicators and increases the financial burden on the enterprise.

It is recommended for companies to strengthen control over the collection of payments from customers, as well as optimize the management of both accounts receivable and accounts payable. Otherwise, significant financial difficulties may arise in the future.

Literature:

Code of the Republic of Uzbekistan on administrative responsibility dated 22.09.1994 No. 2015-xii Art. 175.

Kamolova Feruza Kaxramonovna (2024) "Procedure for Creating a Reserve for Impairment of Accounts Receivable Based on International Standards" Bulletin of Science and Practice -11-11.

Karimov A.A., Dzhambakieva G.S., Maley E.B., Saepgo I.I. (2021) "Accounting and financial accounting in industry", textbook.

Law of the Republic of Uzbekistan "On Accounting" dated 13.04.2016 No. 3PY-404.

UP-1154 12.05.1995 "On measures to increase the responsibility of heads of enterprises and organizations for the timeliness of settlements in the national economy".

UP-5564 RUz dated 10.30.2018 "On measures for further liberalization of trade and development of competition in commodity markets".



YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*i.f.d., professor **Misirov K.M.**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Bu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning barqaror rivojlanishdagi o'rni va ekologik muvozanatni ta'minlashdagi roli tahlil etiladi. Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiyot, mehnat bozori hamda investitsiyaviy muhitga ta'siri hamda uglerod neytralligiga erishish strategiyalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyot global ekologik muammolarni yumshatishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonida muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik texnologiyalar, uglerod neytralligi, yashil moliyalashtirish, barqaror rivojlanish

Аннотация: В статье рассматривается понятие «зелёная экономика», её роль в устойчивом развитии и обеспечении экологического баланса. Анализируется влияние внедрения зелёных технологий на экономику, рынок труда и инвестиционную среду, а также стратегии достижения углеродной нейтральности. Результаты исследования показывают, что зелёная экономика является важным инструментом в смягчении глобальных экологических проблем и устойчивом экономическом росте.

Ключевые слова: зелёная экономика, экологические технологии, углеродная нейтральность, зелёное финансирование, устойчивое развитие

Abstract: This article analyzes the concept of the green economy, its role in sustainable development, and its contribution to ensuring ecological balance. It examines the impact of implementing green technologies on the economy, labor market, and investment environment, as well as strategies for achieving carbon neutrality. The findings indicate that the green economy serves as a vital instrument for mitigating global environmental challenges and supporting sustainable economic growth.

Keywords: green economy, ecological technologies, carbon neutrality, green financing, sustainable development

1. Kirish.

Bugungi iqtisodiyotning globallashuvi davrida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - ekologik muvozanatni saqlab qolgan holda iqtisodiy o'sishni davom ettirishdir. Oxirgi o'n yilliklar ichida sanoatlashuv hamda texnologik taraqqiyot tez sur'atlarda rivojlandi, ammo bu jarayon ko'p hollarda atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi va global iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin. Bugun yer yuzining deyarli barcha hududlarida ekologik muammolar chuqurlashib bormoqda - havoning ifloslanishi, suv tanqisligi, o'rmonlarning kesilishi, biologik xilma-xillikning

kamayishi kabi xavfli jarayonlar odamzodning o'zi uchun jiddiy tahdidga aylanmoqda. Mana shu sharoitda an'anaviy iqtisodiy model, ya'ni faqat foyda olishni ko'zlab, ekologik zarar haqida o'ylamaydigan yondashuv o'zini oqlamay qo'ydi. Endi insoniyat oldida yangi yo'l turibdi - bu yo'l "yashil iqtisodiyot" deb ataladi. Yashil iqtisodiyot bu shunchaki yangi atama emasdir, balki inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirishga qaratilgan konseptual yondashuv hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sishni davom ettirishni, balki bu jarayonda atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanishni, hamda jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashni ham aytib o'tiladi. Yashil iqtisodiyotning dolzarbligi shundaki, u bugungi va ertangi avlodlar manfaati uchun xizmat ko'rsatadigan barqaror rivojlanishning eng muhim vositasiga aylanmoqda. Chunki faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki inson salomatligi, ekologik xavfsizlik, hayot sifati kabi ijtimoiy hamda ekologik mezonlar ham taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli, bugungi kunda ko'plab davlatlar, jumladan O'zbekiston ham, yashil iqtisodiyotga o'tishni milliy strategiyalar darajasida rivojlanishni belgilab olmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyotning mohiyati va uning barqaror rivojlanishga ta'siri haqida ilmiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotlar va muhim yondashuvlar mavjud. Quyida bu mavzu bo'yicha yetakchi adabiyotlar sharhini va ularning ilmiy ahamiyatini keltiramiz.

UNEP (2011) Yashil iqtisodiyotga oid Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturining "Towards a Green Economy" hisobotida, ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi yashil iqtisodiyotning o'rni tahlil qilinadi. Ushbu manba, ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil texnologiyalar va moliyalashtirishning muhimligini ta'kidlaydi. Hisobotda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik o'zgarishlar uchun imkoniyat yaratishdagi roliga alohida e'tibor qaratiladi.

J.D.Sachs (2015) barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik asoslari o'rganilgan. Sachs yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni asrashdagi ahamiyatini ochib beradi. U, barqaror rivojlanishning asosiy komponentlari sifatida yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlikni belgilaydi.

World Bank Groupning (2020) "Green Finance and Investment Strategies" hisobotida, yashil moliyalashtirishning samaradorligi va unga oid investitsiya strategiyalari tahlil qilinadi. Bu manba yashil iqtisodiyotga oid moliyaviy strategiyalarni va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektorning qanday rol o'ynashini o'rganadi. Hisobotda yashil obligatsiyalar va ekologik innovatsiyalar uchun ajratilgan investitsiyalarning o'sishi haqida ma'lumotlar mavjud.

Sh.M.Mirziyoyev, (2020) "O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot strategiyasi" asarida, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslar ko'rsatilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning qarorlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, hamda yashil texnologiyalarni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlanadi.

OECD (2013) yashil o'sishning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri haqida batafsil tahlil berilgan. Yashil o'sish, tabiiy resurslarni samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni o'rganadi. OECD bu tadqiqotda yashil iqtisodiyotning davlatlar uchun qanday iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foydalar keltirishi mumkinligini tahlil qiladi.

A.K.Ziyadullaev (2021) yashil iqtisodiyotning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni joriy etishning tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishdagi roli haqida ma'lumotlar keltiriladi. A.K.Ziyadullaev (2021) ushbu masalalarni O'zbekiston misolida tahlil qiladi.

N.Stern (2007) iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'siri va bu jarayonda yashil iqtisodiyotning o'рни tahlil qilinadi. Stern, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. U, davlatlar va xususiy sektorning bu jarayonga qo'shgan hissasini va yashil iqtisodiyot modelining istiqbollarini o'rganadi.

Ushbu adabiyotlar yashil iqtisodiyotning turli jihatlarini, shu jumladan, uning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yoritadi. Yashil iqtisodiyotga oid tadqiqotlar, barqaror rivojlanishning muhim shart-sharoitlarini va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining amaliy ahamiyati va rivojlanish istiqbollarini tahlil etishda bir nechta metodologik yondashuvlar uyg'un tarzda qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda tahliliy chuqurligini ta'minlashga xizmat ko'rsatadi.

Tahliliy yondashuv

Tahliliy yondashuv asosida global miqyosda yashil iqtisodiyotga oid mavjud strategiyalar, xalqaro tajribalar va tendensiyalar o'rganildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Jahon banki (World Bank Group) hamda Yevropa investitsiya banki (EIB) kabi xalqaro moliyaviy institutlarning rasmiy hisobotlari asosida yashil iqtisodiyotga o'tishning yo'nalishlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri chuqur tahlil etiladi. Bu hujjatlar yordamida turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik investitsiya loyihalari tahlil etildi.

Solishtirma tahlil


Yashil iqtisodiyot hamda an'anaviy iqtisodiyot modellari o'rtasidagi farqlar solishtirma tahlil bilan aniqlandi. Bu yondashuv orqali iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik, resurslardan foydalanish darajasi hamda bandlik bo'yicha farqlar ochib berildi. An'anaviy modelning asosiy kamchiligi - atrof-muhitga zarar yetkazishi, resurslarni cheksiz sarflashi hamda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi aniqlansa, yashil iqtisodiyot modeli resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va ijtimoiy adolatga xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi.

Empirik dalillar asosidagi yondashuv

Tadqiqot jarayonida empirik ma'lumotlar asosida statistik tahlillar o'tkazildi. Jahon banki hamda UNEP tomonidan e'lon qilingan 2011–2021 yillar oralig'idagi ekologik ko'rsatkichlar, energiya iste'moli, chiqindi hajmi, karbon emissiyasi, shuningdek, yashil investitsiyalarning hajmi bo'yicha raqamli ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu orqali yashil iqtisodiyotga o'tish natijasida yuzaga kelgan real o'zgarishlar va ularning miqyosi aniqlab ko'rsatiladi.

Normativ-huquqiy tahlil

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga oid qabul qilingan strategik hujjatlar va qonunchilik asoslari tahlil qilindi. Jumladan, Prezident qarorlari, hukumat dasturlari, ekologik qonunchilik hamda milliy rivojlanish strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar chuqur o'rganildi. Bu orqali milliy siyosatning ustuvor yo'nalishlari va ularning amaliyotdagi ijrosi tahlil etiladi.



Yuqorida taqdim etilgan jadval hamda grafik – “Yashil iqtisodiyot” mavzusidagi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning nisbiy ahamiyati va qo'llanilish ko'lamini ko'rsatadi. Bu vizual elementlar maqolangizdagi “Metodologiya” qismini nafaqat boyitadi, balki o'quvchiga mavzuni yaxshiroq tushunishda ham yordam ko'rsatiladi.

4. Tahlil va natijalar.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi hamda uning istiqbollari haqida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rish mumkinki, bu yondashuv iqtisodiyot, ekologiya hamda jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash uchun eng muhim vosita bo'lib qolmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga bo'lgan ta'siri, birinchi navbatda, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni oshirishda namoyon bo'ladi. Yashil texnologiyalarni keng joriy etish natijasida atrof-muhitga zarar keltiruvchi faoliyatlar kamayib, energiya sarfi hamda chiqindilarni qayta ishlashning samaradorligi ortmoqda. Jumladan, iqtisodiy o'sish hamda ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtirish uchun joriy etilgan yangi texnologiyalar, masalan, quyosh, shamol, biogaz va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali energiya ishlab chiqarishning hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu jarayon nafaqat energiya bozorini diversifikatsiya etish, balki yangi ish o'rinlarini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda yangi kasblar hamda mutaxassisliklar paydo bo'lib, bu mehnat bozorini zamonaviy talablarga moslashtiradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyotning investitsiya sohasidagi o'sishi ham sezilarli. Yashil obligatsiyalar, ekologik loyihalar va innovatsion texnologiyalar uchun moliyaviy vositalarning ajratilishi biznes sektori va davlat sektori o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytiradi. Xalqaro moliyaviy institutlar va Jahon banki va Yevropa investitsiya banki, yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarni

rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar ko'rsatilmoqda. Uglerod neytralligiga erishish jarayoni o'zining muhimligini yana bir bor tasdiqlashi mumkin. Sanoat korxonalari va energetika sohasida qabul qilingan ekologik standartlar, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonlarini jadallashtirish, atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlarini kamaytirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yuksak huquqiy hamda institutsional asoslar yaratilgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning qarorlarida ekologik muhofaza, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va yashil texnologiyalarni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlangan. Mana shu tashabbuslar mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olib qaraganda, tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlashda, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynashini ko'ishimiz mumkin. Bunday yondashuvlar ekologik texnologiyalarni joriy qilish, investitsiyalarni jalb qilish, mehnat bozoridagi yangiliklarni ta'minlash bilan jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Shuning uchun, yashil iqtisodiyotning istiqbollari va uning rivojlanish jarayonlari kelajak avlodlarning farovonligi uchun muhim ahamiyatga egadir.

5. Xulosa.

Yashil iqtisodiyot zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanishni ta'minlashning ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rish mumkinki, ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy adolatni uyg'unlashtirish faqat yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yondashuv orqali amalga oshiriladi. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish nafaqat atrof-muhit muhofazasini kuchaytiradi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiradi va korxonalarning xarajatlarini kamaytirishga xizmat ko'rsatadi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari hamda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari sanoat, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida barqaror faoliyat uchun mustahkam asos yaratib bermoqda.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratish, innovation kasblar vujudga keltirish hamda mavjud kadrlarni qayta tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirayotgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, aholi bandligini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi - jumladan, yashil obligasiyalar, ekologik investisiyalar hamda davlat grantlari - korxonalarning iqtisodiy barqarorligi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, uglerod neytralligiga erishish strategiyalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani insoniyatning global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishdagi qat'iy harakatlarini aks ettiradi. Sanoat, energetika va tabiiy resurslardan foydalanish sohalarida qabul qilingan ekologik standartlar, jumladan, o'rmonzorlarni ko'paytirish ishlari bu yo'ldagi amaliy qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot - bu nafaqat ekologik ehtiyoj, balki strategik zaruratdir. U iqtisodiyot, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi zamonaviy iqtisodiy model bo'lib, kelajak avlodlar farovonligi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini yanada chuqurlashtirish, huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, innovation texnologiyalarni faol joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar:

UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. *United Nations Environment Programme*.

World Bank Group. (2020). Green Finance and Investment Strategies. *Washington, DC: World Bank Publications*.

Kahle, L. R., & Gurel-Atay, E. (2014). Communicating Sustainability for the Green Economy. *Armonk, NY: M.E. Sharpe*.

European Investment Bank. (2021). Sustainability Report. *Luxembourg: EIB Publications*.

Mirziyoyev, Sh. M. (2020). O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot strategiyasi. *Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati*.

OECD. (2013). Putting Green Growth at the Heart of Development. *Paris: OECD Publishing*.

Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. *New York: Columbia University Press*.

International Energy Agency (IEA). (2022). World Energy Outlook 2022. *Paris: IEA*.

Global Green Growth Institute. (2021). Green Growth Index: Measuring Sustainability Performance. *Seoul: GGGI*.

Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of Uzbekistan. (2022). National Green Economy Strategy 2030. *Toshkent*.

Ziyadullaev, A. K. (2021). Yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik masalalari. *TDIU ilmiy jurnali*, 3(1), 45–54.

Uzbekistan Environmental Protection Committee. (2020). Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Milliy hisobot. *Toshkent*.

Barbier, E. B. (2011). Capitalizing on Nature: Ecosystems as Natural Assets. *Cambridge: Cambridge University Press*.

Stern, N. (2007). The Economics of Climate Change: The Stern Review. *Cambridge: Cambridge University Press*.

United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. *New York: United Nations*.



RESPUBLIKAMIZDA 2025-YIL SOLIQ-BYUDJET SIYOSATI KONSEPSIYASIGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID TAKLIF HAMDA TAVSIYALAR

PhD **Mukimov B.M.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq inspeksiyasi amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, hududlararo soliq inspeksiyasi, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация. В данной статье описаны роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговых сферах в стране, дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. При этом были изучены некоторые важные реформы, реализуемые межрегиональной налоговой инспекцией в налоговой системе Узбекистана, а также разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, межрегиональная налоговая инспекция, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract. This article describes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax sphere in the country and further strengthening the confidence of the business community. At the same time, some important reforms implemented by the interregional tax inspectorate in the tax system of Uzbekistan were studied, and scientific and practical conclusions and proposals were developed based on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, interregional tax inspectorate, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.

1. Kirish.

O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Bundan tashqari, jahon amaliyotida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to'lovchilarga audit va soliq nazoratini qo'llab-quvvatlash majburiyatini to'liq bajarish, nazorat funksiyalarini tarmoqlar bo'yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

A.Fedorov (2010) fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan".

V.G.Bayborodina (1993) "soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

I.A.Mayburov (2007) "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

N.M.Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

Karp M.V. (2001) Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O.Sitnikovaning (2012) fikricha, "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Yu.Darkina (2019) yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

3. Tahlil va natijalar.

Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish

mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

Xususan, 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-oktabrdagi PQ-5267-son qaroriga asosan, 2021-yil 1-oktabrdan boshlab yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'ining nol foizlik stavkasi belgilangan. Respublikamizda ishlab chiqilgan tabiiy gazga 20% stavka belgilangan.

Korxonalar tomonidan tabiiy gaz import qilishda ham, import qilingan gazni realizatsiya qilishda ham aksiz solig'i to'lanmayapti. Vaholanki, import qilingan tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishda qo'llaniladigan ta'riflarda aksiz solig'i summasi kiritilgan.

Mazkur aksiz solig'i summasi iste'molchilar tomonidan to'lanib, byudjetga to'lanmasdan qolmoqda. Buning hisobiga byudjetga 1327,5 mlrd.so'm aksiz solig'i yo'qotildi. Respublika bo'yicha 2023-yil 6 oyda 2 312,7 mln.kub m gaz import qilingan bo'lsa, 2024-yilning mos davrida 5242,6 mln.kub.m.ni tashkil etib, 2,2 baravarga oshgan. Ichki bozorda gaz hajmi 2024 yil 1 yarim yillikda (16831,5) 2023 yil mos davriga nisbatan (18 846,9) 2 015,3 mln.kub (10,7%) kamaygan.

Amaliyotda soliq organlari tomonidan import qilingan gaz va ichki borzorda ishlab chiqarilgan gaz realizatsiya qilinganligini aniqlashning umuman imkoniyati mavjud emas va buning hisobiga soliq ma'murchiligida muammolar saqlanib qolinmoqda. Shuningdek, Jahon savdo tashkilotining talablariga asosan import qilinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan tovarlar uchun aksiz solig'i stavkalari bir xil bo'lishi lozim.

Taklifimiz, Import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'ining foizlik stavkasini joriy etish. Import qilingan tabiiy gaz uchun qaysi taklif qabul qilinsa ichki borzorda ishlab chiqarilgan gazga ham shu stavkani belgilash taklif etiladi.

20% stavka saqlab qolish:

15% stavka joriy qilish:

10% stavka joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Qonunchilikda mavjud emas. 2023-yil yakuniga ko'ra respublikada 552,4 ming tonna gaz kondensati qazib olingan, 407,6 ming tonna gaz kondensati 2,6 trln.so'mga import qilingan (1 kg narxi o'rtacha 6,5 mln so'mdan). 2024-yil yanvar-may oylarida 244,8 ming tonna gaz kondensati qazib olingan, 130,1 ming tonna gaz kondensati 1,0 trln.so'mga import qilingan (1 kg narxi o'rtacha 7,9 mln so'mdan). 2022-yil 1-yanvardan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi tabiiy gazga 3 barobar (30%), neft (20%) va gaz kondensatiga (20%) 2 barobar kamaytirilib yagona 10% qilib belgilandi (2022-yilda byudjetga 538,1 milliard so'm kam soliq tushgan).

Rossiyada 1 tonna uchun 66 rubl, Ukrainada 0% aksiz solig'i joriy qilingan. Saudiya Arabistonida qazib olingan yoki qayta ishlangan mahsulotlar hajmiga qarab 50% dan 85% gacha, BAAda 9% korporativ daromad solig'i to'lanadi.

Taklifimiz, Gaz kondensatini ishlab chiqarish va import qilish uchun aksiz solig'ini joriy etish (1 tonna uchun 200 ming so'm) maqsadga muvofiq.

3. Foyda solig'i bo'yicha Soliq kodeksining 315-moddasiga asosan banklar qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilgan zaxira fondlarining 80 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorini xarajatlar tarkibida aks ettirishga haqligi belgilangan.

Jumladan, 36 ta tijorat bankining 25 tasida zaxira fondlariga xarajatlar 2022-yilda (15,4 trln co'm) 2021-yildagiga (9,6 trln.so'm) nisbatan 5,8 trln.so'mga yoki 60 foizga, 2023-yilda (19,8 trln.so'm) 2022-yilga (15,4 trln.so'm) nisbatan 4,4 trln.so'mga yoki 28,5 foizga oshgan. Xususan, TIF "Milliy Bank" AJning zaxira xarajatlari 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2 trln.so'mga yoki 69 foizga, 2023 yilda 2022-yilga nisbatan 2,8 trln.so'm yoki 57,7 foizga oshgan. Shunga o'xshash, ya'ni zaxira xarajatlarining keskin oshishi "Ipoteka-Bank", "Agrobank", "O'zsanoatqurilishbank", "Biznesni Rivojlantirish Banki" hamda "Turonbank"larida kuzatilmoqda.

O'z navbatida, ushbu tijorat banklaridan 12 tasida 2023-yil uchun hisoblangan foyda solig'i ham 2022-yilga isbatan 753,6 mlrd.so'mga kamaygan. Yevropa davlatlari, Xitoy va Rossiya Federatsiyasida banklarning zaxira fondlarini yaratishga qilingan sarflariga soliq solish maqsadlarida cheklovlar o'rnatilgan. Bundan tashqari, Chexiyada banklar zaxira yaratishga yo'naltirilgan xarajatlarni kreditlar bo'yicha debitor qarzdorlikning 2 foizidan, Finlyandiyada 0,6 foizidan, Fransiya 5 foizidan, Italiya 0,3 foizidan, Polshada 1,5 foizidan, Ispaniya va Xitoyda 1 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorida soliq solinadigan foydadan chegirishlariga yo'l qo'yiladi.

Markaziy bankdan kreditlarga oid ma'lumot taqdim etilmaganligi sababli soliq organlarida kreditlar bo'yicha yaratilgan zaxira xarajatlarini nazorat qilish imkoni mavjud emas. Gresiyada banklar soliq solish maqsadlarida ajratilgan yillik o'rtacha kreditlarning 1 foizini rezerv sifatida chegirishga haqli.

Taklifimiz banklar tomonidan zaxira fondlariga ajratmalarni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda jami daromadning 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorida xarajatlar jumlasiga kiritilishini belgilash maqsadga muvofiqdir.

4. Transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromaddan soliq to'lamaydi. Shu bilan birga, 2020-yildan boshlab bunday korporatsiyalar uchun O'zbekistonda QQS to'lash majburiyati yuklandi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida raqamli faoliyatni bevosita soliqqa tortish qo'llanilmoqda. Shunga o'xshash soliq Fransiya, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Vengriya, Turkiyada amal qiladi. Bu stavka o'rtacha 2% dan 7,5% gacha tashkil etadi. Mahalliy tadbirkorlik sub'ektlari uchun shart-sharoitlarni tenglashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalardan byudjetga qo'shimcha soliq tushumlarini ta'minlash maqsadida mazkur soliqni joriy etish taklif etilmoqda. O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan daromad oladigan transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) 2023-yilda 40 ta, 2024-yil 1 yarim yillikda 60 tani tashkil etgan.

Mazkur korxonalarining O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan olgan aylanmasi 2023-yilda 632 mlrd.so'm, 2024-yil 1 yarim yillikda 442 mlrd.so'mni tashkil etgan. 2023-yilda 70,8 mlrd.so'm va 2024-yil 6 oyligida 48,4 mlrd.so'm QQS to'lagan, yil yakunigacha 58,0 mlrd.so'm QQS kutilmoqda. Ushbu korxonalarga QQS hisobotining soddalashtirilgan shakli ishlab chiqilgan bo'lib, unda faqat 1 ta ustunga ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini oylar kesimida kiritish talab etiladi. Qolgan ustunlar avtomat tarzda shakllanadi.

Taklifimiz O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan daromad oladigan transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) uchun 5 foiz soliq stavkasida foyda solig'ini joriy etish. Bunda QQS hisoboti kabi soddalashtirilgan tartibda foyda solig'i hisobotlarini taqdim etish joriy etiladi.

5. Soliq kodeksining 411-moddasida soliq solish ob'ekti belgilangan bo'lib, kredit tashkiloti tomonidan qarzni so'ndirish hisobiga sotish maqsadida undirilgan mol-mulk (garov mol-mulki) soliq solish ob'ekti sifatida qaralmagan. Shu sababli, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga "Kredit tashkiloti tomonidan qarzni so'ndirish

hisobiga sotish maqsadida undirilgan mol-mulk (garov mol-mulki) tovar hisoblanadi, shu munosabat bilan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solish ob'ektida hisobga olinmasligi kerak, kredit tashkiloti tomonidan o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan garov mol-mulki bundan mustasno" degan mazmundagi izoh kiritilgan.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdorliklarni qoplash evaziga bank balansiga qabul qilingan mulklarning jami summasi 1,2 trln.so'mni tashkil etadi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha ushbu ob'ektlar soliq bazasi sifatida qaralmasdan kelinmoqda, biroq ko'chmas mulk ob'ekti joylashgan yer uchastkasi maydoni yuridik shaxslarning yer solig'i bazasi sifatida qaralib soliqqa tortiladi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, va Buyuk Britaniyada bank garov mol-mulki o'z balansiga kiritgandan so'ng mol-mulk solig'i to'lovchi hisoblanadi.

Taklifimiz esa, kredit tashkilotlari tomonidan garovga olingan mol-mulkni Kadastr organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazish va balansida aks ettirish hamda mulk huquqi o'tgan oydan mol-mulk solig'ini to'lashini belgilash maqsadga muvofiqdir.

6. Soliq kodeksining 411-moddasiga asosan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar mol-mulk solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Biroq, qurilishi tugallanmagan ob'ekt deganda - loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kirishi nazarda tutilgan. "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi qonunga asosan binolar, inshootlar, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob'ektlar davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Bugungi kunda qurilishni yakunlash muddatlari qat'iy belgilanmaganligi sababli yuridik shaxslar tomonidan soliqdan qochish maqsadida qurilish muddatlarini bir necha yilga uzaytirib yurish holatlari aniqlanmoqda. Mol-mulk solig'i hisobotlari to'liq avtomatlashtirilganligi sababli, Soliq kodeksining 133-moddasiga muvofiq Kadastr agentligi va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan qurilishi tugallanmagan ob'ektlarga 5 987 ta holatda 254,7 mlrd.so'm mol-mulk va 6 463 ta holatda 96,0 mlrd.so'm yer ikki karra oshirilgan soliq stavkada soliq hisoblandi. Kadastr agentligi tomonidan 12 221 ta qurilishi tugallanmagan ob'ektlar to'g'risida ma'lumot taqdim etilgan bo'lib, shundan 1 023 tasi (8,4%) 1-yil, 1 573 tasi (12,9%) 2-yil, 2 213 tasi (18,1%) 3-yil, 1 767 tasi (14,5%) 4-yil, 1 391 tasi (11,4%) 5 yil va 4 254 tasi (34,8%) 6 yildan ortiq muddatdan buyon davom etmoqda.

Misol uchun, Toshkent shahrida joylashgan "A" MChJga tegishli bo'lgan qurilishi tugallanmagan ob'ektda loyiha-smeta hujjatlariga bir necha bor o'zgartirish kiritish orqali qurilish muddati uzaytirilgan. Natijada, byudjetga hisoblanishi lozim bo'lgan 1,0 mlrd.so'm (eng kam qiymat asosida) mol-mulk solig'i to'lanmasdan qolgan. Respublika bo'yicha yuridik shaxslarga tegishli 2 525 ta va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan 8 347 ta qurilishi tugallanmagan ob'ektlar Kadastr organlaridan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib mulkdorlariga egalik huquqi berilgan. Biroq ushbu ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha qurilish muddati mavjud bo'lganligi sababli mol-mulk solig'iga tortilmasdan qolmoqda. Rossiyada qurilishi tugallanmagan ob'ekt davlat ryxatidan o'tgandan so'ng unga nisbatan mol-mulk solig'i hisoblanish boshlanadi. Bu o'z navbatida ob'ektlarni ishga tushurilishini jadallashtiradi.

Taklifimiz vakolatli organning ruxsatnomasi olingan oydan boshlab 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlarga mol-mulk solig'ini belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lmagan holda hisoblash tartibini joriy qilish lozim.

7. Yer solig'i bo'yicha Soliq kodeksining 133-moddasiga asosan Kadastr organlari tomonidan tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi, ularning mulkdorlari (egalari) to'g'risidagi axborotni soliq organlariga real vaqt rejimida elektron shaklda taqdim etadi. 429-moddaga asosan yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoki hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 4 baravari miqdorida belgilanadi.

Kadastr organlari tomonidan ma'lumot taqdim etilmasa soliq organlari tomonidan aniqlangan holatlar bo'yicha soliq hisoblash mexanizmi mavjud emas.

Xususan, 2023-yilda 11 mingta korxonaga noqonuniy egallangan 1,5 ming ga yer maydoniga nisbatan 152 mlrd.so'm, 2024-yil 1-yarim yillikda 12,2 mingta korxonaga 2,0 ming ga yer maydoniga nisbatan 223,2 mlrd.so'm miqdorida 4 baravar oshirilgan stavkada yer solig'i hisoblangan.

Misol uchun, Toshkent tumanida faoliyat ko'rsatuvchi "M" XKning 2,3 ga noqonuniy egallangan yer maydoni bo'lib, 4 karra oshirilgan stavkada 486,5 mln so'm soliq hisoblangan va 264,4 mln so'm to'langan. Bugungi kunda Kadastr agentligining hududiy bo'limlarida 2 tadan 4 tagacha xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Tuman va shaharlardagi mavjud yer maydonlaridagi o'zgarishlar va o'zboshimcha egallangan yer maydonlarini aniqlash uchun resurslar yetarli emas. Shu sababli, soliq organlari tomonidan yer maydonlaridan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanganda yer solig'ini belgilangan soliq stavkalarining 10 baravari miqdorida hisoblash taklif etilmoqda. Bu o'z navbatida ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash orqali mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Taklifimiz, soliq organlari tomonidan yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoki hujjatda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish holatlari aniqlanganda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini belgilangan soliq stavkalarining 10 baravari miqdorida hisoblash tartibini joriy qilish lozim.

8. Soliq kodeksiga asosan, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun asosiy stavka 4 foiz, chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilarga joylashgan joyiga qarab 4, 2, 1, ulgurji va chakana dorixonalariga aholi soniga qarab 3, 2, 1 va elektron savdo uchun 2 foiz stavka belgilangan. Qat'iy belgilangan summadagi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkasi jami daromadi 500 million so'mdan oshmagan soliq to'lovchilar uchun 25 million so'm, jami daromadi 500 million so'mdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar uchun esa – 34 million so'm belgilangan.

Qat'iy belgilangan summadagi aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkasi jami daromadi 500 million so'mdan oshmagan soliq to'lovchilar uchun 25 million so'm, jami daromadi 500 million so'mdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar uchun esa – 34 million so'm belgilangan.

Qat'iy belgilangan summadagi AOSni to'lash soliq to'lovchilar uchun daromad mavjudligi va yuqori soliq yukidan qat'iy nazar, ushbu soliqni to'lash majburiyati mavjudligi sababli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xususan, qat'iy belgilangan summadagi AOSni to'lashga o'tgan 61 ming soliq to'lovchidan 6,6 ming yoki 11 foizi o'z faoliyatini to'xtatganligi sababli byudjetga yiliga 104,6 mlrd.so'm daromad yo'qotilishiga olib kelmoqda. Misol uchun, "R" MChJ 2022-yil dekabrda tashkil etilgan va 2023-yildan AOSni qat'iy belgilangan stavkada to'lashga o'tgandan va 19,0 mln so'm soliq to'lagan va 2023-yil iyunda ixtiyoriy tugatishga ariza bergan. Qat'iy belgilangan summadagi AOSni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar joriy yil oxirigacha standart aylanmadan soliqni to'lashga qaytishga haqli emas, bu esa o'z navbatida soliq to'lovchilarning moliyaviy holatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Aksincha daromadi oshib borishi natijasida QQSga o'tishi kerak bo'lgan soliq to'lovchilar daromadni yashirish orqali qat'iy belgilangan summadagi soliqni to'lashga o'tmoqda.

Misol uchun, "C" XKning 2023-yil may oyiga qadar tovar aylanmasi 521,0 mln so'mni tashkil etgan va yil yakuniga qadar QQSga o'tish ehtimoli bo'lganligi sababli AOSni qat'iy stavkada to'lashga o'tgan (yil yakunida tovar aylamasini 999,9 mln so'm bo'lgan). Hindiston va Latviya tajribasida aylanmadan olinadigan soliqning yagona stavkasi 8% va 9% bo'lishi nazarda tutilgan.

Soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan summada soliq to'lashga o'tishida 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yurituvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan summadagi soliq to'lashga o'tish samaradorligi past. Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish, qat'iy belgilangan summada

solliq to'lash rejimini tanlovchilar sonini ko'paytirish, 5 toifadagi tumanlar uchun imkoniyat yaratish va solliq to'lovchilarning e'tirozlarini kamaytirish maqsadida kiritilmoqda. Bugungi kunda solliqdan qochish maqsadida tovar aylanmasini amalga oshirib Qat'iy solliqdan QQSga o'tish va faoliyatini to'xtatish holatlari ko'paymoqda. 2023-yilda 6 272 ta solliq to'lovchilar tomonidan 10 069, 7 mlrd.so'mlik tovar aylanmasi amalga oshirilib, QQS to'lashga o'tilgan (1 mlrdgacha bo'lgan qismi bo'yicha AOS to'lanmagan) yoki faoliyati to'htatilgan, natijada 174,3 mlrd.so'm byudjetga yo'qotish bo'lgan.

Taklifimiz esa 1-qat'iy belgilangan summadagi aylanmadan olinadigan solliq to'lash tartibini bekor qilish.

2-qat'iy belgilangan summadagi AOS to'lash tartibi saqlab qolinsa:

1. Stavkalarni hududlar kesimida quyidagicha belgilash taklif etiladi:

Jami daromadi besh yuz million so'mdan oshmagan solliq to'lovchilar uchun:

aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda - 25 mln so'm;

boshqa aholi punktlarida - 10 mln so'm;

5-toifadagi tumanlarda - 5 mln so'm.

Jami daromadi 500 million so'mdan yuqori bo'lgan solliq to'lovchilar uchun 34 million so'm solliq stavkasi saqlanib qolinadi. Bundan tashqari, 1 mlrd.so'mgacha tovar aylanmasini amalga oshirib ixtiyoriy yoki boshqa korxonaga qo'shish yo'li bilan tugatilayotganda tovar aylanmasidan 4% AOS to'lash tartibini belgilash lozim.

9. Transfert narxni belgilashda solliq nazorati bo'yicha Solliq kodeksining 137-moddasida solliq tekshiruvlari – kameral solliq tekshiruvi, sayyor solliq tekshiruvi va solliq auditi turlarida o'tkazilishi belgilangan.

Transfert narxni belgilashdagi solliq nazorati nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan solliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishini tekshirishni o'z ichiga olgan holda Solliq kodeksining 176-202-moddalari bilan tartibga solinadi.

Mazkur tekshiruv Solliq nazoratining alohida turi bo'lib, uni kameral, sayyor yoki solliq auditi doirasida o'tkazib bo'lmaydi. Solliq kodeksini turli talqin qilinishini oldini olish maqsadida 137-moddada belgilangan solliq tekshiruvlarining turlariga ushbu tekshiruvni qo'shish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Transfert narxlar shakllanishi borasida nazorat qilinishi lozim bo'lgan bitimlar 2022-yilda 5182 sub'ektda 101,6 trln.so'mni va 2023-yilda 7 501 ta sub'ektda 192,9 trln.so'mni tashkil etgan. Tahlil natijalari mazkur sub'ektlarda 2022-2023-yilda amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha transfert narxlar shakllanishi natijasida jami 1,2 trln.so'mdan ortiq foyda kamaytirilganligi (xarajatlar oshirilganligi) xavfi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tomonidan Solliq kodeksining 137-moddasida 3 xil tekshiruv turi mavjud degan vaj bilan mazkur tekshiruv turini "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish rad etilmoqda. Natijada, 2022-yil 1 yanvardan buyon transfert narxlar shakllanishi borasida birorta solliq tekshiruvi o'tkazilmadi.

Taklifimiz transfert narxni belgilashda solliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishi tekshiruvini solliq tekshiruvi turlari sifatida belgilash.

10. Transfert narx belgilanishi rezident yuridik shaxslarning solliq solinadigan foyda summasi kamayishiga sabab bo'ladi. Bu esa, taqsimlanmagan foyda summasi kamayishi hisobiga dividend solig'i hisoblanmasligiga olib keladi. Xorijiy sarmoyali korxonalar tomonidan 2022-2023-yilda amalga oshirilgan nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlarida transfert narxlar shakllanishi yuzasidan o'tkazilgan tahlillar natijasida jami 1,8 trln.so'mdan ortiq foyda kamaytirilganligi (xarajatlar oshirilganligi) xavfi aniqlangan. Mazkur amaliyot Rossiya, Qozog'iston va Ukraina qonunchiligida ko'zda tutilgan. Bundan tashqari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tavsiyalarida ham o'z aksini topgan.

Taklifimiz nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari doirasida transfert narxning belgilanishi natijasida olinmagan daromad yoki oshirilgan xarajat summasini foyda solig'ining bazasiga olib borishga qo'shimcha ravishda dividendga ham tenglashtirish kerak.

11. Soliq imtiyozlari bekor qilish bo'yicha PQ-104-son (27.01.2022y), PQ-3356-son (25.10.2017-y), PQ-15-son (10.01.2024-y), PQ-3651-son (05.04.2018-y), VMQ-279-son (30.09.2015-y), PF-5326-son (03.02.2018-y), PQ-4803-son (11.08.2020-y), PQ-2807-son (01.03.2017-y), PQ-143-son (26.02.2022-y) soliq imtiyozlari nazard tutilgan.

Xususan 2024-yil 1-yarim yilligida (Soliq kodeksidan tashqari) 135 ta normativ-huquqiy hujjatlarga asosan, imtiyozlardan foydalanilgan bo'lib, shundan 20 tasi samarasi past ko'rsatkich qayd etilgan. Ma'lumot uchun: Soliq imtiyozlari samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy va byudjet ko'rsatkichlaridan kelib chiqib baholangan.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar bilan 2024-yil 6 oyi davomida 25 921 ta korxona tomonidan 2,5 trln.so'm imtiyozdan foydalanilgan. Mazkur 20 ta normativ-huquqiy hujjatlar o'rganib chiqilganda 11 tasi (2,1 trln.so'mlik foydalangan imtiyoz) strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega deb topildi, qolgan 9 ta (381,7 mlrd.so'mlik foydalangan imtiyoz) soliq imtiyozlari samarasiz deb baholandi.

Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3651-son qarori 9-band 3-xatboshisi davlat-xususiy sherikchiligi shartlarida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim nodavlat muassalari o'z faoliyatini amalga oshira boshlangandan keyin o'n yil mobaynida barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod qilish belgilangan. Ma'lumot uchun: Ochiq ma'lumotlarga ko'ra maktabgacha ta'lim yo'nalishida 2016/2017 o'quv yilida 5 138 ta (shundan 198 tasi NTT), 2022/2023 o'quv yilida esa 8 412 ta (63,0% o'sish jami yo'nalishga nisbatan) (2 189 ta NTT (11 barobar o'sish jami yo'nalishdagi NTTga nisbatan) tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu ko'rsatkich umumiy o'rta ta'limda (2016/2017-y.) 9 719 ta (26 ta NTT), (2022/2023 -y.) 10 522 tani (8,2%) (194 ta NTT (7,4 barobar)) hamda oliy ta'limda (2016/2017-y.) 70 ta (1 ta NTT), (2022/2023-y.) 191 tani (2,7 barobar) (42 ta NTT (42 barobar)) tashkil qilmoqda.

Taklifimiz esa, mazkur soliq imtiyozlari samarasiz deb baholangan va bugungi kunda dolzarbligini yo'qotgan 9 ta soliq imtiyozlarini bekor qilish mqasadga muvofiq bo'ladi raqobat muhiti shakllanadi.

12. Soliq kodeksini 483-moddasi o'n yettinchi, yigirmanchi qismlar, yigirma beshinchi qism ikkinchi-uchinchi xatboshilari, PQ-3435-son (13.12.2017-y), PQ-214-son (21.04.2022-y), PQ-3989-son (30.10.2018-y) va boshqalar (ro'yxat ilova qilinadi) soliq imtiyozlari nazarda tutilgan.

Jumladan, 27 ta normativ-huquqiy hujjatlar bilan berilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi 2024-yilda yakunlanadi. Xususan, Soliq kodeksi 483-moddasi 20-qismiga asosan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari – 2022-yil 1 apreldan 2025-yil 1 yanvarga qadar bo'lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi stavka bo'yicha to'lashi belgilangan. Ushbu imtiyoz turidan jami 36 736 ta sub'ektlar foydalangan bo'lib, shundan 2024-yil 6 oyda 17 110 ta (46,7%) sub'ektda xodim soni umuman o'zgarmagan bo'lsa, 5 806 ta (16%) sub'ektda (o'tgan yilning mos davriga nisbatan) ishchilari soni aksincha 30 800 taga kamaygan. Aslida imtiyoz xizmatlar sohasida ishchilar sonini oshirish maqsadida berilgan bo'lsada, bu imtiyozdan asosiy foydalanuvchi "A" MCHJ XK bo'lib, individual xususiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Misol uchun: "A" MCHJ XK 2022-yilda 35,8 mlrd.so'm (jami foydalanuvchiga nisbatan ulushi 11,8%), 2023-yilda 72,2 mlrd.so'm (11%), 2024-yilda 50,0 mlrd.so'm (11%) (jami: 158 mlrd.so'm o'rtacha 12,6 mln.AQSh dollar) miqdorida imtiyozdan foydalangan. Ma'lumot uchun: Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 2021 yil dekabr oyida pandemiyadan keyingi chidamliligini oshirish, 4 400 ta yangi ish o'rnini yaratish va boshqa maqsadlar uchun 3 yilga 12 mln AQSh dollari miqdorida kredit ajratgan.

Taklifimiz muayyan davr mobaynida foydalanib kelingan va 2024 yilda muddati yakunlanadigan 27 ta (8 ta Soliq kodeksi, 4 ta Prezident Farmoni, 14 ta Prezident qarori 1 ta VM qarori) soliq imtiyozlari (77ta ID) muddatini uzaytirmaslik

4. Xulosa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, teng raqobat muhitini yaratish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish chora-tadbirlarini davom ettirish, shu jumladan soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilari uchun qo'shimcha cheklovlar o'rnatish tizimini joriy qilish kerak.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. (2025) www.soliq.uz.

Дарькина Ю.А. (2019) Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37).

Дементьева Н.М. (2007) налоговая политика государства. https://nsu.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.

Камалнев Тимур Шамильевич (2009). Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва.

Карп М.В. (2001) Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, – 39 с.

Кенэ (1993) Избранные экономические произведения. –М.: Соцэкгз. 1960; Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. –М.:

Майбуров И.А. (2007) Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбунова. –М.: Юнити-Дана, -655с.

Ситникова Ольга Владимировна (2012) Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва.

Федоров Андрей Николаевич (2010) Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород.

Юнак Алексей Алевтинович (2009) Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва. с.12.



STRATEGIK REJALASHTIRISHNI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIIY IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH

PhD **Mustafayev B.R.**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti*

Annotatsiya: Hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda strategik rejalashtirish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Strategik rejalashtirishni shakllantirish va uning hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholash o'rganib chiqildi, hukumatning strategik rejalashtirishning samaradorligini oshirish bo'yicha s'ay-harakatlari va boshqa davlatlar tajribasidan saboq olishi mumkin bo'lgan jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Strategik rejalashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlari, barqarorlik tamoyillari, iqtisodiyot tarmoqlari, integratsiya, inklyuzivlik, baholash.

Аннотация: Стратегическое планирование играет решающую роль в обеспечении устойчивого экономического развития регионов. В статье рассматривается формирование стратегического планирования и его влияние на устойчивое развитие региональной экономики, анализируются усилия правительства по повышению эффективности стратегического планирования, а также аспекты, которые можно извлечь из опыта других стран.

Ключевые слова: Стратегическое планирование, показатели эффективности, принципы устойчивого развития, секторы экономики, интеграция, инклюзивность, оценка.

Abstract: Strategic planning plays a crucial role in ensuring sustainable economic development in regions. This article examines the formation of strategic planning and its assessment of its impact on the sustainable development of the regional economy, analyzes the government's efforts to improve the effectiveness of strategic planning, and aspects that can be learned from the experience of other countries.

Key words: strategic planning, performance indicators, sustainability principles, economic sectors, integration, inclusiveness, assessment.

1. Kirish.

Iqlim o'zgarishi, iqtisodiy tengsizlik va resurslarning kamayishi kabi dinamik global muammolar bilan ajralib turadigan davrda barqaror rivojlanishga intilish butun dunyo bo'ylab davlatlar va mintaqalar uchun asosiy maqsad sifatida paydo bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy iqtisodiyotlar o'sish, innovatsiyalar va farovonlik dvigatellari sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy paradigmalari ko'pincha uzoq muddatli barqarorlikdan ko'ra qisqa muddatli yutuqlarni birinchi o'ringa qo'yadi, bu esa atrof-

muhit ekotizimlarning yo'q qilinishiga, ijtimoiy nomutanosibliklarga va iqtisodiy beqarorlikka olib keladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotlar doirasida strategik rejalashtirishni shakllantirish va amalga oshirish ushbu vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'ladi. Strategik rejalashtirish maqsadlarni aniqlash, resurslarni taqsimlash va manfaatdor tomonlarni o'sish va taraqqiyotning umumiy ko'rinishiga safarbar qilish uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi. Bundan tashqari, strategik rejalashtirish sa'y-harakatlari barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashganda, ular barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni katalizlash salohiyatiga ega.

Bugungi kunda O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining baholash ko'rsatkichlari va reytingi tatbiq etilgan bo'lib (qaror, 2020), u o'z ichiga aholi bandligini (yoshlar, ayollar) va iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy mustaqillikka erishish, bank sohasinin rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Olib borilayotgan ishlarga qaramay strategik rejalashtirishni samaradorligini oshirish uni ichki va tashqi muhitda sodir bo'layotgan jarayonlardan kelib chiqib doimiy takomillashtirishni talab etadi. Bu esa tasirchan baholash tizimlarini shakllantirishni taqazo etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Strategik rejalashtirish puxta o'ylangan va amalga oshirilgan strategiyalar orqali tashkiliy va mintaqaviy o'sishni oshirishga qaratilgan keng ko'lamli amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, R.Siegler (1999) fikricha, "strategik rejalashtirish bir nechta strategiyalarni va ular orasida moslashuvchan tanlovlarni o'z ichiga oladi. Ushbu moslashuvchanlik turli tashkiliy va rivojlanish muammolarini hal qilish qobiliyatini oshiradigan yangi strategiyalarni topishga yordam berish uchun juda muhimdir".

M.Easterby-Smith va J.Davies (1983) fikricha esa, samarali strategik rejalashtirish menejrlardan boshqaruvni rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etishlarini talab qiladi. Ish joyida o'rganish va rivojlanishni strategik rejalashtirish bilan birlashtirish kabi usullar ayniqsa samaralidir.

"Strategik rejalashtirishning to'rtta asosiy uslubi aniqlandi: oqilona rejalashtirish, boshqariladigan jarayon sifatida rejalashtirish, mantiqiy inkrementalizmga asoslangan rejalashtirish (chuqur tahlilga emas balki qisqa siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar asosan rejalashtirish) va favqulodda strategiyani shakllantirish" (P.Idenburg, 1993).

"Kichik biznes uchun strategik rejalashtirish jamoani rivojlantirish bilan birga uni birlashtirishga xizmat qilishi juda muhimdir. Bu kombinatsiya kichik korxonalarning muvaffaqiyatli o'sishi va moslashishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan "foydalanish strategiyasi"ni yaratishga yordam beradi va boshqaruvning jamoaviy ishini kuchaytiradi" (J.Aram, S.Cowen, 1990). "Korporatsiyalar, ularning biznes bo'linmalari va raqobatchilarni tahlil qilish uchun ma'lumot bazasini yaratish juda muhimdir. Bu boshqaruv sa'y-harakatlarini strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalarga qaratishga yordam beradi va ijodiy tadbirkorlik qobiliyatini yanada samaraliroq ishlatish uchun mavjud tadqiqotlardan foydalanadi. Ushbu tushunchalar turli tashkiliy darajalar va muhitlarda strategik rejalashtirishning murakkabligi va xilma-xilligini ko'rsatib, samaradorlikni oshirish uchun moslashtirilgan yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi" (P.Patel, M.Younger, 1978).

Strategik rejalashtirishning mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishiga ta'siri iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni birlashtirishni o'z ichiga olgan tadqiqot sohasidir. D.Voit (2021) fikricha, "transformatsiya qilinayotgan hududlar uchun iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlikni muvofiqlashtirish juda muhim. Ushbu uyg'unlik mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini boshqaradigan imperativlarning asosini tashkil qiladi. Ushbu imperativlarni amalga oshirish samarali mintaqaviy rejalashtirish va barqaror natijalarni ta'minlash uchun boshqaruvning barcha darajalarida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan batafsil mezon va me'yorlarni o'z ichiga oladi".

R.Kotov (2022) tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "strategik rejalashtirish mahalliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aniq ustuvorliklarni belgilash va mahalliy sharoit va imkoniyatlardan foydalanish orqali hududlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va hayot sifatini yaxshilashi mumkin. Ushbu yondashuv har tomonlama strategik rejalashtirish va barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilish uchun ishtirokchi yondashuvni talab qiladi".

Y.Tsyppkin va boshqalar (2020) fikricha, "strategik rejalashtirishga raqamli texnologiyalar va hududlarning o'ziga xos jihatlarni kiritish mintaqaviy rivojlanish barqarorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu yondashuv uzoq muddatli mintaqaviy rivojlanish maqsadlariga mos keladigan resurslar va atrof-muhitni samarali boshqarish uchun strategik prognozlashni o'z ichiga oladi".

"Samarali strategik rejalashtirish iqtisodiy o'sishni ijtimoiy tenglik va atrof-muhitni boshqarish bilan birlashtirishni talab qiladi. Shuning uchun mintaqaviy strategiyalar rivojlanishning barqaror va inklyuziv bo'lishini ta'minlab, ushbu o'lchovlarni muvozanatlash uchun ishlab chiqilishi kerak" (R.Veckalne, T.Tambovceva, 2022).

Strategik rejalashtirish mintaqaviy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi va turli mintaqalarda barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik va barqaror o'sishni rag'batlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. E.Lobkova va boshqalarning (2021) fikricha "strategik rejalashtirish davlat boshqaruvi mexanizmlarining oqilona tizimini yaratishga yordam beradi, bu esa hududlarda rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga sezilarli hissa qo'shadi. Bu xatarlarni prognozlash va boshqarishga tizimli yondashuvni ta'minlash orqali mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga yordam beradi. Xatarlarni miqdoriy baholash usullaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan strategik rejalar iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlaydigan qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi".

"Yevropada strategik rejalashtirish atrof-muhit va barqaror rivojlanishni rejalashtirish zarurati tufayli e'tiborga sazovor bo'ldi. U barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun an'anaviy va yangi yondashuvlarni birlashtiradi, mintaqaviy rivojlanish siyosatida asosiy rol o'ynaydi va mintaqalarning global tendentsiyalarga moslashishiga yordam beradi" (L.Vasilevska, M.Vasić, 2009). Xulosa qilib aytganda, strategik rejalashtirish mintaqaviy rivojlanish uchun ajralmas bo'lib, o'sishni boshqarish va muayyan mintaqaviy muammolarni samarali hal qilish uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi. Strategik rejalashtirishni o'z ichiga olgan hududlar barqaror rivojlanishni, iqtisodiy barqarorlikni va o'z aholisining turmush sifatini yaxshilashni ta'minlashi mumkin.

3. Tahlil va natijalar.

Mintaqaviy iqtisodiyotlar doirasida strategik rejalashtirishni shakllantirish barqaror o'sish va farovonlikni ta'minlash jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish mintaqaning uzoq muddatli qarashlari va intilishlariga mos keladigan maqsadlar, ustuvorliklar va harakatlarni tizimli ravishda aniqlashni o'z ichiga oladi. Mintaqaviy iqtisodlar doirasida strategik rejalashtirish tashabbuslarini shakllantirish muhim jarayon bo'lib, u manfaatdor tomonlarning ishtiroki, tahlil, strategik moslashuv va innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ishtirokchi, jarayonga ta'sirchan va istiqbolli yondashuvni qo'llash orqali mintaqalar o'zlarining noyob kuchli tomonlaridan foydalanadigan, o'ziga xos muammolarni hal qiladigan va barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari suradigan strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Strategik rejalashtirish mintaqadagi manfaatdor tomonlarning turli manfaatlari va istiqbollarni aks ettirishi kerak. Manfaatdor tomonlarning samarali ishtiroki rivojlanish kun tartibiga qo'shilish, hamkorlik va birgalikda egalik qilishga yordam beradi.

Hukumat, biznes, ilmiy doiralar, fuqarolik jamiyati va mahalliy hamjamiyatlarni o'z ichiga olgan turli sektorlardan manfaatdor tomonlarni jalb qilish strategik rejalarini keng ko'lamli tajribalar asosida xabardor qilinishini ta'minlaydi.

Strategik rejalashtirishni shakllantirish har bir mintaqaga xos bo'lgan bir qator omillar va muammolar bilan belgilanadi. Bular iqtisodiy sharoitlar, demografik tendentsiyalar, resurslar bilan ta'minlanganlik, institutsional imkoniyatlar va geosiyosiy dinamikani o'z ichiga olishi mumkin. Muayyan vaziyatga xos imkoniyatlar va cheklovlarni tushunish mintaqaning zaif tomonlarini yumshatish bilan birga kuchli tomonlarini ishga soluvchi moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Bundan tashqari, siyosiy qarshilik, moliyaviy cheklovlar va tartibga solish to'siqlari kabi potentsial to'siqlarni oldindan ko'rish va hal qilish strategik rejalashtirishning amalga oshirilishi va samaradorligini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Strategik rejalashtirish mintaqaning umumiy maqsadlari va ustuvorliklariga, shuningdek, milliy va global rivojlanish kun tartibiga mos kelishi kerak. Moslashish turli dasturlar va tashabbuslar bo'yicha uyg'unlik va bir-birini to'ldirishni ta'minlaydi. Strategik rejalashtirish milliy barqaror rivojlanish maqsadlari va mintaqaviy integratsiya tashabbuslari kabi mavjud asoslar bilan integratsiyalash orqali mintaqalar ularning ta'sirini maksimal darajada oshirishi va tashqi yordamdan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, strategik rejalashtirish boshqaruvning turli darajalarida manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni osonlashtiradi, qarorlar qabul qilish va resurslarni taqsimlashda muvofiqlikni rag'batlantiradi.

Strategik rejalashtirish innovatsiyalarga proaktiv yondashish va rivojlanayotgan muammolar va imkoniyatlarga moslashishni talab qiladi. Bu doimiy monitoring va taraqqiyotni baholashni, shuningdek, o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda strategiyalarni moslashtirish uchun moslashuvchanlikni talab qiladi. Texnologiya, tadbirkorlik va boshqaruv kabi sohalarida innovatsiyalarni qabul qilish mintaqaviy iqtisodiyotlar uchun o'sish va raqobatbardoshlikning yangi manbalarini ochishi mumkin. Xuddi shunday, o'rganish va tajriba o'tkazish madaniyatini rivojlantirish mintaqalarga noaniqlik sharoitida doimiy takomillashtirish va barqarorlikni ta'minlab, rivojlanayotgan tendentsiyalar va ilg'or tajribalardan foydalanish imkonini beradi.

Mintaqaviy iqtisodlarda strategik rejalashtirish ishlab chiqilgach va amalga oshirilgach, ularning barqarorlikka ta'sirini baholash muhim bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining baholash ko'rsatkichlari va reytingi tatbiq etilgan bo'lib (qaror, 2020), u o'z ichiga aholi bandligini ta'minlash (yoshlar, ayollar), iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy mustaqillikka erishish, bank sohasinin rivojlantirish, ma'lumotlar ochiqqligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Shu bilan birga jahonda yuz berayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisalar ushbu hujjatlarga yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiya va yangi texnologiyalarni keng qo'llash, qarorlar qabul qilishda inklyuzivlikni ta'minlash, mintaqaviy hamkorlikka ta'siri kabi muhim ko'rsatkichlarni ham kiritishni taqazo etmoqda.

Strategik rejalashtirishning barqarorlikka ta'sirini baholash taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan muammolar va to'siqlarni aniqlash va hal qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu qiyinchiliklarga institutsional cheklovlar, siyosatning nomuvofiqligi, resurslarni cheklash, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlar, bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va tashqi zarbalar kiradi. Ushbu qiyinchiliklarning asosiy sabablarini tushunish ularni bartaraf etish uchun maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhimdir. Bundan tashqari, muammolar va to'siqlarni faol hal qilish orqali mintaqalar rivojlanish bo'yicha sa'y-harakatlarining barqarorligini oshirishi mumkin, bu esa taraqqiyotning uzoq muddatda inklyuziv, adolatli va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

1-jadval.

Strategik rejalashtirishning barqarorlikka ta'sirini baholash¹⁰

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Mohiyati</i>
<i>Barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari</i>	Strategik rejalashtirishning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholash iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchovlar bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarni aniqlash va o'lchashni talab qiladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sish, hosildorlik, bandlik va daromadlarni taqsimlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy ko'rsatkichlar inson taraqqiyoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, qashshoqlikni kamaytirish, ijtimoiy inklyuziv va tenglikni o'z ichiga olishi mumkin. Atrof-muhit ko'rsatkichlari resurslardan foydalanish, ifloslanish darajasi, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim o'zgarishini yumshatish kabi jihatlariga qaratilishi mumkin. Barqarorlikning ko'p o'lchovli xususiyatini aks ettiruvchi keng qamrovli ko'rsatkichlar to'plamini tanlab, hududlar o'zlarining rivojlanish tashabbuslarining umumiy taraqqiyoti va samaradorligi haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.
<i>Baholash asoslari</i>	Baholash asoslarini ishlab chiqish strategik rejalashtirishning barqaror rivojlanishga ta'sirini tizimli ravishda baholash uchun juda muhimdir. Baholash asoslari ta'sirni baholashning maqsadlari, vazifalari, mezonlari va metodologiyalarini, shuningdek, baholash jarayonida ishtirok etuvchi manfaatdor tomonlarning roli va mas'uliyatini belgilaydi. Ushbu ramkalar ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, sharhlash va hisobot berishga tizimli yondashuvni, baholash jarayonida qat'iylik va izchillikni ta'minlaydi.

Turli mintaqalarda strategik rejalashtirish muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi bo'yicha boy tajriba bor. Masalan, G'arbiy Norvegiya mintaqaviy iqtisodiy diversifikatsiya borasida ilg'or hisoblanadi. G'arbiy Norvegiyaning tarixan neft va gaz sanoatiga tayanishi, uni iqtisodiy o'zgaruvchanlik va ekologik xavflarga qarshi ta'sirchan qilib qo'ydi. Diversifikatsiya zarurligini tan olgan holda, mintaqaviy manfaatdor tomonlar iqtisodiy barqarorlik, innovatsiyalar va barqarorlikni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish tashabbusiga kirishdi.

Mintaqaviy rivojlanishga mas'ul tuzilmalar tadbirkorlik, innovatsiyalar va sanoatni diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy korxonalar, ilmiy muassasalar va davlat idoralari bilan hamkorlik qildi. Asosiy tashabbuslar orasida qayta tiklanadigan energiya, turizm va yuqori texnologiyali sohalarga sarmoya kiritish, shuningdek, hamkorlik va bilim almashinuvini rivojlantirish uchun innovatsion markazlar va inkubatorlarni e'tirof etish mumkin.

Strategik rejalashtirish an'anaviy neft va gaz sektorini to'ldiruvchi yangi tarmoqlar paydo bo'lishi iqtisodiyotning sezilarli diversifikatsiyasiga olib keldi. Hududda ish o'rinlari yaratildi, ishbilarmonlik faolligi oshdi va aholining turmush sifati yaxshilandi. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya va barqaror amaliyotga sarmoya kiritish orqali iqlim o'zgarishiga ta'sirini kamaytirdi va ekologik barqarorlikni oshirdi.

Strategik rejalashtirish muvaffaqiyati manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kuchli hamkorlik, faol yetakchilik va barqaror rivojlanish uchun uzoq muddatli qarashlar bilan bog'liq edi. Innovatsiyalarni qabul qilish va paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali mintaqqa o'z iqtisodiyotini o'zgartirdi va yanada mustahkam kelajakni ta'minladi.

¹⁰ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yana bir misol, Hindiston janubidagi Kerala shtati muhim ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga, jumladan, qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlik yuqori bo'lgan mintaqalar hisoblangan. Bunga javoban shtat hukumati inson taraqqiyoti, ijtimoiy farovonlik va inklyuziv o'sishga qaratilgan strategik rejalashtirishni amalga oshirdi. Strategik rejalashtirishning Kerala modeli ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot dasturlari va markazlashmagan boshqaruvga investitsiyalarni to'z ichiga oladi. Asosiy tashabbuslar orasida bepul va sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari va marginal guruhlar uchun ijtimoiy ta'minot sxemalaridan hamma foydalanish mumkin edi. Bundan tashqari, shtat hukumati markazlashmagan rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonlari orqali mahalliy hamjamiyatlarga vakolat berdi.

Natijasi shuki, strategik rejalashtirish inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarida, jumladan, savodxonlik darajasi, o'rtacha umr ko'rish va chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlarida sezilarli yaxshilanishlarga olib keldi. Qashshoqlik darajasi pasaydi va ijtimoiy inklyuzivlik yaxshilandi, chunki marginallashtirilgan jamoalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim xizmatlar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Keralaning rivojlanish modeli tenglik, ijtimoiy adolat va ishtirokchi boshqaruvga urg'u bergani uchun xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

Olingan saboq shuki, Kerala misoli inson kapitali va ijtimoiy himoya tizimlariga strategik rejalashtirishning o'zgartiruvchi kuchini ko'rsatadi. Ijtimoiy inklyuzivlik va qashshoqlikni kamaytirishga ustuvor ahamiyat berib, davlat inson taraqqiyotida ajoyib yutuqlarga erishdi va barqaror hamda inklyuziv o'sish uchun poydevor yaratdi.

Mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishga erishish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni strategik rejalashtirish doirasida birlashtirishni talab qiladi. Strategik rejalashtirish rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni talab qiladi.



1-rasm. Strategik rejalashtirishda barqarorlik tamoyillarini integratsiyalash¹¹

1-rasmda keltirilgan strategik rejalashtirish barqarorlik tamoyillar bilan integratsiyalash jarayoning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqsak. Avvalo, yashil o'sish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilish iqtisodiy farovonlikni rag'batlantirish bilan birga mintaqalarga barqarorlik maqsadlariga erishishga yordam beradi. Yashil rivojlanish strategiyalari atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamliligini oshirish uchun resurslar samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli texnologiyalarga ustuvor ahamiyat beradi. Xuddi shunday, aylanma iqtisodiyot modeliga o'tish chiqindilarni minimallashtirish, resurslardan maksimal darajada foydalanish va materiallar va mahsulotlar qayta ishlatiladigan

¹¹ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

yoki qayta ishlanadigan yopiq tizimlarni rivojlantirishga urg'u beradi. Yashil o'sish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini strategik rejalashtirishga integratsiyalashgan holda, hududlar ekologiyaga ta'sirni minimallashtirgan holda innovatsiyalar, ish o'rinlari yaratish va barqaror iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Barqaror infratuzilma va shaharsozlikga sarmoya kiritish yashashga yaroqli, barqaror va ekologik toza shaharlar va hududlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Strategik rejalashtirish energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va transport, suv va kanalizatsiya kabi muhim xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilashga qaratilgan infratuzilma loyihalariga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Bundan tashqari, shaharsozlik ishlarida ijtimoiy inklyuzivlik, aholi salomatligi va jamiyat farovonligini oshirish uchun ixcham, aralash maqsadlarda foydalanish, yashil maydonlar va piyodalar uchun qulay dizaynni taklif qilish kerak. Barqarorlik mezonlarini infratuzilmaga investitsiya qarorlari va shaharsozlik jarayonlariga integratsiyalashgan holda, hududlar hozirgi va kelajak avlodlar uchun yanada jonli, adolatli va barqaror qurilgan muhitni yaratishi mumkin.

Ijtimoiy inklyuziv va tenglikni rag'batlantirish barqaror rivojlanishning asosiy jihati hisoblanadi. Strategik rejalashtirish daromadlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi imkoniyatlardan foydalanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etadigan siyosat va dasturlarga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Bunga marginallashtirilgan jamoalarni qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan maqsadli tadbirlar kiradi. Shuningdek, qaror qabul qilishda ishtirok etish jarayonlarini rag'batlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash jamoalarda barqarorlikni oshirishi va ijtimoiy kapitalni yaratishi mumkin. Ijtimoiy inklyuzivlik va tenglik masalalarini strategik rivojlanishni rejalashtirishga integratsiyalashgan holda, hududlar hech kimni ortda qoldirmaydigan yanada adolatli, yaxlit va barqaror jamiyatlarni yaratishi mumkin.

Tabiiy resurslar va ekotizimlarni muhofaza qilish mintaqalarda hayotni saqlab qolish va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Strategik rejalashtirish biologik xilma-xillikni himoya qiluvchi, ekotizimlarni saqlaydigan va barqaror yerdan foydalanish amaliyotini rag'batlantiradigan tabiiy resurslarni boshqarish va saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Bunga qo'riqlanadigan hududlarni yaratish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha ekotizimga asoslangan yondashuvlarni joriy etish hamda barqaror qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi amaliyotini rag'batlantirish kiradi. Bundan tashqari, mahalliy hamjamiyatlarni va mahalliy xalqlarni tabiiy resurslar boshqaruvchisi sifatida jalb qilish tabiatni muhofaza qilish natijalarini yaxshilash va barqaror hayotni rivojlantirishga yordam beradi. Rivojlanishni strategik rejalashtirishga tabiiy resurslarni boshqarish va muhofaza qilishni integratsiyalash orqali hududlar ekologik yaxlitlikni saqlashi, ekologik zarbalarga chidamliligini oshirishi va o'z iqtisodiyotlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Innovatsiyalar va texnologiyalardan foydalanish mintaqaviy iqtisodiyotlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun juda muhimdir. Strategik rejalashtirish tarmoqlar bo'ylab innovatsiyalar, tadbirkorlik va texnologiyalarni o'zlashtirish uchun qulay muhitni yaratishi kerak. Bunga innovatsiyalarga asoslangan o'sishni rag'batlantirish va samaradorlikni oshirish uchun tadqiqot va ishlanmalar, ta'lim va raqamli infratuzilmaga investitsiyalar kiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya va raqamli platformalar kabi rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish barqarorlik muammolarini hal qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni tezlashtirish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Innovatsiyalar va texnologiyalarni strategik rejalashtirishga integratsiyalash, hududlar iqtisodiy o'sishini kuchaytirishi, raqobatbardoshlikni oshirishi va barqaror kelajak sari transformativ o'zgarishlarni katalizlashi mumkin.

2-jadval

O'zbekiston hududlarini strategik rejalashtirish va barqarorlik jarayoniga moslashtirilgan maxsus samaradorlik ko'rsatkichlari¹²

Ko'rsatkich	Mohiyati
<i>Iqtisodiy diversifikatsiya indeksi</i>	Bu indeks mintqa iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati kabi an'anaviy tarmoqlardan qanchalik diversifikatsiyalanganligini hisoblaydi. Yuqori indeks qiymati tashqi ta'sirlarga nisbatan zaiflikni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun muhim bo'lgan ko'proq diversifikatsiyani ko'rsatadi.
<i>Yashil o'sish indeksi</i>	Bu indeks iqtisodiy o'sish atrof-muhitga qay darajada ta'sir etishini baholaydi. U aholi jon boshiga uglerod chiqindilari va energiya tarkibidagi qayta tiklanadigan energiya ulushi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Yuqori indeks qiymati yashil o'sish va ekologik barqarorlik yo'lidagi taraqqiyotni ko'rsatadi.
<i>Ijtimoiy inklyuzivlik balli</i>	Bu ball daromad taqsimoti, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, gender tengligi va ijtimoiy harakatchanlik kabi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda mintqa iqtisodiyotidagi ijtimoiy tenglik darajasini baholaydi. Yuqori ball jamiyatning barcha qatlamlari uchun katta ijtimoiy hamjihatlikni va imkoniyatlarni aks ettiradi.
<i>Innovatsiyalar va texnologiyalarni qo'llash darajasi</i>	Bu ko'rsatkich mintaqaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar va texnologiyalarni, jumladan, tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar, ro'yxatga olingan patentlar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish kabi omillarni o'zlashtirish tezligini o'lchaydi. Qabul qilishning yuqori darajasi raqobatbardoshlik, mahsuldorlik va texnologik o'zgarishlarga chidamlilik ortib borayotganini ko'rsatadi.
<i>Barqaror turizm daromadi</i>	O'zbekiston kabi katta turizm salohiyatiga ega bo'lgan hududlar uchun bu ko'rsatkich atrof-muhitga ta'sirni minimallashtiradigan, madaniy merosni saqlaydigan va mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltiradigan barqaror turizm faoliyatidan olingan daromadlarni kuzatib boradi. Barqaror turizm daromadi turizm sektorining iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlarini yaratishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga qo'shgan hissasini aks ettiradi.
<i>Atrof-muhit sifati indeksi</i>	Bu indeks havo va suv sifati, chiqindilarni boshqarish amaliyoti, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan foydalanish kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan hududdagi umumiy atrof-muhit sifatinı baholaydi. Yuqori indeks qiymati atrof-muhitni yaxshi boshqarish va sog'lom ekotizimni ko'rsatadi.
<i>Chidamlilik va moslashish qobiliyati</i>	Bu ko'rsatkich mintaqaning tashqi ta'sirlar va omillarga, jumladan, tabiiy ofatlar, iqtisodiy tanazzullar va iqlim o'zgarishi ta'siriga qarshi turish va tiklanish qobiliyatini o'lchaydi. Bu tabiiy ofatlarga tayyorlik, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari, infratuzilmaning chidamliligi va moslashish qobiliyati kabi omillarni o'z ichiga oladi.
<i>Boshqaruv va institutsional samaradorlik</i>	Bu ko'rsatkich hududlardagi boshqaruv sifati va institutsional asoslarni, jumladan, shaffoflik, hisobdorlik, qonun ustuvorligi, tartibga solish samaradorligi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtiroki kabi omillarni baholaydi.

¹² O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Maxsus samaradorlik ko'rsatkichlari strategik rejalashtirishning shakllanishi va ularning mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu ko'rsatkichlar taraqqiyotni kuzatish, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va qarorlar qabul qilish jarayonlarini xabardor qilish uchun miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Quyida O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish jarayoniga moslashtirilgan ayrim maxsus samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan:

Mazkur maxsus samaradorlik ko'rsatkichlari O'zbekistonda strategik rejalashtirishni shakllantirish va uning mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholash uchun keng qamrovli asos yaratadi.

4. Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lining hal qiluvchi pallasida turibdi, kelajakda katta imkoniyatlar bilan birga ma'lum muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Strategik rejalashtirish va uning barqarorlikka ta'sirini baholash mamlakatni farovonlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy hamjihatlik yo'liga olib borishda muhim ahamiyatga ega. Barqarorlik tamoyillarini strategik rejalashtirish jarayonlariga integratsiyalash orqali O'zbekiston hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda o'zining salohiyatidan to'liq foydalanishi mumkin. Ushbu tadqiqot va o'rganishlar asosida quyidagilarni taklif etamiz:

1. O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlar bo'yicha aniq maqsadlar, ustuvorliklar va harakatlarni ifodalovchi strategik rejalashtirishga urg'u berishi kerak. Istiqbolli sohalar iqtisodiy diversifikatsiya, ijtimoiy inklyuziv, atrof-muhitni muhofaza qilish va innovatsiyalarga asoslangan o'sishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, transport va shaharsozlik kabi asosiy tarmoqlar bo'yicha rivojlanish rejalari va dasturlarida barqarorlik masalalarini asosiy yo'nalishga kiritishi kerak. Buning uchun tarmoq vazifalarini strategik rejalashtirish bilan muvofiqlashtirish hamda iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglik bilan muvozanatlashtiruvchi kompleks yondashuvlarni qabul qilish talab etiladi.

3. O'zbekiston strategik rejalashtirishni amalga oshirish uchun institutsional salohiyat va boshqaruv tuzilmalarini kuchaytirishi kerak. Bu barqaror rivojlanish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, resurslarni safarbar qilish, taraqqiyot monitoringi va davlat idoralari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ilmiy doiralar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus tuzilmalar yoki bo'limlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

4. O'zbekiston inklyuzivlik, shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash uchun strategik rejalashtirish jarayonlarida manfaatdor tomonlarning ishtirokini birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Bu turli manfaatdor tomonlar, jumladan, yoshlar, ayollar va mahalliy jamoalar o'rtasida muloqot, maslahatlashuv va hamkorlik uchun platformalar yaratishni o'z ichiga oladi. Manfaatdor tomonlarni qarorlar qabul qilish va amalga oshirishga jalb qilish orqali O'zbekiston strategik rejalashtirishning qonuniyligi, samaradorligi va barqarorligini oshirishi mumkin.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot asosida ayrim tavsiyalarni keltirib o'tsak:

1. O'zbekiston barqaror rivojlanish muammolari va imkoniyatlarini, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini har tomonlama baholashi kerak. Ushbu baholash ko'p tarmoqli ekspertiza, empirik dalillar va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va strategik rejalashtirish jarayonlarini xabardor qilish uchun ishtirokchi yondashuvlarga tayanishi kerak.

2. O'zbekiston taraqqiyotni kuzatish, ta'sirni baholash va barqaror rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish tajribasini o'rganish uchun mukammal monitoring va baholash mexanizmlarini yaratishi kerak. Bu barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha samaradorlikni o'lchash uchun aniq ko'rsatkichlar va maqsadlarni ishlab chiqish hamda ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobot berish tizimlarini yaratishni talab qiladi.

3. O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslar va ilg'or tajribalarni safarbar qilishda xalqaro tashkilotlar, rivojlanish agentliklari va mintaqaviy sheriklar bilan hamkorlikdan foydalanishi kerak. Bu mintaqaviy tashabbuslarda ishtirok etish, bilim va tajriba almashish hamda barqaror rivojlanish loyihalari va dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

4. O'zbekiston barqaror rivojlanish uchun yangi texnologiyalar, yondashuvlar va yechimlardan foydalanish uchun innovatsiyalar va bilim almashinuvini rivojlantirishi kerak. O'zbekiston innovatsiyalarni o'zlashtirib, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, strategik rejalashtirishni shakllantirish va ularning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholash O'zbekistonning taraqqiyot va barqaror kelajak sari yo'lidagi muhim shartdir. Barqarorlikni asosiy tamoyil sifatida qabul qilish hamda rivojlanishni rejalashtirish va baholashda yaxlit, ishtirokchi va istiqbolli yondashuvni qo'llash orqali O'zbekiston barcha fuqarolari uchun barqarorlik va farovonlik sari yo'lni belgilashi mumkin.

Adabiyotlar:

Aram, J., & Cowen, S. (1990). Strategic planning for increased profit in the small business. *Long Range Planning*, 23, 63-70. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(90\)90103-B](https://doi.org/10.1016/0024-6301(90)90103-B).

Easterby-Smith, M., & Davies, J. (1983). Developing strategic thinking. *Long Range Planning*, 16, 39-48. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(83\)90157-7](https://doi.org/10.1016/0024-6301(83)90157-7).

Idenburg, P. (1993). Four styles of strategy development. *Long Range Planning*, 26, 132-137. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(93\)90215-2](https://doi.org/10.1016/0024-6301(93)90215-2).

Kotov, R. (2022). Effect of Strategic Planning on the Sustainable Development of Regional Economy. *Bulletin of Kemerovo State University. Series: Political, Sociological and Economic sciences*. <https://doi.org/10.21603/2500-3372-2021-6-4-548-559>.

Lobkova, E., Lobkov, K., & Mehta, N. (2021). Strategic Planning of Regional Development as Instrument of Ensuring Stability and Economic Security of a Territory. *E3S Web of Conferences*. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202129501019>.

Patel, P., & Younger, M. (1978). A frame of reference for strategy development. *Long Range Planning*, 11, 6-12. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(78\)90109-7](https://doi.org/10.1016/0024-6301(78)90109-7).

Siegler, R. (1999). Strategic development. *Trends in Cognitive Sciences*, 3, 430-435. [https://doi.org/10.1016/S1364-6613\(99\)01372-8](https://doi.org/10.1016/S1364-6613(99)01372-8).

Tsyppkin, Y., Fomin, A., Kamaev, R., Kozlova, N., & Gubarev, E. (2020). Strategic digital model for sustainable spatial regional development. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 579. <https://doi.org/10.1088/1755-1315/579/1/012138>.

Qaror (2020) O'zbekiston Reapublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ-4702-sonli.

Qaror (2021) Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 avgustdagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 536-sonli qarori;

Veckalne, R., & Tambovceva, T. (2022). SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT PLANNING. 12th International Scientific Conference "Business and Management 2022". <https://doi.org/10.3846/bm.2022.799>.

Vasilevska, L., & Vasić, M. (2009). Strategic planning as a regional development policy mechanism: European context. , 19-26. <https://doi.org/10.2298/SPAT0921019V>.

Voit, D. (2021). Strategic imperatives of sustainable economic and social development of the region in transformational conditions. *Economies' Horizons*. [https://doi.org/10.31499/2616-5236.1\(12\).2020.225192](https://doi.org/10.31499/2616-5236.1(12).2020.225192).



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISH

i.f.d., professor **Pardayev A.X.**, dotsent **Pardaeva Z.A.**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlarida hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish xususiyatlari o'rg'anilgan. Maqolada, avvalambor, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida tashkil etilishi va moliyaviy hisobotlarning globallashtirish jarayonida ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Shuningdek maqolada, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash natijalari, uning uslubiy, umumiy, texnik va tashkiliy tuzilmasi o'rganiladi hamda uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va shu orqali aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini standartlari, aksiyadorlik jamiyatlari, kreditorlar, investitsiya, balans, zaxira, xarajatlar moliyaviy hisobot.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности составления финансовой отчетности в акционерных обществах Республики Узбекистан на основе международных стандартов. В статье в первую очередь рассматриваются вопросы организационно-бухгалтерского учета на основе международных стандартов бухгалтерского учета и значение финансовой отчетности в процессе глобализации.

В статье также рассматриваются результаты применения международных стандартов финансовой отчетности в акционерных обществах, ее методологическая, общетехническая и организационная структура, а также рассматривается разработка предложений по ее совершенствованию на основе международных стандартов финансовой отчетности, что позволит улучшить финансовую отчетность в акционерных обществах.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, акционерные общества, кредиторы, инвестиции, баланс, резерв, расходы, финансовая отчетность.

Abstract. The article discusses the features of reporting organization in joint-stock companies of the Republic of Uzbekistan based on International Financial Reporting Standards. The article primarily examines the issues of accounting organization based on international accounting standards and the importance of financial reporting in the process of globalization.

The article also discusses the results of applying International Financial Reporting Standards in joint-stock companies, its methodological, general technical and organizational structure, and also considers the development of proposals for its improvement based on International Financial Reporting Standards, which will improve financial reporting in joint-stock companies.

Keywords: international Financial Reporting Standards, joint-stock companies, creditors, investments, balance sheet, reserve, expenses, financial reporting.

1. Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, bu mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligi va ravshanligiga erishish uchun zarurdir. Ushbu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan standartlarini - xalqaro hisobot standartlarini qo'llash bilan bog'lqdir. So'nggi yillarda respublikamizda har yili xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha qator natijalarga erishildi va bugun biz bu ulkan ishning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o'tdik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (2020) va unga muvofiq 18 banddan iborat "Yo'l xaritasi" bu boradagi jiddiy ishlardan dalolat beradi. Shunday ekan, biz xalqaro maydonga, jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro darajaga mos kelishi kerak. Mazkur qarorda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha yo'riqnoma va ko'rsatkichlar keltirilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo'llash orqali yanada yaxshi natijalarga erishish, axborotni yangilash, buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarni byudjetga yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlash, ishonchliligi va axborotni boshqarish, davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, natijalarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarning globallashuv jarayonida mamlakat majburiyatlari qandayligi va o'z resurslari bilan qanday boshqarishi vaziyatni yaratishi mumkinligi, shuningdek, moliyaviy ahvolni tushunishga asoslanib, bu xorijiy investitsiyalar va donor mablag'larini ko'paytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida farmonida mamlakatimiz hududlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar belgilab berildi. Ushbu strategiyaning 26-maqsadi: "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, 70 milliard AQSh dollari miqdorida moliyaviy investitsiyalar jalb etilishi nazarda tutilgan. "Pastdan-yuqoriga" tamoyiliga asoslangan, samarali sarmoyaviy qo'llab-quvvatlash va eksport hajmiga asoslangan yangi tizimni yaratishdir. Shu nuqtai nazardan ko'rinib turibdiki, bu mamlakatimiz hisob amaliyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va shu orqali chet el ishbilarmonlarini mamlakatimizning davlat va xususiy korxonalariga bo'lgan qiziqishini oshirish, ishonchli, shaffof va tushunari hisobot tizimini yaratish vazifasi qo'yilmoqda.

Shu maqsadda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan xorijiy hamkorlar o'rtasidagi aloqalar jadal kengaymoqda, xo'jalik hisobi hisobotidan xorijda foydalanish hajmi hamon yuqori. Shu munosabat bilan xalqaro fond bozorlarida ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) doirasida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq o'zgartirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishni keng ko'lamli va sifatli amalga oshirish ijrosida kadrlar masalasi asosiy masala hisoblanadi. Shu sababli, biznes sub'ektlarining xalqaro ishbilarmonlik tilida o'z nomidan ma'lumotlarni hamma uchun tushunarli va aniq shakllarda olish, buxgalteriya hisobi va audit sohasining kasbiy mahoratiga, shaxsiy tajribalar va intuitsiyalarda aldanmaydigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha chet el va mahalliy iqtisodchilar va amaliyotchilar (auditorlar, buxgalterlar, tahlilchilar) izlanishlari va turlicha yondashuvlaridan kelib chiqib ta'rif berganlar. Shu borada olib borilgan tahlillar natijasi ko'rsatadiki, ta'riflarning barchasi yagona maqsadni ko'zlaydi, ya'ni hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish va

xalqaro moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan qoidalar majmuasidan iborat. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) – bu amaliyotchi buxgalterlarning faoliyatini murakkablashtiradigan ba’zi bir qoidalar to’plami emas, balki, mantiqan buxgalteriya hisobi tizimining oddiy tamoyillariga asoslanadi, uning maqsadi moliyaviy hisobotlarda korxona faoliyati to’g’risida haqqoniy moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdan iboratdir (Karimov, Ibragimov va boshq., 2021).

Xorij olimlaridan Jessika X.Yang, Nada Kakabadze va Dmitro Lazovskiylar (2013) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining asosiy maqsadi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir, degan xulosaga kelishgan.

Boshqa bir iqtisodchi olim moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining qabul qilinishi jahon mamlakatlarida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligiga bo’lgan ehtiyojning ortishi bilan bog’liqdir, deb ta’kidlagan (Auwalu Musa, 2019).

L.V.Gusarovaning (2012) qayd etishicha, MHXS bo’yicha hisobot tuzadigan kompaniya haqida axborot potensial investorning moliyalashtirish ular bilan bog’liq risklarni tushunishi va baholashi uchun yetarlidir. Shunday qilib, xo’jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan moliyaviy hisobotlar tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish ularning moliyalashtirish manbalari uchun kurashdagi raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

N.V.Malinovskayaning (2011) fikricha MHXSning ahamiyati shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida integratsiya aloqalarini rivojlantirish uchun dunyoning barcha mamlakatlarida barcha foydalanuvchi tushunishi uchun oson bo’lgan moliyaviy hisobotlar tuzish maqsadga muvofiq, deb ta’kidlaydi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, hisobotlar muvofiqlashtirilganligi sababli investorlar ularni tushunish uchun ularni qayta ishlash va tuzatishga vaqt va pul sarflashlari shart emas. MHXS asosida tayyorlangan hisobotlar investorlar uchun xarajatlarni kamaytiradi. Bundan tashqari, axborotning shaffofligi va ravshanligi tufayli ular aksiyalarni tanlashda kamdan-kam xato qilishadi. Bir tomondan, aksiyalar qiymatining oshishi, ikkinchi tomondan, aksiyalar bloki kompaniyalarni yangi investitsiyalar uchun jozibador qiladi. Yo’qotishlarni darhol tan olish xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining asosiy xususiyatlaridan biridir. Chunki bu nafaqat investorlar, balki kreditorlar va kompaniyaning boshqa manfaatdor tomonlariga ham foyda keltiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida MHXSni qo’llash natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo’yicha olib borilgan ilmiy maqola jarayoni asosan deduktiv usul bo’yicha amalga oshirildi. Bu umumiy bilimdan xususiy bilimga o’tish usuli. Dekart inson ongini juda qadrlaydi, buning natijasida u ratsionalizmni rivojlantiradi¹³.

Aksiyadorlik jamiyatlarida hisobotlarning MHXSlari talablariga muvofiqligini taminlash, natijalarini umumlashtirish kelajakdagi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga, shuningdek, investitsiyalar harakatini prognozlash, tushuntirish va tushunishga olib keladi. Shuningdek, Aksiyadorlik jamiyatlarida hisobotlarni MHXSlar talablari asosida shakillantirish holatini o’rganish uchun tanlab olingan ob’yekt “O’zbekiston temir yo’llari” AJ natijalarining ishonchliligi tekshiruv va kuzatuvlar asosida tasdiqlandi.

Bundan tashqari, ilmiy maqolada xorijlik olim va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari asosida “O’zbekiston temir yo’llari” aksiyadorlik jamiyati hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlash va ularni talablarga moslashtirishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

¹³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Deduktiv_metod

4. Tahlil va natijalar.

“O‘zbekiston Temir Yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida MHXSni qo‘llash va takomillashtirish jarayoni moliyaviy shaffoflikni, raqobatbardoshlikni va global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiradi. Biroq, bu jarayonda kadrlar malakasi, texnologik yangilanishlar va moliyaviy nazorat jarayonlarini takomillashtirish kabi muammolarni hal etish zarur. Shu bilan birga, taklif etilgan chora-tadbirlar orqali kompaniya kelgusida yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasi ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish eng oddiy va hamma uchun tushunarli usullarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Uning ana shunday unsurlaridan biri – moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini gorizonttal va vertikal tahlil qilishga qulay tarzda taqdim etish hisoblanadi. Maqolada shu unurning ishlash mexanizmini batafsil talqin qilamiz.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari va unda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari unsurlarining amal qilish holatini 2022-2023 yillardapsh balans aktiv moddalarining gorizonttal va vertikal (1,2 va 3-jadvallar) tahlil orqali ko‘rib chiqamiz.

1-Jadval

"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ balansi aktiv moddalarining gorizonttal tahlili

Ko'rsatkichlar	2022 yil (mlrd so'm)	2023 yil (mlrd so'm)	Mutloq farq (mlrd so'm)	O'sish surati (%)
Balans jami aktivi	38 914	40 206	1 292	103,3
1. Uzoq muddatli aktivlar	26 107	24 331	-1 776	93,2
2. Joriy aktivlar	12 806	15 874	3 068	12,4
2.1. Zaxira va xarajatlar	9 198	9 250	52	100,6
2.2. Debitorlik qarzlari	3 093	6 333	3 240	204,8
2.3. Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar	505	281	-224	55,6

Gorizonttal tahlil natijalari (2023 yil yakunining 2022 yil yakuniga nisbatan o‘zgarishi hisobida):

- **Balans jami aktivlari** 1 292 mlrd so'mga o'sgan (103,3%);
- **Uzoq muddatli aktivlar** 1776 mlrd so'mga kamaygan (93,2%);
- **Joriy aktivlar** 3 068 mlrd so'mga o'sgan (12,4%), bu joriy aktivlarning o'sishi bilan bog'liq;
- **Debitorlik qarzlari** 204,8% o'sish ko'rsatmoqda, bu kompaniyaning qarz olish faoliyatini ko'rsatadi;
- **Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar** kamaygan, bu 55,6% o'sish sur'ati bilan ko'rsatadi.

2. Vertikal tahlil:

Vertikal tahlil har bir komponentning jami aktivlar ichidagi ulushini ko'rsatadi.

Vertikal tahlil natijalari:

- **Uzoq muddatli aktivlar** ulushi 67,1% dan 60,5% ga tushgan, bu uzoq muddatli aktivlarining kamayganligini ko'rsatadi;
- **Joriy aktivlar** ulushi 32,9% dan 39,5% ga oshgan, bu joriy aktivlarga e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi;
- **Debitorlik qarzlari** ulushi 24,2% dan 39,9% ga oshgan, bu kompaniyaning moliyaviy riskini oshirishi mumkin;

• **Pul mablag'lari** ulushi 3,9%dan 1,8%ga kamaygan, bu likvidlik muammolarini ko'rsatishi mumkin.

Vertikal tahlil natijalari ko'rsatgan oxirgi 2 holat, ya'ni joriy aktivlardagi uzoq muddatli debitorlik qarzdari ulushining oshishi hamda pul mablag'lari ulushining kamayishi kompaniya rahbarlari tomonidan alohida o'rganilishi va ularni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining 2022-2023 yil balans hisobotidagi gorizontaal va vertikal tahlil natijalari, kompaniyaning moliyaviy holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Uzoq muddatli aktivlarning kamayishi, joriy aktivlarning o'sishi va debitorlik qarzlarning ko'payishi moliyaviy strategiyani o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi (3-Jadval).

Ayniqsa joriy aktivlar tarkibidagi debitorlik qarzlari summasining katta miqdorda o'sishi juda jiddiy e'tiborni talab qiladigan omildir. Kompaniya rahbariyati debitorlik qarzlari o'sishini vujudga keltirgan omillarni zudlik bilan tahlil qilib chiqishi va uning miqdorini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilashi kerak bo'ladi (3-Jadval), aks holda katta miqdordagi aylanma mablag'larining aylanishdan chetlashishi kelib chiqishi mumkin, bu esa oxir oqibatda kompaniya moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelishi muqarrar. Shaffoflik va likvidlikni oshirish uchun qo'shimcha choralar ko'rish tavsiya etiladi.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining 2022-2023 yillar balans passiv moddalarining gorizontaal va vertikal tahlilini jadval ko'rinishida keltiramiz (2-jadval).

2-jadval

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ balans passiv moddalarining gorizontaal tahlili

Passiv moddalari	2022 yil (mlrd so'm)	2023 yil (mlrd so'm)	Mutloq farq, (mlrd. so'm)	O'sish surati, (%)
Balans passivi jami	38 914	40 206	1 292	3,3
O'z mablag'lari manbalari	15 968	13 521	-2 446	-15,3
Majburiyatlar	22 945	26 685	3 740	16,3
Uzoq muddatli majburiyatlar	20 426	23 584	3 158	15,5
Qisqa muddatli majburiyatlar	2 519	3 100	581	23,1

3-jadval

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ balans passiv moddalarining vertikal tahlili

Passiv moddalari	01.01.2023, (%)	01.01.2024, (%)
Balans passivi jami	100,00	100,00
O'z mablag'lari manbalari	41,03	33,63
Majburiyatlar	58,97	66,37
Uzoq muddatli majburiyatlar	52,49	58,66
Qisqa muddatli majburiyatlar	6,47	7,71

Gorizontaal tahlilda ko'rsatilganidek, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ umumiy balans passivi o'tgan yilga nisbatan o'sgan, lekin o'z mablag'lari pasaygan;

• **Vertikal tahlil**da esa majburiyatlar ulushi o'sib, o'z mablag'lari ulushi kamaygan;

• **O'z mablag'lari:** 2023 yildan 2024 yilga o'tish jarayonida pasaygan, bu moliyaviy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin;

• **Majburiyatlar:** Umumiy majburiyatlar o'sgan, ayniqsa uzoq muddatli majburiyatlar. Bu kompaniya moliyaviy xavfini oshirishi mumkin, lekin shuningdek, investitsiya faoliyatini ham ko'rsatadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) xalqaro darajada qabul qilingan moliyaviy hisobotlarning asosiy ko'rsatkichlaridir. Ular aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy holatini aniq va to'liq ko'rsatishga yordam beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun shaffof moliyaviy hisobotlar taqdim etishlari kerak.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo'llash aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilashga, barqarorlikni oshirishga va xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlashga yordam beradi.

"O'zbekiston Temir Yo'llari" AJ MHXSni joriy etish orqali global moliya bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishga va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda davom etishi muhimdir. Bu jarayonlar nafaqat moliyaviy holatni yaxshilash, balki kompaniyaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ham xizmat qiladi.

5. Xulosa.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning hisobotlarini xalqaro standartlarga o'tkazish va takomillashtirish jarayonida quyidagi taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish:

• IFRS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) asosida hisobotlarni tayyorlashni boshlash. Ularning har bir talabi va qoidalarini o'rganish va tatbiq qilish;

• Hisobotlarning tarkibini va formatini xalqaro standartlarga moslashtirish. Hususan, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (Balance Sheet), foyda va zarar to'g'risidagi hisobot (Income Statement), naqd pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (Cash Flow Statement) va aksiyadorlar kapitali to'g'risidagi hisobot (Statement of Changes in Equity) larni.

2. Kadrlarning malakasini oshirish:

• Xodimlarga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha treninglar o'tkazish va sertifikatlashni amalga oshirish. Auditorlik va hisobotlar bo'yicha tajribali mutaxassislarini jalb qilish;

• Xalqaro tajribaga ega moliyaviy mutaxassislar va auditorlar bilan maslahatlashish va tajriba almashish.

4. Moliyaviy hisobotlar shaffofligini ta'minlash:

• Hisobotlar muhim moliyaviy ko'rsatkichlarni aniq va shaffof ko'rsatishi kerak. Ma'lumotlar to'g'riligini va ishonchligini ta'minlash uchun ichki nazorat tizimini mustahkamlash;

• Ichki va tashqi audit jarayonlarini muntazam ravishda o'tkazish va auditorlik xulosalariga asoslanib, hisobotlarni takomillashtirish.

5. Investorlar bilan muloqotni kuchaytirish:

• Investorlar uchun hisobotlarni aniq, tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish. Moliyaviy ma'lumotlar va prognozlar to'g'risida batafsil ma'lumot berish;

• Investorlar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning savollariga tez va aniq javoblar berish.

6. Risklarni boshqarish:

• Hisobotlarni tayyorlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash va ularni minimallashtirish uchun choralar ko'rish;

• Hisobotlarning sifatini ta'minlash uchun ichki nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish.

7. Ommaviy axborot vositalarida faoliyatni kengaytirish:

• Hisobotlarni va moliyaviy natijalarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali kompaniyaning ochiqqligini ta'minlash.

8. Davriy takomillashtirish:

- Davriy ravishda hisobotlarni ko'rib chiqish va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish;
- Xalqaro standartlardagi o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish va hisobotlarni ular asosida yangilash.

Ushbu taklif va tavsiyalar "O'zbekiston temir yo'llari" AJning hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va takomillashtirishda yordam beradi, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Adabiyotlar:

Auwalu Musa. (2019) *The Role of IFRS on Financial Reporting Quality and Global Convergence: A Conceptual Review.*//*International Business and Accounting Research Journal* Volume 3, Issue 1, January, 67-76.

Gusarova L.V. (2012) *Notijorat tashkilotning moliyaviy hisobotini MHXS formatiga o'tkazish metodologiyasi* // *Byudjet va notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi*, № 5. bet. 17–30.

Jessica Hong Yang, Nada Kakabadse, Dmytro Lozovskyi. (2013) *International financial reporting standards (IFRS)* // *Journal of Governance and Regulation* / Volume 2, Issue 3, Continued – 1.

Karimov A.A., Ibragimov A.K., N.K.Rizaev, N.M. Imamova. (2021) *Xalqaro moliyaviy hisob standartlari.* /Darslik. – Toshkent. -315 b.

Malinovskaya N.V. (2011) *Buxgalteriya hisobotining yangi shakllari va ularning MHXS talablari bilan yaqinlashishidagi roli* // *Xalqaro buxgalteriya hisobi*. № 32. bet. 23–27.

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori*, www.lex.uz.



ASOSIY VOSITALAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Sanokulova N.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada asosiy vositalar hisobini uslubiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish masalalari yoritilgan. Jumladan, asosiy vositalarni BHMS va MHXS asosida tan olish mezonlari, asosiy vositalarning kirimi, turkumlanishi, chiqib ketishi, moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar to'g'risidagi axborotlarni to'g'ri yetkazib berish haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, asosiy vositalarni turkumlash, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы методического и организационного совершенствования учета основных средств. В частности, обсуждались критерии признания основных средств на основе НСБУ и МСФО, ввод основных средств, классификация, отток, корректность представления информации об основных средствах в финансовых отчетах.

Ключевые слова: основные средства, классификация основных средств, финансовая отчетность, бухгалтерский учет, международные стандарты.

Abstract. The article discusses the issues of methodological and organizational improvement of fixed asset accounting. In particular, the article deals with the criteria for recognizing fixed assets based on the National Accounting Standards and IFRS, the entry, classification, disposal of fixed assets, and the correct presentation of information about fixed assets in financial statements.

Keywords: fixed assets, classification of fixed assets, financial reporting, accounting, international standards.

1. Kirish

Iqtisodiyotni taraqqiyot strategiyasi asosida rivojlantirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligini oshirish faqat yollanma mehnat, tovar-moddiy zaxiralar aylanmasi orqali emas, balki, asosan, har qanday tarmoq yoki tashkilotning moddiy-texnik bazasining asosiy qismini tashkil etuvchi asosiy vositalarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri korxonalarni asosiy vositalar bilan zarur miqdorda, assortimentda hamda to'liqroq ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Mavjud hisob tizimi ayrim hollarda yetarlicha samarali emasligi, ma'lumotlarning noaniqligi, amortizatsiya hisob-kitoblarida xatoliklar va eskirishning to'g'ri baholanmasligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi 4611-son qarori (2020) mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda yuritish borasida tub burilish yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu qarorning qabul qilinishidan maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat. Ushbu qarorda 2021-yil 1-yanvardan boshlab, mamlakatimizdagi barcha yirik soliq to'lovchi korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari va taqdim etishlari belgilab qo'yildi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi, amortizatsiyasi bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan I.Melnikov, Ye.Sivkov, T.Yu.Sergeeva, Yu.Tryashenko, Yu.A.Babaev, A.M.Petrov, V.K.Sklyarenko, V.M.Prudniko, X.P.Raymond, A.A.Dodonov hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, D.Kudbiev, I.N.Ismanov, K.B.Urazov, S.N.Tashnazarov, B.O.Bolibekov, D.M.Matkarimov, Q.X. Xatamov va boshqalarning ilmiy asarlarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan ya'ni nazariy-uslubiy masalalar yoritib berilgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor N. Ismanov (2006) fikriga ko'ra "Asosiy vositalar – bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar".

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor D. Kudbiyev (2022) asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Asosiy fondlar uzoq vaqt davomida moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida ishlaydi, tabiiy shaklini saqlab qoladi va eskirganligi- yaroqsizligi sababli asta-sekin, qismlab, foydalanish o'lchoviga (holatiga) qarab o'z qiymatini yo'qotadi. Moddiy ishlab chiqarishda asosiy fondlar yo'qotgan qiymatini ular yaratgan mahsulotga o'tkazadi".

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Z.N. Kurbanov (2021) ta'rifi bo'yicha "Asosiy vositalar tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish va xizmatlarni ko'rsatish, ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, uzoq davr davomida ishlatiladi, o'zini natural shaklini o'zgartirmaydi, faqat eskirish qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ko'rsatilgan xizmat) tannarxiga yoki davr xarajatlariga o'tkazib boradi".

A.S. Alisenovga ko'ra (2017) "Asosiy vositalar-bu ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etadigan va o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga qismlarga bo'lib o'tkazadigan, shu bilan birga moddiy shaklini o'zgartirmaydigan mehnat vositalari".

V.K. Sklyarenko esa (2019) "Asosiy vositalar – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko'rsatadigan, butun davr mobaynida o'z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan va amortizatsiya to'lovlari shaklida eskiradigan mahsulotlarga o'z qiymatini qismlarga bo'lib o'tkazadigan ishlab chiqarish, moddiy va moddiy qiymatliklar majmuyi" deb ta'rif berdi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlari sharhi shuni ko'rsatadiki, ular tomonidan asosiy vositalar hisobi va ulardan foydalanishni tahlil qilishga bag'ishlangan bir-biriga yaqin bo'lgan yondashuvlarni e'tirof etishgan. Bizning fikrimizcha, korxona va tashkilotlar BHMS talablaridan kelib chiqqan holda, asosiy vositalar hisobini tashkil etish va ularni yuritish uchun BHXS ga o'tishi zarur.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning asosiy vositalar hisobini takomillashtirishdagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

4. Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga ko'ra "Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi" (Qonun, 2016).

Bizga ma'lumki aktivlar o'z navbatida ikki qismga qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarga turkumlanadi. Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shu sababdan asosiy vositalar hisobi buxgalteriya hisobini asosiy obyektlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 5-son buxgalteriya hisobi milliy standarti "Asosiy vositalar" ning yangi tahriri 2024-yil 9-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi. Mazkur buyruq 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

5-son BHMS "Asosiy vositalar"ga ko'ra quyidagi ta'rifga javob bergan hisob obyektlari asosiy vositalar sifatida tan olinishi belgilab berilgan:

- 1 yildan ortiq xizmati muddati;
- Bir-birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqqini haqqi miqdorining 50 barobaridan ortiq bo'lgan buyumlar;
- Ijaraga berilishi mumkin bo'lgan aktivlar.

Buxgalteriya hisobi uchun asosiy vositalar turli mezonlarga muvofiq tasniflanadi. Tashkilotning asosiy fondlari tarkibi va maqsadi jihatidan xilma-xildir. Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish uchun ular turi, maqsadi, bo'linmalari, foydalanish va egalik qilish darajasi bo'yicha tasniflanishi kerak (Shakarov, 2000).



1-rasm. Asosiy vositalarni turkumlash

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli yo'naltirilgan asboblari va moslamalar);
- kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallari;
- ko'rpa-to'shak anjomlari;
- oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;

- yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va boshqalar);
- tiklanishi bo'yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik moslamalar va qurilmalar;
- ov qurollari.

Asosiy vositalar tarkibiga ko'chmas mulk ham hisobga olinadi. Ko'chmas mulk-xo'jalik yurituvchi subyektlarda mavjud mol-mulki yer bilan uzviy bog'langan va huquqiy jihatdan mustahkamlangan, o'zining maqsadli foydalanish vazifasiga va ahamiyatiga shikast yetkazmasdan turib boshqa joyga ko'chirishning imkoni bo'lmagan tovarlar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ularni yetkazib berishda, lizing, ijara va ma'muriy maqsadlarda uzoq muddat davomida foydalaniladigan obyektlar hisoblanadi. Ko'chmas mulkni baholashda xarajat, taqqoslash (bozor) va daromad usullari asosida yuritiladi. Ko'chmas mulkni baholashda xarajat usuli maqbul usul bo'lib, obyektning yaratishda qilingan xarajatlarni uning qiymati bilan solishtirgan holda amalga oshiriladi. Bu usul yuridik va jismoniy shaxslar mulkini soliqqa tortish maqsadida foydalaniladi.

Jahon amaliyotida ko'chmas mulk qiymatini qayta ko'rib chiqish yoki qayta baholash muddati quyidagicha:

- Yaponiyada har 3 yilda mulkning qiymati qayta ko'rib chiqiladi;
- Ispaniyada ko'chmas mulkning kadastr qiymati har 8 yilda qayta baholadi;
- Fransiyada kadastr qiymati o'zgarmas (keying 50 yilda o'zgarmasdan qolgan);
- AQSH da soliqqa tortish maqsadida ko'chmas mulkning bozor qiymati qayta baholanadi;
- Rossiya Federatsiyasida ko'chmas mulkning kadastr qiymatida soliqqa tortiladi.

1-jadval


Asosiy vositalarni bajaradigan vazifasiga ko'ra turkumlash

Turkum	Tarkibi
Ishlab chiqarish vositalari	Sanoat mashinalari, presslar, robotlar, ishlab chiqarish liniyalari
Transport vositalari	Avtomobillar, poyezdlar, samolyotlar, kemalar
Komunikatsiya vositalari	Telefonlar, radio, televizor, internet tarmoqlari
Mehnat vositalari	Qaychi, bolg'a, pichoq, shpagat, kompyuter
O'lchov vositalari	Mikroskop, termometr, voltmeter, dinamometr
Ta'lim vositalari	Darsliklar, multimedia, o'quv materiallari, interaktiv ta'lim tizimlari
Kuzatuv vositalari	Kamera tizimlari, radarlar, sensorlar, meteorologik asboblari
Boshqaruv vositalari	Rejalashtirish dasturlari
Yuridik vositalar	Shartnomalar, qonunlar, nizomlar, sud hujjatlari

Asosiy vositalarning bunday guruhlanishidan maqsad resurslarni samarali boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish, texnik xizmatni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda yaxshilash va kompaniyaning strategik qarorlar qabul qilish jarayonini osonlashtirishdir. Bu turkumlash vositalarning ishlatilish muddati va intensivligini hisobga olib, har bir vosita uchun aniq boshqaruv va ta'mirlash strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Asosiy vositalarni joylashgan joyi (javobgarlik markaz)lari bo'yicha turkumlanishi:

- Asosiy ishlab chiqarishdagi;
- Umumishlab chiqarishdagi;
- Yordamchi ishlab chiqarishdagi;
- Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardagi;
- Materiallarni tayyorlash va xarid qilishdagi.



2-rasm. Asosiy vositalar foydalanish darajasiga ko'ra turkumlash

Buxgalteriya sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga haqqoniy, to'liq va to'g'ri ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berish hamda investitsion qarorlarni qabul qilish uchun asos sifatida foydalana olinishi mumkin bo'lgan darajaga ko'tarishdir. Biroq mamlakatimiz me'yoriy-huquqiy hujjatlarida keltirib o'tilgan shart va talablar bu maqsadlarni bajarish uchun yetarli emas. Mamlakatimizda yaqin yillargacha barcha xo'jalik subyektlari buxgalteriya hisobida asosiy vositalar hisobini tashkil etish, ya'ni ularni tan olish, baholash, amortizatsiyasi 5-son "Asosiy vositalar" nomli BHMSda tartibga solingan, ammo talablarga javob bermaydi. Shu sababdan, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatni xalqaro standartlar talablari asosida qayta shakllantirish va yangidan qabul qilish zarurati yuzaga chiqadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida buxgalteriyada asosiy vositalarni hisobga olish bir nechta moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tartibga solinadi. 16-son BHXS "Asosiy vositalar", 5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat", 17-son BHXS "Ijara", 40-son BHXS "Investitsion mulk" hamda 13-MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash" kabi xalqaro standartlar shular jumlasidandir (Raximova, 2023).

Asosiy vositalarni hisob jarayonini tashkil etishda milliy va xalqaro standartlar talablari orasida juda katta tafovut mavjud. Jumladan, asosiy vositalarning tasniflanishi, asosiy vositalarni kirim qilish jarayonlari, asosiy vositalarga eskirish hisoblash jarayonlari, ijara munosabatlarini hisobga olish masalalarini sanab o'tish mumkin. Asosiy vositalar hisobi moliyaviy hisobning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib "tarixiy qiymat" yoki "qayta baholash" usullarida hisobga olinishi mumkin. Milliy hisoblar tizimida esa bu haqda ma'lumotlar keltirilmagan.

Kirim qilish jarayonida MHXSga ko'ra asosiy vositalar qiymatining yirik qismini tashkil etgan, asosiy vositadan farqli xizmat muddatiga ega bo'lgan elementlari alohida hisob ob'ekti sifatida kirim qilish va ularga alohida eskirish usullarini qo'llash, asosiy vositalar boshlang'ich qiymati tarkibiga demontaj xarajatlarining diskontlangan qiymatlarini kiritish mumkinligi aytilgan bo'lsa, BHMSda bu haqda ham yetarli ma'lumotlar keltirilmagan (Ergasheva, 2021).

Xalqaro tajribalar talablari bo'yicha asosiy vositalarning hisobini tashkil qilishda asosiy jihatlaridan yana biri bu, asosiy vositalarni sotib olinib, foydalanishga topshirgandan keyin amalga oshiriladigan xarajatlar, jumladan ta'mirlash, xizmat ko'rsatish yoki yaxshilanish quyidagi usullarning biri bo'yicha hisobga olinadi:

- Xarajat sifatida tan olinadi;
- Kapitallashtiriladi;
- Jamg'arilgan eskirishni kamaytirilishi sifatida tan olinadi.

2-jadval

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobida tan olish mezonlari va boshlang'ich qiymat tarkibini 5-BHMS bilan 16-MHXS dagi asosiy normalarni taqqoslama jadvali

Ko'rsatkichlar nomi	16-MHXS "Asosiy vositalar"	5-sonli BHMS
Asosiy vositalar tushunchasi va tan olishning mezonlari	Kompaniya tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, boshqa kompaniyalarga ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan va bir muddatdan ko'proq foydalanishi kutilayotgan moddiy boyliklar (16-IAS) 16-bandining 6-bandi. Aktivlarni tan olish mezonlari: asosiy vositalar obyektining tannarxi faqatgina quyidagi shartlar bajarilganda aktiv sifatida tan olinadi: - tadbirkorlik subyekti tomonidan asosiy vosita bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo'lsa; - aktivning tannarxi ishonchli baholay olsa.	Asosiy vositalar — tashkilotning uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarish jarayonida foydalaniladigan, shuningdek ijaraga berish mumkin bo'lgan moddiy aktivlar. Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beriladigan moddiy aktivlar kiritiladi: - bir yildan ortiq xizmat muddati; - bir birlik uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik barovaridan ortiq bo'lgan buyumlar.
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati tarkibi	Asosiy vositalarning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi: - savdo chegirmalarini va imtiyozlarini chegirish holda, uning xarid narxi, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar; - aktivni undan tadbirkorlik subyekti rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga olib kelishi bilan bog'liq bevosita xarajatlar; - asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan joydagi tabiiy resurslarni qayta tiklash xarajatlarining boshlang'ich bahosini. Tadbirkorlik subyekti asosiy vosita sotib olingan paytda yoki undan ma'lum davr mobaynida tovar-moddiy qimmatliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish oqibatida ushbu xarajatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi.	Asosiy vositalar boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi: - ro'yxatga olish yig'implari, davlat bojlari va asosiy vositalarga bo'lgan huquqni xarid qilish bo'yicha amalga oshirilgan boshqa shunga o'xshash to'lovlar; - bojxona bojlari va yig'implari; - asosiy vositalar obyektlarini xarid qilish (barpo etish) munosabati bilan soliqlar va yig'implar summalar (agar ular qoplanmasa); - asosiy vositalar obyektlarini xarid qilish (barpo etish) bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to'lanadigan summalar; - asosiy vositalar obyektlarini yetkazib berish (barpo etish) xatarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar.

Agar korxona tomonidan aktivni foydalanishdan dastlab kutilayotgan bo'lg'usi iqtisodiy naflar oshish ehtimoli yuqori deb, hisoblansa, xarajatlar tegishli aktivning balans qiymatiga qo'shilishi mumkin. Asosiy vositalar ob'ektlari bilan bog'liq keyin amalga oshiriladigan xarajatlar faqat ular aktivning holatini yaxshilasa, yoki oldindan hisoblangan dastlabki me'yorlarga qaraganda uning unumdorligini oshirsa aktiv sifatida tan olinishi mumkin.

5. Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asosiy vositalar tashkilotning faoliyatini yuritishda katta rol o'ynaydi. Ammo asosiy vositalarni hisobga olish va boshqarishda ko'plab muammolar uchraydi. Ushbu muammolar korxona moliyaviy hisobotlarining ishonchliligiga ta'sir ko'rsatadi hamda resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Masalan, noto'g'ri qiymatlash va eskirishning o'z vaqtida hisoblanmasligi, hujjatlashtirish va hisobga olishdagi kamchiliklar, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilmasligi, bozordagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikning pastligini ko'rsatadi. Shunga asosan, korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

1. Avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish. 1C: Buxgalteriya yoki shunga o'xshash dasturlarni joriy etish hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish va xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi.

2. Tovar hisobini optimallashtirish. Har bir mahsulotning kirim va chiqim hisobini doimiy kuzatib borish uchun ombor hisobining aniq va shaffof tizimini yaratish zarur. Ya'ni FIFO yoki LIFO usullaridan samarali foydalanish.

3. Moliya boshqaruvini mustahkamlash. Xarajatlar va daromadlar tahlilini o'z vaqtida olib borish uchun muntazam hisobot tizimini tashkil qilish.

4. Ichki nazorat tizimini kuchaytirish. Firibgarlik va noto'g'ri hisob-kitoblarning oldini olish uchun ichki audit tizimini yo'lga qo'yish.

Adabiyotlar:

Ergasheva Sh.T. (2021) *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik.* – T.: TDIU, -310 b.

Ismanov I.N. (2006) *Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari. Monografiya.* – T.: Fan, -172 b.

Kudbiyev D. (2022) *Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 142–149 b.

Kurbanov Z.N. (2021) *Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. "Экономика и социум" № 6(85) ч. 752–763-b.*

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.*

Qonun (2016) *O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" 2016 yil 13 apreldagi O'RQ-404-sonli Qonuni* – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi.

Raximova G.M. (2023) *Asosiy vositalar hisobi va auditni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Monografiya.* – T.: "TIQXMMI" MTU, -137 b.

Shakarova A. (2000) *"Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish" (mulkchilikning turli shakllarida). Toshkent moliya instituti. Iqtisodiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasiga Avtoreferat:*

Алисенов А.С. (2017) *Бухгалтерский финансовый учет: учебник и практикум для академического бакалавриата.* - М.: Юрайт, - 457 с.

Скляренко В. К., Прудников В. М. (2019) *Экономика предприятия, изд. 2.* – Москва: Инфра-М, – 256 с.



КОМПАНИЯ ЭЛЕКТРОН ТИЖОРAT AXBOROT TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sodiqov A.A.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda elektron tijorat kompaniyalarida axborot va tovarlar oqimini boshqarish modellarini o'rganishga qaratilgan. Elektron tijorat tizimlarini shakllantirishda loyihalarni boshqarish jarayonlari chuqur tahlil qilinib, samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotda sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarining elektron tijorat sohasidagi o'rni va ulardan foydalanishning biznes jarayonlariga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, sun'iy intellekt bozorining hajmi va uning rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Natijalar elektron tijorat tizimlarining funksional jihatlari takomillashtirish, axborot va mahsulot oqimini samarali boshqarish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qimmatli amaliy tavsiyalarni taqdim etadi. Bunda sun'iy intellektga nisbatan tashkilotlar va mijozlarning munosabatlarini chuqurroq o'rganishga bag'ishladik. Axborot daxlsizligi masalalari, elektron tijoratdagi sun'iy intellekt asosidagi texnologik innovatsiyalarning afzalliklari va xavflari, shuningdek, foydalanuvchilar bilan sun'iy intellekt o'rtasida uzoq muddatli ishonchni shakllantirish masalalarini qamrab oladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), Elektron tijorat.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению моделей управления потоками информации и товаров в компаниях электронной коммерции. В ходе исследования были глубоко проанализированы процессы управления проектами при формировании систем электронной коммерции, а также разработаны стратегии, направленные на повышение их эффективности. Рассмотрены роль технологий искусственного интеллекта (AI) и больших данных (Big Data) в сфере электронной коммерции и их влияние на бизнес-процессы. Также изучены объем рынка искусственного интеллекта и тенденции его развития. Полученные результаты представляют ценные практические рекомендации по совершенствованию функциональных аспектов систем электронной коммерции, эффективному управлению потоками информации и продукции, а также внедрению современных технологий. Особое внимание уделено изучению отношения организаций и клиентов к искусственному интеллекту. В исследовании затрагиваются вопросы информационной безопасности, преимущества и риски технологических инноваций на основе искусственного интеллекта в электронной коммерции, а также формирование долгосрочного доверия между пользователями и искусственным интеллектом.

Ключевые слова: искусственный интеллект (AI), большие данные (Big Data), электронная коммерция

Annotation. *The aim of this paper is to investigate methods for controlling information and product flow in online merchants. The study offers a detailed examination of project management techniques used in the creation of e-commerce systems and creates plans meant to increase effectiveness. Analyzed are how big data (Big Data) technology and artificial intelligence (AI) affect e-commerce and change business procedures. Furthermore investigated are the size of the artificial intelligence market and development patterns. The results provide useful pragmatic suggestions for improving the functional elements of e-commerce systems, efficient information and product flow management, and modern technology application. Examining consumer perceptions of artificial intelligence as well as organizational attitudes gets particular focus. The paper also addresses problems of information security, the benefits and hazards of AI-based technological breakthroughs in e-commerce, and the building of long-term trust between consumers and artificial intelligence.*

Keywords: *artificial intelligence (AI), big data (Big Data), e-commerce*

1. Kirish.

Kompaniyalar o'z elektron tijorat axborot tizimlarini rivojlantirishda va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda ko'plab yutuqlarga erishmoqdalar. Bunda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, blokcheyn, modulli arxitektura va bulutli texnologiyalar kabi zamonaviy yechimlar asosiy o'rin tutadi. Shu texnologiyalarning joriy etilishi kompaniyalarga nafaqat savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, balki mijozlar bilan samarali aloqalarni qurish, tezkor yetkazib berish va xavfsiz to'lovlarni ta'minlash imkonini ham beradi.

Elektron tijorat axborot tizimlarining funksional jihatlarini takomillashtirish nafaqat kompaniyaning ichki jarayonlarini tezkor va samarali qilishda, balki tashqi mijozlar bilan o'zaro aloqalarni ham yaxshilashda yordam beradi. Masalan, Amazon va Alibaba kabi kompaniyalar elektron tijorat axborot tizimlarini rivojlantirish orqali bozorda yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda. Ular sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanib, mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlar va mahsulotlar tavsiya qiladi, yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtiradi va to'lov tizimlarini takomillashtiradi.

Shuningdek, raqamli xavfsizlik va ma'lumotlarni muhofaza qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir kompaniya o'z axborot tizimlarida xavfsizlikka alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki mijozlar ma'lumotlari va to'lov jarayonlari firibgarlikdan himoya qilinishi talab etiladi. Shuning uchun axborot xavfsizligini ta'minlash uchun SSL sertifikatlar, 2 faktorli autentifikatsiya va blokcheyn kabi zamonaviy xavfsizlik texnologiyalari joriy etiladi.

Elektron tijorat axborot tizimlarining funksional jihatlarini takomillashtirish orqali kompaniyalar ish faoliyatini optimallashtirish, mijozlar qoniqishini oshirish va bozordagi o'rinlarini mustahkamlashlari mumkin. Bunda har bir jarayonning avtomatlashtirilishi, ma'lumotlar tahlili va mijozlar bilan aloqalarning yaxshilanishi juda muhim ahamiyatga ega. Texnologik rivojlanishlar va axborot tizimlarining moslashuvchanligi kompaniyalarga tezkor o'zgaruvchi bozor sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

Elektron tijorat axborot tizimlarining samaradorligini va foydalanuvchilar uchun qulaylikni oshirishda zamonaviy texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq tahlil qilish va xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Quyida elektron tijoratda funksional jihatlarini takomillashtirishda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar keltirilgan:

1. Tizimlarning integratsiyasi. Elektron tijoratning samaradorligi faqatgina biror-bir ayrim dasturiy ta'minot yoki platformaga bog'liq bo'lmay, ko'plab axborot tizimlarining bir-biri bilan samarali integratsiya qilinishidan kelib chiqadi. ERP, CRM va logistika tizimlarini integratsiya qilish orqali butun kompaniyaning faoliyatini yagona tizim sifatida boshqarish mumkin.

2. Buyurtma berish va yetkazib berish jarayonlarini yaxshilash. Elektron tijoratda buyurtma berish va yetkazib berish jarayonlarining samarali bo'lishi mijozlar qoniqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar logistika jarayonlarini avtomatlashtirishga va yetkazib berishni tezkor va ishonchli qilishga yordam beradi.

3. To'lov tizimlarini takomillashtirish. Elektron tijoratda to'lov tizimlari katta ahamiyatga ega, chunki mijozlar uchun qulay va xavfsiz to'lov qilish imkoniyati savdo jarayonining muhim qismidir. Shu bois to'lov tizimlarini takomillashtirish elektron tijoratning funksional jihatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

4. Axborot xavfsizligi texnologiyalari. Axborot xavfsizligi elektron tijoratning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot xavfsizligi texnologiyalari ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash va mijozlar ma'lumotlarini firibgarlikdan himoya qilish imkonini beradi.

5. Sun'iy intellekt(AI) va katta ma'lumotlardan foydalanish. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar elektron tijorat axborot tizimlarini yanada aqlliyoq va samarali qilishda muhim texnologiyalardan biri hisoblanadi. AI texnologiyalari orqali mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan mahsulotlarni tavsiya qilish bozor tendensiyalarini prognoz qilish mumkin.

2. Adabiyotlar sharhi.

Sun'iy intellektni tashkilotlarda muvaffaqiyatli tarqatish va integratsiya qilish hali ham bir tekis emas, bu esa tizimli o'zgarishlarga erishish uchun uni asosiy operatsion modellariga kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi (Iansiti va Lakhani, 2020; Agrawal va boshq., 2022). Shu bilan birga, sun'iy intellektni individual darajada qabul qilish, unda foydalanish va ishonch masalalari hali ham muhim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi (Gursoy va boshq., 2019; Hasiya va Esper, 2022). Ishonchning yetishmasligi va insoniylik omillarining yetarli darajada e'tiborga olinmasligi, xususan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektga nisbatan salbiy fikrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun mutaxassislar texnik masalalarga emas, balki texnologiya kompaniyalarining ishonchliligini oshirishga va bemorlarning hissiy ehtiyojlarini qondirishga e'tibor qaratishlari zarur (Gao va boshq., 2020). Sun'iy intellektning ma'lumot xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligiga ta'siri kabi axloqiy muammolar keng muhokama qilinmoqda (Rana va boshq., 2022; Song va boshq., 2022). Elektron tijoratda sun'iy intellektni qo'llash bilan bog'liq xavflar, jumladan, AI boshqaruvidagi chatbotlar (Cheng va boshq., 2021) va tavsiyalar tizimlari (Chinchanchokchai va boshq., 2021) bo'yicha xavotirlar o'rta qiq chiqmoqda. Algoritmnlarni katta ma'lumotlar bazalarida o'qitish muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, ammo bu shaxsiy hayotga xavflarni ham kuchaytiradi. Big Data texnologiyalari orqali shaxslarning sog'liq haqidagi ma'lumotlari, joylashuvi va internetdagi izlari kabi muhim ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash mumkin (Zhu va boshq., 2020). Bu esa shaxslarning o'z maxfiylikni nazorat qilish imkoniyatini kamaytiradi. Benlian va boshq. (2020) aqlli uy yordamchilarining salbiy ta'sirlarini va ularni kamaytirish yo'llarini tadqiq qilgan. Shuningdek, Cichy va boshq. (2021) avtomobil haydovchilarining ma'lumot almashish xohishiga axborot maxfiylik va xavfsizligining ta'sirini o'rgangan. Rana va boshq. (2022) esa sun'iy intellektning tushunarsizligi, xato qarorlar va xavf-qabul qilish tasavvurlari biznes samaradorligi va raqobatbardoshligiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida batafsil tahlil keltirgan. Shuning uchun, sun'iy intellektning rivojlanishini to'suvchi muammolarni aniqlash va hal qilish zarur. Bu sun'iy intellektning keng ommaga yetib borishi va uni keng qo'llanilishiga imkon yaratadi. Cao va boshq. (2021) tomonidan ishlab chiqilgan AI qabul qilish-va-chetga surish modeli sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatda tahlil qilish imkonini berib, AI-ga bo'lgan individual munosabatlarni tushunish va tashkilotlarni boshqarish qarorlariga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning axloqiy va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun samarali mexanizmlar va zaruriy tartibga solish choralari, shuningdek, ma'lumot va maxfiylik masalalarini chuqurroq tushunish lozim. Shu orqali sun'iy intellekt va insonlar o'rtasida uyg'un hamkorlikka erishish mumkin. Sun'iy intellekt qobiliyati

(AIC) biznes faoliyatini yaxshilash uchun tobora muhim va nomoddiy resursga aylanmoqda (Belhadi va boshq., 2021; Lou va Wu, 2021; Mikalef va Gupta, 2021). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AIC biznesga raqobatbardosh ustunlik olib kelishi mumkin (Chaudhuri va boshq., 2021), chunki u qimmatli, noyob, takrorlab bo'lmaydigan va almashtirib bo'lmaydigan resurslarga kirish imkoniyatini taqdim etadi (Ghasemaghaei, 2021). Ko'pgina tadqiqotlar "korxona qobiliyati"ni resurslar va samaradorlik o'rtasidagi vositachi sifatida belgilagan, qobiliyatlar esa resurslarni samarali qo'llash va operatsion samaradorlikni oshirish uchun zarur bo'lgan xususiyatlardir (Yao va boshq., 2021). RBV (Resurslarga asoslangan yondashuv) modeli keng qo'llanilib, korxona resurslari, qobiliyatlari va samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi (Barney, 1991; Chen va Lin, 2021; Hossain va boshq., 2021; Rahman va boshq., 2021). Ushbu tadqiqot RBV yondashuvidan foydalanib, AIC qanday qilib korxona qobiliyatlarini kuchaytirishi va samaradorlikni oshirishini o'rganadi. AIC qo'shimcha resurslarni integratsiya qilish orqali biznes faoliyatini yaxshilaydi (Ghasemaghaei, 2021; Mikalef va boshq., 2021). Yashirin o'zgaruvchilar (latent variables) to'g'ridan-to'g'ri o'lchangan o'zgaruvchilar bilan bog'lanmasligi mumkin, balki past darajali yashirin o'zgaruvchilar orqali bog'lanadi, bu esa ikkinchi, uchinchi yoki undan yuqori darajali o'zgaruvchilarni yaratishga imkon beradi (Hair va boshq., 2022). Ushbu bog'lanishlar reflektiv yoki formatif bo'lishi mumkin, va ikkinchi darajali o'zgaruvchilar reflektiv-reflektiv, reflektiv-formatif, formatif-reflektiv yoki formatif-formatif turkumlarga bo'linadi (Sarstedt va boshq., 2019). Ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu tadqiqot AICni formatif ikkinchi darajali yashirin o'zgaruvchi sifatida tasniflaydi, u uchta birinchi darajali o'zgaruvchini o'z ichiga oladi: asosiy, moyillik va ko'nikmalar (Ashaari va boshq., 2021; Chatterjee va boshq., 2021a; Mikalef va Gupta, 2021).

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Elektron tijorat tizimlari o'z ichiga mahsulotlar va mijozlar haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish va shu asosda individual xizmat ko'rsatishni amalga oshirishni oladi. Ushbu tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun mahsulot va mijoz ma'lumotlari bazalari, logistika infratuzilmasi va to'lov tizimlari o'zaro uyg'un holda ishlashi talab etiladi. Shuningdek, mijozlarning xavfsiz to'lovlarini ta'minlash va firibgarlikning oldini olish uchun xavfsizlik choralari ham muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib tadqiqotimizda elektron tijorat kompaniyalarida axborot va mahsulot oqimini samarali boshqarish uchun qo'llaniladigan asosiy komponentlarni va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berdik. Quyidagi rasm asosida tahlil qilingan tizim mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishni, mahsulot va to'lov ma'lumotlarini xavfsiz boshqarishni hamda marketing va mijoz ehtiyojlariga moslashtirilgan takliflarni taqdim etishni o'z ichiga oladi (1-rasm).

Ushbu rasm elektron tijorat bilan faoliyat yuritayotgan kompaniyaning axborot oqimlarini boshqarish, mijozlar tajribasini oshirish va xavfsiz xizmat ko'rsatishga asoslangan modelini ko'rsatadi. Mazkur rasmni tahlilini keltiradigan bo'lsak, u quyidagi ketma-ketligda amalga oshiriladi:

1. Mijoz. Mijoz elektron savdo platformasida xaridni amalga oshiradi. Mijozning sotib olish qarori va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar veb-sayt orqali taqdim etilgan takliflar yordamida amalga oshiriladi. Axborot oqimi orqali mijozdan barcha ma'lumotlar kompaniyaning boshqaruv tizimiga yuboriladi.

2. Mijozlar bazasi (MB): mijozlar haqidagi barcha ma'lumotlar va xarid tarixi shu yerda saqlanadi. Bu ma'lumotlar tahlil qilinib, mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladi.


3. Mahsulotlar bazasi (MB): mahsulotlar haqida va uning mavjudligi bo'yicha ma'lumotlar shu yerda saqlanadi. Bu bazadan logistikaga buyurtmalar yuboriladi.

4. Logistika moduli: Bu modul orqali buyurtmalar bajarilib, mijozga mahsulot yetkazib beriladi.

5. Ma'lumotlarni tahlil qilish moduli. Modul mijozlar va mahsulotlar bazasidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Tahlillar natijasida mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan tavsiyalar hosil bo'ladi va marketing strategiyalari optimallashtiriladi. Bu tizim mijozlar xatti-harakatlarini o'rganadi va takliflarni yaxshilaydi.

6. Xavfsizlik va maxfiylik moduli. Ushbu modul to'lov jarayonlarini xavfsiz amalga oshirish va mijozning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun qo'llaniladi. Bu modul mijoz to'lov ma'lumotlarini yuborganda ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

7. To'lovlarni avtorizatsiya qilish moduli. Mijoz to'lovini amalga oshirganda, to'lov avtorizatsiya qilinib, xavfsiz to'lov amalga oshiriladi. Bu modul orqali to'lovlar to'liq tasdiqlanadi va jarayon yakunlanadi.



1-rasm. Elektron tijorat kompaniyasidagi axborot va mahsulot oqimining modeli¹⁴


Elektron tijoratni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, kompaniyalar samarali va integratsiyalangan tizimlarni joriy qilishi kerak. Ushbu tizimlar nafaqat onlayn do'konni boshqarishni, balki tranzaksiyalarni amalga oshirish, logistika va marketingni optimallashtirish imkonini beradi. Ammo, elektron tijorat tizimlarini samarali loyihalash va shakllantirishning o'zi murakkab jarayon bo'lib, ko'p bosqichlardan iborat (2.6-rasm). Har bir bosqichda to'g'ri texnologiyalarni tanlash va ularni muvaffaqiyatli tadbiq qilish katta ahamiyatga ega. Shu sababli, raqamli texnologiyalarning elektron tijoratda qo'llanilishi bu sohaning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ilgari elektron tijorat tizimlarini shakllantirishda asosiy urg'u boshqaruv tizimlarini qo'llash va an'anaviy IT texnologiyalarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt, mashina o'rganish, bulut texnologiyalari va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalar ushbu jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, mijozlarni tabiatiga mos xizmat ko'rsatish va

¹⁴ Manba: Muallif ishlanmasi.

onlayn savdoni optimallashtirishda sun'iy intellekt va big data tahlil usullarining keng qo'llanilishi elektron tijorat sohasida yangiliklar hamda innovatsiyalarni joriy qilish imkonini yaratdi.

Elektron tijorat tizimini shakllantirish yangi texnologiyalar orqali samaradorlik, xavfsizlik va mijozlar tajribasini yaxshilashga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Dastlab, tizimni aniq maqsadlar asosida shakllantirish, so'ngra tizimni loyihalash va rivojlantirish bosqichlari yaxshi tashkil etilgan bo'lishi lozim. Ushbu jarayonlar zamonaviy texnologiyalar orqali optimallashtirilsa, elektron tijoratning bozor talablariga moslashuvchanligi va xizmat ko'rsatish samaradorligi yanada oshadi.



2-rasm. Elektron tijorat tizimini shakllantirishda loyihani boshqarish jarayoni

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida, elektron tijorat tizimlarini shakllantirish jarayoni va har bir bosqichida yangi texnologiyalar qo'llanilishi hamda funksional jihatlarini takomillashtirish bo'yicha qo'yidagi bosqichlarga bo'ldik:

1. Elektron tijorat tizimini aniqlash. Elektron tijorat tizimini shakllantirishning birinchi va eng muhim bosqichi tizim maqsadlari va vazifalarini aniqlashdir. Bu bosqichda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- sun'iy intellekt va ma'lumotlarga asoslangan tahlil: auditoriya va bozorda raqobatni tahlil qilish uchun sun'iy intellekt algoritmlari va big data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon qaror qabul qilishni yanada aniq va tezkor qiladi;

- bulutli xizmatlar: AWS, GCP va Azure kabi xizmatlar yordamida ma'lumotlar yig'ish va boshqarish jarayonlari yanada samarali hamda xavfsiz amalga oshiriladi;

- Internet-texnologiyalarning chuqur tahlili: ma'lumotlar yig'iladi va auditoriyani tahlil qilish orqali yangi tendensiyalarni aniqlash va elektron tijorat uchun eng mos texnologiyalarni tanlash osonlashdi.

2. Tizimni loyihalash. Elektron tijorat tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun loyihalash bosqichi juda muhim. Ushbu bosqichda quyidagi raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jarayonlar optimallashtiriladi:

- CI/CD (doimiy integratsiya/doimiy yetkazib berish): DevOps amaliyotlari jarayonlarni avtomatlashtirib, ishlab chiqish va testlashni yanada samarali qiladi. Ushbu texnologiyalar tizimning yangilanishi va rivojlantirilishini tezlashtiradi;

- bulutli arxitektura va mikroxizmatlar: bulut texnologiyalari yordamida moslashuvchan va kengaytiriladigan arxitektura yaratiladi. Bu tizimni ko'p foydalanuvchilar uchun barqaror ishlashini ta'minlaydi va rivojlantirish jarayonini soddalashtiradi;

- UX/UI dizayni: zamonaviy foydalanuvchi interfeysi dizaynlarida mobilga moslashuvchanlik va foydalanuvchilarning interfeysdan foydalanish qulayligi yuqori darajada ahamiyat kasb etadi.

3. Ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish. Raqamli dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonlarida quyidagi texnologiyalar muhim o'rin tutadi:

- AI yordamida avtomatlashtirilgan testlar: sun'iy intellekt yordamida test jarayonlarini avtomatlashtirish ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi va xatolarni aniqlashda yordam beradi;

- mikroxizmatlar arxitekturasi: elektron tijorat tizimlari ko'pincha bir nechta mustaqil modullardan tashkil topadi. Ushbu modullar o'rtasidagi aloqalarni optimallashtirish tizimni kengaytirish va takomillashtirishni osonlashtiradi;

- kubernetes va docker: ushbu kontayner texnologiyalari yordamida dasturni mustaqil komponentlar sifatida yaratish va joriy qilish jarayonini soddalashtirish mumkin.

4. Elektron tijorat tizimini joriy qilish. Joriy qilish bosqichida quyidagi dasturiy yechimlar jarayonning tezkor va barqarorligini ta'minlaydi:

- kontayner texnologiyalari: docker va kubernetes kabi kontayner texnologiyalari tizimni kengaytirish va xizmatlarni boshqarish imkonini beradi;

- bulutli texnologiyalari: tizimning barqaror ishlashi va texnik xizmat ko'rsatishni osonlashtirish uchun bulutli infratuzilmalar katta ahamiyatga ega;

- blokcheyn texnologiyalari: tranzaksiyalar xavfsizligini oshirishda blokcheyn texnologiyalari keng qo'llanilmoqda, bu ayniqsa to'lov tizimlarida ahamiyat kasb etadi.

5. Elektron tijorat tizimini rivojlantirish. Tizimni rivojlantirish bosqichida quyidagi raqamli texnologiyalar foydalaniladi:

- sun'iy intellekt va mashinani o'qitish: sun'iy intellekt algoritmlari yordamida mijozlarning xatti-harakatlarini o'rganish va ularga moslashuvchan tavsiyalar berish orqali mijozlar tajribasini yaxshilash mumkin. Bu, o'z navbatida, sotuv hajmini oshirishga xizmat qiladi;

- mijozlar tabiatiga bog'liqlik: mashinani o'qitish algoritmlari orqali mijozlarga individual xizmatlar va mahsulot tavsiyalari yaratish elektron tijorat tizimining raqobatbardoshligini oshiradi;

- blokcheyn yordamida xavfsiz to'lovlar: blokcheyn texnologiyalarini integratsiya qilish orqali to'lov tizimlari yanada xavfsiz, tezkor va ishonchli bo'ladi.

Elektron tijorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni raqamli texnologiyalar yordamida sezilarli darajada takomillashdi. Har bir bosqichda – loyihalashdan tortib, joriy qilish va rivojlantirishgacha – sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar, blokcheyn va kontayner texnologiyalari jarayonni samarali, tezkor va xavfsiz qilishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumotlarga asoslangan tahlil va avtomatlashtirilgan testlash, shuningdek, DevOps amaliyotlari kabi yangi usullar yordamida tizimlarni loyihalash va boshqarish osonlashadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida axborot tizimining funksional jihatlarini takomillashtirish va ularni optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Tizimni doimiy ravishda yangilash va zamonaviy raqamli texnologiyalarga moslashtirish esa, elektron tijorat kompaniyalariga raqobatbardoshlikni saqlab qolishga va mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirishga yordam

beradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarga asoslangan yondashuv elektron tijorat tizimlarining muvaffaqiyatli ishlashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Elektron tijorat tizimlarining samaradorligini oshirish va mijozlar qoniqishini yuqori darajada saqlash uchun sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar kompaniyalarga katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, mijozlarning talab va istaklarini tushunish, va ularga shaxsiylashtirilgan takliflar berish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellekt(AI) texnologiyalari axborot tizimlarining imkoniyatlarini kengaytirib, jarayonlarni avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini aqlliroq qilishda yordam beradi. Elektron tijoratda AI bir qator funksiyalarda qo'llaniladi:

- mijozlarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish: sun'iy intellekt tizimlari mijozlarning oldingi xaridlari va xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga shaxsiylashtirilgan mahsulotlar yoki xizmatlar tavsiya qiladi. Masalan, Amazon va Netflix kabi yirik kompaniyalar AI texnologiyalarini qo'llab, mijozlar uchun mos mahsulotlar tavsiyasini avtomatlashtirgan. Bu mijozlar qoniqishini oshirib, savdo hajmining o'sishiga yordam beradi.

- sotuvlarni prognoz qilish: AI vositalari orqali kompaniyalar kelajakdagi sotuvlar bo'yicha prognozlar ishlab chiqishlari mumkin. Mashinalarni o'rgatish algoritmlari sotuvlar tendensiyalarini tahlil qilib, ma'lum bir vaqtda qanday mahsulot yoki xizmatlarga talab ortishi yoki kamayishi mumkinligini aniqlaydi. Bu kompaniyalarga inventarizatsiyani samarali boshqarishga yordam beradi.


- firibgarlikni aniqlash: sun'iy intellekt firibgarlikni aniqlash va uning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi. Masalan, MasterCard va Visa kabi kompaniyalar AI yordamida shubhali tranzaksiyalarni tezkor aniqlashlari mumkin, bu esa to'lov xavfsizligini ta'minlaydi.

4. Tahlil va natijalar.

Sun'iy intellekt asosida foydalanuvchilarning o'tmishdagi xatti-harakatlariga va ko'rinishlariga asoslanib shaxsiylashtirilgan mahsulot tavsiyalari taqdim etiladi. Veb-saytlar sizning xarid tarixingizni tahlil qilib, oldingi xaridlarga asoslanib sizga yoqadigan mahsulotlarni tavsiya qiladi. Hozirgi kunda AI yordamida dinamik narx belgilash strategiyasi taklif etilmoqda, bu orqali mahsulot narxi talab va taklifga qarab o'zgaradi. Aniq ma'lumotlar yordamida bugungi tizimlar eng past chegirmalarni hisoblab chiqib, mahsulotni sotish uchun qachon va qancha chegirma berish kerakligini aniqlashi mumkin.

Mahsulot va xizmatlarni shaxsiylashtirish darajasi mijozlarni saqlab qolish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Mijozlarni saqlab qolishning bir usuli — ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan marketing materiallarini yetkazib berishdir. Sun'iy intellekt texnologiyasi, xususan chuqur o'rganish va statistik modellashtirish orqali elektron tijorat sotuvchilari keng miqyosda mijozlarning xulq-atvori, demografiyasi va boshqa ma'lumotlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega. Natijada sotuvchilar shaxsiylashtirilgan reklama yaratib, elektron pochta orqali takliflarni yuboradi va narxlarni mijozlarning o'ziga mos ravishda belgilaydi. Aqlli shaxsiylashtirish elektron tijorat egalariga mijozlar bilan kuchliroq bog'lanishlarni yaratishga imkon beradi, bu esa mijozlar sadoqatini oshiradi. Quydagi rasmda 2022-2032-yillardagi elektron tijorat sohasida sun'iy intellekt bozori hajmi keltirilgan bo'lib, uning sohadagi o'rni oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin (3-rasm).

Sun'iy intellektning elektron tijoratdagi o'rni o'sib borayotgan bir davrda, sun'iy intellekt bozori hajmi 2022 yilda 5,81 milliard AQSh dollariga yetdi va 2032 yilga kelib 22,60 milliard AQSh dollarini tashkil qilishi kutilmoqda. Prognoz davrida yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 14,60%ni tashkil qiladi.



3-rasm. Elektron tijorat sohasida sun'iy intellekt bozori hajmi¹⁵

Katta ma'lumotlar(BigData) elektron tijorat tizimlarida mijozlar haqida to'plangan ma'lumotlar to'plamidir. Mazkur ma'lumotlar mijozlarning xatti-harakatlari, xarid qilish odatlari va ularning talablarini yaxshiroq tushunish uchun tahlil qilinadi. Big Data texnologiyalari kompaniyalarga quyidagi afzalliklarni beradi:

- mijoz talablarini prognoz qilish: katta ma'lumotlar texnologiyalari mijozlarning talablarini yaxshiroq tushunish va ularga mos mahsulot yoki xizmatlar taqdim etish imkonini beradi. Bu texnologiyalar ma'lumotlarni tahlil qilib, mijozlar xaridlarining tarixiga asoslangan shaxsiylashtirilgan takliflar yaratadi.

- bozor tahlillari va trendlarni prognoz qilish: BigData vositalari orqali kompaniyalar bozordagi yangi tendensiyalarni kuzatishlari mumkin. Masalan, ma'lum bir mahsulotga talab o'sishini yoki ma'lum bir vaqtdagi sotuvlarning pasayishini katta ma'lumotlar tahlili orqali aniqlash mumkin.

- shaxsiylashtirish: katta ma'lumotlar yordamida mijozlarga shaxsiylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar taklif qilish mumkin. Spotify yoki YouTube kabi platformalar BigData tahlillari asosida foydalanuvchilarga mos keladigan kontentni avtomatik ravishda tanlab, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishadi.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan birgalikda foydalanish elektron tijorat axborot tizimlarini yanada samaraliroq va aqlli roq qiladi. Bu texnologiyalar bir-biri bilan uyg'unlashtirilganda quyidagi yutuqlarga erishiladi:

- mijozlarning xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunish: AI va Big Data texnologiyalari mijozlar xatti-harakatlarini kuzatib borib, ularning talablariga tezkor javob berish imkonini beradi. Bu kompaniyalarga mijozlarning istaklariga ko'ra mahsulotlar va xizmatlar taqdim etishga yordam beradi.


- tezkor va samarali qarorlar qabul qilish: katta ma'lumotlar asosida qilingan tahlillar va AI yordamidagi avtomatlashtirilgan jarayonlar tezkor qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Bu kompaniyalarning bozorda raqobatbardoshligini oshiradi va ularga samarali faoliyat yuritish imkoniyatini beradi.

- tizimlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish: AI va Big Data texnologiyalari axborot tizimlarini avtomatlashtirib, ularning har bir qismida optimal natijalarga erishish imkonini beradi. Masalan, inventarizatsiyani avtomatik boshqarish yoki marketing strategiyalarini avtomatlashtirish mumkin.

¹⁵ Manba: <https://www.precedenceresearch.com/artificial-intelligence-in-e-commerce-market>

Quyidagi grafikda 2018-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda tashkilotlarning katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt qabul qilish darajalari tasvirlangan (2.8-rasm). Statista.com ma'lumotlariga ko'ra, "2023-yilda o'tkazilgan global so'rovga ko'ra, tobora ko'proq korxonalar ma'lumotlardan samarali foydalanayotganliklariga ishonishmoqda. Respondentlarning uchdan ikki qismi ma'lumotlardan foydalanish orqali innovatsiyalarni rivojlantirayotganliklarini, yarim qismi esa ma'lumotlar va tahlillarda raqobatlashayotganliklarini ta'kidlagan"¹⁶.

Rasmni tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda kompaniyalar orasida katta ma'lumotlar va sun'iy intellektni faoliyatga joriy etish darajalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Eng katta o'sish ma'lumotlarni biznes aktiv sifatida boshqarishda bo'lib, bu ko'rsatkich 46,9% dan 77,6% gacha ko'tarilgan, bu esa kompaniyalar orasida ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonining keng qabul qilinishidan dalolat beradi.



4-rasm. Kompaniyalarda Big Datadan foydalanish va AIni qo'llash

Suningdek, kompaniyalar orasida katta ma'lumotlardan foydalanish va sun'iy intellektni qo'llashning yildan yilga oshib borayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, kompaniyalar ma'lumotlarni biznes aktiv sifatida boshqarishga katta ahamiyat berishmoqda, bu esa ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish va kompaniyalar o'rtasida ma'lumotlar orqali innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, tashkilotlar faoliyatini ma'lumotlarga asoslanib tashkil etishda shuningdek, uning tahlillarida raqobatlashish bo'yicha

¹⁶ Manba: <https://www.statista.com/statistics/742993/worldwide-survey-corporate-disruptive-technology-adoption/>

ba'zi pasayishlar kuzatilgan, bu esa kompaniyalarning texnologiya va ma'lumotlar qabul qilish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi kerakligini ko'rsatishi mumkin.

Elektron tijorat axborot tizimlarida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish kompaniyalarga mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, savdo jarayonlarini avtomatlashtirish va firibgarlikdan himoya qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar kompaniyalarning samaradorligini oshiradi va ularni raqobatbardosh qiladi.

Shunday qilib, funksional jihatlarni takomillashtirishdagi bu texnologiyalar kompaniyalarga elektron tijorat tizimlarini samaraliroq va xavfsizroq qilishga yordam beradi. Ular kompaniyaning savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun qo'llaniladi. Texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi biznesni yanada samarali va zamonaviy qilishga yordam beradi.

5. Xulosa.

1. Ixtisoslashtirilgan platformalardan foydalanish kompaniyalarga turli bozor segmentlari, mahsulot turlari va maqsadli auditoriyalarga samarali xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Bu strategiya keng mahsulot turlarini ma'lum kategoriyalarga ajratish, turli auditoriyalar ehtiyojlarini qondirish va geografik hududlarga moslashuvchan bo'lishni ta'minlaydi. Bunda raqamli texnologiyalar – kontentni boshqarish tizimlari, marketingni avtomatlashtirish vositalari, CRM, mobil ilovalar va veb analitika kabi texnologiyalar asosiy o'rin tutadi. Ular kompaniyaga platforma faoliyatini optimallashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu bilan bu ko'proq resurslar va yuqori darajada muvofiqlik talab etiladi, shuning uchun platformalarni to'g'ri boshqarish muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo'lib, uzluksiz rivojlanishga xizmat qiladi.

2. Elektron tijoratning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tanlangan internet platformasi va marketing vositalarining sifatiga bog'liq. To'g'ri tanlangan platforma iste'molchilar bilan interaktiv muloqot qilish, mahsulot va xizmatlarni samarali targ'ib qilish va kengroq auditoriyaga yetib borishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, chatbotlar, sharh platformalari va videomarketing kabi vositalar iste'molchilarni jalb qilish, sadoqatni oshirish va brendni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

3. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va global texnologik o'zgarishlarga moslashishga xizmat qilmoqda. Pandemiya davrida talabning oshishi ko'plab kompaniyalarni raqamli savdo tizimlariga o'tishga undadi. Bozorda raqobat kuchayib, Uzum, Zood, Mediapark, Olcha, Texnomart va Korzinka kabi yirik kompaniyalar zamonaviy platformalarda foydalanuvchilarga qulay xizmat ko'rsatishmoqda. Bu jarayon milliy va xalqaro bozorlarda faol ishtirok etish imkonini yaratib, kompaniyalar o'z bozor ulushlarini oshirmoqda.

4. Kompaniyaning elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalar juda muhim o'rin tutadi va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdan tortib, mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'plab jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu texnologiyalar biznesni samarali boshqarish, ma'lumotlarni to'g'ri boshqarish va tahlil qilish, moliyaviy operatsiyalarni xavfsiz amalga oshirish hamda xaridorlar bilan uzluksiz aloqani ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish texnologiyalari orqali ishonchlilikni oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalarning kompleks tarzda joriy qilinishi kompaniyalarga raqobatbardoshlikni oshirish va bozordagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

5. Kompaniya elektron tijorat axborot tizimlarining funksional jihatlarni takomillashtirish zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Joriy etilayotgan texnologiyalar

kompaniyaning ichki jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan sifatli aloqalarni o'rnatish va bozorda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini beradi. Buning uchun ERP, CRM tizimlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn, to'lov tizimlari va axborot xavfsizligi kabi zamonaviy yechimlar joriy qilinadi.

6. Elektron tijorat axborot tizimlari kompaniyalarga mahsulotlarni avtomatlashtirilgan tartibda sotish, mijozlarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish, bozor tahlili va trendlar asosida qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Buyurtmalarni tezkor va shaffof yetkazib berish, xavfsiz to'lov jarayonlarini ta'minlash orqali mijozlar qoniqishini oshirish mumkin.

7. Elektron tijorat tizimlarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonning samaradorligini oshiradi. Loyihani boshlashdan tortib, yakuniy bosqichgacha bo'lgan har bir qadam zamonaviy texnologiyalar yordamida tezlashtiriladi va optimallashtiriladi. Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn va DevOps amaliyotlarini qo'llash jarayonni ancha samarali qiladi. Loyiha davomida texnologik integratsiyani to'g'ri rejalashtirish orqali tizimning barqarorligi va raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish elektron tijorat tizimlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida va ularning uzoq muddatli ishlashida katta ahamiyat kasb etadi.

8. Zamonaviy Big Data texnologiyalari elektron tijorat tizimlarida ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini optimallashtiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida ma'lumotlar real vaqtda yig'iladi, bulutli platformalarda saqlanadi va tezkor qayta ishlanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt va tahliliy vositalar tahlillarni avtomatlashtiradi hamda samaradorlikni oshiradi. Natijada, elektron tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalari ma'lumotlar asosida tez va aniq qarorlar qabul qilib, bozor talablariga moslashuvchan javob bera oladi.

9. Sun'iy intellekt elektron tijoratda muhim o'rin tutib, kompaniyalarga samaradorlikni oshirishda katta yordam bermogda. AI texnologiyalari orqali katta hajmdagi ma'lumotlar tahlil qilinib, mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar va mahsulot tavsiyalari taqdim etiladi. Bu jarayon xarid qilish tajribasini yaxshilaydi va mijozlarni saqlab qolish imkoniyatini oshiradi. Dinamik narx belgilash orqali esa talab va taklifga qarab mahsulot narxlarini real vaqt rejimida moslashtirish mumkin. Sun'iy intellektning bunday qo'llanilishi korxonalarga mijozlar ehtiyojlarini chuqur tushunishga, savdo strategiyalarini optimallashtirishga va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Natijada, AI texnologiyalari elektron tijoratning o'sishi va muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

Chang, R.M., Kauffman, R.J., Kwon, Y., 2014. Understanding the paradigm shift to computational social science in the presence of big data. *Decision Support Systems* 63, 67-80.

Chen, X., You, X., & Chang, V. (2021). FinTech and commercial banks' performance in China: A leap forward or survival of the fittest? *Technological Forecasting and Social Change*, 166, 120645.

Goralski, M.A.; Tan, T.K. Artificial intelligence and sustainable development. *Int. J. Manag. Educ.* 2020, 18. [CrossRef].

Huang, M. H., & Rust, R. T. (2021). A strategic framework for artificial intelligence in marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 49(1), 30-50.

Mantelero, A. (2017). Regulating Big Data. The guidelines of the Council of Europe in the context of the European data protection framework. *Computer Law and Security Review* 33, 584-602.

Smith, R., Shao, J., 2007. Privacy and e-commerce: a consumer-centric perspective. *Electron Commer Res* 7, 89-116.

Yingli Wu, Qiuyan Liu, "A Novel Deep Learning-Based Visual Search Engine in Digital Marketing for Tourism E-Commerce Platforms", *Journal of Organizational and End User Computing* 36(1), pg. 1, (2024); doi:10.4018/JOEUC.340386.

Youbi R. El, F. Messaoudi and M. Loukili, "Machine Learning-driven Dynamic Pricing Strategies in E-Commerce," 2023 14th International Conference on Information and Communication Systems (ICICS), Irbid, Jordan, 2023, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICICS60529.2023.10330541.

Zhang Y., S. Wang, and H. Liu, "A Review of Chatbot Applications in Customer Service of E-commerce," *Proceedings of the 2021 International Conference on Artificial Intelligence and Computer Science (AICS)*, pp. 102-107, 2021.

Zhu, T., Ye, D., Wang, W., Zhou, W., & Yu, P. (2020). More than privacy: Applying differential privacy in key areas of artificial intelligence. *IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering*, 34(6), 2824-2843.



СОЛИҚ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Арифханова Х.Ш.

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Мазкур мақолада солиқ харажатларини бухгалтерия ҳисобида ва солиқ ҳисоботида тан олиш ҳамда уларни бухгалтерия ҳисоби ва солиқ қонунчилиги бўйича ҳисобини юритиш ва ҳисобга олиш масалалари ёритилган. Шунингдек, солиқ харажатлари бўйича услубий ҳужжат сифатида тўлақонли ишлаши учун харажатлар таркибида алоҳида солиқ харажатлари тушунчасини киритиш ва унинг таркибини шакллантириш бўйича таклифлар ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, солиқ ҳисоби, солиқ харажатлари, солиқ харажатлари таркиби

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы признания налоговых расходов в бухгалтерском и налоговом учете а также ведения их учета и отчетности в соответствии с законодательством бухгалтерского учета и налоговым законодательством. Также для полноценной работы в качестве методического документа по налоговым расходам были сделаны предложения и рекомендации по введению понятия отдельных налоговых расходов в структуру расходов и формированию их состав.

Ключевые слова: национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, налоговый учет, налоговые расходы, налоговые расходы и их состав.

Abstract. This article examines the issues of recognizing tax expenditures in accounting and tax accounting. Accounting and reporting on tax expenditures in accordance with accounting and tax legislation. Also, for full-fledged work as a methodological document on tax expenditures, proposals and recommendations were made on the introduction of the concept of tax expenditures in the structure of expenses and formation of their composition.

Keywords: national accounting standards, international financial reporting standards, tax accounting, tax expenditures, tax expenditures and their composition.

1. Кириш.

Сўнгги йилларда мамлакатамизда иқтисодиёт ва молия соҳаларига хорижий инвесторлар маблағларини жалб қилиш ва юртимизда фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлари фаолиятини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, шу жумладан бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига (МҲҲС) ўтишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунда мамлакатимизга ўз маблағи билан кириб келаётган инвестор учун молиявий қарор қабул қилишда ҳаққоний, ишончли ва

умумэтироф этилган стандартлар асосида тайёрланган ахборот муҳим аҳамият касб этади.

Инвесторлар, корхона бошқарувчилари ва бошқа молиявий ҳисобот ахборотидан фойдаланувчилар учун ҳар қан қандали ахборот фаолиятнинг самарали бўлишига хизмат қилади. Жумладан, солиқ харажатлари тўғрисидаги маълумотлар аниқ ва тўлиқ бўлиши мазкур харажатларни оптималлаштириш бўйича қабул қилинган қарорлар ва унинг ижросига бевосита боғлиқ. Шу боис, солиқ харажатлари билан боғлиқ солиқ қонунчилиги ва бухгалтерия ҳисобини юритишга оид миллий ҳамда халқаро стандартлар талабларини мувофиқлаштирган ҳолда унинг ҳисобини такомиллаштиришга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш муҳим саналади.

Бизга маълумки, солиқ харажатлари бухгалтерия ҳисобида ва солиқ ҳисоботида тан олинишида бухгалтерия ҳисоби ва солиқ қонунчилиги талабларидан келиб чиқилади. Солиқ қонунчилиги талаблари асосида ҳисоблаб чиқилган солиқ суммаси ва бухгалтерия ҳисобининг миллий ҳамда халқаро стандартлари талаблари асосида ҳисоблаб чиқилган солиқ суммаси, уни харажат сифатида тан олиш орасида фарқлар вужудга келади. Шу мақсадда тадқиқот жараёнида соҳага доир адабиётларда келтирилган таърифларни ўргандик.

2. Адабиётлар шарҳи.

Солиқ харажатлари ва унинг таркиби бўйича тадқиқотчиларнинг илмий ишларида ҳам турли қарашлар учраб туради. Жумладан, Қурбановнинг (2016) фикрича, солиқ харажатлари ҳўжалик юритувчи субъектнинг (солиқ тўловчининг) бюджетга солиқлар ва бошқа мажбурий ажратмаларга тўловлари, солиққа тортишни ташкил этиш ва унга хизмат кўрсатиш бўйича харажатлар йиғиндисидир. Мазкур тушунчага берилган таърифни кўрадиган бўлсак, бунда солиқ солиш мақсадида харажатлар инобатга олинган. Яъни, солиқ қонунчилиги нормалари доирасида ҳисобланган солиқ бўйича харажатлар нуқтаи назаридан таъриф берилган. Фикримизча, таъриф тўлиқ бўлиши учун солиқ ҳисоби ва молиявий ҳисоб нуқтаи назаридан таърифни шакллантириш муҳим ҳисобланади.

Солиқ харажатларининг таркиби бўйича ҳам бир гуруҳ тадқиқотларда фикр, мулоҳазалар билдирилган. Жумладан, Қурбанов (2016) солиқ харажатлари таркибига қуйидагиларни киритган:

- солиқ ва бошқа мажбурий ажратмаларга тўловлар суммалари;
- солиқ органлари томонидан қўшимча ҳисобланган солиқ суммалари (камерал ва ҳужжатли текширишлар натижасида), пенялар, жарима суммалари;
- солиқларни режалаштириш, ҳисобга олиш, солиқ маслаҳати, солиқ ҳуқуқи, солиқ аудити бўйича харажатлар;
- солиқлар бўйича ҳисоботларни электрон шаклда тузиш, дастурий маҳсулларни сотиб олиш, ўрнатиш ва фойдаланиш харажатлари;
- солиқ тўловларини вақтида амалга ошириш мақсадида кредитлардан фойдаланганлиги учун фоиз харажатлари;
- бошқа харажатлар”

Ушбу таркибдан кўришимиз мумкинки, солиқ харажатларининг таркиби бир мунча кенг берилган бўлсада, фикримизча, операцион ва ташкилий харажатлар ҳам ушбу харажатларнинг таркибига киритилган.

Яна бир тадқиқотда Сафонова (2017) солиқ харажатларига ҳисобланган солиқ мажбуриятларидан ташқари қуйидагилар киришини таъкидлайди:

- ахборот характеридаги харажатлар;
- корхонанинг назорат ва таҳлилни ташкил қилиш харажатлари;
- ташқи солиқ назорати харажатлари;

- солиқ тўловчи сифатидаги иқтисодий субъектнинг хатолари ва ноҳўя ҳаракатлари билан боғлиқ харажатлар, солиқ қонунчилигига риоя қилмаганлиги учун ҳисобланган жарима суммалари, пенялар;

- қўшимча харажатлар, солиқ мажбуриятларини сўндириш ва бошқа солиқ харажатларини қоплаш учун олинган кредит фоизлари кўринишидаги харажатлар”.

Бундан ташқари мана кенг таркиблаган муаллифлардан яна бири Акрамов (2022) бўлиб, у солиқ харажатлари таркибига қуйидагиларни киритишни тавсия этаган:

- солиқлар ва йиғимлар бўйича ҳисобланган суммалари;

- солиқ текширишлари натижасида қўшимча ҳисобланган солиқ суммалари; ҳисобланган пенялар, жарима ва бошқа санкциялар суммалари; солиқларни ҳисобга олиш ва тўлаш билан боғлиқ харажатлар;

- солиқ маслаҳати, солиқ ҳуқуқи, солиқ аудити ўтказиш бўйича харажатлар; солиқ ҳисоботларини электрон шаклда тузиш, дастурий маҳсулларни сотиб олиш, ўрнатиш ва фойдаланиш бўйича харажатлар;

- солиқ тўловчиларга солиқни бўлиб бўлиб тўлаш ва муддати узайтириш бўйича ҳисобланган фоизлар кўринишидаги харажатлар;

- солиқ низоларини судда кўриб чиқиш билан боғлиқ харажатлар;

- солиқлар ва йиғимлар билан боғлиқ бошқа харажатлар.

Ушбу муаллифларнинг фикрларида ҳам солиқ харажатларини жудаям кенг таркибга бўлган бўлиб, фикримизча, солиқ харажатлари таркибига солиқ деган жумлага тегишли харажатларни ҳаммасини киритиш мақсадга мувофиқ эмас. Бундай ёндашиладиган бўлса, молиявий харажатларга молиявий операцияларга тегишли аудит харажатларини ёки молиявий операцияларни автоматлаштириш харажатларини, давр харажатларига эса, шу харажатларга тегишли аудит харажатларини, маъмурий аппаратни автоматлаштириш харажатларини ва ҳоказо тартибда киритишимизга тўғри келади.

Бизнингча, бундай харажатлар, яъни, назорат, аудит, рақамлаштириш билан боғлиқ харажатларни корхонанинг умумий операцион харажатлари таркибида ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ. Агар зарурият туғилса, турлари ва таркиби бўйича аналитик гуруҳлаган ҳолда.

Фикримизча, Аҳмадова (2024) таъкидлаганидек, солиқ харажатлари таркиби асосида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, харажатларни тўғри ҳисобга олишни, хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий натижаларини аниқлигини ҳамда солиқларни ҳисоблашнинг объективлигини таъминлаш лозим.

Акрамовнинг (2022) фикрича, солиқ харажатлари – бу солиқ ва йиғим турлари бўйича солиққа тортиш базасини аниқлаш, ҳисобга олиш ва тўлаш, солиқ ҳисоботларини тузиш ва электрон тақдим этиш, солиқ текширувларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар йиғиндиси. Акрамовнинг таърифи бир мунча кенг берилган бўлсада, бунда айнан тўғридан-тўғри солиқ харажати сифатида эътироф этилмайдиган ташкилий харажатлар ҳам солиқ харажатига киритилиши керак деган маъно ифодаланган. Албатта, бу таъриф бир томондан мукамал берилган бўлсада, иккинчи томондан фойдаланувчиларни чалғишига ва амалиётчиларни айнан шу таъриф доирасида иш юритишига олиб келиб солиқ қонунчилиги, бухгалтерия ҳисобининг миллий ва халқаро стандартлари нормаларига тўғри келмаслиги мумкин.

Юқоридагилардан кўришимиз мумкинки, Солиқ харажатлари ҳисобининг ва унинг таркиби масалалари алоҳида тадқиқот сифатида чуқур ўрганилмаган. Шу боис, мазкур мақола доирасида ушбу масалага чуқурроқ тўхталишни лозим топдик.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот жараёнида олинган маълумотларга ишлов беришда мантикий мушоҳада, адабиётларни танқидий ўрганиш, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, таққослаш,

маълум белгилар асосида классификациялаш, ҳуқуқий таҳлил усулларидадан фойдаланилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сонли қарори билан тасдиқланган “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом (1999) ҳўжалик юритувчи субъектларнинг, шунингдек юридик шахс бўлмаган ҳолда тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи жисмоний шахсларнинг маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларини аниқлашнинг ягона методологик асосларини белгилаши белгилаб қўйилган.

Ушбу ҳужжат бухгалтерия ҳисоби ва солиқ солиш мақсадларида харажатларни ҳисоблаб чиқишда пайдо бўладиган тафовутлар ҳисобга олинган ҳолда ишлаб чиқилганлиги ҳужжатнинг асосий матнида келтириб ўтилган. Ҳўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатбардошлилигини аниқлаш мақсадида улар фаолиятининг харажатларини ҳисоблаб чиқиш ва молиявий натижаларини аниқлаш бухгалтерия ҳисобининг асосий мақсади эканлиги ҳам Низомда қайд этилган.

Демак, “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом харажатларни, жумладан, солиқ харажатларини ҳам ҳисоблаш ва тан олиш учун услубий асос сифатида қаралиши керак. Зеро, солиқ харажатлари, жумладан, фойда солиғи харажатлари молиявий натижаларни шакллантиришда алоҳида формула асосида ҳисобга олинади.

Мазкур ҳужжатга мувофиқ, амалдаги қонунчиликка мувофиқ амалга ошириладиган ва ҳўжалик юритувчи субъект харажатларига киритиладиган бюджетга мажбурий тўловлар, солиқлар, йиғимлар, давлат мақсадли жамғармаларига ажратмалар, шунингдек ҳукумат қарорларига биноан халқаро ташкилотларга аъзолик бадалларини тўлаш давр харажатларининг таркибида бошқа операцион харажат сифатида ҳисобга олиниши келтирилган. Бироқ, ушбу нормада бошқа операцион харажатлар таркибида айнан қандай харажатлар ҳисоби юритилиши белгиланмаган.

Шу билан бирга бошқа операцион харажатлар таркибида солиқ қонуни ва бошқа қонунларни бузганлик учун жарима ва пенялар ҳам ҳисобга олиниши белгиланган. Демак, ҳар қандай солиқ тури бўйича қонунчилик нормаларини бузганлик учун ҳисобланадиган пеня ва жарималар айнан бошқа операцион харажатлар таркибида ҳисобга олиниши харажатлар бўйича асосий ҳужжат ҳисобланган низомда белгиланган.

Бироқ, фикримизча, мазкур масала мунозарали бўлиб, солиқ қайси харажатга тан олинса, у бўйича ҳисобланган жарималар, пенялар ҳам айнан ўша харажат таркибида ҳисобга олиниши лозим. Ўрганишларимизни давом эттирган ҳолда умумий хулоса қилиш мақсадга мувофиқ.

Эътибор қаратадиган бўлсак, “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низомда харажатлар таркиби қуйидаги 2 та таркибий қисмга бўлинган ҳолда келтирилган:

1. Маҳсулот (ишлар, хизматлар)нинг ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар.

2. Давр харажатлари.

Харажатларнинг биринчи таркиби моҳиятан тўғри берилган бўлиб, ушбу харажатларнинг таркибига маҳсулот (ишлар, хизматлар)нинг ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар киритилиши батафсил ёритилган. Бироқ, харажатлар таркибидаги иккинчи қисм, яъни, давр харажатлари деб номланган бўлиб, бошқа меъёрий-ҳужжатларга ҳам харажатларнинг таркибига ҳам мос келмайди. Зеро,

мазкур иккинчи бўлимда давр харажатлари деганда бевосита ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ бўлмаган харажатлар ва сарфлар тушунилади: бошқарув харажатлари, маҳсулотни сотиш харажатлари ва умумхўжалик аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар давр харажатлари эканлиги қайд этилган.

Давр харажатлари таркибига сотиш харажатлари (2.1-банд), Маъмурий харажатлар (2.2-банд), Бошқа операция харажатлари (2.3-банд) киритилиб, ушбу харажатларнинг таркиби келтириб ўтилган. Бироқ, учинчи пункт сифатида эса, алоҳида ажратилмасдан молиявий фаолият харажатлари гўёки давр харажатларининг таркибига кирадигандек келтирилган. Бу эса, услубий асос сифатида фойдаланиладиган меъёрий-хужжат учун жиддий камчилик ҳисобланади. Шу билан бирга тўртинчи банд ҳам худди давр харажатларининг таркибига кирадигандек, ифодаланиб, фавқулодда зарар дея келтирилган. Яъни, давр харажатлари 2-бўлим сифатида келтирилиб, давр харажатлари дея номланиб, таркибида молиявий харажатлар ва фавқулодда зарарлар таркиби ҳам акс эттирилган.

Масаланинг яна бир томони, молиявий фаолият харажатлари бўйича изоҳ берилмасдан, унинг таркиби келтирилган. Давр харажати ва фавқулодда зарарлар қандай харажатлар эканлиги бўйича маълумот келтирилмаган.

Бунда, 2-бўлимнинг бошида давр харажатлари бевосита ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ бўлмаган харажатлар ва сарфлар тушунилади: бошқарув харажатлари, маҳсулотни сотиш харажатлари ва умумхўжалик аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар давр харажатлари эканлиги қайд этилган бўлса, 2-бўлимнинг 4-банди, ёки 4-бўлимда фавқулодда зарарлар — бу хўжалик юритувчи субъектларнинг одатдаги фаолиятидан четга чиқувчи ҳодисалар ёки операциялар натижасида вужудга келадиган ва рўй бериши кутилмаган одатдан ташқари харажатлар моддаларидир. Бунга фавқулодда моддалар ва давр харажатлари таркибида акс эттирилиши керак бўлган ўтган давр моддалари кирмаслиги келтириб ўтилган. Бироқ, юқорида таъкидлаганимиздек, Низомда молиявий фаолият харажатлари тушунчасига изоҳ берилмаган.

Бизнинг фикримизча, молиявий фаолият харажатлари тушунчасини, фаолият эмас, молиявий операцияга оид харажатлар дея қайта номланиб, унинг таркибини келтириш мақсадга мувофиқ.

Низомда келтирилган солиқ бўйича асосий маълумот бу йилнинг соф фойдасини топишда солиқ тўлангандан кейин хўжалик юритувчи субъект ихтиёрида қолади, ўзида фойдадан тўланадиган солиқни ва минус қонунчиликда назарда тутилган бошқа солиқлар ва тўловларни чиқариб ташлаган ҳолда солиқлар тўлангунга қадар олинган фойдани ифодалаши маълумотидир. Мазкур тавсиф фойдадан тўланадиган солиқ ва бошқа солиқлар солиқ тўлангунга қадар фойдадан чегирилиши ва соф фойда топилиши бўйича формулада ифодаланган. Бироқ, бунда ҳам айнан фойда солиғи бўйича харажат эканлигини аниқ ифодаланмаган.

Бизнинг фикримизча, низом харажатлар, жумладан, солиқ харажатлари бўйича услубий хужжат сифатида тўлақонли ишлаши учун харажатлар таркибида алоҳида солиқ харажатлари тушунчасини киритиш ва унинг таркибида очиб бериш мақсадга мувофиқ.

Ўрганишлар асосида солиқ харажатларига қуйидагича таъриф берилди. Яъни, *солиқ харажатлари – бу хўжалик юритувчи субъект томонидан бухгалтерия ҳисоби юритиш қоидаларига асосланган ҳолда ҳисоблаб чиқилган жорий, ўтган йиллар учун ҳисобланган ва кечиктирилган солиқ мажбуриятларини келтириб чиқарадиган ҳамда қоидалар асосида солиқ харажати сифатида тан олиниши белгиланган харажатлар йиғиндисидир.*

Фикримизча, биз томонимиздан берилган таърифнинг бошқа таърифлардан фарқли жиҳати, солиқ ҳисобида эмас, бухгалтерия ҳисоби талаблари асосида

ҳисобланган солиқларни харажат сифатида тан олиншига қаратилганлиги бўлса, иккинчи жиҳати, кечиктирилган солиқ мажбурияти ҳам солиқ харажати эканлиги иноботга олинган. Шу билан бирга, қоидалар асосида дейилганда мақсадли солиқ имтиёзлари ёки тўғридан тўғри солиққа оид жарима, пенялар ҳисобланиши ҳам солиқ харажати сифатида ҳисобга олинши эътироф этилган.

5. Хулоса.

Юқоридагилардан кўришимиз мумкинки, солиқ харажатлари борасидаги ўрганишлар асосан, солиқ харажати солиқ қонунчилиги нормалари доирасида тан олиш ва солиқ харажати таркибини ҳам солиққа тегишли бевосита ва билвосита ҳамма харажатларни солиқ харажатлари таркибига киритишга қаратилган. Бироқ, унинг таркибан бухгалтерия ҳисобида қандай ҳисобга олинши бўйича аниқ ва тизимли ўрганишлар ҳам ечимлар келтирилмаган.

Бизнинг фикримизча, мазкур масала мунозарали бўлиб, солиқ қайси харажатга тан олинса, у бўйича ҳисобланган жарималар, пенялар ҳам айнан ўша харажат таркибида ҳисобга олинши лозим. Ўрганишларимизни давом эттирган ҳолда умумий хулоса қилиш мақсадга мувофиқ. Фикримизча, солиқ харажатлари ҳам молиявий натижаларни шакллантиришда инобатга олиншини ҳисобга олиб солиқ харажатлари, унинг таркиби ва бошқа маълумотлар Низомда услубий асос сифатида келтирилиши лозим эди. Низом харажатлар, жумладан, солиқ харажатлари бўйича услубий ҳужжат сифатида тўлақонли ишлаши учун харажатлар таркибида алоҳида солиқ харажатлари тушунчасини киритиш ва унинг таркибида очиб бериш мақсадга мувофиқ. Ўрганишлар асосида солиқ харажатларига бу ҳўжалик юритувчи субъект томонидан бухгалтерия ҳисоби юритиш қоидаларига асосланган ҳолда ҳисоблаб чиқилган жорий, ўтган йиллар учун ҳисобланган ва кечиктирилган солиқ мажбуриятларини келтириб чиқарадиган ҳамда қоидалар асосида солиқ харажати сифатида тан олинши белгиланган харажатлар йиғиндиси сифатида таъриф берилди.

Бизнинг фикримизча, солиқ харажатлари таркибини 2 та йирик гуруҳга бўлган ҳолда ҳисобини юритиш мақсадга мувофиқ:

1. Жорий солиқ бўйича харажатлар.
2. Кечиктирилган солиқ бўйича харажатлар.

Адабиётлар:

Акрамов А.А. (2022) Солиқ харажатларининг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Дисс. автореферати.

Аҳмадова К. (2024) Солиқ харажатлари бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил.

Қонун (2016) Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни (2016 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-404-сон). Манба: <https://lex.uz/docs/2931253>.

Қонун (2019) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси (2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сон Қонуни билан тасдиқланган). Манба: <https://lex.uz/docs/4674902>.

Қурбанов З.Н. (2016) Солиқ харажатлари ҳисобининг назарий масалалари. “Тадбиркорликни ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш ҳамда қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришда солиқ сиёсатининг ўрни” мавзусидаги конференция материаллари. Тошкент 2016, 147-148 бетлар.

Низом (1999) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сонли қарори билан тасдиқланган “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом. Манба: <https://lex.uz/docs/264422>.

Сафонова М.Ф. (2017) Теория и методология внутреннего контроля и аудита налоговых затрат. 08.00.12 – Бухгалтерский учет, статистика диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Краснодар, стр.25.

Фармон (2019) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 январдаги “Иқтисодий тиричиликни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5614-сон Фармони. Манба: <https://lex.uz/docs/4147294>.



ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕР НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ И ПУТИ РАЗВИТИЯ

Атамуратова З.А.

Высшая школа бизнеса и предпринимательство при
Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена анализу ключевых аспектов повышения эффективности мер налогового контроля в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные проблемы и вызовы, с которыми сталкивается налоговая система страны, а также оценка воздействия существующих методов контроля на экономику и бюджетную систему. Особое внимание уделено современным технологиям и инновациям в области налогового контроля, таким как автоматизация процессов и использование аналитики больших данных, что способствует повышению точности и прозрачности проверок. В статье представлены основные направления для улучшения налогового контроля, включая повышение квалификации налоговых органов, усиление взаимодействия с налогоплательщиками, а также улучшение законодательства. Приведены рекомендации по внедрению эффективных инструментов контроля, которые могут способствовать не только увеличению налоговых поступлений, но и улучшению налоговой дисциплины в стране.

Ключевые слова: Налогово-бюджетная политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, позитивный анализ, налоговая нагрузка, налоговая ставка, средняя налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления и налоговые льготы.

Annotatsiya. Ushbu maqola, O'zbekiston Respublikasida soliq nazorati chora-tadbirlari samaradorligini oshirishning asosiy jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mamlakatda soliq tizimi oldida turgan asosiy muammo va vazifalar ko'rib chiqiladi, shuningdek, mavjud nazorat usullarining iqtisodiyot va byudjet tizimiga ta'siri baholanadi.

Soliq nazorati sohasidagi jarayonlarni avtomatlashtirish, yirik ma'lumotlar tahlilidan foydalanish kabi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa auditning aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Maqolada soliq nazoratini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, soliq organlarining malakasini oshirish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, qonunchilikni takomillashtirish ko'rsatilgan. Nafaqat soliq tushumlarini oshirish, balki mamlakatimizda soliq intizomini yaxshilashga yordam beradigan samarali nazorat vositalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Fiskal siyosat, davlat byudjeti, soliq boshqaruvi, soliq salohiyati, normativ tahlil, ijobiy tahlil, soliq yuki, soliq stavkasi, o'rtacha soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari va soliq imtiyozlari.

Abstract. *The article is devoted to the analysis of key aspects of increasing the efficiency of tax control measures in the Republic of Uzbekistan. The main problems and challenges facing the country's tax system are examined, as well as an assessment of the impact of existing control methods on the economy and budgetary system. Particular attention is paid to modern technologies and innovations in the field of tax control, such as process automation and the use of big data analytics, which helps to increase the accuracy and transparency of audits. The article presents the main directions for improving tax control, including improving the qualifications of tax authorities, strengthening interaction with taxpayers, and improving legislation. Recommendations are given for the implementation of effective control tools that can help not only increase tax revenues, but also improve tax discipline in the country.*

Key words: *Fiscal policy, state budget, tax administration, tax potential, regulatory analysis, positive analysis, tax burden, tax rate, average tax rate, tax reporting, tax revenues and tax benefits.*

1. Введение.

Налоговый контроль представляет собой неотъемлемую часть финансовой системы любого государства, играя важную роль в обеспечении эффективного функционирования бюджетной системы. В Республике Узбекистан, как и в других странах с развивающейся экономикой, вопросы повышения эффективности налогового контроля становятся особенно актуальными в свете стремительного роста экономики и необходимости обеспечения устойчивого поступления налоговых доходов в бюджет. Эффективность налогового контроля напрямую влияет на финансовую стабильность государства, развитие социально-экономической инфраструктуры и поддержание государственной политики в различных отраслях экономики. С момента независимости Узбекистан провел ряд реформ, направленных на улучшение налогового законодательства, модернизацию налоговых органов и повышение прозрачности налоговой системы. Однако проблемы уклонения от уплаты налогов, низкая степень добровольного исполнения налоговых обязательств и существование теневой экономики все еще остаются значительными вызовами для налоговой службы страны. В связи с этим важным является совершенствование методов налогового контроля, улучшение взаимодействия с налогоплательщиками и внедрение современных технологий, способных значительно повысить точность и результативность проверок. Целью данного исследования является анализ существующих мер налогового контроля в Республике Узбекистан, выявление ключевых проблем в этой области и предложений по их решению. Статья будет посвящена рассмотрению методов и подходов, направленных на повышение эффективности налоговых проверок, а также путям развития налоговой системы в стране с учетом современных мировых тенденций и инноваций.

2. Обзор литературы.

Шимкевич, Н. И. (2017). Эффективность налогового контроля: анализ и пути совершенствования. Москва: Финансовая Академия. Автор уделяет внимание таким вопросам, как улучшение налоговой дисциплины, борьба с налоговыми правонарушениями и уклонением от уплаты налогов. Особое внимание уделено применению современных информационных технологий и автоматизации процессов налогового контроля, что может быть полезно и для Республики Узбекистан.

Лебедева, Е. В. (2018). Налоговый контроль и его роль в экономическом развитии страны. Санкт-Петербург: Экономика и право. Автор анализирует роль налогового контроля в обеспечении финансовой стабильности государства, улучшении налоговых поступлений и борьбе с теневой экономикой. В статье приводится обзор методов

налогового контроля, которые могут быть использованы для повышения прозрачности налоговой системы и повышения уровня добровольного соблюдения налоговых обязательств.

Саидов, Б. Х. (2020). Налоговый контроль в Узбекистане: вызовы и перспективы. Журнал «Финансовая политика», № 5. Исследование посвящено особенностям налогового контроля в Республике Узбекистан. Рассматриваются ключевые проблемы, такие как уклонение от уплаты налогов, слабая налоговая дисциплина и необходимость совершенствования налоговых проверок. Автор подчеркивает, что для повышения эффективности налогового контроля в Узбекистане требуется внедрение новых подходов, включая улучшение системы администрирования налогов, усиление информационного обмена и применение цифровых технологий.

Умаров, М. А. (2021). Прозрачность налоговой системы как основа повышения налоговой дисциплины. Ташкент: Экономика и предпринимательство. В книге рассматриваются вопросы повышения прозрачности налоговой системы и использования новых технологий для улучшения налогового контроля в Узбекистане. Автор акцентирует внимание на том, как цифровизация и усиленная автоматизация могут стать важными инструментами для повышения эффективности налоговых проверок и снижения уровня уклонения от уплаты налогов.

Мирзахметов, И. М. (2022). Современные методы налогового контроля и их применение в Узбекистане. Ташкент: Издательство экономического факультета Ташкентского государственного университета. В исследовании обсуждаются современные методы налогового контроля, которые активно применяются в Узбекистане, такие как использование электронных деклараций и системы мониторинга налоговых поступлений. Автор акцентирует внимание на необходимости повышения квалификации сотрудников налоговых органов и создания условий для эффективного взаимодействия между бизнесом и налоговыми органами.

3. Методика исследования.

В статье использованы эмпирический подход, статистическая группировка данных, сравнительный анализ и синтез, нормативный подход, методы систематического и сравнительного анализа, а также зарубежный опыт.

4. Анализ и результаты

I. Цель и задачи налоговых проверок

Налоговый контроль играет ключевую роль в финансовой системе любой страны, поскольку от его эффективности зависит не только сбор налоговых поступлений, но и развитие экономики в целом. Республика Узбекистан, стремясь улучшить свои экономические показатели и обеспечить стабильность государственного бюджета, активно работает над совершенствованием системы налогового контроля. Рассмотрим основные направления и стратегии повышения эффективности этого контроля.

II. Автоматизация налоговых процедур

Одним из главных направлений, направленных на повышение эффективности налогового контроля в Узбекистане, является внедрение современных информационных технологий и автоматизированных систем. В последние годы республика сделала шаги в направлении цифровизации процессов налогового администрирования. В частности, были внедрены электронные налоговые декларации, системы для онлайн-уплаты налогов и цифровые платформы для подачи заявок и отчетности.

Автоматизация позволяет не только сократить время на обработку информации, но и значительно повысить точность данных, что исключает возможность ошибок и упрощает контроль за налогоплательщиками. Это также дает возможность эффективно

выявлять несоответствия и ошибки в декларациях на ранней стадии, минимизируя риск уклонения от уплаты налогов.

III. Использование анализа больших данных и искусственного интеллекта

Современные подходы к налоговому контролю предполагают использование анализа больших данных (Big Data) и искусственного интеллекта (AI) для выявления налоговых рисков и аномалий. В Узбекистане активно развиваются инструменты для анализа поведения налогоплательщиков на основе их прошлых деклараций и других данных, собранных из разных источников.

Такие технологии могут автоматически выявлять потенциальные риски, например, связанные с уклонением от налогов или занижением доходов, и на основании этого проводить более детализированные проверки. Разработка и внедрение таких систем позволяет значительно повысить вероятность выявления нарушений и обеспечит более тщательный и оперативный контроль за соблюдением налогового законодательства.

IV. Повышение квалификации и обучение налоговых инспекторов

Для успешного осуществления налогового контроля важно не только внедрять новые технологии, но и повышать квалификацию сотрудников налоговых органов. В последние годы в Узбекистане проводится ряд программ, направленных на обучение специалистов по вопросам применения новых технологий, законодательства и методов контроля.

Обучение инспекторов позволяет эффективно использовать новые инструменты в их работе и более квалифицированно оценивать налоговую отчетность, что способствует повышению точности контроля и снижению ошибок в процессе проверок.

V. Укрепление системы профилактики налоговых нарушений

Кроме ужесточения налогового контроля, важным аспектом является профилактика налоговых нарушений. В Узбекистане активно проводится разъяснительная работа среди налогоплательщиков, чтобы снизить уровень недоразумений и ошибок при подаче налоговой отчетности. Проведение информационных кампаний по налоговым обязанностям и мерам ответственности за нарушения способствует повышению налоговой грамотности населения и бизнеса.

Особое внимание уделяется малым и средним предприятиям, которым могут быть предоставлены льготы или упрощенные схемы налогообложения, что также помогает избежать уклонений от уплаты налогов из-за перегрузки системой.

VI. Сотрудничество с международными организациями и обмен опытом

Узбекистан активно сотрудничает с международными организациями, такими как Всемирный банк и МВФ, для обмена опытом в области налогового контроля и борьбы с уклонением от уплаты налогов. Применение международных стандартов и методик позволяет модернизировать налоговую систему и использовать лучшие практики других стран.

Так, Узбекистан в последние годы приступил к реализации различных инициатив, направленных на улучшение условий ведения бизнеса, в том числе за счет совершенствования системы налогообложения и налогового контроля.

VII. Ужесточение ответственности за налоговые правонарушения

Еще одним важным шагом в повышении эффективности налогового контроля является усиление ответственности за уклонение от уплаты налогов. В Узбекистане были внесены изменения в законодательство, ужесточившие санкции за налоговые правонарушения, что послужило значительным стимулом для повышения налоговой дисциплины среди предпринимателей.

Увеличение штрафов и введение уголовной ответственности за уклонение от уплаты налогов способствовали росту правовой ответственности и сдерживанию налоговых правонарушений.

VIII. Улучшение взаимодействия с налогоплательщиками

Одной из важнейших задач является улучшение взаимодействия налоговых органов с бизнесом и гражданами. В Узбекистане активно разрабатываются электронные платформы, которые позволяют наладить более эффективное и прозрачное общение с налогоплательщиками. Электронные каналы подачи налоговых деклараций, обращения за консультациями и подачи жалоб способствуют улучшению взаимодействия и упрощению процесса уплаты налогов.

Также введены меры по защите интересов добросовестных налогоплательщиков, что способствует созданию благоприятной налоговой среды для бизнеса и снижению уровня теневой экономики.

5. Заключение.

Повышение эффективности налогового контроля в Республике Узбекистан — это многогранная задача, которая включает в себя как внедрение современных технологий, так и совершенствование образовательных и организационных аспектов работы налоговых органов. Внедрение новых методов и подходов способствует улучшению сбора налоговых поступлений, борьбе с уклонением от налогов и созданию справедливой налоговой среды, что в конечном итоге положительно сказывается на экономической стабильности страны.

Кроме того, что повышение эффективности налогового контроля требует комплексного подхода, включающего внедрение новых технологий, автоматизацию процессов, повышение квалификации налоговых инспекторов, а также улучшение взаимодействия с налогоплательщиками. Анализ существующих методов и предложений позволит выработать рекомендации для дальнейшего улучшения налогового контроля в Узбекистане, что способствует стабильности и росту бюджетных доходов.

Литературы:

Kaplan, M.R. & Pavlov, V.P. (2019). *Innovations in Tax Control: Practical Approaches for Effective Monitoring*. Moscow: Finansy.

Slemrod, J. T., & Yitzhaki, S. (2002). *Tax Systems and their Economic Impact*. Journal of Economic Perspectives.

Волкова, И.Ю. (2019). Автоматизация налогового контроля как фактор повышения его эффективности. Ташкент: Издательство Университета мировой экономики и дипломатии.

Головачев, А.И. (2018). *Бюджетная система Российской Федерации: теоретические основы и практическая реализация*. Москва: Юрайт.

Мирзахметов, И.М. (2022). *Современные методы налогового контроля и их применение в Узбекистане*. Ташкент: Издательство экономического факультета Ташкентского государственного университета.

Саидов, Б.Х. (2020). Налоговый контроль в Узбекистане: вызовы и перспективы. Журнал «Финансовая политика», № 5.

Соловьев, А.В. (2017). *Налоги и налогообложение: современный подход к системе налогового контроля*. Москва: Экономика.

Умаров, М.А. (2021). *Прозрачность налоговой системы как основа повышения налоговой дисциплины*. Ташкент: Экономика и предпринимательство.

Шимкевич, Н.И. (2017). *Эффективность налогового контроля: анализ и пути совершенствования*. Москва: Финансовая Академия.

Шмидт, А.В. (2020). *Тенденции в налоговой политике стран СНГ: опыт и перспективы*. Москва: ВШЭ.



СОЛИҚ МАЪМУРИЯТЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Бабаев Ф.М.

*ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Мақолада солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришнинг халқаро тажрибалари ўрганилиб, бу бўйича мамлакатимизда мавжуд муаммолар таҳлил қилинган ва ечимига оид мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: солиқ, маъмурчилик, комплеанс, солиққа тортиш, солиқ тушумлари, бюджет.

Аннотация. В статье рассматривается международный опыт совершенствования налогового администрирования, анализируются существующие в нашей стране проблемы и комментируются пути их решения.

Ключевые слова: налог, администрирование, соблюдение, налогообложение, налоговые поступления, бюджет.

Annotation. The article examines the international experience of improving tax administration, analyzes the existing problems in our country and comments on their solutions.

Key words: tax, administration, compliance, taxation, tax revenues, budget.

1. Кириш.

Солиқ маъмуриятчилиги – бу давлат ҳокимияти органлари томонидан солиққа тортиш жараёнларини ташкил этиш, назорат қилиш ва тартибга солишда татбиқ этиладиган сиёсат, механизмлар ҳамда технологик ечимлар мажмуидир (Bird & Zolt, 2015). Иқтисодиёт назариясида солиқ – давлат бюджети учун асосий даромад манбааларидан бири ҳисобланиб, иқтисодиётни тартибга солувчи муҳим воситалардан саналади. Шу боис, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш нафақат бюджет тушумларини оширишда, балки иқтисодиётда ҳаётий муҳим соҳаларни рағбатлантириш, соф рақобат муҳитини шакллантириш ва мамлакатни жаҳон бозорида муносиб иштирокини таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга (OECD, 2020).

Халқаро тажрибада солиқ маъмуриятчилиги йўналишида кўплаб моделлар ва ёндашувлар мавжуд. Ривожланган мамлакатларда солиққа тортиш жараёни муттасил равишда рақамлаштириш, мониторинг ислохотлари ва янги технологияларни жорий этиш орқали такомиллашиб боради (IMF, 2021). Масалан, Эстония, Сингапур, Жанубий Корея сингари мамлакатлар электрон декларация, электрон тўлов, электрон ҳисоб фактура (e-Invoicing) каби технологиялардан самарали фойдаланиб, “рақамли солиқ маъмуриятчилиги”га йўл очиб берди (Keen & Lockwood, 2010). Бу эса солиқ органлари

ва солиқ тўловчилар ўртасидаги муносабатларни анча соддалаштириб, шаффофликни оширди.

Шу билан бирга, ривожланаётган мамлакатларда эскирган қонунчилик меъёрлари, коррупция, турли бюрократик тўсиқлар ва замонавий технологиялар билан боғлиқ муаммолар солиқ маъмуриятчилигининг бир текисда ривожланишига халал беради. Бироқ аксарият мамлакатлар, жумладан, Марказий Осиёда ҳам охириги йилларда кўриляётган ислохотлар солиқ тизимини тўлиқ қайтадан ташкил этиш йўлида илк қадамлар саналади (World Bank, 2022). Хусусан, кўплаб давлатлар солиқ маъмуриятчилигида аниқ мақсадларга йўналтирилган дастурлар орқали, электрон маҳсулотлар ва онлайн тартибда мониторинг олиб борувчи дастурлар, ахборот технологияларини жалб этиш лозимлигини тушуниб етган.

2. Адабиётлар шарҳи.

Солиқ маъмуриятчилиги тушунчаси иқтисодий адабиётларда жуда кенг қамровли бўлиб, муқобил ёндашувларга эга. Биринчи ёндашув – солиқ маъмуриятчилиги тартиб-қоидалар, қонунчилик асослари ва солиқ органлари фаолиятини ташкил этиш жараёни сифатида қаралади (Musgrave, 1959). Бу ёндашувда асосий эътибор маъмурий жараёнларга: солиқ ставкаларининг аниқ белгиланиши, солиқ ҳисоботини тақдим этиш тартиби, солиқ идоралари орасидаги ўзаро ҳамкорлик ва соҳадаги назорат механизмларига қаратилади.

Иккинчи ёндашув эса солиқ маъмуриятчилигини динамик, яъни мунтазам такомиллашиб борувчи тизим сифатида кўради. Бу ёндашувда солиқ тизими узлуксиз рақамлаштириш ва модернизация жараёнлари билан чамбарчас боғланади (James, 2015). Иқтисодиётда рақамли технологиялар тараққиётдан келиб чиқиб, солиқ маъмуриятчилиги фақатгина қоғозда эмас, балки электрон платформаларда, маълумотлар базасида, блокчейн каби инновацион технологиялар орқали кўрилиши лозим (Narayana, 2020).

Шунингдек, солиқ маъмуриятчилигида “комплаенс” тушунчаси ҳам муҳим ўрин тутаетди. Комплаенс – солиқ тўловчининг ҳақиқий маълумотларни вақтида ва тўғри тарзда тақдим этиши, яъни унинг солиқ қонунчилигига ижобий муносабатига эришиш (Bird & Zolt, 2015). Пировард натижада, эффектив солиқ маъмуриятчилиги фуқароларда “ўз вақтида солиқ тўлаш” маданиятини шакллантириши, давлат эса ортиқча бюрократик усулларсиз, шаффоф мониторинг қилиши мақсад қилинади.

Халқаро ташкилотлар – Халқаро валюта жамғармаси (IMF), Жаҳон банки (World Bank), Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD) – солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича кўплаб тадқиқотлар ўтказиб, дастурлар ишлаб чиқаетди. Масалан, OECD (2020) тадқиқотларида кўрсатилишича, кўплаб ривожланган мамлакатлар “электрон солиқ” дастурларига кўчаётган бўлиб, мазкур тизим шаффофликни таъминлаш ва харажатларни қисқартиришда муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, электрон декларация топшириш ечими солиқ органлари учун ҳам, солиқ тўловчилар учун ҳам катта қулайлик яратаетди (OECD, 2020).

IMF (2021) докладларида эса солиқ органларининг институционал салоҳияти ва кадрлар малакасини ошириш масалаларига урғу берилаетди. Ташкилот мутахассислари фикрича, шунчаки ставкаларни ошириш ёки жазо чораларини кучайтириш эвазига бюджет тушумлари узоқ муддатда кўпаймаслиги мумкин. Аксинча, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш, яъни электрон мониторинг, автоматлашган ҳисоботлар, ахборот алмашинувини осонлаштириш каби механизмлар асосида комплаенсни яхшилаш зарур (IMF, 2021).

Жонсон (2018) каби тадқиқотчилар эса солиқ маъмуриятчилигининг самарадорлиги биринчи галда солиқ органлари билан солиқ тўловчилар ўртасида ишончли муносабат шаклланишига боғлиқ эканини таъкидлайдилар. Ушбу ишончни

тиклашда замонавий технологияларни жорий этиш, “бир дарча” тамойили асосида тўловларни амалга ошириш ва шикоятлар билан ишлаш бўйича очиқ-ойдин ахборот майдонини яратиш асосий аҳамият касб этади.

Рақамли технологиялар жорий этилиши – солиқ маъмуриятчилигининг янги босқичи сифатида тасвирланади. Чунки электрон базалар, идентификация, электрон имзо ва масофавий мониторинг солиқ органлари учун тезкор дастлабки текширувлар, маълумотларни таққослаш ва ҳар қандай муҳтож параметрларини автоматлаштирилган равишда таҳлил қилиш имконини беради (Narayana, 2020).

Шунга қўра, рақамлаштириш жараёнларига мўлжалланган илмий тадқиқотлар сони ҳам ортиб бораётгани кузатилади. Масалан, Бёрд ва Золт (Bird & Zolt, 2015) ҳамда Смит (Smith, 2019) каби тадқиқотчилар рақамлашган солиқ тизимида коррупция даражаси пасайиши, сўндириш жараёнлари оптималлашиши, ялпи тушумлар ортаётгани ҳақида далиллар келтирадилар. Бироқ рақамли технологияларни жорий этишда кутилмаган муаммолар – сўзсиз янги дастур харидлари, ходимлар малакасини ошириш, ахборот хавфсизлиги бўйича чиқимлар ва инфраструктура масалалари ҳам мавжуд. Шу сабабли, ривожланган мамлакатлар бу борада тизимли ислохотларни амалга ошириб, жамиятда руҳий тайёргарликни ҳам таъминлашга эътибор қаратади (James, 2015).

Солиқ маъмуриятчилигида коррупция билан кураш ҳам муҳим масала сифатида ажралиб туради. Коррупция даражаси юқори бўлган мамлакатларда солиқ тўловчилар узоқ муддатда маблағларини яширишга ҳаракат қилади, бу эса “ёширин иқтисодиёт” улушининг ошишига сабаб бўлади (Shleifer & Vishny, 1993). Рақамли технологияларни жорий қилиш, солиқ органлари хизматларини шаффофлаштириш, давлат хизматлари марказлари орқали кўрсатиладиган хизматларни “бир дарча” тамойилида йўлга қўйиш коррупция хатти-ҳаракатларини камайтиришда энг самарали омилдир (World Bank, 2022).

Адабиётлар шарҳидан кўриниб турибдики, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришда соф маъмурий чоралар (жазо, текширувлар) билан чекланиб қолмай, институционал ислохотлар, рақамлаштириш, кадрлар малакасини ошириш ва жамиятда комплаенсни шакллантириш каби омиллар ҳам таъминланиши зарур. Шу сабабли, ривожланган мамлакатларда ушбу ислохотлар муваффақиятли натижа бераётган бўлса, ривожланаётган мамлакатлар ана шу тажрибага таянган ҳолда, ўзига хос шароитларидан келиб чиқиб бажариши лозим.

3. Таҳлил ва натижалар.

Халқаро тажрибадаги ислохотлар: илғор мамлакатлар мисолида.

Эстония Европада рақамли технологиялар жорий этилиши бўйича энг илғор мамлакатлардан бири саналади (Kangert, 2018). Мазкур мамлакат “e-Residency” концепциясини жорий этган, унга қўра, ҳар қандай инвестор ёки тадбиркор махсус электрон идентификация орқали компания очиши, солиқ тўловлари ва ҳисоботларни тўлиқ масофавий тарзда амалга ошириши мумкин. Бу эса Эстонияга кўплаб чет эл инвестициялари келишига шароит яратди. Солиқ маъмуриятчилиги рақамли кўринишга эга бўлиб, солиқ декларациясини онлайн тақдим этиш даражаси 95% дан кўпроқни ташкил этади (Kangert, 2018).

Сингапур ҳам солиқ тизимида рақамлаштирилган янги механизмларни жорий этиш бўйича энг илғорлардан бири. Бу мамлакатда солиққа оид барча ҳужжатлар электрон форматда юритилади, ортиқча қоғозбозлик камайтирилган. Бундан ташқари, Сингапур солиқ тўловчилар учун қулай муҳит яратиш мақсадида анча паст ставкаларни жорий этган, эвазига “ҳар бир тўловчининг ихтиёрий комплаенс йўли билан ошкора бўлиши”ни тарғиб қилади (Singapore IRAS, 2019). Малака ошириш курслари, онлайн

маслаҳатлар платформаси ва автоматик даромад декларация жараёнлари – шу каби ёндашувлар иқтисодиётда “тўловчилик маданияти”ни мустаҳкамлайди.

Жанубий Корея электрон тўловлар тизимини жорий этиш бўйича дунёда энг ривожланганларидан бири саналади. Бу мамлакатда пластик карталар ва мобил тўловлар орқали амалга ошириладиган операциялар учун махсус имтиёзлар мавжуд. Натижада нақд пул айланмаси камайтирилиб, барча операциялар мониторинг қилинади. Солиқ органи махсус “Hometax” тизими орқали фойдаланувчиларга амалий ёрдам беради, шикоятлар ва маълумот алмашинуви онлайн тарзда содир бўлади (Kim & Cho, 2017). Натижада, Жанубий Кореяда солиқ тушумлари устувор ўсиш кўрсаткичларига эришган.

Рақамли технологиялар жорий этилиши солиқ маъмуриятчилигида бир неча афзалликларни беради:

1. Барча солиқ операциялари электрон базага қайд этилади, солиқ тўловчиси қайси кунда қандай тўлов амалга оширгани, қандай декларация тақдим этгани қулай мониторинг қилинади (Smith, 2019).

2. Қоғоз ҳужжат айланмасини пасайтириш, текширувларни масофавий амалга ошириш эвазига ҳам давлат идоралари, ҳам солиқ тўловчилар учун идоравий харажатлар камаяди (James, 2015).

3. Коррупция асосан одам-одам муносабатларида юзага келади. Рақамлаштириш бевосита энг кўп коррупция эҳтимоли бўлган боғланишларни қисқартириб, ортиқча воситачиларни йўқ қилади (Shleifer & Vishny, 1993).

4. Электрон базалар солиқ органларига тезкор ахборот тақдим этиши, таҳлил жараёнини автоматлаштириш, вақт ва маблағни тежаш имконини беради (Narayana, 2020).

Бироқ рақамлаштириш жараёнида бир қатор муаммолар кузатилиши мумкин:

- Молиявий маълумотларнинг ахборот таҳдидларидан муҳофазаси энг муҳим вазифадир. Киберхавфсизликни таъминлаш учун қўшимча сармоя ва мутахассислар зарур (OECD, 2020).

- Барча ҳудудларда тезкор интернет тармоғи билан таъминлаш, рақамли дастурлар ишлатиладиган ускуналар харажатлари каби муаммолар ривожланаётган мамлакатлар учун катта тўсиқ бўлиши мумкин (World Bank, 2022).

- Ҳар қандай илғор технология фақатгина ундан фойдаланишни биладиган кадрлар кўникмаси бўлса самарали бўлади. Солиқ органлари ходимлари ва солиқ тўловчилар малакасини ошириш, ўқув курслари, семинарлар, онлайн платформалар ташкил этиш талаб этилади (IMF, 2021).

- Жамиятда қоғозбозликка кўниккан айрим қатламлар ёки нотариал иш муҳитини афзал кўрувчи шахслар рақамли тизимларга шубҳа билан ёндашиши мумкин. Шу боис, тушунтириш ишлари, ҳуқуқий маълумотлар кампаниясини ташкил этиш лозим (Johnson, 2018).

Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришда, рақамлаштиришдан ташқари, институционал ислохотлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Жумладан:

1. Солиқ кодексини замонавий талабларга мослаштириш, айрим моддаларини содда, аниқ, тушунарли шаклда қайта ишлаб чиқиш лозим (Bird & Zolt, 2015). Бу орқали ҳам давлат, ҳам солиқ тўловчи ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини аниқ тасаввур қила олади.

2. Солиқ органларининг ички тузилмасини ислоҳ қилиш талаб қилинади. Моддий ресурслар, кадрлар тақсимооти, ҳуқуқий ваколатлар, текширувлар тартиби аниқ белгилаб қўйилиши лозим (James, 2015).

3. Замонавий ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда мониторинг олиб бориш орқали, қизил байроқ (red flag) ёки хавф сингари аломатларни аниқлаш имкони яратилиши даркор. Бу орқали “ташаббускор тил бириктириш” ёки “яширин иқтисодиёт” кўринишларини вақтида аниқлаш мумкин (Shleifer & Vishny, 1993).

4. Солиқ тўловчиларда ихтиёрий тўлов қилиш маданиятини шакллантириш учун ҳуқуқий маданиятни ошириш, касб тайёрлов курслари ва ўқув жараёнларида солиқ тушунчасини мустаҳкамлаш талаб этилади (OECD, 2020).

5. Қўшни мамлакатлар ёки йирик иқтисодий шериклар билан ахборот алмашинуви, солиқ сиёсати ҳамда имтиёзлар борасида шериклик шартномалари шаклланиши ҳам муҳим. Чунки глобализация жараёнида чет эл сармоялари, трансчегаравий операциялар салмоғи ортиши билан трансферт нархнаво (transfer pricing), чет элда жойлашган компаниялар даромади каби масалалар ҳам долзарб бўлади (IMF, 2021).

Мамлакатимизда солиқ тизими ислоҳоти охириги йилларда жадаллашаётган бўлса-да, ҳали ҳам ечим кутувчи бир қанча муаммолар мавжуд. Жумладан:

- Солиқ кодексида иқтисодий шароитлардан келиб чиқиб, ставкалар ва тартибларга тегишли ўзгартишлар киритилган. Бироқ бу жараёнда қандайдир вақт оралиғи ичида барқарор қоидаларни таъминлаш зарурлиги туфайли, тез-тез ўзгартиришлар солиқ тўловчиларда ноаниқлик келтириб чиқариши мумкин.

- Электрон шаклга ўтиш жараёни бошланган бўлса-да, кўп ҳужжатлар ҳали ҳам қоғозда талаб қилинади. Бу эса текширувлар, лицензиялаш жараёнларида ортиқча вақт ва харажатлар сарфланишига сабаб бўлади (Karimov, 2020).

- Барча ҳудудлар ва барча тоифадаги тадбиркорлар учун интернет тармоғи ва рақамли ускуналардан фойдаланиш имконияти бирдек эмас. Бу эса чет жойларда электрон тизимда ишлашда қийинчиликлар туғдириши мумкин.

- Баъзи идоралар ўртасидаги мувофиқлаштирув етарли даражада эмаслиги, айрим бюрократик жараёнлар солиқ тўловчи талай ортиқча талаби ёки тўловларга олиб келиши эҳтимолини қолдирмайди.

Шундай бўлса-да, мамлакатимиз солиқ тизимида “аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари билан очиқ мулоқот” механизми, электрон декларациялар, мобиль иловалар орқали ҳисобот тақдим этиш каби илғор тажрибалар қўлланилмоқда. Солиқ маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш учун эса, халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни кучайтириш, хорижий технологияларни локал шароитларга мослаштириш ва ҳуқуқий базани соддалаштириш муҳимдир.

Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, самарали солиқ маъмуриятчилиги нафақат бюджет тушумлари ҳажмини оширади, балки:

1. Инвесторлар ишончини оширади. Халқаро инвесторлар ўз сармояларини киритадиган мамлакатда шаффоф ва соддалаштирилган солиқ тизими бўлишини устун қўядилар (World Bank, 2022). Шундай экан, самарали солиқ маъмуриятчилиги инвестицион муҳитни яхшилайти.

2. Одатий секторлар ривож. Тўғри йўлга қўйилган солиқ сиёсатидан кейин миқёси катта бўлмаган бизнеслар ҳам расмий муҳитда фаолият юритиши осонлашади. Бу эса иқтисодиётда кўплаб янги иш ўринлари яратилиши, чакана савдо, хизмат кўрсатиш, саноат каби соҳалар кенгайишига олиб келиши мумкин (James, 2015).

3. Яширин иқтисодиёт улушининг камайиши. Солиқ имтиёзлари, соддалаштирилган жараёнлар ва рақамли мониторинг туфайли ноқонуний ёки расмийлашмаган фаолият юритиш хавfli бўлиб қолади, бу эса яширин иқтисодиёт улушини камайтиради (Smith, 2019).

4. Бюджет барқарорлиги. Солиқ тушумларининг барқарор ўсиши мамлакат бюджетида сарф-харажатлар бўлими учун мустаҳкам асос беради, натижада, таълим, соғлиқни сақлаш, инфратузилма каби устувор йўналишларга кўпроқ маблағ ажратиш имконияти бўлади (IMF, 2021).

5. Рақамлаштириш билан боғлиқ комплекс ривожланиш. Солиқ маъмуриятчилиги соғлом рақамлаштириш жараёнига таъсир кўрсатиб, параллел равишда банк, суғурта,

транспорт, логистика каби соҳаларда ҳам ахборот тизимларини татбиқ этишни тезлаштиради (OECD, 2020).

Мазкур жиҳатлардан кўриниб турибдики, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш иқтисодий ривожланишда “катализатор” сифатида қайд этилиши мумкин. Бироқ бу жараён узлуксизлик, ҳуқуқий барқарорлик ва тизимли ёндашувни талаб қилади.

4. Хулоса.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш, бюджет тушумларини ошириш, айти пайтда хусусий сектор учун рағбатлантирувчи шароит яратишда асосий омиллардан бири эканини кўришимиз мумкин.

Шу тариқа, солиқ маъмуриятчилиги бугунги кунда рақамлаштириш, комплаенс шакллантириш, ҳуқуқий-меъёрий ислохотлар ва кадрлар малакасини ошириш каби бир неча муҳим йўналишларни бирлаштирган мураккаб жараёндир. Халқаро илғор тажриба мамлакатимиз учун бир кўзгу, бир илҳом манбаи бўлиши мумкин. Бироқ ҳар қандай ислохотни кўр-кўрона кўчириш имкони бўлмайди – маҳаллий шароит, маданият, иқтисодий ривожланиш даражаси, аҳоли савияси, сиёсий воқеликлар инobatта олиниши шарт.

Хулоса қилиб айтганда, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш мамлакат иқтисодиётида изчил ривожланишни таъминлаш, сармоя жалб қилиш, коррупцияни камайтириш ва бюджет барқарорлигига эришишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Халқаро тажрибадаги илғор ёндашувлардан унумли фойдаланиш, бироқ уларни маҳаллий шароитларга мослаштириб амалга ошириш келгуси ислохотларнинг муваффақият калитидир.

Адабиётлар:

Bird, R. & Zolt, E. (2015) *'Taxation and development: Again'*, UCLA School of Law, Law-Econ Research Paper, (15-03), pp. 1–20.

IMF (International Monetary Fund) (2021) *Revenue Mobilization for a Resilient and Inclusive Recovery*. Washington, D.C.: IMF Publications.

James, S. (2015) *'The rise of the digital taxman: The impact of digital technology on tax practice'*, Journal of Digital Accounting Research, 11(2), pp. 45–63.

Johnson, S. (2018) *'Building trust in tax administration: The role of transparency and technology'*, Economic Policy Review, 24(1), pp. 117–130.

Kangert, M. (2018) *'E-governance innovations in Estonia: Lessons learned'*, Estonian Journal of Digital Governance, 3(2), pp. 67–78.

Karimov, N. (2020) *'Tax administration reforms in transition economies: Uzbekistan case'*, Central Asian Policy Review, 5(1), pp. 19–32.

Keen, M. & Lockwood, B. (2010) *'The value added tax: Its causes and consequences'*, Journal of Development Economics, 92(2), pp. 138–151.

Kim, H. & Cho, G. (2017) *'E-tax system in Korea: Achievements and perspectives'*, Korean Journal of Public Finance, 4(2), pp. 25–39.

Musgrave, R. (1959) *The Theory of Public Finance*. New York: McGraw-Hill.

Narayana, T. (2020) *'Digital transformation and tax administration in developing economies'*, Journal of Public Budgeting, Accounting & Financial Management, 32(4), pp. 529–548.

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) (2020) *Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration*. Paris: OECD Publishing.

Shleifer, A. & Vishny, R. (1993) *'Corruption'*, The Quarterly Journal of Economics, 108(3), pp. 599–617.

Singapore IRAS (Inland Revenue Authority of Singapore) (2019) IRAS Annual Report. Singapore: IRAS Publications.

Smith, J. (2019) 'E-invoicing and tax compliance: An empirical study', International Tax Journal, 46(3), pp. 76–89.

World Bank (2022) World Development Report: Financing for an Equitable Recovery. Washington, D.C.: World Bank.



МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

и.ф.д., профессор **Курбанов З.Н.**
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Ушбу мақолада рақамли молиявий активларнинг бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари ёритилган. Хориж тажрибасидан фойдаланилган ҳолда криптовалюта оперецияларини бухгалтерия ҳисобида ҳисобга олиш бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: молиявий актив, рақамли молиявий актив, рақамли валюта, криптавалюта, даромад, бухгалтерия ҳисоби, солиқ, солиққа тортиш.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические вопросы бухгалтерского учета цифровых финансовых активов. Используя зарубежный опыт, вносятся предложения по учету операций с криптовалютой.

Ключевые слова: финансовый актив, цифровой финансовый актив, цифровая валюта, криптовалюты, доход, бухгалтерский учет, налог, налогообложение.

Annotation. This article discusses the theoretical issues of accounting for digital financial assets. Using foreign experience, proposals are made for accounting transactions with cryptocurrency.

Keywords: financial asset, digital financial asset, digital currency, cryptocurrencies, income, accounting, tax, taxation.

1. Кириш.

Мамлакатимиз иқтисодиётини рақамлаштириш жараёни бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари қайта кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқармоқда. Бу шароитда бухгалтерия ҳисобининг мавжуд моделларини, объекти ва методларини иқтисодиётини рақамлаштириш жараёнига мослаштириш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисобот шакллари молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига уйғунлаштириш зарур.

Халқаро амалиётни ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатлар ва иқтисодчи олимлар, амалиётчи бухгалтерлар рақамли молиявий активларни бухгалтерия ҳисобининг методологияси борасида ягона фикрга келишгани йўқ. Бу эса рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби методологиясини такомиллаштиришни талаб этади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисоби қандай ташкил этилади ва унинг методологиясида нималар ўзгаради? Рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш амалиёти қандай бўлади.

Рақамли молиявий активлар бухгалтерия ҳисоби амалиётини ташкил этишда қайси МҲҲСларидан фойдаланиш борасида иқтисодчиларнинг фикрлари турлича.

МҲҲС кенгаши (FASB) 2019 йилдаги йиғилишида криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби масаласини муҳокама қилиб, унинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисоботда акс эттириш муаммоси бўйича расмий кўрсатмалар берди. Молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг концептуал асослари молиявий ҳисоботларнинг элементларини аниқлаш ва тан олиш билан боғлиқ ҳолда, криптовалюта инвестиция учун сотиб олинган ва фаол бозорга эга бўлган номоддий активлар таърифига жавоб бериши белгиланган. Шунга асосланган ҳолда криптовалютанинг ҳисобини МҲҲС 38-“Номоддий активлар” стандартга мувофиқ олиб бориш лозим (IFRS, 2023).

И.В.Киселева, Н.В.Кулишларнинг (2017) ёзишича бухгалтерия ҳисобининг янги модели интеграцион-технологик модел деб аташимиз мумкин, унинг моҳияти шундан иборатки, иқтисодий субъект ахборотларини янги информацион технологиялар ёрдамида ягона ахборотлар майдонига йўналтиради.

Л.И.Куликова ва П.З.Мухаметзяновлар (2022) бу борада қуйидаги фикрларни билдиришган: “Янги технологиялар, рақамли сервислар, криптовалюта, рақамли молиявий активларнинг пайдо бўлиши, бухгалтерия ҳисобининг янги объектларини шаклланиши, уларни ҳисобга олиш учун стандартлар ишлаб чиқиш ҳамда молиявий ҳисобот кўрсаткичларини кенгайтиришни зарурият қилиб қўяди”.

Т.М. Одинцовани (2021) фикрича, Худди шу йили Америка дипломли бухгалтерлар институти (US GAAP) бухгалтерлари учун тушунтиришлар беради ҳамда криптовалюта номоддий актив эканлигини аниқлади. Шунга қўра, рақамли иқтисодиётда бухгалтерия ҳисоби ривожланишининг ҳозирги босқичида фан соҳаси ва услубий жиҳатдан кенгайтириш, мантиқий бухгалтерия базаси, тизимнинг мослашувчанлиги ва бошқарувнинг ахборот эҳтиёжларига мослаштирилиши зарур.

О.В.Лосева ва бошқалар (2022) қуйидаги таърифни берган: Рақамли актив деганда биз мулк турини (иқтисодий актив, сотиладиган фуқаролик ҳуқуқлари объекти) тушунамиз, номоддий хусусиятга эга ва рақамли технологиядан фойдаланган ҳолда яратилган рақамли шаклга, ахборот тизимидаги қиймат (нарх) эга ва фуқаролик (мулк) айланмага қодир. Рақамли актив иқтисодий (қиймат), юридик (ҳуқуқий) ва технологик моҳиятини бирлаштиради.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши асосида активларнинг таркибида ўзгаришлар бўлиб, номоддий активларнинг улуши ошиб боради. Бу шароитда хўжалик юритувчи субъектлар операцияларни ягона регистрга ёзади ва сақлайди. Бухгалтерия ҳисоби ахборотлари ягона регистрининг устунлик томони шундаки, бу шароитда ҳисоб ахборотларини бузиб кўрсатиш ёки йўқ қилиб юборишни имкони бўлмайди. Чунки ахборотлар тақсимлаш ва криптография тизимлари билан ҳимояланган бўлади. Баъзи иқтисодчилар бу тизимни “уч ёклама ёзув” деб аташмоқда. Н.В.Емельяновнинг (2019) фикрича, бу тизим ривожланади ва молиявий ҳамда номолиявий ҳисоботларнинг ишончли базасига айланади.

А. В. Бодяко, С.В.Пономарева, Т.М.Рогуленколар (2021) крипто-активларни захира сифатида ҳисобга олишни таклиф этишган: МҲҲС (IAS) 2 “Захиралар” одатдаги бизнес жараёнида сотиш учун сақланган крипто активларга нисбатан қўлланилиши мумкин.

А.А.Романов ва П.А.Романовлар (2022) криптавалютани қуйидагича изоҳлайди: Ҳозиргача бу ҳодисанинг аниқ таърифи йўқ, аммо, криптовалюталар молиявий воситаларнинг янги синфи эканлигини тушуниш бор. Рақамли валюта қуйма олтинга, акция ёки облигацияга ўхшамайди, биринчи навбатда, минглаб компьютерлар тармоғида ишлайдиган технология, дастурдир. Биткоин иштирокчиларнинг ишонч муаммосини ҳал қилишга муваффақ бўлган биринчи криптовалютага айланди. Сўнгги йилларда криптовалюталар, хусусан, биткоин “глобал рақамли валюта” сифатида ўз

позицияларини сезиларли даражада мустаҳкамлади: глобал криптовалюта бозорининг капиталлашуви 2021-йилнинг ноябрь ойи уч триллион АҚШ долларидан ошди ва 2021-йилда ушбу бозордаги кунлик савдо айланмаси 300 миллиард долларга етди.

Р.М.Гайбуллаевнинг (2022) фикрича, блокчейн технологиясини бухгалтерия ҳисобида фойдаланиш жуда катта салоҳиятга эга бўлиб, у муайян қоидаларга мувофиқ чизиқли “блоклар” занжири ҳисобланади. Бу марказлаштирилмаган бошқарувда ягона маълумотлар базаси бўлиб, у кўплаб компьютерларга тақсимланади. Блокчейн кўпинча “тарқатилган маълумотлар базаси” деб ҳам номланади.

Н.В. Анохина ва А.И. Шмырева[2018] қайд этишича “криптовалюта - бу молия бозорининг янги воситаси ҳисобланади. ... Бундан ташқари, пулнинг асосий назарияси қийматнинг меҳнат назариясига асосланади (товарлар ва хизматларнинг нархи уларга инвестиция қилинган инсон меҳнатининг миқдорига боғлиқ), криптовалюта - блокчейн асосидаги технология компьютер кучи ва сақланган энергия комбинациясининг нархини белгилайди”. Рақамли молиявий активлар - пул талаблари, қимматли қоғозлар бўйича ҳуқуқларни амалга ошириш қобилияти ва нодавлат АЖ капиталида иштирок этиш ҳуқуқларини ўз ичига олган рақамли ҳуқуқдир.

Рақамли молиявий актив ва рақамли валюта (2022) ўртасидаги асосий фарқ шундаки, рақамли молиявий активларнинг эмитенти, яъни криптовалюта эгаси олдидаги мажбуриятлар учун жавобгар бўлган шахс мавжуд. Рақамли валюта электрон маълумотлар эгаси мажбурий шахсга эга эмас, лекин рақамли валюта банкрот бўлган тақдирда мулк ҳисобланади. Криптовалютани тўлов воситаси сифатида ишлатиш мумкин эмаслиги ҳақиқатда уни пулнинг асосий хусусиятларидан биридан маҳрум қилади, бу ҳам қиймат ўлчови ва жамғариш воситасини ўз ичига олади (2022).

В.Авдеевнинг қарашича (2023), Россия қонунчилигига асосан криптавалюта “рақамли валюта” деб аталади. Рақамли валюта - рубл ёки чет эл валютаси бўлмаган тўлов воситаси сифатида ишлатилиши мумкин бўлган электрон маълумотлар тўплами. Ушбу маълумотлар бўйича сизнинг олдингизда ҳеч ким жавобгар эмас, ушбу ахборот тизимининг қоидаларига мувофиқ чиқишни таъминлайдиган ва киритишни таъминлайдиган тизим операторлари (тугунлари) бундан мустасно.

Юқоридагиларга асосланган ҳолда, бизнинг фикримизча, криптовалюта — махсус кодлар орқали ҳимояланган рақамли молиявий актив бўлиб, жўнатма операцияларида пул ўрнида ишлатилади. Рақамли иқтисодиётни шаклланиши шароитида криптавалюта операциялари бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш объекти бўлиб ҳисобланади.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот методологияси аниқ илмий ва умумий илмий усуллардан фойдаланиш - тарихий ёндашув, эмпирик ва назарий тадқиқотларни тизимлаштириш, таҳлил қилиш ва синтез қилиш билан тавсифланади. Тадқиқотнинг аҳамияти ва долзарблиги муаллифнинг рақамли молиявий активларнинг бухгалтерия ҳисобининг муаммоларини асосий йўналишларни аниқлаганлиги билан белгиланади. Тадқиқот жараёнида хорижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш, таққослаш, груҳлаштириш усулларида фойдаланган ҳолда хулосалар қилинди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Жаҳон амалиётида электрон пуллардан ташқари, рақамли валюталарнинг қуйидаги турлари-криптовалюта, стейблкоин ва марказий банкнинг рақамли валютаси амал қилади (1-расм).



1-расм. Электрон валюталарнинг шакллари

Расмдан кўриниб турибдики, рақамли валюта асосан икки гуруҳга бўлинади: виртуал валюталар ва электрон валюталарга. Биз юқорида криптовалютага тўхталиб, унинг иқтисодий моҳиятини очишга ҳаракат қилдик. Виртуал валютанинг кейинги шакли бўлган-стейблкоин тушунчасига тўхталиб ўтамиз.

Стейблкоинлар рақамли валюта бўлиб, унинг барқарорлиги бошқа, камроқ ўзгарувчан активнинг қийматига боғланган ҳолда таъминланади. Аслида, улар Бреттон-Вудс молиявий тизими даврида фиат валюталарининг рақамли форматини ифодалайди.

Иқтисодий адабиётларда (2018) жаҳон валюта тизимининг 4 тури ажратиб кўрсатилади. Хусусан: Париж валюта тизими (1867 й.), Генуя валюта тизими (1922 й.), Бреттон-Вудс валюта тизими (1944 й.) ва Ямайка валюта тизими (1976 й.).

Бреттон-Вудс жаҳон валюта тизими. Учинчи жаҳон валюта тизими 1944 йилда Бреттон-Вудс (А Ш)да бўлиб ўтган, валюта ва молия масалаларига бағ ишланган анжуманда иштирокчи мамлакатлар келишуви билан расмийлаштирилган. Ушбу анжуманда жаҳоннинг 44 давлатидан 730 та вакил иштирок этган. Айнан мазкур анжуманда Халқаро валюта фонди ва Халқаро тикланиш ва тарақиёт банкига асос солинган.

БМТ Бош котибининг биринчи ўринбосари Амина Муҳаммад (2023) “Глобал молия архитектурасига тузатиш киритиш зарур” мавзудаги анжуманда чиқиш қиларкан, жаҳон молиявий архитектураси номукамал эканини қайд этди.

Маълум қилинишича, бугунги кунда ўта қашшоқ аҳолиси нисбатан кўп 53 ривожланаётган мамлакат қарзга ботган. Бу давлатларнинг 25 таси ўз даромадининг 20 ёки янада кўпроқ фоизини фақат ташқи қарзни тўлашга сарфламоқда.

Ушбу муаммолар жаҳон молия архитектураси мукамал эмаслигини кўрсатади. Биз тизимга тузатиш киритишимиз ва янги Бреттон-Вуд тизимини шакллантиришимиз керак.

Бреттон-Вудс тизимига кўра (2023), бир троя унция (31,1 грамм оғирликда) олтиннинг қатъий ва ўзгармас баҳоси 35 АҚШ доллари қилиб белгиланди. Конференция қатнашчилари халқаро тўловларда олтин ўрнига долларда ҳисоб-китоб қилишга келишиб олишди. Бу долларнинг олтинга тенглаштирилиши эди.

Рақамли валюталар тўғрисида умумий маълумотларга эга бўлдик, энди уларни бухгалтерия ҳисобида ва молиявий ҳисоботда қандай акс эттириш масалаларини ёритишга ҳаракат қиламиз.

Халқаро амалиётда молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг концептуал асослари молиявий ҳисоботларнинг элементларини аниқлаш ва тан олиш билан боғлиқ ҳолда, криптовалюта инвестиция учун сотиб олинган ва фаол бозорга эга бўлган номоддий активлар таърифига жавоб бериши белгиланган. Шунга асосланган ҳолда криптовалютанинг ҳисобини МҲХС 38-“Номоддий активлар” стандартга мувофиқ олиб бориш белгиланган.

Агар криптовалюта сотиш учун мўлжалланган бўлса, у ҳолда МҲХС (IAS) 2 “Захиралар” стандарти қўлланилади.

Россия Федерацияси Молия вазирлигининг тегишли меъёрий ҳужжатларига асосан (2020) токенларни сотиб олиш ва ҳисобдан чиқаришда қуйидаги бухгалтерия ёзувлари қилиниши белгиланган:

1.Токен қиймати мол етказиб берувчиларга тўланганда:

Дт счёта-60 “Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоб китоблар”

Кт счёта-51 “Ҳисоб китоб счёти”;

Токен қиймат захира сифатида ҳисобга олинганда:

Дт счёта-10 “Материаллар”;

Мол етказиб берувчилардан товар-моддий захираларни харид қилишда ҳисобга олинган ҚҚС суммаси:

Дт счёта-19 “Сотиб олинган қийматликлар бўйича қўшилган қиймат солиғи”

Кт счёта-60 “Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоб китоблар;”

Ҳисобга олинган ҚҚС суммасига:

Дт счёта-68 “Солиқлар ва йиғимлар бўйича ҳисоб китоблар”

Кт счёта-19 “Сотиб олинган қийматликлар бўйича қўшилган қиймат солиғи”;

Ҳисобдан чиқарилган токен қийматини фаолият турлари бўйича харажатларга олиб бориш:

Дт счёта-26 “Умумхўжалик харажатлари”

Кт счёта-10 “Материаллар” (Бодяко, 2020).

Украинада эса криптовалюталарни 15 -“Капитал инвестициялар” счет орқали бухгалтерия ҳисобида акс эттириш таклиф этилган¹⁷.

Мамлакатимиз рақамли молиявий активлар ёки крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисоби қандай ташкил этилганлигини кўриб чиқамиз.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий ва Молия вазирлиги ҳамда Солиқ қумитасининг (14 декабрь 2022 йил № 06/17-01-32/278 14 декабрь 2022 йил № 2022-42) Крипто-активлар операцияларининг бухгалтерия ҳисоби тўғрисида АХБОРОТ ХАБАРИДА (2022) бирламчи бухгалтерия ҳужжатларида, агар мажбурий реквизитлар мавжуд бўлса, Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни талабларига мувофиқ қўшимча реквизитлар бўлиши мумкин. Крипто активлари ҳақида маълумот уларни олиш усули ва мақсадига қараб крипто-активлари айланмаси соҳасидаги ташкилотларнинг, шу жумладан, номоддий активларни ёки товар моддий захираларни ҳисобга олиш учун мўлжалланган бухгалтерия ҳисобварақларида майнинг

¹⁷ Как вести учет криптовалюты в Украине: юридические нюансы, налоги и примеры проводок. <https://finacademy.net/materials/article/uchet-kriptovalyuty>.

билан шуғулладиганларнинг бухгалтерия ҳисобида акс этади. Бунинг учун ҳисобкитобларнинг иш режасида крипто-активларининг қийматини ҳисобга олиш учун тегишли ҳисоб гуруҳларида алоҳида ҳисобларни аниқлаш мақсадга мувофиқ. Крипто-активлари айланмаси соҳасидаги ташкилотлар фаолиятининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, крипто-активларининг аналитик ҳисоби уларнинг турлари, идентификация хусусиятлари бўйича амалга оширилиши мумкин. Агар крипто-активлари номоддий активларнинг бир қисми сифатида тан олиниси шартларига жавоб берса, унда бундай активларни ҳисобга олиш 7-сонли “Номоддий активлар” Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартига (БҲМС) (рўйхат рақами 1485-сон 27.06.2005) мувофиқ белгиланган тартибда амалга оширилади. 7-сонли БҲМС маълумотларига кўра, номоддий активнинг қиймати унинг фойдаланиш муддати давомида амортизация ҳисобига тўланади. Агар номоддий активнинг фойдаланиш муддатини аниқлашнинг иложи бўлмаса, амортизация ставкалари беш йилга белгиланади. Амортизация харажатлари 7-сонли БҲМС томонидан белгиланган усуллар ва тартибда амалга оширилади. Амалдаги амортизация усули ва номоддий активнинг фойдаланиш муддатини қайта кўриб чиқиш корхонанинг ҳисоб сиёсатида акс эттирилиши шарт. Крипто-активларини электрон платформаларда ёки хизмат курсатувчи провайдерларнинг бошқа платформаларида (крипта алмашинуви ёки крипто дўкони) крипто активларини айирбошлаш соҳасида сотиш учун сотиб олинган бўлса, 4-сонли “Товар-моддий захиралари” БҲМСда (рўйхат рақами 3259-сон, 30.06.2020) белгиланган тартибда ушбу активлар товарлар таркибида энг паст иккита қийматдан бири бўйича - ҳақиқий таннархда (сотиб олиш нархида) ёки реализация қилинадиган қийматда акс эттирилади. Майнинг натижасида яратилган ва кейинчалик сотиш учун мўлжалланган крипто-активлари 4-сонли “Товар-моддий захиралари” БҲМСга (рўйхат рақами 3259-сон 30.06.2020) мувофиқ тайёр маҳсулотга киритилади ва бухгалтерия ҳисобида акс эттирилиши белгиланган.

Ушбу ахборот хабарда крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисоби қайси счёта акс эттирилиши келтирилмаган.

Агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисобини 0400 - “ Номоддий активларни ҳисобга олувчи счётлар” таркибида криптовалюталарни ҳисобга олувчи 0450 “Криптовалюта” ишчи счётини очишни тақлиф қиламиз.

Агар криптовалюта сотиш учун олинган бўлса, уни захира сифатида тан олиш керак ва уни учетини ташкил этиш учун 1210 “Криптовалюта” ишчи счётни очиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Халқаро амалиётда агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисоби МҲХС (IAS) 38 “Номоддий активлар” стандарти билан, агар криптовалюта сотишга мўлжалланган бўлса, у ҳолда МҲХС (IAS) 2 “ Захиралар” стандарти билан тартибга солинади.. Шундан келиб чиққан ҳолда криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадида баъзи мамлакатларда, жумладан Республика Беларусда Молия вазирлиги томонидан қабул қилинган “Рақамли белгилар (токенлар)” номли бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг стандарти қабул қилинган ва амалиёт қўлланилмоқда (Бодяко и др. 2021).

Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги электрон пуллар фақат миллий валютада бўлиши кераклигини ҳисобга оладиган бўлсак, 2024 йилнинг февраль ойидан бошлаб қуйидаги электрон пул тизимлари амал қила бошлади: “OSON”, “E-CARD”, “CLICK”, “alif.mobi”, “A-pay”, “1HLSW”, “GlobalPay”, “Payme”, “Apelsin”, “ExMoney”, “UZUM NASIYA”, “UCOIN”, “PAYNET” ва “WALLET”лар.

5. Хулоса.

Халқаро амалиётни ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатлар ва иқтисодчи олимлар, амалиётчи бухгалтерлар рақамли молиявий активларни бухгалтерия ҳисобининг методологияси борасида ягона фикрга келишгани йўқ. Бу эса рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби методологиясини такомиллаштиришни талаб этади.

Халқаро амалиётда агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисоби МҲХС (IAS) 38 “Номоддий активлар” стандарти билан, агар криптовалюта сотишга мулжалланган бўлса, у ҳолда МҲХС (IAS) 2 “Захиралар” стандарти билан тартибга солинади.. Шундан келиб чиққан ҳолда криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисобини 0400-“ Номоддий активларни ҳисобга олувчи счётлар” таркибида криптовалюталарни ҳисобга олувчи 0450 “Криптовалюта” ишчи счётини очишни тақлиф қиламиз.

Агар криптовалюта сотиш учун олинган бўлса, уни захира сифатида тан олиш керак ва уни учетини ташкил этиш учун 1210 “Криптовалюта” ишчи счётни очиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

IFRS (2023) Официальный сайт IFRS. IAS 38 Intangible Assets. -URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/> (дата обращения: 19.06.2023).

Авдеев В. (2023) Криптовалюта, NFT, цифровые активы: учет и налогообложение в РФ. <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a1032583/1032591.html>.

Амина Мухаммад (2023): «Глобал молия архитектурасига тўзатиш киритиш зарур». https://uza.uz/uz/posts/amina-muhammad-global-moliya-arxitekturasiga-tuzatish-kiritish-zarur_473551?q=%2Fposts%2Famina-muhammad-global-moliya-arxitekturasiga-tuzatish-kiritish-zarur_473551.

Анохин Н.В., Шмырева АИ. (2018) Криптовалюта как инструмент финансового рынка // Идеи и идеалы. № 3, т. 2. - С. 39-49. - ёқ 10.17212/2075-08622018-3.2-39-49.

Бодяко А. В., (2020) Развитие методологии учетно-контрольных процессов в условиях цифровой экономики. Управление. 8(1):47-56.

Бодяко А. В., Пономарева С. В., Рогуленко Т. М. (2021) Идентификация цифровых прав в качестве объекта учета и контроля. Учет.Анализ.Аудит = Accounting.Analysis.Auditing. 2021,8(5):14-27. DOI: 10.26794/2408-93032021-8-5-14-27.

Бодяко А. В., Пономарева С. В., Рогуленко Т. М. (2021) Идентификация цифровых прав в качестве объекта учета и контроля. Учет.Анализ.Аудит = Accounting.Analysis.Auditing. 8(5):14-27. DOI: 10.26794/2408-93032021-8-5-14-27.

Гайбуллаев Р.М., Бобомуродова С.З. (2022) Бухгалтерия ҳисобида рақамли ахборот технологияларини қўллаш истиқболлари. JOURNAL OF ECONOMICS, FINANCE AND INNOVATION ISSN: 2181- 3299 Volume-II Issue 1.

Емельянов Н.В. (2019) Влияние цифровизации экономики на развитие бухгалтерского учета. Научноисследовательский электронный журнал «Экономические исследования и разработки/Economic development research journal». №1.

Жумаев Н. Х., Акбаров Ҳ. М. (2018) Жаҳон валюта тизимининг ривожланиши босқичлари ва янги инновацион йўналишлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 6, декабрь.

Киселева И.В.,Кулиш Н.В. (2017) Эволюция моделей бухгалтерского учёта. Экономические науки, №58-2. 11.01.2017.

Куликова Л.И. и др. (2022) Развитие финансовой отчетности в условиях цифровизации./ Международный бухгалтерский учет. т.25,вып.2.стр.180-187.

Лосева О.В., Косорукова И.В., Федотова М.А., Тазихина Т.В., Абдикеев Н.М. (2022) Оценка стоимости цифровых интеллектуальных активов: принципы, факторы, подходы и методы. Финансы: теория и практика; 26(4):6-28. DOI: 10.26794/2587-5671-2021-26-4-6-28.

Нестеренко Е. (2022) Криптовалюта в России: юридический статус, налоги и бухгалтерский учет. / <https://finacademy.net/materials/article/uchet-kriptovalyuty-ru>.

Одинцова Т.М. (2021) Бухгалтерский учет: развитие и трансформация в контексте вызовов современности // Международный бухгалтерский учет. № 10. С. 1162-1187.

Романова А.А. Романов П.А. (2022) Криптовалюты как элемент инновационной экосистемы Технология блокчейн и криптовалютный рынок: глобальные риски, тенденции и перспективы развития: сб. науч. тр. / отв. ред. В.И. Герасимов. – Москва: ИНИОН РАН, – 238 с

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиё ва Молия вазирлиги ҳамда Солиқ қумитасининг (14 декабрь 2022 йил № 06/17-01-32/278 14 декабрь 2022 йил № 2022-42) Кripto-активлар операцияларининг бухгалтерия ҳисоби тўғрисида АХБОРОТ ХАБАРИ.

Украинадаги уруш глобал молия тизимидаги «доллар эраси» тугашига олиб келадими? (2023) <https://kun.uz/41217236?q=%2F41217236#!> 20.06.2023.



ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИГА БЕВОСИТА ТАЪСИРИ

Мамедова Г.К.

ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Ушбу мақолада тижорат банкларини солиққа тортиш усулларининг мамлакат иқтисодиётига бевосита таъсири таҳлил этилиб, банк сектори барқарорлиги ва иқтисодий ўсишни таъминлаш борасида илмий асосланган хулоса ҳамда тавсиялар тақдим этилган.

Калит сўзлар: тижорат банклари, солиқ сиёсати, иқтисодий ўсиш, банк барқарорлиги, кредитлаш.

Аннотация. В статье рассматривается прямое влияние налогообложения коммерческих банков на экономику страны, анализируются механизмы обеспечения стабильности банковского сектора и стимулирования экономического роста, представлены научно обоснованные выводы и рекомендации.

Ключевые слова: коммерческие банки, налоговая политика, экономический рост, стабильность банков, кредитование.

Abstract. This article examines the direct impact of commercial bank taxation on a nation's economy, exploring mechanisms to maintain banking sector stability and stimulate economic growth, and offers scientifically grounded conclusions and recommendations.

Keywords: commercial banks, tax policy, economic growth, banking stability, lending.

1. Кириш.

Тижорат банклари ҳар қандай мамлакат иқтисодиётида муҳим ўрин тутиши билан биргаликда, солиқ сиёсатининг асосий субъектларидан бири сифатида ҳам эътиборни тортади. Банк сектори кўплаб молиявий операцияларни амалга оширади: аҳоли ва корхоналар учун кредитлаш, депозит операциялари, молиявий воситачилик, инвестиция хизматлари ва бошқалар. Мамлакат иқтисодиётида тижорат банкларининг роли катта бўлганлиги сабабли, уларни солиққа тортиш тизимининг самарали йўлга қўйилиши давлат бюджети даромадларини таъминлаш баробарида, банклар орқали амалга ошириладиган иқтисодий жараёнлар рағбатлантирилишини ҳам таъминлаши керак (Smith, 2020). Солиқ сиёсати эса иқтисодиётда “тартибга солувчи” вазифасини бажаради: иқтисодиётни рағбатлантириш, қонуний ислохотларни амалга ошириш, ортиқча бюрократияни қисқартириш ва бюджет манбаларини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Тижорат банклари учун солиқ сиёсатининг аҳамиятлилиги бир нечта омиллар билан боғлиқ. Биринчидан, банклар инвесторлар, тадбиркорлик субъектлари ва аҳоли ўртасида молиявий воситачиликни таъминлайди, бу эса иқтисодий ўсишни

рағбатлантиради. Иккинчидан, банклар солиқ юки иқтисодий жараёнларнинг қарз ресурслари билан таъминланиши, инвестиция имкониятлари ва умуман банк операцияларининг рағбатлантирилишига бевосита таъсир қилади (Johnson, 2018). Шу сабабли, тижорат банкларини солиққа тортиш тизими мунтазам яхшиланиши, замонавий талабларга мослашиши, шу билан бирга банк секторининг барқарорлигини сақлаб қолиши лозим.

Мамлакатимиз шароитида тижорат банклари солиқ сиёсатининг бир неча жиҳатлари долзарбдир. Масалан, яқин йилларда миллий банк тизимида амалга оширилаётган либераллашув жараёнлари, янги молиявий технологиялар жорий этилиши, халқаро банк хизматлари сифатининг яхшиланиши ҳамда иқтисодиётни диверсификация қилиш мақсадида қабул қилинаётган дастурлар банклар сони ва миқозлар базаси кенгайишига олиб келди (Karimov, 2019). Бу билан бирга, солиқ кодексида банклар учун солиққа тортиш нормалари қандай белгилангани, уларнинг имтиёзлари, тиклантирувчи механизмлар ва бошқа преференциялар қанчалик самара бераётганини ҳолисона баҳолаш мақсадида илмий-таҳлилий ёндашув муҳокамаси жуда муҳимдир.

2. Адабиётлар шарҳи.

Иқтисодиёт назариясида банклар молиявий воситачилик тизимининг асосий ташкил этувчи бўғини сифатида кўрилади (Keynes, 1936). Тижорат банклари иқтисодиётда пул массасини шакллантириш, кредитлаш, тўлов тизимлари, сармоя киритиш, депозитлар қабул қилиш, миқозлар ва ҳукумат ўртасида ваколатли агент сифатида қатнашиши орқали иқтисодий ўсишни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Шу жумладан, М.Фридман ва А.Шварц (1963) каби тадқиқотчилар ҳам банк тизими ривожланиши иқтисодий барқарорлик шароитини яратишда энг муҳим омиллардан бири эканини таъкидлашади.

Солиқ сиёсатининг банклар фаолиятига таъсири мақсадли содир бўлади. Чунки давлат бюджети негизини ташкил қиладиган солиқ тушумларини шакллантиришда йирик корпоратив тўловчилардан бири банклардир (Samuelson, 2010). Шу билан бирга, банклар молиявий хизматлар орқали бошқа тармоқлар учун ҳам иқтисодий рағбатлар яратади. Аниқроғи, самарали солиқ сиёсати банкларда сармояларнинг ортиши, кредитлаш имкониятларининг кенгайиши, ахборот технологиялари жорий этилиши ва транспорт, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш соҳаларида тўлов инфратузилмасининг яхшиланишига замин яратади (Levine, 1997).

Тижорат банкларини солиққа тортиш борасида иқтисодий адабиётларда бир нечта моделлар мавжуд (Musgrave, 1959). Улардан биринчиси, банкларни умумий тартибда, бошқа ҳўжалик юритувчи субъектлар каби оддий корпоратив солиқлар билан солиққа тортишдир. Бу моделда банклар солиқбоп тушумларини корпоратив даромад солиғи, қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС), активлар солиғи ёки банк махсус тўловлари каби турли инструментлар орқали амалга оширади. Иккинчиси, махсус режимли моделдир: банк фаолияти молиявий сектор учун мўлжалланган алоҳида тартиб билан солиққа тортилади. Унда банк маҳсулотларининг айрим турларига ноль ставка ёки имтиёзли ставка жорий этилиши, масалан экспорт хизматлари ёки давлат облигацияларига инвестициялар бўйича баҳолаш амалиёти мавжуд (McLure, 2018).

Адабиётларда шуни кўриш мумкинки, солиқ юки ортиб кетиши банк секторининг рентабеллигини тушириши ва шу билан бирга кредитлаш фаолиятини чеклаб қўйиши мумкин (Claessens & Laeven, 2005). Натижада, иқтисодиётда инвестиция ривожини сустлашиши, тадбиркорлик субъектларининг айланма маблағларга бўлган эҳтиёжини қондиришда қийинчиликлар юзага келиши эҳтимоли ортади. Шу билан бир вақтда, банклар учун жуда имтиёзли солиқ сиёсатининг ҳам салбий оқибатлари кузатилиши мумкин: масалан, бюджет тушумларининг камайиши, бозорда нотенг рақобат муҳити

вужудга келиши ва ривожланаётган турли банклар ўртасида фарқ пайдо бўлиши (Besk, Demirgüç-Kunt & Levine, 2007).

Дунёнинг кўплаб ривожланган мамлакатларида тижорат банкларини солиққа тортиш моделлари бир-биридан фарқ қилади. Масалан, АҚШ да банклар корпоратив даромад солиғи бўйича умумий ставкалар орқали тортилади, аммо айрим штатларда банк операциялари учун қўшимча маҳаллий солиқлар ҳам жорий қилинган (Federal Reserve, 2021). Европа Иттифоқида эса банк солиқлари нархи бир мунча мураккаб, чунки ҳар бир аъзо мамлакат ўз қонунчилиги асосида сиёсат олиб боради. Бироқ, Европа Марказий банки бирлашган сиёсат талабларини ишлаб чиқиши орқали қарз операциялари ва капитали хажмларини тартибга солувчи бир неча тавсиялар билан чиқа олади (ЕСВ, 2020).

Осиё мамлакатларида, хусусан Япония ва Жанубий Кореяда банк солиқлари ставкаси нисбатан юқори бўлиб, давлат бюджетини яхшилаш ва йирик инфратузилма лойиҳаларини молиялаштириш мақсадларида банклардан солиқ тушумларини кўпайтириш механизмлари амал қилади. Бунга сабаб шундаки, мазкур мамлакатларнинг банк тизими кучли молиявий салоҳиятга эга бўлиб, доимий равишда инновацион хизматлар ва халқаро бозорда ҳам фаолият кўрсатади. Шу боис, банклар мослашувчан — катта маблағ айлантирувчи муассасалар сифатида кўрилиши сабабли муносабатлар нисбатан қаттиқроқ тартибга солинади (Shin, 2013).

Африка мамлакатларида эса тамоман бошқа манзара кузатилади. Жанубий Африка Республикаси банклари мамлакат иқтисодиётида энг катта корпоратив тўловчилардан бири бўлиб, солиқ сиёсатини шакллантиришда асосий тартибга солувчи унсурлардан бири саналади. Бироқ, ушбу ҳолатда иқтисодий тараққиёт даражаси ва аҳоли турмуш шароити ҳам эътиборга олиниши сабабли, банкларнинг кўп қисми марказлашган бошқарув остида солиқ ташаббуслари ва ислохотларини молиялаштиришда қатнашади (IMF, 2020).

Адабиётларда банкларнинг солиққа тортилиши мамлакат иқтисодиётига қисқа муддатда ва узоқ муддатда турлича таъсир этиши айтилади (Demirgüç-Kunt & Huizinga, 1999). Қисқа муддатда банклар солиқ юки ошиши билан айрим харажатларни кредитлар ставкалари орқали мижозларга ўтказиши мумкин, бу иқтисодда қарздорлик харажатларини ошириш орқали ишлаб чиқариш қувватларини чеклаб қўйиши мумкин. Узоқ муддатда эса банклар солиқ сиёсатининг таъсирига мослашиб, янги маҳсулотлар яратиши, хизматлар диверсификациясини ошириши, трансформация тўловларини оптималлаштириши орқали ўз барқарорлигини таъминлашга ҳаракат қилади (Laeven & Levine, 2009).

Шуниси ҳам борки, банкларга нисбатан ортиқча солиқ юки иқтисодда сиёсий конъюнктура ислохотлари билан боғлиқ ҳолда жуда тез ўзгаради. Иқтисодиёт либераллашув жараёнларида эса банкларга имтиёзлар берилса, бу нарса банк секторини рағбатлантириши, сармоя ортиши ва умуман финансов муассасалар сони ошишига олиб келиши мумкин (World Bank, 2021).

3. Таҳлил ва натижалар.

Мамлакатимизда банк тизими энг кўп солиқ тўловчилардан бири сифатида иқтисодиётда катта улушга эга. 2020-2025 йиллар даврида амалга ошириладиган ислохотлар дастурларида солиқ сиёсатини соддалаштириш, бизнес ва банклар учун “енгиллаштирилган” режимлар яратиш мақсад қилинган (Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси, 2020 йилги таҳрир). Бироқ ушбу йўналишда тижорат банкларига нисбатан солиқ тортиш элементларини қайта кўриб чиқиш, ахборот технологияларини кўпроқ жорий этиш орқали банк операцияларини шаффофлаштириш ва банк хизматларига бўлган талабни кучайтириш каби вазифалар турибди.

Яқин йилларда банклар учун халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш саъй-ҳаракатлари ҳам амалга оширилмоқда, бу эса солиқ базасини аниқлашда тўғри малумотлар билан таъминлашни осонлаштиради.

Тижорат банклари солиқ юки иқтисодий ўсишга асосан учта йўналиш орқали таъсир кўрсатади:

1. Кредитлаш фаолияти. Солиқ юки баланд бўлса, банклар ўз харажатларини қоплаш мақсадида кредит ставкаларини ошириш мумкин. Натижада, иқтисодиётда кредитлар қимматлашади, инвестиция жараёнлари секинлашади, ишлаб чиқариш суръати пастая (Claessens & Laeven, 2005). Агар банкларга нисбатан енгиллаштирилган ставкалар жорий этилса ёки имтиёзлар берилса, эса аксинча, кредитлаш кўлами ошиши ҳисобига иқтисодий ўсиш рағбатланади.

2. Сармоявий оқимлар: Банклар мамлакат ичида инвестиция жалб қилишда асосий институционал воситачи сифатида намоён бўлади. Катта солиқ юки билан ишловчи банклар хизмат харажатларини ошириши ёки айрим турдаги операцияларнинг фойдалилигини пасайтиради (Beck, Demirgüç-Kunt & Levine, 2007). Натижада, чет эл инвестициялари кучли банк тизими мавжуд бошқа мамлакатлар томон йўналиши мумкин. Тескари ҳолатда эса инвестиция муҳити яхшиланиши мумкин.

3. Молиявий хизматлар диверсификацияси: Тижорат банклари ҳар доим янги маҳсулотлар ва хизмат турларини таклиф қилиш орқали даромад манбаларини кенгайтиришга интилади. Агар солиқ юки оптимал даражада сақланса, банклар илғор ахборот технологиялари, мобиль илова, электрон тўловлар, электрон банк хизматлари ва бошқаларни фаол равишда ривожлантиради. Бу эса бутун иқтисодиётда рақамли ислохотлар жараёнини тезлаштиришга хизмат қилиши мумкин (Johnson, 2018).

Солиққа тортиш жараёнида энг муҳим жиҳатлардан бири мутаносибликдир. Давлат бюджети ўз даромад манбаларини кўпайтириш мақсадида банклардан кўпроқ солиқ талаб қилиши мумкин, бироқ бу банклар рентабеллигини пасайтириш, нархларни ошириш ва инвесторларни йўқотиш хавфини юзага келтиради (McLure, 2018). Мазкур ҳолатда бир неча омилларни кўриб чиқиш лозим:

- Солиқ ставкалари диапозони - бир жойда таклиф қилинаётган сиёсат, масалан, фойда солиғининг 15–20% ичида сақланиши банклар учун рағбатлантирувчи бўлиши мумкин, аммо 25–30% гача оширилиши уларни кўпроқ харажат қилишга мажбур қилади.

- Солиқ имтиёзлари ва преференциялар - банклар муаян шартлар асосида ишлаб чиқариш лойиҳалари ёки экспорт операциялари, технологик янгиланиш лойиҳалари учун имтиёзлар олса, бу салбий оқибатларни юмшатади.

- Мустақил тартибга солувчи идоралар - банк секторини назорат қиладиган марказий банк ёки молия органлари банклар юклаган харажатлар, қутилмаётган талафотлар (масалан, банкрот ҳолати) вужудга келмаслиги учун мониторинг олиб боради (Samuelson, 2010).

Мамлакатимизда кейинги йилларда бюджет тушумларининг бир қисми банклардан тушиши кўзда тутилган бўлиб, бу солиқ сиёсатини бироз эҳтиёткорлик билан юритишни талаб қилади. Агар ставка ошириш керак бўлса, бу жараён либераллашув суръати билан бирга, босқичма-босқич, чамбарчас боғлиқ равишда амалга оширилиши лозим.

Халқаро тажрибада банклардан тушадиган солиқ тушумлари умумий давлат бюджети даромадларининг ўртача 5–10% атрофида бўлиши кузатилади (IMF, 2020). Мамлакатимизда бу кўрсаткич турли йилларда турлича бўлиши мумкин, чунки иқтисодий ислохотлар, хусусийлаштириш жараёнлари, банклар сонини кўпайтириш, чет эл банкларининг миллий бозорга кириши каби йўналишлар доимий равишда янгиланиб келмоқда.

Банклар солиққа тортилишида халқаро индикаторлар билан таққослаганда, энг асосийси, банк секторининг умумий иқтисодиётдаги улушини аниқ белгилаш керак. Масалан, мамлакат ЯИМ да банк сектори хиссаси қанча бўлса, тушумлар ҳам шунга муносиб шаклланиши керак (ЕСВ, 2020). Бу ерда муҳим бир жиҳат шундаки, кўплаб ривожланган мамлакатлар банк фаолияти олдиндан, аниқ тартибланадиган ҳужжатлар билан пухта назорат қилинади. Бизда эса ислохотлар жараёни динамик бўлганлиги боис, янги стандартлар босқичма-босқич амалга татбиқ этилиб келмоқда.

Сўнгги йилларда банклар активлари ҳажми ортаётгани кўзга ташланади. Бироқ солиқ тушумларида кўпаяётган ёки камайган қисми банкларнинг фойда солиғи тўловлари, банк хизматларидан олинadиган ҚҚС ва бошқа йиғимлар ҳисоби билан аниқ кузатиш мумкин. Ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларга кўра, мамлакатимизда банклар фойда солиғининг асосий тўловчилари сифатида эътироф этилади. Шу билан бирга, тижорат банкларининг филиаллари сони кўпайганлиги, филиаллар орқали кўрсатилаётган хизматлар ҳажми ва турларининг кенгайиши ҳам умумий солиқ базаси ошишига сабаб бўлди (Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, 2021 йилги ҳисобот).

Кредитлаш соҳасида эса энг кўп ўсиш кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни рағбатлантириш мақсадида бўлди. Шу сабабли кредит ставкалари камайган паллаларда банклар ҳажмларини кенгайтирган бўлса, ставкалар бироз ошган даврларда шахсий ажратмаларни кўпроқ талаб қилгани кузатилган. Бу жараёнлар эса солиқ юки билан боғлиқ.

4. Хулоса.

Ушбу мақолада тижорат банкларини солиққа тортиш масаласи мамлакат иқтисодиёти ривожига муҳим аҳамият касб этиши ёритиб берилди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, банклар молиявий воситачи сифатида иқтисодиётда асосий пул оқимлари ва инвестицияларни бошқариш, мижозларга хизмат кўрсатишда муҳим ўрин тутди. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришда ҳам улар етарлича салмоқли ўрин эгаллайди. Бироқ солиқ сиёсатининг банклар учун ортиқча ёки тескари тарзда жуда имтиёзли бўлиши бирдек салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Оптимал даражадаги солиқ юки банклар учун ҳам, давлат учун ҳам манфаатлидир:

- Давлат бюджети зарур маблағлар билан таъминланади;
- Банклар фаолият кўрсатиши учун имтиёзлар ва рағбатлар шаклланади;
- Иқтисодиётда кредитлаш кенгайиши, мижозлар базаси кенгайиши, молиявий саводхонлик ва рақамлаштириш жараёнлари рағбатлантирилади.

Шу билан бирга, мамлакатимиз шароитида амалдаги солиқ тизимини янада такомиллаштириш кўплаб вазифаларни назарда тутди. Масалан, солиқ ҳисоботини расмийлаштириш тартибини соддалаштириш, халқаро стандартларга мувофиқ аудит қилиш имкониятини ошириш, янги банк маҳсулотларини жорий этиш учун махсус патент ёки имтиёзлар дастурлари ишлаб чиқиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, тижорат банкларини солиққа тортиш мамлакат иқтисодиётида рағбатлантирувчи механизм сифатида тўғри қўлланилса, иқтисодий ўсиш суръатини тезлаштириш, сармоя киритиш имкониятларини ошириш, молиявий бозорни ривожлантиришда катта самара беради.

Адабиётлар:

Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. & Levine, R. (2007) 'Finance, inequality, and the poor', *Journal of Economic Growth*, 12(1), pp. 27–49.

Claessens, S. & Laeven, L. (2005) 'Financial dependence, banking sector competition, and economic growth', *Journal of the European Economic Association*, 3(1), pp. 179–207.

Demirgüç-Kunt, A. & Huizinga, H. (1999) 'Determinants of commercial bank interest margins and profitability: Some international evidence', *The World Bank Economic Review*, 13(2), pp. 379–408.

ECB (European Central Bank) (2020) *Banking structures report*. Frankfurt: ECB Publications.

Federal Reserve (2021) *Monetary policy report*. Washington, DC: Federal Reserve.

Friedman, M. & Schwartz, A. (1963) *A Monetary History of the United States, 1867–1960*. Princeton: Princeton University Press.

IMF (2020) *Global Financial Stability Report*. Washington, DC: International Monetary Fund.

Johnson, S. (2018) 'Banking on stability: The role of government in the finance sector', *Finance and Development*, 55(2), pp. 46–51.

Karimov, N. (2019) 'Tax reforms and banking sector in Uzbekistan', *Central Asian Economic Review*, 3(4), pp. 12–26.

Keynes, J. M. (1936) *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.

Laeven, L. & Levine, R. (2009) 'Bank governance, regulation and risk taking', *Journal of Financial Economics*, 93(2), pp. 259–275.

Levine, R. (1997) 'Financial development and economic growth: views and agenda', *Journal of Economic Literature*, 35(2), pp. 688–726.

McLure, C. (2018) 'Designing tax policy for financial institutions: Theory and practice', *National Tax Journal*, 71(3), pp. 487–501.

Musgrave, R. (1959) *The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy*. New York: McGraw-Hill.

Samuelson, P. (2010) *Economics*. 19th edn. Boston: McGraw-Hill.

Shin, H. (2013) 'Procyclicality and the search for early warning indicators', *IMF Working Paper*, WP/13/258.

Smith, J. (2020) 'Optimal taxation in the banking sector: Evidence from emerging markets', *Journal of Public Economics*, 189(4), pp. 112–126.

World Bank (2021) *Global Economic Prospects*. Washington, DC: World Bank.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки (2021) *Марказий банк ҳисоботи*. Тошкент: Марказий банк нашриёти.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси (2020 йилги таҳрир). Тошкент: Адолат нашриёти.



ЎЗБЕКИСТОНДА МАХСУС ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТАЁТГАН КОРХОНАЛАРИГА СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИ БЕРИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Турабов У.О.

Тошкент давлат иқтисодий университет

Аннотация. Республикамизда Махсус иқтисодий зоналарда фаолият кўрсатаётган хўжалик юритувчи субъектларига солиқ имтиёзлари орқали мазкур соҳасини ривожлантириш уларга янги ёндашувларни жорий этиш орқали бозор хизматлари ҳажмини ошириш, аҳолига янги иш ўринларини яратиш имкониятлари кенгайтириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Бундан ташқари Солиқ имтиёзлари иқтисодиётнинг айрим тармоқларини ривожлантириш, ижтимоий аҳамиятга эга маҳсулот ва хизматлар нархларининг ошишига йўл қўймаслик, шунингдек, маҳаллий ишлаб чиқарувчилар ҳамда аҳолининг барча қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида корхоналар фойдаланаётган имтиёзлар ёритилган.

Калит сўзлар: бюджет сиёсати, инфлязия, бюджет, солиқ имтиёзлари, солиқ маъмурчилиги, тадбиркорлик субъектлари, солиқ ҳисоботи, солиқ тушумлари, солиқ имтиёзлари, солиқ, солиқ ставкаси, преференциялар.

Аннотация. Одной из важных задач в нашей республике является развитие данной сферы путем предоставления налоговых льгот субъектам предпринимательства, осуществляющим деятельность в свободных экономических зонах, внедрения новых подходов к ним, увеличения объемов рыночных услуг, расширения возможностей для населения по созданию новых рабочих мест. Кроме того, налоговые льготы охватывают льготы, используемые предприятиями для развития отдельных секторов экономики, предотвращения роста цен на социально значимые товары и услуги, а также оказания социальной поддержки местным производителям и всем слоям населения.

Ключевые слова: бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговые льготы, налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налоги, налоговые ставки, преференции.

Abstract. One of the important tasks of our republic is to develop this sector through tax incentives for business entities operating in free economic zones, to introduce new approaches to them, to increase the volume of market services, and to expand opportunities for the population to create new jobs. In addition, the Tax Incentives document covers the benefits used by enterprises to develop certain sectors of the economy, prevent price increases for socially significant products and services, and to provide social support to local producers and all segments of the population.

Keywords: budget policy, crisis, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxes, tax rates, preferences.

1. Кириш.

Мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарорлигини таъминлашда иқтисодий сиёсатининг энг муҳим элементларидан бири – солиқ сиёсатини янада либераллаштириш, солиққа тортиш тартибини соддалаштириш, солиқ юкини пасайтириш, хўжалик субъектларининг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, уларнинг фаолиятларига аралашишга чек қўйиш бўйича чора-тадбирларларни амалга ошириш ҳисобланади.

Жаҳонда солиқ имтиёзларига бандликни ошириш, капитал ўтказмалари сонининг кўпайиши, илмий тадқиқотлар ва технологияларни ривожлантириш, шунингдек, кам ривожланган ҳудудларни яхшилаш учун таъсири этувчи афзаллик сифатида қаралади. Бугунги кунда солиқ имтиёзлари концепциясини аниқлаш ва имтиёзлар самарадорлигини баҳолаш билан боғлиқ масалалар, фискал сиёсатининг солиқ йўналиши ва давлатнинг ижтимоий юкини камайтириш учун дастак сифатида солиқларнинг тартибга солиш функцияси, солиқ имтиёзларини таҳлил қилиш, уларни тизимлаштириш, самарадорликни баҳолаш ва оптималлаштириш бўйича илмий-тадқиқотлар олиб бориш устувор йўналишлардан ҳисобланади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Мавзу доирасида асосий ўрганилувчи иқтисодий категория солиқ имтиёзлари тушунчаси бўлиб, солиқ имтиёзларига нисбатан берилган таърифларга батафсил тўхталсак.

Незамайкин ва Юрзиновалар (2004) —солиқ имтиёзи – бошқа тўловчиларга нисбатан солиқ тўловчиларга солиқ тўловчиларнинг алоҳида тоифаларига солиқ қонунчилигида кўзда тутилган афзалликларнинг, жумладан, солиқ ёки йиғимини тўламаслик ёки кичикроқ ҳажмда тўлаш имкониятининг берилиши дейди.

Майбуров (2011) солиқ имтиёзларини қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда солиқ тўлаш муддатини ўзгартириш бўйича имтиёзлар олишга имкон берувчи имтиёзлар ҳамда улар бир нечта шаклларга ажратилади: солиқ кредити, инвестицион солиқ имтиёзи, солиқ таътили.

Милякова (2008) —солиқ имтиёзи – солиқ тўловчиларнинг алоҳида тоифаларига бошқа солиқ тўловчилар билан таққослаганда афзалликлар тақдим этиш, жумладан солиқ ёки йиғимни тўламаслик ёки уларни озроқ миқдорда тўлаш имконияти.

Рахматуллаева (2016) солиқ имтиёзига категория сифатида қуйидагича таъриф берган: —имтиёзлар - бу иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш ва ижтимоий вазифаларни ҳал этиш мақсадида солиқ тўловчининг солиқ мажбуриятларини қонун томонидан белгиланган шаклда бутунлай ёки қисман камайтиришнинг йўллари, ҳуқуқлари ва мажбуриятлари мажмуидир.

Завалишина (2005) Солиқ имтиёзи – деганда солиқ тўловчиларнинг айрим тоифаларига бошқа солиқ тўловчилар билан қиёслаганда солиқлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган афзалликлар берилиши, шу жумладан солиқ(йиғим) тўламаслик ёхуд кам ҳажмда тўлаш имконияти тушинилади.

Жўраев ва бошқалар (2009) солиқ имтиёзлари – солиқ тўловчиларга солиқлар бўйича турли хил енгилликлар бўлиб, улар вақтинчалик ва доимий, тўлиқ ёки қисман ва бошқа кўринишларда берилиши мумкин.

Баладина (2011) бу борада қуйидагича таъриф берган: солиқ преференцияси – давлат томонидан солиқ мажбуриятини камайтириш юзасидан айрим солиқ тўловчилар учун мажбурий тартибда, бажарилиши лозим бўлган тақдим қилинадиган устуворликлардир.

Шунинг билан, солиқ имтиёзларини тақдим этиш, уларни тизимлаштириш, уларнинг жорий қилиниши натижасида рақобат муҳитининг мурракаблашиб бориши юзасидан қатор илмий тадқиқотлар олиб бориши лозим бўлган муаммолар мавжуд.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу мақолада қиёсий таҳлил ҳамда индукция ва дедукция баҳолаш усулларидадан фойдаланилди. Қиёсий усулдан фойдаланилиб, Махсус иқтисодий зоналар солиқ имтиёзларига доир маълумотлар ва уларни таҳлиллар амалга оширилиб илмий ҳулосалар берилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Солиқ органлари томонидан, солиқ ислохотлари доирасида барча тадбиркорлик субъектларига тенг рақобат шароитини яратиш мақсадида солиқ имтиёзларини бекор қилиш, уларнинг ҳисобини юритиш ҳамда фойдаланиш жараёнини тартибга солиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилди.

Ривожланган мамлакатларнинг иқтисодий барқарорлигида эркин иқтисодий зоналарнинг аҳамияти яққол намоён бўлади. Мамлакатимизда бу борада жаҳон тажрибасидан фойдаланган ҳолда босқичма-босқич қонунчилик пойдеворини мустаҳкамлаган ҳолда амалга оширилмоқдаки, мақсад аниқ натижа ва ютуқларга эришишдир.

Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 25 апрелдаги “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги 220-І-сон Қонуни қабул қилинган бўлиб, унинг дастлабкиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 2 декабрдаги “Навоий вилоятида эркин иқтисодий зона ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4059-сон Фармони билан Навоий вилоятида ташкил этилган. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралдаги “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сонли Қонуни қабул қилинди.

Эркин иқтисодий зоналарда инвесторларни жалб қилишда энг таъсирли восита солиқлар бўйича имтиёзлар ва преференцияларнинг қўлланилишидир. Бугунги кунда мамлакатимизда ташкил этилаётган эркин иқтисодий зоналар ва кичик иқтисодий зоналарнинг ривожланиб кўпайишига ҳам давлат томонидан солиқ бўйича берилаётган кўплаб имтиёз ва преференцияларнинг таъсири катта деб баҳолаш мумкин.

Мамлакатимизда юқори технологияли янги ишлаб чиқариш қувватларини ташкил этиш, ҳудудларни рақобатдош маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ўзлаштиришга янада фаол жалб қилиш, йўл-транспорт, ижтимоий инфратузилма ва логистика хизматларни жадал ривожлантиришни таъминлаш учун хорижий инвестициялар кўламини кенгайтиришнинг энг муҳим омили сифатида эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарини ташкил этишдир. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлигини ошириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2017 йил 25 октябрдаги ПҚ-3356-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 26-сон қарори билан Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида Низоми тасдиқланган. Ушбу Низомга асосан, ЭИЗ ҳудудида инвестиция лойиҳаларини жойлаштиришда қуйидаги мажбурий мезонлар белгиланди. Масалан: импорт ўрнини босувчи, юқори технологияли ишлаб чиқаришни ташкил этиш, экспорт ҳажми ишлаб чиқариш фаолиятининг иккинчи йилида камида 20 фоиз, учинчи ва кейинги йилларда 30 фоиздан кам бўлмаслиги кераклиги ҳамда маъмурий кенгашлар томонидан белгиланадиган даражада янги иш ўринлари ташкил қилиш яни қабул қилиш учун 10 фоизли квота ўрнатиш белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алоҳида солиқ ва божхона имтиёзларини бекор қилиш тўғрисида” 2020 йил 19 июндаги ПФ-6011-сон Фармонида асосан 2020 йил 1 октябрдан бошлаб, махсус иқтисодий зоналар иштирокчиларига Солиқ кодекси ва Ўзбекистон Республикасининг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонунида белгиланган тартибда алоҳида солиқлар бўйича имтиёзларни қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари назарда тутилиши белгиланди. Шунингдек, Солиқ кодексининг 3-моддасида норматив-ҳуқуқий ҳужжат

ёки унинг бир қисми, агар мазкур ҳужжатга нисбатан ушбу Кодекснинг нормаларига ёки қоидаларининг мазмунига бошқача тарзда зид бўлса ушбу Кодекснинг қоидаларига мувофиқ эмас деб топилиши белгиланган.

Мазкур Фармон ижроси бўйича айрим ўрганишлар олиб борилди. Жумладан, таҳлилларимизга кўра 2020 йил 4-чорак якуни билан ЭИЗ иштирокчиларининг 202 тасида фойда олинган бўлиб, шулардан 133 таси (66 %)да 26 млрд.сўмлик имтиёз қўллаган бўлса 69 таси томонидан бюджетга 2,9 млрд.сўм фойда солиғи ҳисобланган. Шу билан бирга 263 та ЭИЗ иштирокчилари томонидан солиқ солинадиган фойдага эга бўлмаган.

Шунингдек, инвестиция ҳажмидан келиб чиқиб, солиқ имтиёзини қўллаш муддати тугаган 18 та иштирокчи томонидан асоссиз равишда 27,7 млн.сўмлик имтиёз қўлланилган. Фаолияти фойда билан якунланган 6 таси томонидан 64,5 млн.сўмга солиқ ҳисобланган. Худди шундай ҳолатларни 2021 йил 1-чорагида ҳам кўриш мумкин. Жумладан, ушбу даврда ЭИЗ иштирокчиларининг 187 тасида фойда олинган бўлиб, шулардан 67 таси (80,1 %)да 39,4 млрд.сўмлик имтиёз қўлланган бўлса 120 таси томонидан бюджетга 8,6 млрд.сўм фойда солиғи ҳисобланган. Шу билан бирга 271 та ЭИЗ иштирокчилари томонидан солиқ солинадиган фойдага эга бўлмаган. Инвестиция ҳажмидан келиб чиқиб, солиқ имтиёзини қўллаш муддати тугаган 16 та иштирокчи томонидан асоссиз равишда 644,5 млн.сўмлик имтиёз қўлланилган, 16 таси томонидан 215,3 млн.сўмга имтиёз қўлланилмасдан солиқ ҳисобланган.

Бугунги кунга келиб махсус иқтисодий зоналар (МИЗ) фаолияти бўйича таҳлил қилинганда қуйдагилар аниқланди.

Махсус иқтисодий зоналар (25 та) мавжуд.

Шундан 3 та МИЗ фаолиятини бошламаган ("Галлаорол" МИЗ, "Чорвоқ" ЭТЗ, "Нукус технопарк" МИЗ)

1. *Ажратилган ер майдони* МИЗ 16,1 минг гектар ер майдони ажратилган бўлиб, 9,2 минг га (58%) фойдали ер майдонидан иборат. Унинг 4,9 минг га инвестиция лойиҳалари жойлаштирилган бўлса, 4,4 минг гектари (47%) бўш турибди. Худудларда бўш ер майдонларининг юқори улуши – Хоразмда 74% (179,4 га), Бухорода 63% (2,2 минг га), Қашқадарёда 53% (51 га) ва Қорақалпоғистонда 63% (73,5 га) иборат.

2. Рўйхатдан ўтганлар

Жорий йилнинг 1 январь ҳолатига жами 1087 та хўжалик субъектлари рўйхатдан ўтган. Ушбу хўжалик субъектларининг 980 таси (90%) фаолият кўрсатмоқда ва 107 таси (10%) фаолиятини тўхтатган. 753 та (68%) лойиҳалар амалга оширилган ва 353 тасида (32%) якунланмаган.

Жараёндаги якунланмаган лойиҳаларнинг улуши - Сурхондарёда (21 тадан 16 таси) 86%, Наманганда (45 тадан 20 таси) 63%, Қорақалпоғистонда (11 тадан 6 таси) 55%, Самарқандда (160 тадан 79 таси) 49% ва Тошкент вилоятида (173 тадан 76 таси) 44% ташкил этади.

3. Товар айланмаси таҳлили.

МИЗ аъзо 1087 та хўжалик юритувчи субъектнинг 163 таси (15%) 2024 йилда товар айланмасини амалга оширмаган. 2023 йилда "Бухоро агро" МИЗ 243 та субъектдан 36 тасида (15%), "Ургут" МИЗ 150 тадан 21 тасида (14%), "Ангрен" МИЗ 130 тадан 15 таси (12%), "Қўқон" МИЗ 182 тадан 22 таси (12%), "Навоий" МИЗ 87 тадан 12 таси (14%) умуман товар айланмасини амалга оширмаган. Шунингдек, 2024 йилда 350 та субъектда (32%) товар айланмалари 2023 йилга нисбатан 7,4 трлн.сўмга камайган ўтган 2024 йилда 1087 та МИЗ иштирокчилари товар айланмаси 105,8 трлн.сўмни ташкил этиб, 2023 йилга (105,5 трлн.сўм) нисбатан 275 млрд.сўмга ўсган. Жами товар айланмасининг 2024 йилда қарийб 76 фоизи бор-йўғи 3 та 55,2 трлн.сўми (52%) "Машинасозлик ва электротехника" МИЗ,- 12,3 трлн.сўми (12%) "Жиззах" МИЗ ва 13,1 трлн.сўми (12%) "Ангрен" МИЗ ҳисобига тўғри келади.

4. Иш ўринлари ва иш ҳақи жамғармаси таҳлили.

Ўтган 2024 йилда 280 та (26%) субъектда ишчилари сони 4,1 мингтага камайган (“Ангрен” МИЗ 33 та корхонада 813 тага, “Жиззах” МИЗ 15 та корхонада 480 тага ва “Навоий” МИЗ 32 та корхонада 362 тага). 2024 йилда МИЗ ишловчиларнинг умумий сони 72 мингтани ташкил этиб, 2023 йилга нисбатан 5,6 мингтага (9%) кўпайган. Иш ҳақи жамғармаси 2024 йилда 4,2 трлн.сўмни ташкил этиб, 16 фоизга ошган. 277 та (25%) субъектда 90,6 млрд.сўмга камайган.

5. Берилган солиқ имтиёзлари таҳлили

МИЗ аъзоларидан 2023 йилда 597 таси 2,6 трлн.сўмлик, 2024 йил 11 ой якуни бўйича 635 таси 2,3 трлн.сўмлик (12% камайган).

Фойдаланилган солиқ имтиёзининг тўланган солиққа нисбати 2023 йилда 64% ва 2024 йилнинг 11 ой якуни бўйича 43% ташкил этган. 2024 йил 11 ой якуни бўйича имтиёзларнинг 74 фоизи 5 та МИЗ ҳисобига тўғри келиб, “Машинасозлик ва электротехника” МСЗ - 700 млрд.сўм, “Ангрен” -278 млрд.сўм, “Ургут” – 259 млрд.сўм, “Навоий” - 257 млрд.сўм ва “Қўқон” – 186,4 млрд.сўмдан иборат. МИЗ аъзоларидан 2021-2023 йилларда 309 та ҳолатда 29,9 млрд сўм солиқ имтиёзидан нотўғри фойдалангани аниқланди.

Хусусан, МИЗ иштирокчилари киритилган инвестиция ҳажмига нисбатан имтиёзли давр тугаган бўлсада, 4 та корхона фойда солиғидан 694,4 млн сўм имтиёздан нотўғри фойдалангани маълум бўлди. Худди шундай, имтиёздан фойдаланиш муддатига амал қилмаган ҳолда, 95 та корхона 17,2 млрд сўм имтиёздан нотўғри фойдаланилгани маълум бўлди. Бундан ташқари, махсус иқтисодий зона ҳудудидан ташқарида бўлган ер майдонини қўшиб ортиқча кўрсатгани бўйича 2021-2023 йилларда 6,2 млрд сўм нотўғри имтиёздан фойдаланилгани маълум бўлди.

Мисол учун, Сирдарё ЭИЗ иштирокчиси “Sirdaryo mega luks” МЧЖ ҚҚга 2018 йилда 51,8 га суғориладиган ер майдони ажратиб берилган, бироқ 60,6 гектар ер майдони учун 2021 -2023 йилларда 749,2 млн сўм ер солиғи имтиёзидан нотўғри фойдаланган.

6. Рентабеллик даражаси баҳолаш

Берилган имтиёзлар ва яратилган қулайликларга қарамасдан 316 та (29%) субъект 2024 йил 9 ойини зарар билан якунлаган.

Рентабеллик даражаси 2023 йилда ўртача 7%, 2024 йил 9 ой якуни бўйича 9% ташкил қилган. Маълумот учун: 1-5% паст рентабеллик, 5-20% - ўрта, 20-30% - юқори кўрсаткич. Ўтган 2023 йилда фойда олган 372 та субъектнинг 223 таси (60%) 5 фоизгача паст рентабеллик ва бор-йўғи 49 таси (13%) 20 фоиздан юқори рентабелликда бўлган.

7. Тўланган солиқлар (Солиқ юки, ҚҚС қоплаш)

МИЗ иштирокчиларининг солиқ юки ўртача 2023 йилда 3,8%, 2024 йилда 5,0% ташкил этган (Тўланган солиғини товар айланмасига нисбати). Шунга қарамасдан, 2023 йилда 92 та (8%) субъект умуман солиқ тўламаган бўлса, 316 тасида (29%) солиқ тўловлари 319 млрд.сўмга камайган. МИЗ иштирокчиларининг 2023 йилда 127 тасига 1,2 трлн.сўм (жами МИЗ аъзолари тўлаган 2,4 трлн.сўм ҚҚСнинг 49%), 2024 йилда 110 тасига 1,2 трлн.сўм (тўланган жами 3,2 трлн.сўм ҚҚСнинг 39%) бюджетдан қоплаб берилган.

8. Ташқи савдо операциялари таҳлили

МИЗ иштирокчиларининг бор йўғи 249 таси (23%) 2024 йилда (2023 йилда 260 та) 1 152,7 млн.доллар (1 166,5 млн.доллар) экспорт амалга оширган холос. 2024 йилда экспортнинг 72 фоизи 4 та МИЗ ҳисобига тўғри келиб, “Машинасозлик ва электротехника” МСЗ - 485 млн.доллар, “Ургут” – 130 млн.доллар, “Қўқон” – 106,8 млн.доллар ва “Навоий” – 103,5 млн.доллардан иборат.

9. Барқарорлик рейтинги кўрсаткичлари

МИЗ фаолият кўрсатаётган 1,0 мингта тадбиркордан атига 52 таси (4,7%) “А” ва ундан юқори (AAA – 21 та) рейтингда (Фарғонада 4 та, Наманган ва Навоийда 2 та, Бухорода 1 та);

263 таси (24%) “В” ва ундан юқори (BBB – 65 та) рейтингда;

358 таси (33%) “С” ва ундан юқори рейтингда бўлса, 299 таси (27%) “D” рейтингдан жой олган.

10. Таққослаш

МИЗ иштирокчиси ва иштирокчи бўлмаган корхона таққосланганида - “Ғиждувон” МИЗдаги қоп ишлаб чиқарувчи “Nazir Shoxjahon” МЧЖ 2024 йилда жами 39,7 млн.сўмлик имтиёздан фойдаланган ва 2023 йилда 3,3 млрд сўмлик (1 донаси ўртача 2,4 минг сўм), 2024 йилда 1,5 млрд сўмлик (1 донаси ўртача 2,8 минг сўм) қоп маҳсулотларини сотган. Худди шу маҳсулотни ишлаб чиқарувчи МИЗ аъзоси бўлмаган “Huapeng Wing” МЧЖга 19,3 млн. сўм ер ва мол-мулк солиғи ҳисобланган. Жамият 2023 йилда 6,1 млрд сўмлик (1 донаси ўртача 1,9 минг сўм), 2024 йилда 1,6 млрд сўмлик (1 донаси ўртача 1,8 минг сўм) қоп маҳсулотлари сотган.

Юқоридаги ҳолатда 2023 йилда МИЗ иштирокчиси бир бирлик маҳсулот нархини 2,4 – 2,8 минг сўм, МИЗ аъзоси бўлмаган жамият 1,8 – 1,9 минг сўмдан (600-900 сўмга, ўртача 28% арзон) сотганлигини кўриш мумкин. 2024 йил 1-чоракда “Ургут” МИЗ гилам ишлаб чиқарувчи “Yec Gilam” МЧЖ 3,4 гектар ер майдони учун 156,6 млн.сўм ер солиғидан, мол-мулк солиғидан 256,1 млн.сўм, сув солиғидан 1,3 млн.сўм имтиёздан фойдаланган бўлсада, 228,6 млн.сўм зарар билан якунлаган. Худди шундай, гилам ва гилам маҳсулотлари ишлаб чиқариш фаолиятини амалга оширувчи, МИЗ иштирокчиси бўлмаган “Yasham erkarlan carpet” МЧЖ 3,5 гектар ер майдони билан ер, мол-мулк ва сув солиғига 222,9 млн.сўм тўлаб, 2024 йил I чоракни 883,1 млн.сўм фойда (4,8 фоиз рентабеллик) билан якунлаган. “Yec Gilam” МЧЖ “Қорабоғ” маркали гилам маҳсулотини 1 кв.м. 45,1 минг сўмдан ва “Луна 1150” маркали гилам маҳсулотини 26,6 минг сўмдан сотаётган бўлса, ЭИЗ аъзоси бўлмаган “Yasham erkarlan carpet” МЧЖ худди шу маркадаги гилам маҳсулотларини мос равишда 40,0 минг сўмдан ва 23,1 минг сўмдан (3,5-5,0 минг сўмга, ўртача 13% арзон) сотган.


Солиқ имтиёзларини бериш механизмидаги энг мураккаб жараён бу солиқ имтиёзларини белгилаш мезонларини адолатлилик ва ошкоралик принципига асосланган тарзда белгилаш керак бўлиб ҳисобланади. Лекин, қайд этиш жоизки, солиқ имтиёзларини белгилаш жаҳон амалиётида ҳар бир мамлакатнинг иқтисодий сиёсатининг мазмун-моҳиятидан келиб чиқиб белгиланади ва шу жиҳатидан у турли давлатларда турлича ҳисобланади.

Мазкур 1-расмдан кўришимиз мумкинки, мамлакатимизда юритилаётган солиқ сиёсатида солиқ имтиёзлари асосан тўғридан-тўғри инвестицион фаолиятни рағбатлантиришга, махсус иқтисодий зоналарни ташкил этиб, ишлаб чиқаришни янги техник ва технологик асбоб-ускуналар билан қайта модернизация қилиш ҳисобига корхоналар молиявий аҳволини фаоллаштириш, мамлакатимиз импорт ўрнини босувчи экспортбоп маҳсулотларни кўпайтиришга қаратилган бўлади.

Бундан ташқари мавжуд солиқ имтиёзлари бўйича маълумотлар базасини яратиш ва ҳар бир солиқ имтиёзи учун алоҳида солиқ имтиёзининг уникал коди (ID-рақамини) бериш тартибини жорий этиш ҳамда солиқ имтиёзлари кодлари тўғрисидаги ахборотларни солиқ тўловчиларнинг шахсий кабинетига етказиб бериш амалиётини жорий этиш вазифаси белгилаб қўйилди.

Ўзбекистон Республикасида солиқлар бўйича имтиёзлар Ўзбекистон Республикасининг солиқ қонунчилиги асосида тақдим этилиб келинмоқда. Солиқ имтиёзлар ҳисобини юритиш мақсадида “E-imtiyoz” автоматлаштирилган ахборот тизими амалиётга жорий этилади. Дастур ёрдамида солиқ тўловчиларга тақдим этилган имтиёзлардан тўғри фойдаланишини назорат қилиш, бизнесда соғлом рақобат

муҳитини яратиш, имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш интерактив хизматини жорий этиш орқали товар ва хизматлар ҳамда корхоналарга имтиёзларни боғлаш механизми яратилмоқда.



1-расм. Солиқ имтиёзларини белгилаш мезонлари ¹⁸

Солиқ тўловчиларга реализация қилинаётган товар ва хизматларга ҳамда объектларга (қўчмас мулк ва ер участкаси) имтиёзларни қўллаш ёки рад этиш қўйидаги босқичларда амалга оширилади.

Биринчи босқичда имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш интерактив хизмати орқали келиб тушган мурожаатлар сараланади.

Иккинчи босқичда Солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш департаменти томонидан имтиёзни қўллаш бўйича мурожаатларни категорияларга ажратилади ва бир иш куни ичида қўриб чиқиб, ички идоровий ҳужжат (ЕДО тизими) орқали хулоса бериш учун юборилади.

Учинчи босқичда солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш департаменти (Солиқ турига масъул бошқарма ва бўлимлар) томонидан мазкур тузилмалар билан биргаликда хулоса тайёрланиб, имзоланади.

Тўртинчи босқичда имтиёз қўлланилиши юзасидан хулоса қилинган ҳолларда автоматлаштирилган ахборот тизимига киритилади. Имтиёз қўлланилиши рад этилган ҳолларда хулоса олинган куннинг ўзида солиқ тўловчига асослантирилган хабар юборилади.

Солиқ имтиёзларидан фойдаланиш тўғрисида юборилган маълумотларни ўрганиб чиқиш бўйича Ишчи гуруҳ таркиби тасдиқлаш мақсадга мувофиқ бўлади. Солиқ имтиёзларининг қўлланилиши Ишчи гуруҳнинг хулосасига асосан амалга оширилиши белгилаб қўйилади. ДСҚнинг Ахборот - коммуникация технологиялари департаменти

¹⁸ Расм муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

“Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизмати амалиётга жорий этилишини таъминлаши керак бўлади.

Бундан ташқари, Давлат солиқ қўмитасининг янги тузилмаси яъни “Солиқ имтиёзларини ҳисобини юритиш ва таҳлил қилиш” бўлими томонидан солиқ имтиёзларини қўллай олиш ҳуқуқига эга бўлган юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорлар ҳисобини юритиш бўйича маълумотлар “Е-имтиёз” ахборот тизимида шакллантирилади ва ҳар бир солиқ имтиёзи учун алоҳида солиқ имтиёзи уникал кодини (ID-рақами) бериши зарур бўлади. Мазкур ахборот базасида барча фойдаланувчиларга солиқ имтиёзларидан фойдаланган корхоналар тўғрисидаги маълумотларни тез (битта СТИР ва бошқа) шакллантириб олиш ва назорат қилиш имконияти яратилади.

“Солиқ имтиёзларини ҳисобини юритиш ва таҳлил қилиш” бўлими томонидан қўлланилган имтиёзлар таҳлил қилиб борилади. Таҳлилда юридик ва жисмоний шахслар томонидан ҳисобот даври давомида қўлланилган имтиёзлар сони суммаси аниқланади. Юридик ва жисмоний шахсларнинг солиқ имтиёзларини қўллаш тартибини бузиш ҳолатлари билан боғлиқ бўлган таҳлилий маълумотлар шакллантирилади ва Қўмита марказий аппарати таркибий тузилмасининг масъул тузилмаларига тақдим этилиши керак. Қўмита марказий аппарати таркибий тузилмалари билан солиқ имтиёзлари маъмуриятчилиги масалалари юзасидан ўзаро Молия вазирлиги, Божхона қўмитаси билан ҳамкорлик ва ахборот алмашишни йўлга қўйиш керак. Солиқ имтиёзлари қўлланилиши билан боғлиқ бўлган солиқ назоратини ўтказиш мақсадларида солиқ тўловчиларни хавф гуруҳларига киритиш мезонларини шакллантиради ва масъул тузилмаларига тақдим этилишини таъминлаши керак деб ҳисоблаймиз.

“Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизматини жорий этиш бўйича қуйдаги бизнес талабни киритилиши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Бизнес талаб солиқ тўловчиларга тақдим этилган имтиёзларни автоматлаштирилишига ҳамда тўғри қўлланилишига қўмаклашиш учун хизмат қилади. Бизнес талаб “Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизматини йўлга қўйишда давлат солиқ хизмати органлари ва тадбиркорлик субъектлари ўртасидаги маълумот алмашинуви жараёнларини автоматлаштиришни ўз ичига олган ҳолда, интерактив хизматларига жойлаштирилади. Ишлаб чиқиладиган хизматнинг тўлиқ номи: “Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизмати. Яратилиши лозим бўлган хизмат ўзбек ва рус тилларида ишлашга мослаштирилган бўлиши керак. Хизматни яратиш бўйича ташаббусчи: Давлат солиқ қўмитаси Солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш департаменти, Имтиёзларни ҳисобини юритиш ва таҳлил қилиш бўлими. Хизматни яратиш бўйича ижрочи: Давлат солиқ қўмитаси қошида хўжалик ҳисобидаги “Янги технологиялар” илмий-ахборот маркази.

“Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизмати солиқ солиш базасини кенгайтиришга хизмат қилмайди ва электрон давлат хизмати ҳисобланмайди. Хизмат фойдаланувчилари: Юридик ва жисмоний шахслар ҳамда якка тартибдаги тадбиркорлар. Хизматдан фойдаланувчилардан электрон рақамли имзо (ЭРИ) орқали амалга оширилади.

“Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизматига ҳавола Давлат солиқ хизмати органларининг расмий сайти soliq.uz портали бош саҳифасида ва “Электрон солиқ хизматлари” – my.soliq.uz портали бош саҳифасида алоҳида логотип орқали топиш қулай бўлган жойга жойлаштирилиши лозим.

Хизмат орқали солиқ тўловчилар тақдим этилган имтиёзлар тўғрисидаги маълумотларни юборади.

“Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизмати ҳаволаси Давлат солиқ қўмитасининг “my.soliq.uz” сайтида жойлаштирилади. Солиқ

тўловчилар электрон рақамли имзо калити орқали шахсий кабинетидан “Имтиёздан фойдаланиш юзасидан хабардор қилиш” интерактив хизматига киради. Шундан сўнг, кейинги ойна очилади. Ойнада дастлаб ташкилотнинг СТИР рақами ва номи автомат шаклланади. Амалдаги солиқ турларини танлаш имконияти яратилади. Бунда солиқ коди сўнгга солиқ тури номи ёзилган бўлади (масалан: 1-Қўшилган қиймат солиғи, 32-Фойда солиғи, 46-Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи, 100-Айланмадан олинадиган солиқ ва ҳ.к.). Солиқ тури танлангандан сўнг норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами шаклланади ва уни танлаганда ҳужжатнинг моддаларига ўтилади ҳамда белгиланган банди танланади. Солиқ тури танланганда фақатгина ушбу солиқ турига тегишли бўлган норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами шаклланади (маълумот учун, солиқ ҳисоботларини тўлдирилишида имтиёзларни танлаш шаклида).

Юборилган маълумотлар “Аризалар” бўлимига ўтказилади. Ушбу бўлимда солиқ тўловчилар томонидан юборилган аризалар ҳолатини кузатиб бориш имконияти яратилади. Юборилган аризалар “жараёнда” ҳолатига ўтказилиб, солиқ орлари томонидан муносабат билдирилганда “Қаноатлантирилган” ёки “Рад этилган” ҳолатига ўзгаради ва ташкилотга солиқ органлари томонидан билдирилган муносабат изоҳини кўриш имконияти яратилади. Бу ерда, имтиёзга эга ер майдони жами ер майдонидан, имтиёзга эга мулк қиймати жами мулк қийматидан ошмаслиги керак деган шарт қўйилади.

Хизматни яратиш, амалиётга жорий этиш ва солиқ органлари фаолиятида фойдаланиш билан боғлиқ бўлган ДСҚнинг (буюртмачи) ва Янги технологиялар илмий-ахборот марказининг (ижрочи) муносабатлари тартиби қуйидагича:

хизматни яратиш ва амалиётга жорий этиш давомида ушбу бизнес талабда ёритилмаган (ёки тўлиқ ёритилмаган) алоҳида саволлар вужудга келса, деталлаштириш (аниқлаштириш) ва икки томонлама келишиш орқали мазкур бизнес талабга қўшимча ёки қўшимча илова шаклларида ўзгартириш киритилиши мумкин;

хизматнинг яратилишида мазкур бизнес талабда қайд этилмасдан қолган шакллarning зарурлиги, мавжуд ёки янги киритиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ва ДСҚ раҳбарияти топшириғига кўра қўшимча шакллар ҳамда бизнес талабдаги ҳисобот шаклларида ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши кўзда тутилади;

бизнес талабда келтирилган алгоритмларга асосан дастур ёзилишида заруриятга қараб, яъни қулайлик ва администратор ойналарини шакллантириш тезлигини ошириш мақсадида, маълумотлар базасига ва дастурга буюртмачи билан келишилган ҳолда қўшимчалар киритилиши мумкин. Маълумотлар рус ва ўзбек тилларида шакллантирилиши лозим бўлади.

Махсус иқтисодий зоналар дирекциялари томонидан тижорат банкларига янги инвестициявий лойиҳаларни амалга ошириш юзасидан таклиф киритиш бўйича етарлича ташаббус кўрсатилмаяпти. Баъзи вилоятлар ҳокимликлари томонидан иқтисодий зоналарда лойиҳалар аниқ ҳисоб-китобларсиз жойлаштирилиши оқибатида айрим фаолият турлари учун сунъий имтиёз берилишига ва бу ўз навбатида, бозордаги рақобат муҳитининг бузилишига олиб келмоқда.

Шу сабабли, мавжуд махсус иқтисодий зоналар ва кичик саноат, шунингдек, фармацевтика зоналарида фаолият юритаётган, экспортга маҳсулот чиқараётган, инновацион, юқори технологик ишлаб чиқаришларни ташкил қилган тадбиркорлик субъектларига берилаётган қўшимча имкониятлар, имтиёз ва преференцияларнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш зарур.

Айниқса, хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш учун мамлакат инвестиция салоҳиятини жаҳон бизнес ҳамжамиятига тўла намоён этишга қаратилган, сармоя киритишга интиладиган инвесторлар учун ҳудудлар ва тармоқлар бўйича инвестиция

лойиҳаларини шакллантиришда комплекс ёндашувларни белгилловчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишга эътибор қаратилиши зарур.

5. Хулоса.

Солиқ имтиёзларини, шу жумладан махфийлик белгиси остида бериладиган солиқ имтиёзларини ҳисобга олиш ва маъмурчилиги бўйича “E-imtiyoz” ахборот-таҳлилий тизимини ишлаб чиқиш ва жорий қилиш, ҳамда унинг қўлланилишини электрон ҳисобварақ-фактураларда, ҳисоботларда ва бошқа электрон маҳсулотлар ва хизматларда акс эттириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси 83-моддасига Солиқ ҳисоботига ўзгартиришлар киритиш.

(биринчи қисм) Ўзи илгари тақдим этган солиқ ҳисоботида ҳисоблаб чиқарилган солиқ суммаси камайишига (ўзгаришига) олиб келган нотўғри ёки тўлиқ бўлмаган маълумотларни ва (ёки) хатоларни аниқлаган солиқ тўловчи ушбу солиқ ҳисоботига зарур тузатишларни киритиши ва солиқ органига аниқлаштирилган солиқ ҳисоботини тақдим этиши шарт.

Солиқ имтиёзларидан фойдаланилгандан сўнг жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ва ижтимоий солиқ бўйича ҳисобланган солиқ суммасининг камайишига олиб келадиган аниқлаштирилган солиқ ҳисоботлари солиқ органлари томонидан асослилиги ўрганиб чиқилгандан сўнг қабул қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси 414-моддага ўзгартириш киритиш яъни 4-банди рўйхати Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори билан тасдиқланадиган юқори технологияли ишлаб чиқаришни жорий этган солиқ тўловчиларнинг юқори технологияли ишлаб чиқариш ускуналари эгаллаган қисми доирасида объектларининг – ушбу ускуналар фойдаланишга қабул қилинган санадан эътиборан уч йил муддатга берилади.

Адабиётлар:

Александров И. М. (2009) *Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. — 10-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско- торговая корпорация «Дашков и К, 228 с.*

Баладина А.С. (2011) *Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета- №4(16)- С. 45-60.*

Джулибеков Н.К (2022) *“Кон-металлургия саноати корхоналарини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш” бўйича ёзилган диссертацияси.*

Джулибеков Н.К. (2020) *Финансово-экономические аспекты функционирования Навоийского ГМК на разных этапах развития: монография. –Ташкент: “Sahhof”, -248 с., стр. 196.*

Жўраев А., Тошматов Ш., Абдурахмонов О. (2009) *Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. Т.: NORMA. 184- бет.*

Кодекс (2020) *Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Гафур Ғулом нашриёт уйи.- 640 б.*

Майбуров И.А. (2011) *Налоги и налогообложение . Ред. 4-е изд. - М: 558 с.*

Маъруза (2020) *Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 26 март кuni коронавирус инфекцияси тарқалишига қарши кураишни кучайтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси// Тошкент. 2020 йил, 26 март.*

Милякова Н.В. (2008) *Налоги и налогообложение. Учебник. 7-е изд. Перераб. И доп.– М.:ИНФРА, С.33 Milyakova N.V.*

Мирзиёев Ш. (2021) *Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқи. 2021 йил 20 август. – <https://president.uz/uz/lists/view/4551>*

Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. (2004) Налогообложение юридических и физических лиц, –М.: Экзамен, С.44.

Рахматуллаева Ф. (2016) —Солиқ имтиёзларининг моҳияти ва иқтисодий ва рағбатлантиришдаги роли. Молия илмий журналы №2/ 108 бет.

Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.



МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТДА ИНСТИТУЦИОНАЛ ЁНДАШУВНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ

Туракулов Т.А.

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Ушбу мақолада минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашувнинг асосий вазифалари, уларнинг назарий асослари ва амалий аҳамияти чуқур таҳлил қилинган. Тадқиқотда маҳаллий даражадаги иқтисодий сиёсат, ресурслар тақсимоотида институтлар ўртасидаги ҳамкорлик, ҳуқуқий базанинг роли, маҳаллий идоралар салоҳияти, молия институтлари иштирокининг муҳимлиги орқали минтақалар рақобатбардошлигини ошириш шароитлари очиб берилган.

Калит сўзлар: минтақавий сиёсат, институционал ёндашув, иқтисодий тараққиёт, молия институтлари, ҳуқуқий база, кластер, децентрализация, рақобатбардошлик, инновация, жамоат институтлари.

Аннотация. В статье подробно анализируются основные задачи институционального подхода в региональной экономической политике, их теоретические основы и практическое значение. В исследовании раскрываются условия повышения конкурентоспособности регионов посредством экономической политики на местном уровне, сотрудничества институтов в распределении ресурсов, роли правовой базы, потенциала местных органов власти, а также важности участия финансовых институтов.

Ключевые слова: региональная политика, институциональный подход, экономическое развитие, финансовые институты, правовая база, кластер, децентрализация, конкурентоспособность, инновации, государственные институты.

Abstract. In this article, the main tasks of the institutional approach in regional economic policy, their theoretical foundations, and practical importance are analyzed in depth. The study reveals the conditions for increasing the competitiveness of regions through economic policy at the local level, cooperation between institutions in the distribution of resources, the role of the legal framework, the potential of local agencies, and the importance of the participation of financial institutions.

Key words: regional policy, institutional approach, economic development, financial institutions, legal framework, cluster, decentralization, competitiveness, innovation, public institutions.

1. Кириш.

Минтақавий иқтисодий сиёсат мамлакатлар, минтақалар ёки айрим ҳудудлар даражасида иқтисодий ривожланишни таъминлаш учун қабул қилинадиган чора-

тадбирлар, стратегиялар ва дастурларнинг мажмуаси сифатида намоён бўлади. Бундай сиёсат маҳаллий инфратузилма, аҳоли фаровонлиги, тадбиркорлик муҳити ва умумий иқтисодий тизимни такомиллаштириш мақсадларига эришиш учун турли услублар ва ёндашувлардан фойдаланади. Шу кунга келиб, минтақавий сиёсатда институционал ёндашув алоҳида аҳамият касб этаётганлигини кузатиш мумкин, чунки иқтисодий жараёнларнинг муваффақиятли амалга оширилиши ва оқилона бошқарилиши кўп жиҳатдан мавжуд институтларнинг самарадорлигига боғлиқдир (North, 1991).

Институтлар деганда, энг аввало, жамиятда одамлар ўртасида ўрнатилган расмий ёки норасмий қоидалар, меъёрлар ва ташкилотлар назарда тутилади. Улар иқтисодиётда ресурслар тақсимланиши, маҳсулот ишлаб чиқариш, хизматлар кўрсатиш ва бозорда иштирок этиш жараёнларида иштирок этади. Давлат идоралари, тижорат банклари, бозор инфратузилмаси, таълим муассасалари ва бошқа тармоқлар, шунингдек, анъанавий урф-одатлар ҳам институтлар сирасига киради. Булар биргаликда иқтисодий муносабатлар тизимини шакллантиради. Минтақавий сиёсатда эса ҳар бир ҳудудга хос институционал муҳитни чуқур таҳлил қилиш, унда мавжуд устунликлар ва нуқсонларни аниқлаш муҳим аҳамиятга эга (Acemoglu & Robinson, 2012).

Институционал ёндашув, энг аввало, иқтисодий муносабатларнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини, уларда иштирок этаётган ташкилотлар ва жамоат институтларининг самарали фаолиятини ўрганади. Шу билан бирга, минтақавий даражада қабул қилинадиган сиёсий қарорлар ҳар бир ҳудуддаги ресурслардан максимал даражада фойдаланиш, рақобатбардошликни ошириш ва иқтисодий ўсишни таъминлашда муассир бўлади. Масалан, бир ҳудудда аграр соҳани ривожлантириш учун юридик ва иқтисодий қоидалар, аграр бозор инфратузилмаси, илмий тадқиқотлар, таълим муассасалари ҳамда агробизнес субъектлари ўртасида институционал ҳамкорлик зарур бўлади. Ўз навбатида, ҳар бир институт ролининг аниқ белгилаб қўйилиши, улар ўртасида ҳамкорлик мезонларининг шаклланиши минтақавий сиёсат муваффақиятини таъминлашда катта ўрин тутади (Williamson, 2000).

Умуман олганда, минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашувни самарали жорий этиш орқали иқтисодий тараққиётнинг мустаҳкам пойдеворини яратиш имконияти пайдо бўлади. Чунки институтлар иқтисодий муносабатлар жараёнларида тартиб, барқарорлик ҳамда адолатли рақобат муҳитининг шаклланишига хизмат қилади. Шу боис, минтақавий даражада қабул қилинадиган сиёсий дастурлар, қарорлар ва тартиботлар ўз ичига ана шундай институционал тегишлиликни қамраб олиши лозим.

2. Адабиётлар шарҳи.

Институтлар иқтисодиёти (New Institutional Economics) соҳа сифатида XX асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўлиб, бугунги кунда иқтисодий жараёнларни чуқурроқ англашда муҳим аҳамият касб этади. Институционал ёндашув иқтисодиётни фақат бозор механизмлари билан чекланмаган, балки юридик, сиёсий, маданий ва бошқа тартиблар билан уйғун равишда кўради. Дуглас Норт (1990) институтларнинг иқтисодий ўсишда тутган ўрнини кўрсатиб, у институтларни вақт ўтиши билан шаклланидиган, барқарорлашадиган ва иқтисодий муносабатларда энг муҳим роли бор қоидалар тизими сифатида таърифлаган.

Минтақавий сиёсатда институционал ёндашувни ўрганишда Асемоғлу ва Робинсон (2012) томонидан мунозара қилинган сиёсий ва иқтисодий институтларнинг хоссалари муҳим ўрин тутади. Уларда сиёсий институтлар ҳокимият тақсимооти ва қарор қабул қилиш жараёнларини белгилайди, иқтисодий институтлар эса иқтисодий имкониятлар ва ресурслардан самарали фойдаланишни ташкил этади. Муаллифлар ривожланган мамлакатлар мисолида институционал мустаҳкамлик ва инклюзив сиёсий тизимлар иқтисодий тараққиёт учун қанчалик муҳим эканини кўрсатиб беришган. Минтақавий

даражада ҳам шунга ўхшаш ҳолат кузатилади, яъни ҳудудий сиёсий институтлар (махаллий кенгашлар, ҳокимият органлари) ва иқтисодий институтлар (корхоналар уюшмалари, банклар, инвесторлар, таълим муассасалари) ўртасида ҳамкорлик мустаҳкам бўлса, ривожланиш кўрсаткичлари юқори бўлади.

Острам (1990) ўз тадқиқотларида умумий ресурслар билан боғлиқ институтлар сиёсатининг аҳамиятини кўрсатиб берган. Ушбу қарашдан минтақавий иқтисодий сиёсатда табиий ресурслардан фойдаланиш, сув ҳўжалиги, ер ресурслари ва бошқа умумий бойликларни бошқаришда самарали қоидалар жорий этиш, манфаатдор тарафлар ўртасида келишув механизмларининг яратилиши муҳим эканини тушуниш мумкин. Чунончи, бир ҳудудда қишлоқ ҳўжалиги билиши учун сув ресурсларининг самарали бошқарилиши керак. Бу эса маҳаллий сув ҳўжалиги ташкилотлари, фермерлар уюшмалари ва давлат идораларига боғлиқ. Агар бу соҳада институционал ривожланиш заиф бўлса, сув тақсимооти ноадолатли бўлиши, ресурслар исроф бўлиши ёки муаммоли ҳолатлар келиб чиқиши мумкин.

Уильямсон (2000) эса институтлар иерархияси назариясини илгари сурган. Унга кўра, институтлар бир неча даражага бўлинади: 1) асосий меъёрлар, қадриятлар, маданият; 2) расмий қоидалар, ҳуқуқий норма ва қонунлар; 3) бошқарув механизми ва шартномавий муносабатлар; 4) ресурслар тақсимланиши ва ҳар кунлик иқтисодий жараёнлар. Минтақавий сиёсатда бу ёндашувдан иқтисодий қарорлар қабул қилишда, ҳудудий лойиҳаларни амалга оширишда қайси даражада қандай институтлар иштирок этиши, қандай тартибда ҳамкорлик қилиши кераклигини аниқ тасаввур қилиш учун фойдаланиш мумкин.

Шу билан бирга, минтақавий иқтисодиётда кластер ёндашуви бўйича кенг тадқиқотлар олиб борган муаллифлар (Porter, 1998) ҳам институтлар ролини эътироф этишади. Масалан, кластерлар шаҳар ёки ҳудуд иқтисодий сиёсатининг муҳим таркибий қисми сифатида кўрилиши мумкин. Кластер асосида маълум бир тармоқ (масалан, текстиль, автомобиль саноати ёки агробизнес) атрофида корхоналар, таълим муассасалари, тадқиқот марказлари, молия институтлари ва хизмат кўрсатувчи корхоналар бирлашади. Бу жараёнда ўзаро ҳамкорлик ва рақобат ниҳоятда муҳим бўлгани учун кластер яхлит тизим сифатида институтлар сифатини оширишни талаб қилади. Минтақавий сиёсатда эса кластерларни рағбатлантирувчи инструментлар, қонунчилик замини, субсидиялар ва бошқа механизмлар айнан институционал ислохотлар билан бирга амалга оширилиши лозим (Piore & Sabel, 1984).

Минтақавий иқтисодиёт бўйича мамлакатлар тажрибасини ўрганар эканмиз, турли муаллифлар, жумладан, Родрик (2007) ва Стиглитз (2017) иқтисодий тараққиёт ва сиёсий институтлар ўртасидаги боғлиқликни бир неча мураккаб кўламларда анализ қилишган. Улар иқтисодий ислохотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан сиёсий барқарорлик, шаффофлик ва ҳисобдорлик каби тизимли жиҳатларга боғлиқ эканини қайд этишган. Шу боис, минтақавий даражада оқилона сиёсат олиб бориш, айниқса, сиёсатни амалга оширадиган маҳаллий идоралар, соҳа ташкилотлари ва жамоат институтларининг малакаси ва салоҳияти билан чамбарчас боғлиқ бўлиб қолади.

Шундай қилиб, адабиётлар шарҳидан маълум бўладики, минтақавий иқтисодий сиёсатни самарали амалга оширишда институционал ёндашув энг муҳим устунлардан бири сифатида намоён бўлади. Бу ёндашув минтақа миқёсида тартибот ва ҳамкорликни таъминлаш, мавжуд ресурсларни оқилона тақсимлаш ҳамда иқтисодий ўсишни қўллаб-қувватлаш учун асос бўлиб хизмат қилади.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу мақолада минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашувнинг асосий вазифаларини аниқлаш, уларни илмий жиҳатдан асослаш ҳамда амалиётдаги аҳамиятини кўрсатиш мақсадида сифат ва миқдорий тадқиқот услублари бирлаштириб

ишлатилди. Бунда асосий эътибор ҳар бир ҳудуддаги мавжуд институтлар ҳолатини таҳлил қилиш, уларнинг иқтисодий кўрсаткичларга таъсирини аниқлаш ва халқаро тажрибалар билан таққослаш методларига қаратилади.

4. Таҳлил ва натижалар.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, муайян бир ҳудудда иқтисодий сиёсат самарали бўлиши учун, энг аввало, у ерда мавжуд институтлар бир-бирини тўлдириб турувчи тарзда ишлаши лозим. Яъни маҳаллий ҳокимият органлари, хусусий сектор ва жамоат ташкилотлари мақсадли тарзда ҳамкорлик қилиш механизмига эга бўлсагина, иқтисодий ўсиш суръатлари юқори бўлади. Бунда ҳуқуқий база мукамаллиги, йўл-транспорт инфратузилмасининг ривожланиши, молия бозорларининг фаолияти ва кадрлар тайёрлаш тизими каби бир қатор институционал элементлар муҳим аҳамият касб этади.

1-жадвал

Минтақавий иқтисодий сиёсатда иштироқ этувчи институтлар ва уларнинг асосий вазифалари¹⁹

Институт тури	Асосий вазифалар
Маҳаллий ҳокимият органлари	Сиёсат белгилаш, ҳуқуқий база тайёрлаш, бюджетни тақсимлаш, жамоат назоратини таъминлаш
Хусусий сектор (корхоналар, уюшмалар)	Ташаббусни амалга ошириш, инвестиция киритиш, янги иш ўринлари яратиш
Молиявий институтлар (банклар, суғурта)	Лойиҳаларни молиялаштириш, суғурта қилиш, кичик бизнес ва микрокредитлашни ривожлантириш
Таълим ва тадқиқот марказлари	Кадрлар тайёрлаш, инновацияларни жорий этиш, илмий таҳлиллар асосида таклифлар ишлаб чиқиш
Нодавлат ташкилотлари (ННО)	Жамоатчилик овози, мониторинг, аҳоли билан мунтазам муносабат ўрнатиш
Урф-одатлар ва маданий институтлар	Норасмий қоидалар, жамоада камситмасдан ҳамкорлик муҳитини яратиш

1-жадвалда минтақавий иқтисодий сиёсатни амалга оширишда иштироқ этадиган бош институционал элементлар ҳамда уларнинг асосий вазифалари кўрсатилган. Кўриниб турганидек, ҳар бир институт минтақавий иқтисодий сиёсатда турли вазифаларни бажаради ва бири иккинчисини тўлдиради. Институционал муҳит қанчалик мустаҳкам бўлса, минтақада пахта, ғалла ёки нефть саноати бўладими ёки туризм сингари хизмат кўрсатиш соҳаси бўладими – барчасида рақобатбардошлик ортади.

Таҳлил жараёнида аниқландики, молия бозорининг ривожланганлик даражаси минтақавий иқтисодий сиёсатни амалга оширишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Масалан, кичик бизнес ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун имтиёзли

¹⁹ Ўрганишлар асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

кредитлар, субсидиялар ёки лизинг хизматлари зарур. Бу эса маҳаллий банклар ёки молиявий жамғармаларда шаффофлик, етарли маблағ ва қатъий қонун-қоидалар бўлишини талаб қилади (Rahimov, 2020).

Айрим минтақаларда иқтисодий лойиҳаларни молиялаштириш устувор вазифа сифатида белгиланган бўлса-да, коррупция, қариндош-уруғчилик ёки манфаатлар тўқнашуви туфайли эълон қилинган маблағлар самарали ишлатилмай, қисман бошқа мақсадларда сарфланиши кузатилган. Бу эса минтақавий сиёсатда институционал ислохотларнинг зарурлигидан далолат беради. Зеро, молиявий институтлар фақат аҳолининг жамғариб борган маблағларини қайта тақсимлаш эмас, балки минтақада адолатли рақобат муҳитини яратишда ҳам катта роль ўйнайди.

Таълим муассасалари ва илмий тадқиқот марказлари минтақа миқёсида иқтисодий сиёсатда муҳим институтлардан ҳисобланади. Улар кадрлар тайёрлаш, янги технологияларни жорий этиш, маҳаллий ишлаб чиқариш секторини модернизация қилиш каби жараёнларга бевосита қўмаклашади (Stiglitz, 2017). Бунда нафақат олий ўқув юртлари, балки касб-ҳунар коллежлари, малака ошириш марказлари ҳам катта аҳамият касб этади.

Тадқиқот давомида олинган маълумотларга кўра, таълим кластерлари ёки илмий-амалий парклар ташкил этган минтақаларда инновация кўрсаткичлари яхшироқ шаклланган. Бу эса давлат идоралари, хусусий сектор ва таълим муассасалари ўртасида барқарор ҳамкорлик йўлга қўйилганини англатади. Агар бу ҳамкорлик заиф бўлса, минтақада илм-фан тараққиёти пасайиши, маҳаллий мутахассислар малакасининг етарли эмаслиги каби муаммолар келиб чиқади.

Минтақавий сиёсатни ривожлантиришда ҳуқуқий базанинг мустаҳкамлиги жуда муҳим. Таҳлил натижалари кўрсатганидек, расмий институтлар қай даражада самарали ишлашидан қатъий назар, агар уларни тартибга солувчи қонунлар тушунарли ва аниқ бўлмаса, амалиётда муваффақиятсизликлар келиб чиқади (North, 1991). Шу боис, минтақавий сиёсатда қабул қилинадиган қарорларни маҳаллий шароитга мослаштириш, ҳар бир тармоқда чуқурлашган муаммоларни аниқлаш имконини берадиган мониторинг тизимлари ташкил қилиш лозим.

Модомики ҳуқуқий базада етишмовчиликлар ёки бўшлиқлар бўлса, маҳаллий даражада манфаатдор гуруҳлар ёки тоифалар бу кўринишдан фойдаланиши мумкин. Жумладан, ер участкалари тақсимланишида юридик мезонлар аниқ бўлмаса, лойиҳаларга ажратилиши керак бўлган ерлар бошқача мақсадларда ёки таниш-билишчилик асосида тақсимланиши эҳтимоли ортади. Шу сабабли, минтақавий сиёсатда ҳар бир соҳада (қишлоқ ҳўжалиги, саноат, хизмат кўрсатиш ва ҳ.к.) аниқ тартиб-қоидалар ишлаб чиқиш ва уларни мунтазам равишда қайта кўриб чиқиб бориш мақсадга мувофиқ.

Жамоат институтлари (нодавлат нотижорат ташкилотлари, маҳалла фаоллари, касаба уюшмалари ва бошқалар) минтақавий сиёсатни амалга оширишда аҳоли овозини эшитиш, жамоат назоратини таъминлаш, маҳаллий ниёзларни чуқур тушунишда муҳим тутам вазифасини бажаради (Ostrom, 1990). Таҳлиллар шуни кўрсатдики, жамоат институтлари фаол бўлган минтақаларда сиёсатча ва аҳоли ўртасида ишонч ортади, айрим лойиҳаларда эришилган натижалар юқори бўлади.

Бироқ, жамоат ташкилотларига расмий даражада ваколатлар тўлиқ берилмаган, уларни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш учун кенг имкониятлар яратилмаган минтақаларда эса аксинча, сиёсий қарорлар аҳоли манфаатларини инобатга олмай қабул қилинади. Шу туфайли жамоатчилик ҳайрат билан қарайдиган лойиҳалар кузатилиши, маблағлар мақсадсиз сарфланиши, ҳатто баъзан лойиҳа тўхтатиб қўйилиши ҳам мумкин.

Шундай қилиб, иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришишда биргина марказлашган ёки тўла децентрализация қилинган бошқарув эмас, балки аниқ

мақсадларга йўналтирилган, муҳим институтлар ўртасида мувофиқлашган тизим мавжуд бўлиши энг зарур омилдир.

Тадқиқот жараёнида минтақавий сиёсатда институционал ислохотларга тўсиқ бўлаётган бир неча асосий муаммолар аниқланди:

1. Молиявий ресурсларни тақсимлашда шаффофликни таъминлайдиган аниқ тизим бўлмаса, лойиҳалардан кутилган иқтисодий самара қолиб кетади.

2. Маҳаллий органлар турли натижалар учун жавобгарликни аниқ ҳис қилишмайди. Кўп ҳолларда дастурлар қабул қилинади, аммо уларни амалга ошириш механизмлари ноаниқ бўлиб қолади.

3. Анъанавий қадриятлар баъзан расмий қонунлар билан тўқнаш келиши, сиёсий қарорларнинг ҳаётга татбиқ этилишини қийинлаштириши мумкин.

Бу муаммоларни бартараф этиш учун минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ислохотларни чуқурлаштириш, ҳуқуқий базани яхшилаш, жамоат назоратини кучайтириш, кадрлар малакасини ошириш каби чоралар ҳаттий зарурдир.

4. Хулоса.

Ушбу мақолада минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашувнинг асосий вазифалари, назарий асослари ва амалиётдаги кўринишлари таҳлил қилинди. Олинган натижалар минтақавий сиёсат самарадорлигида институционал факторлар ҳал қилувчи ўрин тутишини тасдиқлади. Хусусан, мустаҳкам молиявий институтлар, маҳаллий идоралар билан хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорлик, кадрлар малакаси ва ҳуқуқий базанинг яхлитлиги минтақавий ривожланиш кўрсаткичларини яхшилашда муҳимдир.

Шундай қилиб, минтақавий иқтисодий сиёсатда институционал ёндашув соҳадаги ҳар бир таъсирчининг (давлат идоралари, хусусий сектор, нодавлат сектор, жамоат институтлари) масъулияти, ҳуқуқи ва мажбурияти аниқ белгилаб қўйилиши лозимлигини англатади. Институтлар бир-бири билан уйғунлашган шароитдагина минтақавий сиёсат иқтисодий ўсиш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва барқарор ривожланиш мақсадларига эришиши мумкин. Шундай экан, узлуксиз институционал ислохотлар, маҳаллий шароитга мослашган ҳуқуқий базани ривожлантириш ва муҳим институтлар ўртасида ҳамкорликни таъминлаш орқали минтақа иқтисодиётини жадал ривожлантириш мумкин.

Адабиётлар:

Acemoglu, D. & Robinson, J. (2012) *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. New York: Crown.

Karimova, G. (2021) 'Regional Economic Development and the Role of Financial Institutions', *Journal of Regional Studies*, 22(1), pp. 56–72.

North, D. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.

North, D. (1991) 'Institutions', *Journal of Economic Perspectives*, 5(1), pp. 97–112.

Ostrom, E. (1990) *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge: Cambridge University Press.

Piore, M.J. & Sabel, C.F. (1984) *The Second Industrial Divide: Possibilities for Prosperity*. New York: Basic Books.

Porter, M. (1998) *Clusters and the New Economics of Competition*. *Harvard Business Review*, November-December, pp. 77–90.

Rahimov, A. (2019) 'The Impact of Institutional Reforms on Regional Economic Growth: Evidence from Transition Economies', *Economic Transition Review*, 5(2), pp. 45–63.

Rahimov, A. (2020) 'Evaluation of Agricultural Reforms in the Context of Institutional Development', *Agrarian Policy Journal*, 4(3), pp. 33–47.

Rodrik, D. (2007) *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. Princeton: Princeton University Press.

Stiglitz, J. (2017) *Globalization and Its Discontents Revisited*. New York: Norton.

Williamson, O.E. (2000) 'The New Institutional Economics: Taking Stock, Looking Ahead', *Journal of Economic Literature*, 38(3), pp. 595–613.

World Bank (2020) *World Development Report: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. Washington, DC: World Bank.



ЁҒ-МОЙ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА БИЛВОСИТА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

и.ф.д. **Уразов К.Б.**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

DSc **Боронов Б.Ф.**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Аннотация. Мақолада ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида билвосита харажатларнинг ўрни, уларнинг таркибида таъмирлаш харажатларининг аҳамияти, турлари ва маҳсулот таннархига таъсири каби масалалар ёритилган бўлиб, тадқиқот давомида, ушбу харажатларни тан олиш бўйича услубий тартиблар тақдир этилган. Ёғ-мой саноати корхоналари бўйича ишлаб чиқилган ушбу тақдирлар корхоналарнинг амалий мисоллари ёрдамида кўрсатиб берилган. Тадқиқот ишида, ушбу жараёнларни бухгалтерия ҳисоби счётлар тизимида акс эттириш, ушбу счётлар бўйича бухгалтерия ёзувларини бериш тартиблари очиқ берилган.

Калит сўзлар: ёғ-мой маҳсулотлари, билвосита харажатлар, таъмирлаш харажатлари, умумишлаб чиқариш харажатлари, маҳсулот таннархи, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

Аннотация. В статье выделены роль косвенных затрат на предприятиях по производству масложировых продуктов, значение ремонтных затрат в их структуре, их виды, влияние на себестоимость продукции. Эти предложения, разработанные для предприятий масложировой отрасли, проиллюстрированы с помощью практических примеров предприятий. В исследовательской работе раскрываются процедуры отражения этих процессов в системе счетов бухгалтерского учета, выдачи бухгалтерских записей по этим счетам.

Ключевые слова: масложировая продукция, косвенные затраты, расходы на ремонт, общие производственные затраты, себестоимость продукции, международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract. The article highlights the role of indirect costs in enterprises for the production of oil and fat products, the importance of repair costs in their structure, their types, and the impact on the cost of production. These proposals, developed for the oil and fat industry, are illustrated with the help of practical examples of enterprises. The research work reveals the procedures for reflecting these processes in the system of accounting accounts, issuing accounting records for these accounts.

Keywords: oil and fat products, indirect costs, repair costs, total production costs, product cost, international standards of financial reporting.

1. Кириш.

Бугунги иқтисодий глобаллашув шароитида, корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнини тўғри ташкил этиш, ишлаб чиқарилган маҳсулотларни ҳисобда тўғри акс эттириб бориш ва бошқарув қарорларини ўз вақтида қабул қилиниши учун ахборот фойдаланувчиларни зарурий ахборот билан таъминлаш бухгалтерия ҳисоби соҳасида муҳим аҳамиятга эгадир. Корхоналарда ўз вақтида, аналитик ҳисоб маълумотларига эга бўлиш ва ушбу маълумотлар асосида тўғри бошқарув қарорларини қабул қилиш корхоналарда маҳсулот таннархини тўғри шакллантириш жараёнларини самарали бошқариш имконини беради. Ушбу маҳсулот таннархини ҳисоб ва ҳисоботда тўғри акс эттириш кўпгина омилларга боғлиқ бўлиб, ушбу жараёнлар бугунги ҳисоб олдида ишлаб чиқариш харажатларини тўғри ташкил этиш, корхоналарда умумишлаб чиқариш харажатларини маҳсулот таннархига тўғри тақсимлаш каби вазифаларни белгилаб беради.

Ёғ-мой саноати корхоналарида шундай харажатлар борки, ушбу харажатлар доимий ишлаб чиқариш жараёнлари билан боғлиқ ҳолда ҳамда ишлаб чиқариш жараёнларини тўхтатган ҳолда амалга оширилади. Корхоналарда бундай харажатлар таъмирлаш харажатлари ҳисобланиб, умумишлаб чиқариш харажатлари таркибида ушбу харажатлар асосий рол ўйнайди.

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида таъмирлаш харажатлари турли жараёнларда рўй берсада, бироқ бугунги ҳисоб тизимида бундай харажатлар бир хил тан олинади ва ҳисобда акс эттирилади. Бу эса, ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннархини ҳисоблашнинг камчиликларидан ҳисобланиб, бугунги кунда, ушбу масалалар бўйича илмий тадқиқот ишлаи олиб боришни тақозо этади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Билвосита харажатлар маҳсулот таннархига тўғридан-тўғри олиб борилмай, балки ой давомида тўпланиб, ишлаб чиқариш бўлимларига маълум бир усуллар орқали қўшилиб боради. Шунинг учун, уларнинг ҳисобини тўғри юритиш маҳсулот таннархини аниқлашга имкон берувчи асосий жараёнлардан бири ҳисобланади.

Хорижий олим Р.Ҳ.Ҳермансон (1998) “Ишлаб чиқариш компаниялари учун маҳсулот таннархига маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўлган материаллар, меҳнат ва компания операциялари учун барча харажатлар киради”, деб таъкидлайди.

Маҳсулот таннархи бўйича иқтисодий адабиётларда турли хил фикр юритилган, жумладан, Россиянинг таниқли иқтисодчи олими В.Ф.Палийнинг (2012) таъкидлашича, “Маҳсулотлар (иш, хизматлар) таннархини ҳисоблаш маҳсулот ёки жараённинг таннархини ҳисоблашни таъминлайдиган техника ва усуллар мажмуаси сифатида қаралиши мумкин”.

И.Г.Кондраковнинг (2015) фикрича, “Таннархни калькуляция қилиш бу ишлаб чиқаришда харажатларни жамлаш ва уларни тайёр маҳсулотга олиб бориш ҳисобланади”.

Россиянинг яна бир иқтисодчи олими Т.А.Головинанинг (2004) фикрича, “Маҳсулот таннархи тушунчаси қиймат қонуни тамойилларига асосланади, қайсики товарнинг қиймати нафақат ишлаб чиқариш имкониятлари, балки жамият эҳтиёжлари билан аниқланади”.

М.Ш.Маматқуловнинг (2021) фикрича, “Таннархни калькуляциялаш дейилганда кўрсатилган уй-жой коммунал хизматларининг таннархини ҳисоблаб чиқиш тушунилади”.

Таннарх – бу тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган табиий ресурслар, хом ашё, материаллар, ёқилғи, энергия, асосий фондлар, меҳнат ресурслари ва бошқа харажатларнинг пулдаги қиймати²⁰.

Тайёр маҳсулот таннархи – маълум турдаги маҳсулот ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган ташкилотнинг умумий харажатларини акс эттирувчи кўрсаткич²¹.

Ушбу фикрлардан билиш мумкинки, ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот таннархини аниқлаш бухгалтерия ҳисобининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

3. Тадқиқот методологияси.

Республика саноатида фаолият кўрсатаётган корхоналарда билвосита харажатлар ҳисоби, уларнинг маҳсулот таннархига таъсирини очиб бериш мақсадида олиб борилн тадқиқотларда илмий абстракциялаш, иқтисодий таҳлил, монографик кузатув, қиёслаш, индукция ва дедукция каби тадқиқот усулларида фойдаланилган.

4. Таҳлил ва натижалар.

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланувчи корхоналар фойда кўрсаткичларини максимал даражада оширишлари учун, энг аввало, ўзларининг ҳисоб сиёсатларини тўғри ишлаб чиқишлари, корхонанинг бевосита ва билвосита харажатлари таркибини тўғри ажратиб, уларни маҳсулот таннархига таъсирини олдиндан, аниқ ҳисоб-китоб қилишлари зарур бўлади.

Ёғ-мой саноати корхоналарида билвосита харажатлари таркибида таъмирлаш харажатлари ва уларнинг ҳисобини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ушбу харажатлар билвосита маҳсулот таннархига таъсир кўрсатади.

Корхоналарда ишлаб чиқариш бўлимлари асбоб-ускуналарини таъмирлаш жараёни икки хил кўринишда амалга оширилади:

** ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш;*

** ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш.*

Тадқиқот давомида аниқ бўлдики, ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида ушбу жараёнлар бир хил тушунилади ва ушбу жараёнлар натижасида амалга оширилган харажатлар ҳам бухгалтерия ҳисобида бир хил акс эттирилади.

Бизнинг фикримизча, бухгалтерия ҳисобида ушбу жараёнлар алоҳида ҳисобга олиниши ҳамда амалга оширилган харажатлар ҳисоб ва ҳисоботда алоҳида акс эттирилиши лозим, деб ҳисоблаймиз.

Ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш, яъни корхонада асбоб-ускуналарни ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёни билан бир вақтнинг ўзида, ишлаб чиқариш жараёнини тўлиғича тўхтатмаган тарзда таъмирлаш жараёни бу жорий таъмирлаш ҳисобланади.

Ёғ-мой ишлаб чиқариш корхонасида ушбу усул бўйича амалга оширилган таъмирлаш жараёнининг харажатлари ишлаб чиқариш харажатларига билвосита таъсир этиб, умумишлаб чиқариш харажатлари сифатида тан олинади. Натижада, ушбу ҳисобот ойининг охирида корхонанинг ҳисоб сиёсатига кўрсатилган усул бўйича ушбу даврда яратилган барча маҳсулот таннархига тақсимланади.

Бизнинг фикримизча, таъмирлаш жараёнлари бўйича харажатларни барча маҳсулот турлари бўйича тақсимлаш нотўғри ҳисобланиб, маҳсулот таннархини реал акс эттирмайди.

Бизнингча, таъмирлаш жараёни бўйича харажатларни ушбу жараён амалга оширилган бўлимлар кесимида яратилган маҳсулотлар таннархига олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Мисол, рафинация цехида таъмирлаш бўйича амалга оширилган

²⁰ <https://www.audit-it.ru/articles/account/buhaccounting/a7/994410.html>

²¹ <https://www.glavbukh.ru/hl/32265-sebestoimost-gotovoy-produktsii>

харажатларни айнан ушбу цехда, шу даврда яратилган маҳсулотларнинг таннархига киритиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Ушбу усулнинг амалиётда қўлланилишини “East Oil” масъулияти чекланган жамияти мисолида кўриб чиқамиз:

1-мисол. “East Oil” МЧЖ ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхонасида, 2022 йил апрель ойида рафинация бўлимида таъмирлаш жараёни юз берган бўлиб, унда фойдаланишга топширилган асосий воситалар таъмирланган. Корхонада таъмирлаш жараёни натижасида, жами қиймати 16100210,42 сўм бўлган материаллар умумишлаб чиқариш харажатларига берилган.

Корхонада таъмирлаш харажатларини ушбу усул бўйича тақсимлашда, даставвал, умумишлаб чиқариш харажатлари амалга оширилган рафинация бўлимида яратилган маҳсулот турларини аниқлаш лозим бўлади. Ундан сўнг, таъмирлаш харажатлари айнан ушбу бўлимда яратилган маҳсулотлар таннархига ҳақиқий таннарх бўйича пропорционал равишда тақсимланади.

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхонада апрель ойида рафинация бўлимида рафинацияланган пресс пахта ёғи, рафинацияланган экстракция пахта ёғи ва пахта соапстоги маҳсулотлари ишлаб чиқарилган. Ушбу маҳсулотларнинг ой охиридаги ҳақиқий таннархи қуйидагича бўлган:

- * рафинацияланган пресс пахта ёғи – 2388730964,25;
- * рафинацияланган экстракция пахта ёғи – 1023741841,82;
- * пахта соапстоги – 3184200,00 сўм.

Демак, таъмирлаш жараёни бўйича харажатлар ушбу маҳсулот турлари бўйича қуйидагича тақсимланади:

- * рафинацияланган пресс пахта ёғи – 69,93%;
- * рафинацияланган экстракция пахта ёғи – 29,98%;
- * пахта соапстоги – 0,09%.

Корхонанинг рафинация бўлимида яратилган маҳсулот турлари бўйича таъмирлаш харажатларининг ҳақиқий таннарх бўйича тақсимланишини қуйидаги жадвал орқали кўриб чиқамиз (1-жадвал):

1-жадвал

“East Oil” МЧЖда 2022 йил апрель ойида рафинация бўлимида яратилган маҳсулотлар таннархига таъмирлаш харажатларининг таъсири²²

Маҳсулот турлари	Ҳақиқий таннарх	Таъмирлаш харажатларини тақсимлаш коэф.	Таъмирлаш харажатлари улуши
1	2	3	4
Рафинацияланган пресс пахта ёғи	2388730964,25	0,6993	11258877,15
Рафинацияланган экстракция пахта ёғи	1023741841,82	0,2998	4826843,08
Пахта соапстоги	3184200,00	0,0009	14490,19
	3415657006,07	1	16100210,42

Изоҳ: 3-устунни ҳисоблаш учун, 3-устун = 2-устун / 3415657006,07; 4-устунни ҳисоблаш учун, 4-устун = 16100210,42 x 3-устун.

Демак, таъмирлаш харажатларини рафинация бўлимида яратилган маҳсулот турлари бўйича тақсимлашда, авваламбор, тақсимлаш коэффициенти аниқланади. Аниқланган коэффициент мос равишда, таъмирлаш харажатларига кўпайтирилиб

²² “East Oil” МЧЖ маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

чиқилади. Натижада, аниқланган қийматлар ой охирида ушбу маҳсулотларнинг таннархига қўшилади.

Корхонада амалга оширилган ушбу таъмирлаш жараёнлари бўйича қуйидаги бузгалтерия ёзувлари амалга оширилади:

Д-т: 2011-“Рафинация цехи” (рафинацияланган пресс пахта ёғи) ... 11258877,15 сўм;

К-т: 2510-“Умумишлаб чиқариш харажатлари” (таъмирлаш харажатлари) ... 11258877,15 сўм.

Д-т: 2011-“Рафинация цехи” (рафинацияланган экстракция пахта ёғи) ... 4826843,08 сўм;

К-т: 2510-“Умумишлаб чиқариш харажатлари” (таъмирлаш харажатлари) ... 4826843,08 сўм.

Д-т: 2011-“Рафинация цехи” (пахта соапстоги) ... 14490,19 сўм;

К-т: 2510-“Умумишлаб чиқариш харажатлари” (таъмирлаш харажатлари) ... 14490,19 сўм.

Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш. Ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёни узлуксиз давом этсада, бироқ янги мавсум бошланиши арафасида ёки бир маҳсулот тури ишлаб чиқариш жараёнидан бошқа хил маҳсулот тури бўйича ишлаб чиқариш жараёни бошланилиши арафасида ишлаб чиқариш жараёни маълум муддатда, вақтинчалик тўхтатиб турилади ва янги мавсумга тайёргарлик ишлари бошланади. Анашу даврда корхонанинг барча ишлаб чиқариш бўлимларининг ишлаб чиқаришда қатнашадиган машина ва асбоб-ускуналарини очиш, таъмирлаш, ўрнатиш жараёнлари бошланади. Ёғ-мой ишлаб чиқариш корхоналарида ушбу жараёнларни ҳисобга олиш усули биринчи усулдан фарқ қилади. Корхонада ушбу усул бўйича таъмирлаш жараёнларини ҳисобга олиш ва ушбу жараён бўйича харажатлар ҳисобини юритиш масалалари алоҳида аҳамиятга эга ҳисобланади.

Бизнинг фикримизча, ёғ-мой саноати корхоналарида бир йилда бир марта юзага келадиган ушбу таъмирлаш харажатларини келгуси давр харажатларига олиб бориш мақсадга мувофиқ, деб ўйлаймиз. Чунки, ушбу харажатлар жорий даврда амалга оширилган бўлсада, бироқ кейинги даврнинг ишлаб чиқариш жараёнларига таъсир этади ва ушбу харажатлар корхонанинг асбоб-ускуналарни модернизациялаш мақсадида ташкил этилади. Шу боис, ушбу харажатлар маҳсулот таннархига тўғридан-тўғри олиб борилмай, балки асбоб-ускуналардан ҳисобланган амортизация харажатлари бўйича қўшилиб боради.

Корхонада таъмирлаш жараёни бўйича амалга оширилган харажатларнинг биз томонимиздан ишлаб чиқилган усуллар бўйича тақсимланишини қуйидаги расм орқали кўриш мумкин (1-расм):

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида таъмирлаш харажатларини иккига бўлган ҳолда ҳисобга олиниши корхонанинг ҳисоб сиёсатида кўрсатилиши лозим.

Ёғ-мой саноати корхоналарига биз томонимиздан тавсия этилаётган ушбу усуллар умумишлаб чиқариш харажатларини асосий ишлаб чиқариш харажатларига тўғри олиб боришга ва маҳсулот таннархини пасайтиришга олиб келади ҳамда бошқарув ҳисобини такомиллаштиришга муайян даражада хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Амалдаги 21-сон БҲМСда билвосита харажатлар ҳисобини юритиш бўйича ишлаб чиқилган счётлар режаси таркибини ёғ-мой саноати корхоналарининг ўзига хос жиҳатларини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқиш лозим, деб ўйлаймиз.

Бизнинг фикримизча, ёғ-мой саноати корхоналарида билвосита харажатлар ҳисоби бўйича мўлжалланган счётлар тизимига қуйидагича ўзгартиришлар киритиш мақсадга мувофиқ (2-жадвалга қаранг):



1-расм. Ёғ-мой саноати корхоналарида таъмирлаш харажатларини тақсимлаш²³

Биз томонимиздан 21-сон БХМС бўйича тавсия этилаётган ушбу счётлар тизи мини ёғ-мой саноати корхоналарида қўллаш бир қанча хусусиятларга эга:

Биринчидан, ёғ-мой саноати корхоналарида умумишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олувчи счётлар бўйича аналитик ҳисоб ушбу корхонанинг алоҳида бўлимларида ҳисобга олинади ҳамда харажатлар моддалар бўйича ҳисоб сиёсатига мувофиқ тақсимланади. Анашу тақсимлаш натижасини амалдаги счётлар режасида акс эттиришнинг иложи йўқлиги сабабли, тавсия этилган счётлардан фойдаланиш ушбу муаммоларни бартараф этишга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Иккинчидан, ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида таъмирлаш жараёни икки гуруҳга ажратилди ва ушбу жараён бўйича харажатлар ҳам мос равишда, иккига бўлинди. Ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар маҳсулотларнинг таннархига қўилади. Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш бўйича харажатлар эса, келгуси давр харажатлари сифатида ҳисобга олиниб, асбоб-ускуналарнинг таннархига қўшилади.

Учинчидан, ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар ишлаб чиқариш бўлимлари кесимида ҳисобга олинади ва ушбу харажатлар айнан, ушбу бўлимда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар таннархига олиб борилади. Шу боис, ушбу турдаги таъмирлаш харажатлари алоҳида счётлар режасида ҳисобга олинади ҳамда ҳисоб ва ҳисобот шаклларида акс эттирилади.

²³ Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

2-жадвал

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарда билвосита харажатлар ҳисобини юритиш учун тавсия этилаётган счётлар тизимлари²⁴

21-сон БҲМС бўйича (амалда бўлган)		Тавсия этилаётган	
Счётлар т/р	Счётлар номи	Счётлар т/р	Счётлар номи
		2400	Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлашни ҳисобга олувчи счётлар
		2410	Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш бўйича харажатлар
2500	Умумишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олувчи счётлар	2500	Умумишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олувчи счётлар
2510	Умумишлаб чиқариш харажатлари	2510	Бошқа умумишлаб чиқариш харажатлари
		2520	Ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар
		2521	Асосий ишлаб чиқариш бўлимида ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар
		2522	Рафинация бўлимида ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар
		2523	Дезодорация бўлимида ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар
		2524	Қадоқлаш бўлимида ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар

Биз томонимиздан, юқорида тавсия этилган счётлар тизимининг бухгалтерия ҳисобида қўлланилишини қуйидаги жадвал орқали кўриб чиқамиз (3-жадвал):

3-жадвал:

“East Oil” МЧЖ мисолида маҳсулотлар ҳисобини юритиш учун тавсия этилаётган счётлар тизимларининг бухгалтерия ёзувларида қўлланилиши (минг сўмда)²⁵

Т/р	Операция мазмуни	Дебет	Кредит	Сумма
Ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича операциялар				
1	Эҳтиёт қисмлари рафинация бўлимига ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш мақсадида топширилди	2522	1040	16 100
2	Ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш бўйича харажатлар рафинация бўлимининг харажатларига олиб борилди	2011	2522	16 100
Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш бўйича операциялар				
3	Эҳтиёт қисмлари ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш мақсадида топширилди	2410	1040	170 500

²⁴ Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

²⁵ Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

4	Ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш бўйича харажатлар келгуси давр харажатларига олиб борилди	3190	2410	170 500
5	Таъмирлаш харажатлари бўйича ҳисобга олинган келгуси давр харажатлари ўрнатиладиган асбоб-ускуналар харажатларига олиб борилди.	0710	3190	170 500
6	Ўрнатиладиган асбоб-ускуналар бўйича харажатлар бошқа капитал қўйилмалар таркибига олиб борилди	0890	0710	170 500
7	Капитал қўйилмалар бўйича харажатлар асбоб-ускуналарнинг таннархига олиб борилди	0130	0890	170 500
Умумишлаб чиқариш бўлими харажатлари бўйича операциялар				
8	Умумишлаб чиқариш бўлими харажатларининг асосий ишлаб чиқариш цехига тақсимланиши	2010	2510	31 515
9	Умумишлаб чиқариш бўлими харажатларининг рафинация цехига тақсимланиши	2011	2510	14 762
10	Умумишлаб чиқариш бўлими харажатларининг дезодорация цехига тақсимланиши	2012	2510	28 105
11	Умумишлаб чиқариш бўлими харажатларининг қадоқлаш цехига тақсимланиши	2013	2510	21 418

**2010, 2011, 2012, 2013, 2410, 2510, 2511, 2512, 2513, 2514 счётларнинг номланиши 2-жадвалда келтирилган.*

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида, ёғ-мой саноати корхоналарида билвосита харажатлар бўйича юзага келадиган операциялар бўйича юқорида келтирилган бухгалтерия ёзувлари ушбу саноат корхоналарида билвосита харажатлар ҳисобини тўғри юритишга, маҳсулотлар таннархини тўғри ҳисоблашга, шунингдек таъмирлаш бўйича харажатларни келгуси даврга олиб борган ҳолда, асбоб-ускуналарнинг таннархига олиб борилиши натижасида, маҳсулот таннархини пасайтиришга имкон яратади, деб ҳисоблаймиз.

5. Хулоса.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида айтишимиз мумкинки, бугунги кунда, ёғ-мой саноати корхоналарида асосий ишлаб чиқариш жараёнларидан бири ҳисобланган таъмирлаш харажатлари ҳисобини тўғри ташкил этиш муҳим ҳисобланиб, тадқиқот ишида, қуйидаги хулосаларга келинди ҳамда илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Ёғ-мой саноати корхоналарида таъмирлаш жараёнлари уларнинг хусусиятларидан келиб чиқиб икки гуруҳга ажратилди: ишлаб чиқариш жараёни давомида таъмирлаш ва ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатган ҳолда таъмирлаш. Ушбу гуруҳлар бўйича ҳисобга олинган харажатлар ҳам, ўз навбатида, иккига бўлинди: маҳсулот таннархига олиб бориладиган ва асбоб-ускуналар таннархига олиб бориладиган харажатлар.

2. Тадқиқотлар натижасида, амалдаги 21-сон БХМСда умумишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш бўйича келтирилган счётлар режасида ёғ-мой саноати корхоналарининг ишлаб чиқариш жараёнлари хусусиятларини инобатга олган ҳолда, ушбу харажатларни ишлаб чиқариш бўлими кесимида маҳсулот таннархига олиб бориш, шунингдек таъмирлаш харажатларини ҳисобга олиш бўйича янги счётлар режасини очиш бўйича илмий тавсиялар ишлаб чиқилди. Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида таклиф этилган ушбу счётлар режасининг қўлланилиши бўйича бухгалтерия ёзувлари ёғ-мой саноати корхоналарининг амалий мисоллари ёрдамида кўрсатиб берилди.

Бизнинг фикримизча, олиб борилган тадқиқот давомида эришилган ушбу натижалар, бугунги кунда, ёғ-мой саноати корхоналарида умумишлаб чиқариш

харажатлари, жумладан уларнинг асосий таркибий қисми ҳисобланган таъмирлаш харажатлари ҳисобини такомиллаштиришга ҳамда ушбу жараёнларни ҳисоб ва ҳисоботда реал акс эттиришга имкон яратади, деб ўйлаймиз.

Адабиётлар:

3. Кондраков И.Г. (2015) *Бухгалтерский управленческий учет: Учебное пособие. -2, перераб. и доп. -Нальчик : ООО "Научно-издательский центр ИНФРА-М", - 352 с. ISBN 978-5-16-005040-9. –“Внешний ресурс”.*

Hermanson, Roger H. (1998) *Accounting Principles: A Business Perspective. First Global Text Edition, Volume 1. Financial Accounting. 1005p. 208-pages.*
http://mis.kp.ac.rw/admin/admin_panel/kp_lms/files/digital/SelectiveBooks/Accounting/Accounting%20Principles%20A%20Business%20Perspective.pdf

Головина Т.А. (2004) *Управленческий учет и анализ на предприятиях мясной и молочной промышленности при переходе на международные стандарты финансовой отчетности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. -Орел.: 28-с.*

Маматқулов М.Ш. (2021) *Коммунал хизмат кўрсатиш тизими корхоналарида бошқарув ҳисоби методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. –Т.: 254-б.*

Палий В.Ф., (2012) *Определение предмета бухгалтерского учета // Бухгалтерский учет. № 5.-С.95-97.*



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА КАПИТАЛ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИНГ ТАСНИФИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

и.ф.д.Уразов К.Б.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

PhD Мухаммадиев З.У.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Аннотация. Мазкур мақолада рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестицияларнинг иқтисодий категория сифатидаги таърифлари, капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий масалалари назарий жиҳатдан тадқиқ қилинган бўлиб, ҳўжалик юритувчи субъектларда капитал инвестициялар бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритишнинг аҳамияти каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, яшил иқтисодиёт, капитал инвестициялар, капитал инвестициялар ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби, модернизация, биологик активлар, яшил майдон объектлари, капитал инвестицияларнинг молиялаштириш манбалари.

Аннотация. В данной статье теоретически исследуются определения капитальных вложений как экономической категории в условиях цифровой и зеленой экономики, вопросы классификации капитальных вложений как объекта учета, а также такие вопросы, как значение организации и ведения учета капитальных вложений в условиях цифровой и зеленой экономики. выделены экономические субъекты.

Ключевые слова: цифровая экономика, зеленая экономика, капитальные вложения, учет капитальных вложений, бухгалтерский учет, модернизация, биологические активы, новые объекты, источники финансирования капитальных вложений.

Abstract. In this article, the definitions of capital investments as an economic category in the context of the digital and green economy, classification issues of capital investments as an accounting object are theoretically researched, and issues such as the importance of organizing and maintaining capital investment accounting in economic entities are highlighted.

Keywords: digital economy, green economy, capital investment, capital investment accounting, accounting, modernization, biological assets, greenfield facilities, capital investment financing sources.

1. Кириш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқи мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт” бўйича олиб борилаётган қатор ислохотлар натижаларидан бири ҳисобланади. Ушбу анжуманда Давлат раҳбари томонидан “Оролбўйи ҳудуди экологик фожианинг марказига айланди. Биз мавжуд аҳволни яхшилаш учун бу ерда икки миллион гектар янги ўсимлик

майдонлари ва дарахтзорлар яратиш, тупроқ қатламини шакллантириш бўйича улкан ишларни амалга оширмоқдамиз” (Мирзиёев, 2020), деб таъкидлангани мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт” мамлакатимизда мазкур сиёсатга бўлган эътибор юксак даражада эканлигидан далолат беради. Қолаверса, Ўзбекистон Республикасида қабул қилинган “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасида “яшил” иқтисодиётга ўтиш ва “яшил” ўсишни таъминлаш” (Қарор, 2022) Дастурида 2019-2030 йиллар мобайнида мамлакатнинг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегияси ишлаб чиқилган бўлиб, барча иқтисодий тармоқларда “яшил” технологияларни жорий этиш орқали уларни технологик модернизациялаш ва молиявий рағбатлантириш, хусусий корхоналарга “яшил” инвестицияларни жорий этишда кенг шарт-шароитлар очиб бериш, уларнинг фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, халқаро молия институтлари ва бошқа хорижий ташкилотлар билан ҳамкорликни йўлга қўйишда амалий кўмаклашиш, корхоналарда “яшил” инвестицияларни жалб этиш орқали янги инновацион маҳсулотларни жорий этиш, миллий инновацион тизимларни ривожлантириш орқали “яшил” иқтисодиётга ўтиш, янги инновацион технологияларни жорий этиш орқали саноат корхоналарини модернизациялаш, уларнинг молиявий салоҳиятини ошириш каби муҳим вазифалар белгилаб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Статистика Қўмитаси томонидан келтирилган маълумотларни таҳлил қилиш асосида айтиш мумкинки, бугунги рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналарда ахборот технологияларини жорий этиш, рақамли технологияларни қўллаш орқали уларнинг фаолиятини янада ривожлантириш зарур. Бу эса, мамлакат миллий иқтисодиётида инновацион хизматлар турларини оширишга, жаҳон бозорларига уларни олиб чиқишга замин ҳозирлайди. Бунинг учун эса, ушбу тадқиқот йўналиши бўйича чуқур илмий изланишлар олиб бориш, рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналар фаолиятига ижобий таъсир этувчи омилларни аниқлаш, уларни таҳлил қилиш, бухгалтерия ҳисобини юритиш, ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларнинг уларга бўлган эҳтиёжларини қондириш зарур, деб ҳисоблаймиз. Ушбу заруриятдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналарда бухгалтерия ҳисобини юритиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Ушбу белгиланган вазифалар мамлакат миллий иқтисодиётида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланиб, рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида капитал инвестициялар ҳисобини юритиш, уларни тан олиш, капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатидаги таснифий асосларини ишлаб чиқишни долзарб қилиб қўймоқда.

2. Адабиётлар шарҳи.

Ушбу долзарб вазифалардан келиб чиққан ҳолда хорижий ва маҳаллий ўқув адабиётлари тадқиқ этилди. Олимлар томонидан ёзилган ўқув-илмий адабиётларда капитал инвестициялар атамасига турли хил ёндашувлар амалга оширилган бўлиб, капитал инвестицияларга оид турли хил таъриф ва тавсифлар ишлаб чиқилган.

Россия давлатининг “Россия Федерациясида капитал қўйилмалар шаклида амалга ошириладиган инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Федерал қонунида қуйидаги таърифни учратиш мумкин: “капитал қўйилмалар – асосий капиталга (асосий воситаларга) қўйилмалар, шу жумладан янги қурилиш, мавжуд корхоналарни реконструкция қилиш ва техник қайта жиҳозлаш, машиналар, асбоб-ускуналар, асбоблар, инвентарларни сотиб олиш, лойиҳа қидирув ишлари ва бошқа харажатлар” (Федерал Қонун, 1999). Ушбу қонун XX асрнинг охирида қабул қилинган бўлиб, унда бизнинг мамлакатимиз меъёрий ҳужжатларида келтирилгани каби Россия Федерациясининг ҳам норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида ҳам “капитал инвестициялар” атамаси “капитал қўйилмалар” номи билан ифодаланган. Таърифда капитал инвестицияларнинг асосий объектлар бўйича қилинган харажатларни назарда тутган

бўлсада, бироқ капитал инвестицияларнинг бошқа активларга ҳам таъсири етарлича ҳисобга олинмаган.

АҚШнинг Огаё университети олимларидан У.Кентон, “Капитал қўйилмалар (Capital Investment) – бу компаниянинг узоқ муддатли бизнес мақсадлари ва вазифаларига эришиш учун фойдаланиш учун жисмоний активларни сотиб олиш. Кўчмас мулк, ишлаб чиқариш корхоналари ва машиналар капитал қўйилмалар сифатида сотиб олинadиган активлар қаторига киради”²⁶, деб таъкидлайди.

Ўзбекистон Республикасида қабул қилинган “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонунда (2019) капитал инвестициялар иқтисодий категориясига қўйидагича таъриф келтирилган: “Асосий фондларни яратиш ва такрор қўпайтиришга, шу жумладан янги қурилишга, модернизация қилишга, реконструкция қилишга, техник жиҳатдан қайта жиҳозлашга, шунингдек моддий ишлаб чиқаришнинг бошқа шакллари ривожлантиришга киритиладиган инвестициялар капитал инвестициялар жумласига киради”.

Россиялик олим Л.В.Галяпинанинг (2006) капитал қўйилмалар ҳисобини ташкил этиш, унинг моделлари ва методологик масалалари мавзусида бажарилган илмий тадқиқот ишида қўйидагича таърифни учратиш мумкин: “Капитал қўйилмалар иқтисодиётнинг реал секторига инвестицияларнинг шаклларида бири бўлиб, корхоналарни ишлаб чиқариш қувватлари билан таъминлашнинг асосий манбаи ҳисобланади”. Олим ушбу таърифда инвестицияларнинг асосий тури бу капитал инвестициялар эканилигини эътироф этиб, хўжалик юритувчи субъектларда ишлаб чиқариш фаолиятини кенгайтиришда асосий омил сифатида қарайди.

В.И.Титовнинг (1997) тадқиқот ишида қўйидагича таъриф келтирилган “капитал қўйилмалар – бу капитал қурилиш тизимида ижтимоий ишлаб чиқаришнинг ривожланиш суръати ва характериға бевосита таъсир кўрсатадиган асосий фондларга айлантириладиган таннарх ва моддий омилларнинг мураккаб иқтисодий категорияси”. Қурилиш ташкилотлари субъект сифатида олинган ушбу таъриф капитал инвестицияларнинг ижтимоий аҳамиятини ўзида мужассам этиб, таърифда капитал инвестициялар бўйича амалга оширилган барча харажатлар асосий воситаларнинг пайдо бўлишига олиб келиши назарда тутилган.

Мамлакатимиз олимларидан К.Б.Уразов ва М.Э.Пўлатовлар (2021) томонидан қўйидагича таъриф берилган: “Капитал инвестициялар – бу янги объектларни қуришга, эски объектларни кенгайтириш, реконструкция ва модернизация қилишга, шунингдек янги асосий воситаларни сотиб олишга сарфланган маблағлар мажмуаси”. Мазкур таъриф “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонунда келтирилган капитал инвестицияларга берилган таърифга ўхшашдир.

О.И.Очилов (2021) эса, “Капитал инвестициялар – бу келгусида иқтисодий-ижтимоий наф келтирадиган, хусусий активларни миқдор ва сифат жиҳатдан оширишга қаратилган мақсадли қўйилмалар”, деб ҳисоблайди. Қисқа тарзда ёритилган ушбу таърифдан корхоналар томонидан капитал инвестицияларни жорий этишдан асосий мақсад фойда кўрсаткичларига қаратилганлигини англаб олиш мумкин.

“Капитал қўйилмалар (Capital Investment) – бу компанияга ўз бизнес мақсадларини ошириш учун киритилган маблағлар. Шунингдек, жисмоний ёки юридик шахслар даромад олиши ёки инвестиция қилинган капитални компания томонидан йиллар давомида олинган даромаддан тиклаши мумкин”²⁷.

²⁶ <https://www.investopedia.com/terms/c/capital-investment.asp>

²⁷ <https://cleartax.in/glossary/capital-investment>

“Капитал қўйилмалар – бир йил ёки ундан кўпроқ давом этадиган инвестициялар ҳисобланиб, компаниянинг даромадлилигини ва унинг акциядорлари учун қиймат барпо этишда асосий рол ўйнайди”²⁸.

“Капитал қўйилмалар – бу бизнес мақсадларига эришиш ёки бизнес учун узоқ муддатли активларни сотиб олиш учун ишлатиладиган пул миқдори”²⁹.

“Капитал қўйилмалар – ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқаришга тегишли асосий фондларни яратишга, уларни янгилашга ва ҳаракатдаги фондларни қўпайтиришга, объектларни қуришга сарф қилинадиган, ишлаб чиқаришга қўйилган маблағ”³⁰.

Юқорида тадқиқ этилган капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги тавсифий асослари муҳим аҳамият касб этиб, тадқиқот ишимизда илмий хулосалар ва таклифлар ишлаб чиқишга кўмаклашади, деб ҳисоблаймиз.

3. Тадқиқот методологияси.

Рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатидаги таснифий асослари, хусусан рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида корхоналарда капитал инвестициялар ҳисобини ташкил этиш ва юритиш бўйича олиб борилган тадқиқотда илмий абстракциялаш, иқтисодий таҳлил, монографик кузатув, қиёслаш, индукция ва дедукция каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

4. Таҳлил ва натижалар.

Юқорида тадқиқ этилган капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги тавсифи рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестициялар ҳисобининг таснифини ишлаб чиқишни тақозо этди.

Инвестициялар ҳисоби ва таҳлилига оид илмий тадқиқотлар олиб борган мамлакатимизнинг иқтисодчи олимларидан О.И.Очилов (2021) капитал инвестицияларни икки гуруҳга, яъни молиявий ва солиқ ҳисобининг объектлари бўйича ёндашган ҳолда таснифлаган.

Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, илмий ва ўқув адабиётлар ҳамда бухгалтерия ҳисобига доир меъёрий ҳужжатларда айнан, рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатидаги таснифига бағишланган ишлар етарлича келтирилмаган бўлиб, фақатгина 21-сон БҲМС (2002) “Хўжалик юритувчи субъектлар молиявий хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби счётлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”да капитал инвестицияларни ҳисобга олувчи 0800-счётлар режаси мавжуд бўлиб, капитал инвестицияларнинг таркиби унинг таркибидаги синтетик счётларда келтирилган. Бироқ, бевосита замонавийлаштириш, инновацион янгилаш, рақамлаштириш мақсадида амалга оширилаётган модернизациялаш, реконструкция қилиш, кенгайтириш, корхонада фойдаланилаётган асосий воситаларни янгиларига алмаштириш, улар қувватини ошириш мақсадида амалга оширилаётган капитал таъмирлаш ишлари капитал инвестицияларнинг таркибий элементлари таркибига киритилмаган бўлиб, улар алоҳида жараёнлар сифатида ҳисобга олинган.

12-сон “Молиявий инвестицияларларни ҳисобга олиш” бухгалтерия ҳисоби миллий стандартида молиявий инвестициялар узоқ ва қисқа муддатли инвестицияларга таснифланган ҳолда кўрсатилган. Бироқ, инвестицияларнинг алоҳида бир тури сифатида ҳисобга олинадиган капитал инвестицияларнинг таснифига оид масалалар ушбу БҲМСда келтирилмаган.

²⁸ <https://www.cfainstitute.org/en/membership/professional-development/refresher-readings/capital-investments>

²⁹ <https://debitoor.com/dictionary/capital-investment>

³⁰ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kapital-qoyilmalar-uz/>

Рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида ҳўжалик юритувчи субъектларга капитал инвестицияларни жорий этиш бўйича бухгалтерия ҳисоби объектларининг таснифий асослари тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботда мамлакатимизнинг рақамли ва яшил иқтисодиётни барча тармоқларини рақамлаштириш, қайта модернизациялаш сиёсатида мос келадиган амалий ишларни етарли даражада акс эттириш, корхоналарда капитал инвестициялар тўғрисидаги ахборотларни ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларга, авваламбор, корхоналарга инвестиция киритиш мойиллиги бўлган жисмоний ва юридик шахсларга ахборот етказиб беришга ўзининг салбий таъсирини ўтказиб келмоқда. Қолаверса, капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий мезонларининг илмий асосланмаганлиги ва оптимал тарзда ишлаб чиқилмаганлиги ҳўжалик юритувчи субъектларнинг бухгалтерия ҳисобида капитал инвестицияларга оид реал ва шаффоф ахборотларни олиш имкониятларини маълум даражада пасайишига сабаб бўлмоқда. Бугунги кунда, бухгалтерия ҳисоби ва ҳисобот тизимида рўй бераётган капитал инвестицияларга оид мавжуд ахборот чекловлари, бухгалтерия ҳисоби хизмати раҳбари ва ходимларининг ички ва ташқи инвесторларга бухгалтерия ҳисоби субъектларининг инвестицион жозибадорлигини намойиш этишда етарлича шарт-шароит кўрсатиб бермаяпти, деб ҳисоблаймиз. Шу боис, келтирилган тадқиқот натижаларнинг барчаси бухгалтерия ҳисоби фани олдида рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида корхоналарга капитал инвестицияларни жорий этишга оид ҳисоб объектларини аниқлаш, уларнинг бухгалтерия ҳисобини юритиш учун муҳим аҳамият касб этувчи турли хил таснифий мезонлари бўйича таснифини ишлаб чиқиш каби муҳим вазифаларни бажаришни долзарб қилиб қўймоқда.

Юқорида келтирилган долзарб вазифалардан келиб чиқиб, мазкур тадқиқот ишимизда рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестицияларни ҳисоб объектларини уч гуруҳга таснифланган ҳолда тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ, деб топилди. Ушбу объектлар қуйидагилардан ташкил топади:

1. Капитал инвестициялар жараёнларига доир объектлар.
2. Капитал инвестицияларнинг молиялаштириш манбаларига доир объектлар.
3. Капитал инвестицияларнинг натижаларига доир объектлар.

Капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий асосларини ишлаб чиқишда капитал инвестицияларнинг ушбу объектлари ҳисобга олинишини лозим, деб топдик.

Юқоридаги тадқиқот натижаларини инобатга олган ҳолда бугунги кунда бухгалтерия ҳисоби олдида турган мавжуд муаммоларни бартараф этиш ҳамда рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида бухгалтерия ҳисобини назарий жиҳатдан янада такомиллаштириш мақсадида капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатидаги таснифини қуйидаги шаклда ишлаб чиқишни мақсадга мувофиқ, деб топдик ва уларни жадвал кўринишида ифодаладик (1-жадвал):

Тадқиқотлар давомида биз томонимиздан ишлаб чиқилган ушбу капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифи ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, бухгалтерия ҳисобини ҳам назарий ва ҳам илмий жиҳатдан тўлдиради, деб ҳисоблаймиз.

1-жадвал

**Рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестицияларнинг
бухгалтерия ҳисоби объектидаги таснифи³¹**

№	Таснифлаш мезони (белгиси)	Таснифлаш мезони (белгиси)га кўра гуруҳлари
I. Капитал инвестициялар жараёнларига доир объектлар		
1.1	Капитал инвестициялар жараёнлари кўламини ифодаловчи объектлар	Таъминот жараёнига капитал инвестициялар
		Ишлаб чиқариш жараёнига капитал инвестициялар
		Сотиш жараёнига капитал инвестициялар
		Бошқарув жараёнига капитал инвестициялар
		Бошқа жараёнига капитал инвестициялар
1.2	Капитал инвестициялар жараёнлари йўналишларини ифодаловчи объектлар	Яхлит бизнесни сотиб олиш
		Янги асосий воситаларни харид қилиш
		Янги номоддий активларни ишлаб чиқиш ва харид қилиш
		Янги объектларни қуриш
		Мавжуд объектларни реконструкция қилиш
		Мавжуд объектларни кенгайтириш
		Мавжуд ишлаб чиқариш қувватларини замонавий техника ва технологиялар асосида янгилаш
		Мавжуд объектларни ободонлаштириш
		Мавжуд объектлар ва қувватларни капитал таъмирлаш
II. Капитал инвестициялар молиялаштириш манбаларига доир объектлар		
2.1	Келиб тушиш манбаларига кўра	Ташқи капитал инвестициялар
		Ички капитал инвестициялар
2.2	Молиялаштириш субъектларига кўра	Чет эл инвесторлари
		Давлат бюджети
		Бюджетдан ташқари маблағлар
		Банклар
		Ўз маблағлари
		Бошқа юридик ва жисмоний шахслар
2.3	Валюта турига кўра	Хорижий валютадаги капитал инвестициялар
		Миллий валютадаги капитал инвестициялар
2.4	Муддатига кўра	Узоқ муддатли капитал инвестициялар
		Қисқа муддатли капитал инвестициялар
2.5	Қайтариш шартига кўра	Қайтариладиган капитал инвестициялар
		Қайтарилмайдиган капитал инвестициялар
2.6	Фоиз тўловига кўра	Фоизли капитал инвестициялар
		Фоизсиз капитал инвестициялар
2.7	Киритилиш объектига кўра	Рақамли ишлаб чиқариш объектларига капитал инвестициялар
		Яшил майдон объектларига капитал инвестициялар
		Бошқа асосий воситаларга капитал инвестициялар
		Номоддий активларга капитал инвестициялар
		Биологик активларга капитал инвестициялар
		Инвестициявий мулкка капитал инвестициялар
		Бошқа капитал инвестициялар
2.8	Киритилиш мақсадига кўра	Янги қурилишга капитал инвестициялар
		Мавжудларини реконструкция ва модернизация қилишга капитал инвестициялар
2.9	Амалга оширилиш усулига кўра	Пудрат усули
		Хўжалик усули

³¹ Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

III. Капитал инвестициялар жараёнлари натижаларига доир объектлар		
3.1	Рақамли ишлаб чиқариш ва яшил майдон объектлари	Рақамли ишлаб чиқариш объектлари
		Яшил майдон объектлари
3.2	Бошқа асосий воситалар	Мебел ва офис жиҳозлари
		Транспорт воситалари
3.3	Номоддий активлар	Патентлар
		Лицензиялар
		Дастурий таъминотлар
		Гудвилл
3.4	Биологик активлар	Кўп йиллик боғлар
		Ишчи ҳайвонлар
		Маҳсулдор ҳайвонлар
3.5	Инвестициявий мулк	Ер
		Бино
3.6	Дебиторлик қарзлар	Узоқ муддатли дебиторлик қарзлар
		Муддати узайтирилган жорий қарзлар
		Пудратчиларга тўланган бўнақлар
3.7	Мажбуриятлар	Хорижий валютадаги кредитлар
		Миллий валютадаги кредитлар
		Хорижий валютадаги қарзлар
		Миллий валютадаги қарзлар
		Муддати узайтирилган жорий қарзлар
		Пудратчиларга жорий қарзлар
3.8	Хусусий капитал	Капитал инвестициялар учун резерв капитали қолдиғи
		Капитал инвестициялар учун олинган мақсадли тушумлар қолдиғи
		Капитал инвестициялар учун резервлар қолдиғи
3.9	Харажатлар ва зарарлар	Капитал инвестициялар учун олинган кредит ва қарзлар бўйича фоиз харажатлари
		Капитал инвестициялар учун олинган кредит ва қарзлар бўйича курс фарқларидан зарарлар

5. Хулоса.

Олиб борилган тадқиқот натижалари асосида қуйидаги илмий хулоса ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди:

Биринчидан, капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатида биз томонимиздан тавсия этилган тарзда ушбу шаклда таснифлаш ҳўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион фаолиятини таҳлил қилишга, уларнинг иқтисодий кўрсаткичларини баҳолаш самарадорлигини оширишга, шунингдек молиявий ва бошқарув ҳисобот шаклларида ахборотларни тизимли равишда киритиш орқали ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларнинг капитал инвестицияларга оид ахборотларга бўлган эҳтиёжларини тўлиқроқ қондиришга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Иккинчидан, капитал инвестициялар жараёнлари кўламини ифодаловчи объектлар биргаликда корхоналар яхлит молиявий-ҳўжалик фаолияти мазмунини ташкил этади. Ушбу жараёнларнинг ҳар бири олдиға аниқ мақсад ва вазифалар қўйилади, уларни муваффиқиятли бажарилиши корхоналарни барқарор ва жадал ривожланишиға олиб келади. Шу боис ҳам, корхоналарға капитал инвестицияларға доир ҳисоб объектларини юқоридаги жараёнларнинг ҳар бири бўйича таснифлаш бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботида уларға оид ахборотларни аниқ шакллантириш, уларни тегишли ахборот фойдаланувчиларға етказиб бериш ҳамда тезкор бошқарув қарорларини қабул қилишға имкон беради.

Учинчидан, корхоналарга капитал инвестицияларни киритиш учун уларга келиб тушаётган молиялаштириш манбаларини бошқа белгилари, жумладан валюта тури, муддати, қайтариш шarti, фоиз тўлови, олинган активларнинг турларига кўра таснифлаш ахборот фойдаланувчилар учун ўта муҳимдир. Ушбу таснифий белгиларига қараб капитал инвестициялар манбалари тўғрисида ахборотларни ҳисоб ва ҳисоботда атрофлича очиб берилиши бу жараёнларни режалаштириш, бюджетлаштириш, баҳолаш, назорат ва таҳлил қилиш, ички ва ташқи аудиторлик текширувларидан ўтказиш, пировардида уларга оид тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш имконини беради. Хусусан, корхоналарга капитал инвестициялар киритиш учун олинган маблағларни валюта турига кўра таснифланиши мазкур жараёнлар учун қанча миқдорда хорижий ва миллий валютадаги маблағлар жалб этилганлигини, уларни қандай мақсадларда ишлатилганлиги, инвесторлар олдидаги тўлов мажбуриятларини узиш зарур бўлган хорижий валютадаги маблағларни тегишли счётларда, ўз вақтида акс эттирилганлиги, миллий валютани хорижий валютага конвертация қилинганлиги каби муҳим чора-тадбирларни қабул қилишда, қолаверса, тегишли ҳисоб-китобларни амалга оширишга асос бўлади.

Тўртинчидан, корхоналарда капитал инвестицияларни молиялаштириш учун жалб этиладиган маблағлар муддатига кўра узоқ, яъни бир йилдан кўп ҳамда қисқа, яъни бир йилдан кам муддатли турларга бўлинади. Уларни бундай турларга ажратилиши корхоналарда яқин ва узоқ келажак учун инвесторлардан капитал инвестициялар учун жалб этилган маблағларни қайтариш графикларини тузиш, мазкур графикларни бажарилиши учун маблағлар жамланишини олдиндан бюджетлаштириш ҳамда назорат қилишга имкон беради.

Бешинчидан, капитал инвестициялар жараёнлари натижаларига доир объектлар бўлиб корхона балансига кирим қилинган Рақамли ишлаб чиқариш ва яшил майдон объектлари, бошқа асосий воситалар, номоддий активлар, биологик активлар, инвестициявий мулк, шунингдек ушбу активларнинг кенгайтириш, реконструкция, алмаштириш ишларига қилинган капитал инвестициялар эвазига ошган қиймати ҳисобланади. Бундан ташқари капитал инвестициялар жараёнлари натижаларига доир объектлар бўлиб корхона балансида пудратчилар, таъминотчилар, инвесторлар бўйича дебиторлик ва кредиторлик қарзлар, шунингдек фоиз тўловлари ва курс фарқлари бўйича муддати кечиктирилган харажатлар ва даромадлар, ишлатилмасдан қолинган резерв капитали, мақсадли тушумлар ва резервлар қолдиқлари ҳам акс эттирилиши лозим.

Бизнинг фикримизча, капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатида биз томонимиздан ишлаб чиқилган ушбу таснифий мезонлари бухгалтерия ҳисоби фанини назарий жиҳатдан тўлдиришга, илмий-ўқув адабиётларидаги бўшлиқларни тўлдиришга, капитал инвестициялар бўйича ахборотларни тизимли таҳлил қилишга, шунингдек корхоналарда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини тўғри юритишга, ахборот фойдаланувчиларнинг капитал инвестицияларга оид эҳтиёжларини тўлиқроқ қондиришга имконият беради, деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

Мирзиёев Ш. (2020) *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи //Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 24 сентябрь. № 202 (7704). 1-бет.* <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>

Қарор (2022) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтишга қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2022 йил 02 декабрь. ПҚ-436.*

Федерал Қонун (1999) Россия Федерациясининг “Россия Федерациясида капитал қўйилмалар шаклида амалга ошириладиган инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Федерал Қонуни. 1999 йил 25 февраль. № 39-ФЗ.

Қонун (2019) Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 25 декабрь. 598-сон.

Галяпина Л.В. (2006) Организация бухгалтерского учета капитальных вложений: модели и методические решения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Краснодар: 19-с.

Титов В.И. (1997) Фактор времени в оценке экономической эффективности капитальных вложений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Орёл: 19-с.

Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. (2021) Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 560 бет. 145-бет.

Очилов О.И. (2021) Хўжалик юритувчи субъектларда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Т.: 228 б. 33-бет.

Очилов О.И. (2021) Хўжалик юритувчи субъектларда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Т.: 228 б. 46-бет.

21-сон БҲМС (2002) “Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида” // АВ томонидан 23.10.2002 й. 1181-сон билан рўйхатга олинган.



ХУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Хайдаров Х.Л.

ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Ушбу мақолада ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамияти кенг таҳлил қилинади. Илмий адабиётлар шарҳи орқали инвестиция сиёсатининг назарий асослари, турли мамлакатлар тажрибаси ҳамда шароитлар ўрганилади. Тадқиқот методологиясида эса миқдорий ва сифат таҳлиллари, таққослаш услублари, жадваллар асосида олинган маълумотлар келтирилади. Таҳлил ва натижалар қисмида иккита жадвал тақдим этилиб, инвестициялар ва ҳудудий ривожланиш кўрсаткичлари ўртасидаги муносабатлар ифодаланади. Сўнгра аниқ хулоса ва таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: инвестиция, минтақавий ривожланиш, ташкилий-иқтисодий механизм, махсус иқтисодий зона, технологик модернизация, кадрлар малакаси, инфратузилма, хорижий инвестиция, шаффофлик, рақобатдошлик.

Аннотация. В статье подробно анализируется значение инвестиций в развитие регионов. Путем обзора научной литературы изучаются теоретические основы инвестиционной политики, опыт и условия разных стран. В методологии исследования приведены данные, полученные на основе количественного и качественного анализа, методов сравнения и таблиц. В разделе «Анализ и результаты» представлены две таблицы, показывающие взаимосвязь между инвестициями и показателями регионального развития. Затем выдвигаются конкретные выводы и предложения.

Ключевые слова: инвестиции, региональное развитие, организационно-экономический механизм, особая экономическая зона, технологическая модернизация, квалификация кадров, инфраструктура, иностранные инвестиции, прозрачность, конкурентоспособность.

Abstract. In this article, the importance of investments in the development of regions is extensively analyzed. Through the review of scientific literature, the theoretical foundations of investment policy, experience and conditions of different countries are studied. In the research methodology, data obtained on the basis of quantitative and qualitative analysis, comparison methods, and tables are given. In the analysis and results section, two tables are presented, which show the relationship between investments and regional development indicators. Then specific conclusions and suggestions are put forward.

Keywords: investment, regional development, organizational-economic mechanism, special economic zone, technological modernization, personnel qualification, infrastructure, foreign investment, transparency, competitiveness.

1. Кириш.

Худудларни ривожлантириш масаласи ҳар доим жамият ва давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида қаралган. Чунки мамлакат ичидаги ҳар бир вилоят, туман ёки шаҳар иқтисодиётини барқарор ҳамда мувозанатли равишда ошириш, аҳоли фаровонлигини таъминлаш ва ҳаёт даражасини юксалтириш мақсадида тизимли чора-тадбирлар қабул қилиш долзарб аҳамият касб этади. Шу соҳада эришилган ютуқлар бутун мамлакат миқёсида иқтисодий ўсиш ва барқарорликка пойдевор яратади. Худудни ривожлантиришда энг муҳим омиллардан бири – инвестиция жалб қилишдир. Чунки инвестициялар ҳар қандай ҳудуд иқтисодиётига янги инвестиция, технология, ғоя ва илмий-тадқиқот ишланмалари олиб киради (Bell, 2015).

Инвестициялар деганда турли манбалардан (маҳаллий ёки хорижий) ҳудуд иқтисодиётига йўналтириладиган молиявий, моддий ёки интеллектуал ресурслар тушунилади. Уларнинг асосий мақсади ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, янги корхоналар ташкил этиш, инфратузилмани яхшилаш ва умумий иқтисодий тараққиётни рағбатлантиришдан иборат. Шу жумладан, хорижий инвестицияларнинг ҳам роли анча салмоқлидир. Худудга чет эл инвесторлари кириб келганида улар билан бирга илғор технологиялар, юқори малакали мутахассислар ҳамда замонавий бошқарув усуллари тақдим этилиши, маҳаллий бозорни янги маҳсулотлар билан бойитиш имконини беради (UNCTAD, 2019).

Шу билан бирга, инвестицияларнинг аҳамияти нафақат иқтисодий, балки ижтимоий тусга ҳам эга. Янги корхоналар очилиши ёки мавжудларининг модернизация қилиниши меҳнат билан бандлик даражасини оширади. Шу тариқа аҳоли ўртасида ишсизлик камаяди, даромадлар ошади ва бу жараён худди “кўпайтиргич таъсири” (multiplier effect) туфайли бошқа тармоқларга ҳам ижобий таъсир кўрсатади (Keynes, 1936). Маҳаллий ҳудудда иқтисодий фаровонлик таъминланиши билан унинг солиқ базаси кенгаяди, маҳаллий бюджетларга тушумлар ошиб, инфратузилмани янада яхшилаш учун ресурслар кўпаяди.

Худудни ривожлантиришда маҳаллий ва хорижий инвестициялар ўртасида мувофиқлашувни таъминлаш ҳам муҳим. Чунки маҳаллий инвесторлар ҳудуд шароитларини яхшироқ билишади, бозорда устунликка эга бўлишлари мумкин. Хорижий инвесторлар эса технологик ютуқлар, бошқарув тажрибаси ва экспорт бозорлари билан боғлиқ имкониятлар олиб келади (Dunning, 1993). Шу боис, ҳар иккала кўринишдаги инвестицияларни ҳудуд иқтисодиётида уйғунлаштириш орқали ҳақиқий ривожланишга эришиш мумкин.

Ҳозирда глобаллашув жараёнлари, иқтисодий муносабатларнинг чуқурлашиши, рақамли технологияларнинг тараққиёт топиши каби омиллар туфайли, ҳар бир мамлакат, ҳатто ҳар бир минтақа иқтисодиёти учун инвестиция жалб қилиш катта аҳамият касб этмоқда (OECD, 2020). Шу боис, мавзу бўйича мамлакатлар ўртасида турли рақобат ҳам мавжуд: инвесторларни кўпроқ жалб этиш, инвестиция учун шароитларни яхшилаш, маъмурий тартиб-таомиллар ҳамда солиқ имтиёзларига оид ислохотлар – булар барчаси иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш йўлидаги саъй-ҳаракатлардандир.

2. Адабиётлар шарҳи.

Инвестиция ва ҳудудлар ривожланиши муносабати кўплаб иқтисодчилар томонидан кенг ўрганилган бўлиб, бу соҳа иқтисодиёт назариясида ҳамда амалий тадқиқотларда катта ўрин тутаяди. Аввало, инвестиция тушунчасига назар ташлайдиган бўлсак, иқтисод фанининг классик намояндаларидан бири бўлган Адам Смит (1776) инвестиция жалб қилиш орқали ишлаб чиқариш воситаларини яхшилаш ва меҳнат унумдорлигини ошириш мумкинлигини таъкидлаган. Кейинчалик Жон Мейнард Кейнс

(1936) инвестициялар иқтисодиётда туртки вазифасини бажариб, ялпи талабни рағбатлантириши, шу орқали иш билан бандликни оширишини кўрсатиб берган.

Замонавий иқтисодда эса инвестиция тушунчаси нафақат молиявий маблағлар, балки технология, инновация, илмий-тадқиқот ишланмалари (R&D) ва кадрлар тайёрлаш каби омилларни ҳам қамраб олади (Solow, 1956). Масалан, Р.Солоу (1956) иқтисодий ўсиш моделида капитал жамғарилиши узоқ муддатли тараққиёт учун жуда муҳим ҳисобланишини ёритган. Шу билан бирга, демографик омиллар ва технология тараққиёти ҳам ривожланишга таъсир кўрсатиши қайд этилади. Мазкур назариядан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ҳудуд ривожига капитал жамғариш асоси – инвестиция жараёнларидан иборатдир.

Хорижий инвестициялар масаласига келадиган бўлсак, Дж.Даннинг (1993) FDI (Foreign Direct Investment) назариясида хорижий инвесторлар фақат иқтисодий манфаат излабгина қолмасдан, балки рақамли технологиялар, ноу-хау, илмий ишланмаларни ҳам олиб киради. Лекин бу жараёнда мамлакат ёки ҳудуд бизнес муҳити, сиёсий барқарорлик, ҳуқуқий кафолатлар ва бозор имкониятларини таъминлаши шарт. Акс ҳолда, хорижий инвесторлар бошқа қулайроқ минтақаларни танлашади. Ушбу назарияда маълум бир ҳудуд FDI жалб қилиш учун устунликларга эга бўлиши кераклиги – бу “O-L-I” (Ownership, Location, Internalization) парадигмаси билан тушунтирилади.

Шу билан бирга, Ҳ.Чеснов (2008) ҳудудий тараққиётни таъминлашда молиявий бозорлар, маҳаллий сиёсат ва давлат ислохотлари муҳим ўрин тутишини илгари сурган. Унинг таъкидлашича, агар маҳаллий органлар солиқ имтиёзлари, қулай маъмурий шарт-шароит, ер участкалари, логистика ва инфратузилма масалаларида мос механизмларни ярата олсалар, инвестиция кириб келиш тезроқ кун тартибига чиқади. Бу ҳолатда инвесторларда ишонч ортади, улар лойиҳаларни амалга ошириш давомида ортиқча ташкилий муаммолар билан шуғулланмай, асосий фаолиятларига эътибор қаратади.

Тадқиқотлар (Маршалл, 2012; Porter, 1998) шуни кўрсатадики, ҳудудларда махсус иқтисодий зоналар, кластерлар ва инновацион парклар ташкил қилиш ҳам инвестиция муҳитини яхшилайдди. Масалан, М.Портер (1998) кластер концепцияси орқали бир тармоқ атрофида бирлашган корхоналар, таълим муассасалари, илмий марказлар, банклар ва бошқа инфратузилма субъектларининг ўзаро ҳамкорлиги ҳудуд рақобатбардошлигини оширишини кўрсатади. Бунда хорижий инвесторлар ҳам ўзларининг инвестор сифатидаги имкониятларини кластер қуршовида ривожлантириб, маҳаллий бозордан ташқари халқаро бозорлар учун ҳам рақобатчил маҳсулот ёки хизматлар ишлаб чиқариши мумкин.

Ҳудудни ривожлантиришда хорижий инвестициялар билан бир қаторда маҳаллий инвестициялар ҳам ўта муҳимдир (Krugman, 1991). Чунки маҳаллий ишлаб чиқарувчилар ва инвесторлар ҳудудда қулай муҳит яратилиши билан ўз фаолият доираларини кенгайтириши, янги лойиҳаларни амалга оширишга тайёр бўлади. Шу маънода, маҳаллий инвесторлар кўпроқ узоқ муддатли мақсадлар асосида иш тутишади, чунки улар бу ҳудудда узоқ вақт давомида қолиб фаолият юритиши аниқ. Бироқ маҳаллий инвесторлар учун ҳам қулай кредитлар, имтиёзли солиқлар, соддалаштирилган тартиб-таомиллар муҳим саналади.

Инвестиция сиёсатини илғор бошқарув воситаси сифатида қараш бугунги кунда жуда тез оммалашган (World Bank, 2020). Аксар мамлакатлар “пассив кузатувчи” ролидан “фаол жалб қилувчи” ролига ўтишган. Шу туфайли, махсус инвестиция қонунлари, экспортга йўналтирилган ислохотлар ва чет эл инвесторлари учун Ҳимоя механизмлари яратилади. Бундай ислохотлар ҳудудни ривожлантириш масаласида ҳам муҳим рағбат вазифасини бажаради.

Юқоридаги назарий адабиётлар шарҳидан келиб чиқадиган бўлсак, *ҳудудларда инвестиция муҳитини шакллантириш, хорижий ва маҳаллий инвестицияларни*

мувофиқлаштириш, инфратузилмани яхшилаш ва хорижий тажрибани муваффақиятли татбиқ этиш – булар барчаси ҳудудий ривожланишни жадаллаштирадиган энг муҳим омиллардандир. Шу боис, ушбу мақолада айнан шуларни чуқурроқ ёритиш ва илмий асослаш мақсад қилинган.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқотда ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамиятини чуқур таҳлил қилиш мақсадида бир неча илмий методлар уйғунлашган ҳолда қўлланилди. Мақсад – турли манбалардан миқдорий ва сифатий маълумотларни йиғиш, уларни кўп қиррали тарзда таҳлил қилиш орқали илмий асосланган хулосалар чиқаришдир.

4. Таҳлил ва натижалар.

Тадқиқот жараёнида ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамиятини чуқур таҳлил қилиш мақсадида бир қатор муҳим кўрсаткичлар ўрганилди. Аввало, маҳаллий ва хорижий инвестициялар оқими билан иқтисодий ўсиш суръатлари ўртасида узвий боғлиқлик мавжудлиги аниқланди. Инвестициялар кириб келиши билан ишлаб чиқариш масштаблари кенгайиши, янги корхоналар очилиши, мавжуд корхоналар модернизация қилиниши ва умумий иқтисодий эҳтиёж ошиши кузатилиши иқтисодий назарияда илгари сурилган кўпайтиргич таъсири билан ҳам изоҳланади. Чунончи, инвестиция ҳисобига ишга тушган ҳар қандай янги лойиҳа маҳаллий бозорда янги маҳсулотлар ёки хизматлар ҳажмини кўпайтириш, шу билан бирга қўшимча иш ўринлари яратиш имкониятини беради. Бу жараён, ўз навбатида, аҳоли даромадларини оширади ва бозор талабининг кенгайиши ортидан иккинчи, учинчи даражали тармоқлар фаоллашади. Айнан шу омил ҳудудда иқтисодий муҳитни жадаллаштириб, минтақавий тараққиётга салоҳият яратади.

Инвестиция жараёнида танланадиган тармоқлар ҳам муҳим омиллардан бири сифатида баҳоланди. Агар инвестиция асосан қишлоқ хўжалиги, саноат ёки хизмат кўрсатиш соҳасига жалб этилаётган бўлса, шу соҳаларда технологик илғорлашиш ва муҳандислик кўникмалари ривожланиши тезроқ кузатилади. Бироқ ҳар доим ҳам катта инвестиция кўпайиши узлуксиз ишчи кучи талабини орттириши шарт эмас. Тадқиқот натижаларига кўра, капитал-зич тармоқларда автоматлаштириш сабаб ишчи кучи талабининг нисбатан камайиши мумкин. Лекин бу ҳолатда ҳам ўсган ишлаб чиқариш натижасида қурилиш, транспорт, логистика ва чакана савдо каби айрим хизмат кўрсатиш соҳаларида ишчи кучи талаби ошиши кузатилади. Шундай қилиб, умумий иқтисодий тизимда барқарор инвестиция кириб келиши бандлик кўрсаткичларига жиддий таъсир кўрсатади. Маҳаллий идоралар томонидан тақдим этиладиган маълумотлар асосида шундай хулоса қилиниши мумкинки, чет эл инвестицияси кўпроқ жалб қилинган ҳудудлар ялпи минтақавий маҳсулот ҳажми ва иқтисодий ўсиш суръатлари бўйича олдинда боради. Чунончи, хорижий инвестиция энг кўп кириб келган минтақаларда инновация ва замонавий технологиялар билан бирга ташқи бозорларга чиқиш имкониятлари ҳам кенгайган. Бу, ўз навбатида, экспортдан тушадиган тушумларни кўпайтириб, маҳаллий бюджетда иловавий ресурслар кўпайишига замин яратган. Бошқа бир ҳолларда чет эл инвестициялари кам жалб қилинаётган ёки умуман жалб этилмаётган ҳудудлар иқтисодий ўсиш суръатлари бўйича ортда қолгани кўзга ташланади. Ушбу тафовутни тушунтириш учун мустақил иқтисодчилар бир неча назарий ёндашувларни илгари сурадилар. Жумладан, норасмий сектор ўта катта бўлган ёки сиёсий барқарорлик паст ҳудудларда хорижий инвесторлар учун ҳуқуқий хатарлар юқори бўлиши туфайли улар инвестиция киритишдан манфаатдор бўлмайдилар. Шу билан бир қаторда инфратузилма билан боғлиқ

муаммолар, молиявий бозорлар тараққиёти пастлиги ёки малакадор ишчи кучи етишмаслиги ҳам инвесторларнинг хулқ-атворида салбий таъсир кўрсатади.

Тадқиқот баробарида маҳаллий инвестициялар бўйича ҳам маълум хулосалар чиқарилди. Маҳаллий инвесторлар аксарият ҳолларда узоқ муддатли мақсадларга асосланган ҳолда иш кўрадилар, зеро улар ушбу ҳудудда доимий равишда яшаши, муҳим ресурслар билан ошно бўлиши ва жойлашув афзалликларини яхши билиши мумкин. Шу сабабли, бир нечта ҳудудлар тажрибасидан маълум бўлдики, маҳаллий инвесторлар ёки йирик маҳаллий саноат корпорациялари чет эл инвестицияси камёб бўлган ва у қадар рақобат зур бўлмаган соҳа ёки тармоқда фаолият кўрсатади. Бу ҳолатда маҳаллий инвесторлар бозорда муайян устунликлардан фойдаланади. Бироқ, агар маҳаллий таъминот тизими заиф бўлса ёки талаб етарли даражада шаклланмаган бўлса, улар ҳам лойиҳаларни кенг кўламда амалга оширишдан эҳтиёт бўладилар. Бошқа тарафдан, маҳаллий инвесторлар ҳам қулай маъмурий шароит, солиқ имтиёзлари, махсус иқтисодий зоналар ёки кластер моделлари орқали қўллаб-қувватланса, ҳал қилувчи иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлашда муҳим ўрин тутди. Чунки маҳаллий инвесторлар ташқи бозор талабларига мослашишдан кўра ички бозор эҳтиёжларини тезроқ тушунишади. Бундай ҳолатда улар товар ёки хизматлар сифати бўйича узоқ муддатли рақобат стратегияларини ҳам шакллантиради.

Инвестиция муҳити қаралганида сиёсий барқарорлик, ҳуқуқий кафолатлар ва маҳаллий бошқарув органлари салоҳияти ҳам жуда муҳим эканини кўриш мумкин. Ҳудуд даражасида имтиёзлар тақдим этиш, рухсат этиш жараёнларини соддалаштириш, чет эллик инвесторларга ер ажратиш механизмлари ва шартномавий муносабатлар тизими қай даражада аниқ йўлга қўйилган бўлса, инвесторлар учун ҳам шунчалик қулай муҳит шаклланади. Айнан шу сабабдан, жаҳон амалиётида турли минтақалар ёки шаҳарлар “инвестиция рағбати”ни кучайтириш учун махсус иқтисодий зоналар ёки эркин савдо ҳудудлари ташкил этган. Бундай зоналарда солиқ енгилликлари, божхона имтиёзлари, маъмурий тартиб-таомилларнинг камайтирилганлиги ёки чегараланган маҳаллий бюрократия муҳити мавжуд бўлади. Натижада инвестор лойиҳасини куриш ёки ишлаб чиқаришни кенгайтириш жараёнида турли бюрократик тўсиқларга дуч келмайди. Баён этилаётган ҳолатлар маҳаллий раҳбариятлар ролини кучайтириб, уларни инвесторлар билан яқин ҳамкорликда ишлашга ундайди.

Тадқиқотда инвестиция сиёсатининг ташқи бозорлар билан боғлиқ жиҳати ҳам кўриб чиқилди. Глобаллашув жараёнида ҳар бир минтақанинг экспорти ёки халқаро логистика билан узвий алоқаси муҳим стратегик омилдир. Агар ҳудудда ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар экспорт қилиш учун қулай бўлса, бу инвесторлар учун катта манфаат олиб келиши мумкин. Экспорт фаолияти ривожланиши учун эса қўшимча инфратузилма, божхона соҳасидаги енгилликлар, ташқи иқтисодий фаолият бўйича давлат дастурларининг мавжудлиги керак. Шу билан бирга, чет эллик инвесторлар учун четга маҳсулот сотишда ҳуқуқий кафолатлар ва серқуёш маҳаллий шароитлардан самарали фойдаланиш имкони ҳам долзарб аҳамият касб этади. Агар бу жараёнда маҳаллий идоралар экспорт учун махсус рағбат чораларини тақдим этиб, транспорт харажатларини қисқартиришда кўмаклашса, инвесторлар ички бозор билан чекланиб қолмай, халқаро майдонда ҳам рақобатбардош маҳсулотлар чиқариши мумкин. Бу эса ҳудуднинг экспорт кўрсаткичлари ортиши билан бир вақтда сиёсий жиҳатдан ҳам нуфузига ижобий таъсир кўрсатади.

Инвестиция жараёнида банку молия муассасалари билан алоқалар ҳам ажралмасдир. Хорижий инвесторлар бу ҳудудда валюта операциялари, суғурта хизматлари, кредит линия ёки банк кафолатлари билан шуғулланиши зарур бўлади. Агар ҳудудда банклар тармоғи етарли ривожланмаган, суғурта компаниялари кам, молиявий жамғармалар мавжуд бўлмаса, инвестиция киритиш жараёни секинлашади. Чунки ҳар қандай корхона модернизация ёки янги маҳсулот ишлаб чиқариш учун

худудий молиявий бозорда қарз маблағлари ёки шериклик муносабатлари орқали қарз олишни мақсад қилади. Хавфлар суғуртаси билан боғлиқ механизмлар тараққиёт топмаган бўлса, инвесторлар далаларни, корхоналарни ёки логистика тармоқларини хавфдан сақлаш имконияти пасаяди. Шу сабаб, маҳаллий идоралар томонидан молиявий ислохотларни кучайтириш, қайта суғурта хизматларини кенгайтириш ва халқаро банклар филиаллари билан ҳамкорликни йўлга қўйиш орқали инвестиция муҳитини яхшилаш амалда ўз самарасини беради.

Тадқиқот жараёнида аҳоли бандлиги кўрсаткичлари ҳам инвестиция миқдори билан биргаликда қамраб олинди. Таҳлиллар шуни кўрсатдики, саноат, қурилиш ёки хизмат кўрсатиш соҳаларида инвестиция кўп бўлса, шунга монанд иш ўринлари сони ҳам ортиши кузатилади. Бу жараёнда олдин маълум бир касбга эга бўлмаган ёки норасмий секторда ишлаётган инсонлар расмий секторга жалб этилиши мумкин. Натижада аҳоли ўртасида расмий иш жойлари кўпаяди, ҳақ тўлаш тизими аниқлашади ва соғлиқни сақлаш ёки пенсия жамғармаларига ажратмалар ошади. Шу тариқа, ҳудудда айланма пул кўпайиши сабаб бозор талабида ўсиш бўлиб, сервис соҳаси янада тараққий этади. Бироқ баъзи капитал зич тармоқларнинг автоматлаштирилган услублари сабаб ишчи кучи талабининг анча кам бўлиши мумкин. Лекин статистик жиҳатдан кўпайтиргич таъсири деб аталувчи ҳодиса туфайли тўғридан-тўғри бандлик қозонмаган аҳоли ҳам билвосита бошқа тармоқлар ҳисобига иш билан таъминланиши мумкинлигини кўриш мумкин. Шу боис, инвестиция жалб қилиш ҳуқуқий асослар ва стратегик режалар билан уйғунлашганда, ҳудудда реал тарзда иш билан бандлик даражасини кўтариши аниқ.

Сиёсий барқарорлик, ҳуқуқий кафолатлар ва маъмурий ислохотлар натижалари кўрсатиб турганидек, маҳаллий идоралар қандай ваколатларга эга бўлса, инвесторларга енгилликлар ва хизмат кўрсатиш сифати ҳам шунчалик юқори бўлади. Агар ҳуқуқий қарорлар бирёқлама марказий идоралар томонидан қабул қилинади-ю, маҳаллий органларда уларни турли сабаблар билан амалга ошириш имконияти чекланган бўлса, инвесторларнинг ҳуқуқий ишонч даражаси пасаяди. Шу сабаб, деярли барча илмий манбаларда айтиладики, децентрализациялашган бошқарув модели инвесторлар билан яқин муносабат ўрнатишда осонлик яратади. Яъни маҳаллий даражада имзоланадиган шартномалар, ер участкаларини ажратиш, енгилликлар бериш ёки солиқ муҳлати узайтириш каби механизмлар маҳаллий идоралар томонидан тартибга солинса, вақтида қарор қабул қилинади. Бу инвестор учун энг биринчи зарур бўлган омиллардан бири саналиб, бюрократиядан қочиш имкониятини билдириши мумкин.

Инвестиция лойиҳаларида мониторинг жараёни ва жамоат назоратини амалга ошириш усуллари билан боғлиқ хулосалар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Норасмий секторда маҳсулот ишлаб чиқарувчилар кўп бўлган ҳудудларда лойиҳаларни назорат қилиш, инвестиция сарфланиши самарадорлигини баҳолаш қийин кечади. Бунинг енгиб ўтиш учун халқ депутатлари кенгашлари, маҳаллий жамоатчилик, нодавлат ташкилотлар ёрдамида мунтазам мониторинг олиб борилиши лозим. Яъни инвестиция жалб қилиш бўйича олдиндан белгиланган шартлар аниқ бажарилаётгани, янги лойиҳалардан қайси натижалар кутилгани ва улар амалиётда нечоғли удаллангани ҳақида ҳисоботлар тақдим этилиши мумкин. Фаол жамоат назорати иқтисодий самарадорликни кучайтириш билан биргаликда, коррупция ёки суиистеъмол қилиш ҳолатларини ҳам камайтиради. Агар инвесторлар аниқ меҳнат муҳитининг очиқлигини, давлат ва жамоат назорати адолатли олиб борилишини кўришса, у ҳолда улар келгусида ҳам инвестиция кўламларини кенгайтириш ниятида бўладилар.

Хулоса қилиш мумкинки, тадқиқот чоғида ўрганилган ҳудудларда хорижий ва маҳаллий инвестицияларнинг динамикаси ҳар хил бўлса-да, умумий жараён кўп жиҳатдан энг муҳим сиёсий, иқтисодий ва ҳуқуқий асосларга боғлиқ эканлиги тасдиқланди. Инвестиция кўчайдик, иқтисодий ўсиш суръатлари зўрайиши, иш билан

бандлик ошиши, инфратузилма ривожига тезлашиши, жами аҳоли фаровонлиги юксалиши прогноз қилинади. Айнан шу омиллар сабаб узоқ муддатли перспектив ривожланиш асосларини таъминлаш учун маҳаллий даражада аҳолини, хусусий секторни ва давлат идораларини бирлаштирувчи усуллар ишлаб чиқилади. Бунда албатта потенциал инвесторлар билан тизимли ҳамкорлик, уларга хос бўлган хавф-хатарларни баҳолашда илмий ёндашув ва ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш зарур. Шу тариқа, ҳудуд иқтисодиётида капитал, технология, инновация ва таълим элементлари уйғунлашган бир муҳит шаклланиб, инвестицияларнинг секин-аста бирламчи тараққиёт кучи сифатида мавқеини мустаҳкамлаш имконияти пайдо бўлади.

5. Хулоса.

Ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамияти беқиёсдир. Зеро, ҳар қандай ҳудуд иқтисодиётини текшириб чиқадиган бўлсак, унинг ўсиши ёки пасайиши кўп жиҳатдан инвестиция киритиш суръатларига бориб тақалади. Чунки инвестициялар ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, инфратузилма соҳаси ёки тадқиқот-тажриба лойиҳалари бўладими – барчасининг тараққиётини таъминлаб беради. Шу билан бирга, хорижий инвестиция олиб келадиган технологиялар, бошқарув тажрибаси, янги бозорлар билан интеграциялашув имконияти ҳамма вақт маҳаллий иқтисодиёт учун муҳим туртки вазифасини бажаради. Ҳатто ёндош соҳалар – таълим, фан, инновацияларни ҳам ривожлантиришда инвестицияларнинг тавсиявий таъсири катта.

Шу боис, ҳудудий сиёсат даражасида бирламчи вазифа сифатида **инвестиция муҳитини яхшилаш, ҳуқуқий база ва маъмурий тартиб-қоидаларни соддалаштириш, инфратузилма қурилишини тезлаштириш, молиявий бозор муносабатларини ривожлантириш ва кадрлар малакасини ошириш** каби амалий чоралар туртки бўлишини таъкидлаш лозим. Чунки айнан шу икки жиҳат (чегирма ва қулайликлар) ҳар қандай инвестор ўйлайдиган энг асосий масалалардан биридир. Инвестиция киритиш суръатлари ортиши билан эса ҳудудда бандлик ошади, аҳоли фаровонлиги юксалиб, солиқ тушумлари кенгайди ва бошқа ижтимоий масалаларни ҳал этиш учун кенг имконият пайдо бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳудудларни ривожлантиришда инвестицияларнинг аҳамияти муҳим ўрин тутди ва бу жараёнда иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, технологик ва маданий омиллар бир бутун тизим сифатида ишлаши лозим. Айнан шундагина ҳудудда барқарор иқтисодий ўсиш, турмуш даражаси юксалиши, инновация ва технологик тараққиёт таъминланади.

Адабиётлар:

- Bell, L. (2015) *Regional Investment and Economic Development*. London: Sage Publications.
- Chesnov, H. (2008) 'Policy Tools for FDI Attraction in Transitional Economies', *Journal of Economic Policy*, 12(2), pp. 56–69.
- Dunning, J.H. (1993) *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Wokingham: Addison-Wesley.
- Harrod, R.F. & Domar, E. (1946) 'An Essay on Dynamic Theory', *Economic Journal*, 56(1), pp. 14–33.
- Keynes, J.M. (1936) *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.
- Krugman, P. (1991) *Geography and Trade*. Cambridge, MA: MIT Press.
- Levine, R. (1997) 'Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda', *Journal of Economic Literature*, 35(2), pp. 688–726.
- Lucas, R.E. (1988) 'On the Mechanics of Economic Development', *Journal of Monetary Economics*, 22(1), pp. 3–42.

- Marshall, A. (2012) *Principles of Economics*. Reprint. London: Palgrave Macmillan (Original work published 1890).
- OECD (2020) *OECD Investment Policy Reviews: Strategic Trends in FDI*. Paris: OECD Publishing.
- Porter, M.E. (1998) *On Competition*. Boston: Harvard Business School Press.
- Smith, A. (1776) *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: Strahan and Cadell.
- Solow, R.M. (1956) 'A Contribution to the Theory of Economic Growth', *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), pp. 65–94.
- UNCTAD (2019) *World Investment Report: Special Economic Zones*. Geneva: United Nations.
- Wei, S. (2000) 'Natural Openness and Good Governance', *NBER Working Paper*, No. 7765.
- World Bank (2020) *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank.



БОШҚАРУВ ҲИСОБИДА ХАРАЖАТЛАРНИ ҲИСОБГА ОЛИШ ВА МАҲСУЛОТ ТАННАРХИНИ КАЛКУЛЯЦИЯ ҚИЛИШ

Шарипова Ш.А.

Тошкент давлат иқтисодийёт университети

Аннотация. Мақолада маҳсулот таннархини калкуляция қилишда харажатларни ҳисобга олиш, маҳсулот таннархини калкуляция қилишда хорижий тажрибани қўлаш, харажатларнинг бошқарув ҳисобида маҳсулот таннархини калкуляция қилиш, бошқарув ҳисоби мақсадлари учун харажатларни гуруҳлашда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини қўлаш, харажатларни ҳисобга олишнинг замонавий усулларида фойдаланиш йўналишлари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари, калкуляция, таннарх калкуляцияси, харажатларнинг бошқарув ҳисоби, маҳсулотнинг ишлаб чиқариш таннархи.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы учета затрат при калькуляции себестоимости продукции, применение зарубежного опыта калькуляции себестоимости продукции, калькуляция себестоимости продукции в управленческом учете, группировка затрат для целей управленческого учета.

Ключевые слова: Международные стандарты бухгалтерского учета, калькуляция, калькуляция себестоимости, управленческий учет затрат, производственная себестоимость выпускаемой продукции.

Abstract. The article discusses the issues of cost accounting when calculating product costs, the use of foreign experience in calculating product costs, calculating product costs in management accounting, grouping costs for management accounting purposes.

Key words: International accounting standards, costing, costing, management cost accounting, production cost of products.

1. Кириш.

Бухгалтерия ҳисобида харажатларни бошқариш бозор муносабатлари шароитида ҳўжалик юритувчи субъектларнинг ҳўжалик фаолияти учун харажатларни бошқаришнинг тезкор ва оптимал тизимини яратишни, бу борада эса янги замонавий ёндошувларни излашни талаб қилиши билан боғлиқ. Ҳўжалик юритувчи субъект доирасида бошқарув самарадорлигини ошириш учун энг аввало харажатлар ҳисобини бугунги кун талаблари доирасида ташкил қилиш, уларни доимо оптималлаштириб бориш, тежаб-тергаш, бунинг учун таҳлил ҳамда назорат қилиш усуллариини такомиллаштириш муаммоларини ҳал қилиш долзарб масалалардандир. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 24-февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий

ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил 24-августдаги 507-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва унга тушунтиришлар матнини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарорига (2020) мувофиқ Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МХХС)нинг татбиқ этилиши ҳисобнинг ягона усуллари қўллаш орқали компанияларни ички бошқарув тизимини такомиллаштириш, манфаатдор томонларга хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий ҳолати тўғрисида маълумот бериш ва компаниянинг рақобатбардошлигини ошириш имконини беради”.

Бу мақсадга эришиш учун: “...иқтисодийнинг энергия ва ресурс сиғимини камайтириш, ишлаб чиқаришга энергия тежовчи технологияларни кенг жорий этиш, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни кенгайтириш, меҳнат унумдорлигини ошириш. иқтисодий тармоқларида ...” (Костаев, 2020) ишлаб чиқариш хўжалик юритувчи субъект БҲМСида харажатларни камайтириш учун асосдир.

Харажатларни бошқаришнинг мақсадлари тадбиркорлик фаолияти натижаларини объектив баҳолаш, молиявий натижани оптималлаштириш, баҳони самарали аниқлаш, харажатларни бошқариш соҳасида асосланган қисқа ҳамда узоқ муддатли қарорлар қабул қилишга хизмат қилиши керак бўлади. Хўжалик юритувчи субъектнинг самарали фаолият олиб бориши жуда кўп жиҳатдан харажатларни ҳисобга олиш, харажатларни ҳисобга олишда эса маҳсулот (иш, хизмат) турлари бўйича таннархни тўғри шакллантириш, пировардида кўпроқ ҳамда тезкор тарздаги аниқ-ишончли маълумотларга эга бўлиш бошқарув қарорларини қабул қилиш ва бозор шароитида харажатларни бошқариш стратегиясини тўғри ишлаб чиқишни таъминлашга хизмат қилади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Мавзу доирасида олиб борилган тадқиқотлар натижаси кўрсатадики, харажатлар моҳияти, унинг ҳисоби масалалари ҳамда калкуляция йўналишлари жаҳоннинг нуфузли олимлари саналадиган Д.Нортц, О.Уиллимсон асарларида батафсил кўриб чиқилган. Шунингдек, стратегик менежментда харажатларни бошқариш ва рақобатбардошликни ошириш масалалари К.Уорд, М.Портер, А.Томпсон, А.Стрикленд, Ж.Шанк томонидан ўрганилган. Хусусан, Р.Мюллендорфф, С.Ричард, М.Карренбауерларнинг ишлари харажатлар миқдорини камайтириш ва назорат қилишга бағишланган. Харажатларнинг бошқарув ҳисоби масалалари эса К.Друри томонидан атрофлича кўриб чиқилган. Харажатларни ҳисобга олиш ва харажатларни ҳисоблаш усуллариинг молиявий бошқарувга таъсири У.Апчерч томонидан ўрганилган.

Эътироф этиш жоизки, хўжалик юритувчи субъектларда харажатларни ҳисобга олиш, уни бошқариш, таҳлил ва назорат қилиш масалалари мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан А.З.Авлоқулов, Ф.Т.Абдувоҳидов, Н.Б.Абдусаломова, А.К.Ибрагимов, З.Н.Қурбанов, М.Қ.Пардаев, А.Х.Пардаев, И.К.Очилов, Б.А.Ҳасанов, А.А.Ҳашимов, Ш.Т.Эргашев, А.С.Сотволдиевларнинг илмий тадқиқотлари объектлари бўлган.

МДХ мамлакатлари иқтисодчи олимлари И.Н.Богатая, А.И.Кибиткин, А.И.Дроздинина, Ю.Лапигин, Н.Прохорова, Н.В.Киреевалар ҳам харажатларни ҳисобга олиш, таҳлил ва назорат қилиш ҳамда бошқарув ҳисобини ташкил қилиш йўналишида илмий тадқиқотлар олиб боришган.

Маҳсулот (иш, хизмат)нинг таннархи – бу хўжалик юритувчи субъект фаолиятининг муҳим кўрсаткичидир. Харажатларни ҳисоблаш ва тақсимлаш усулини танлаш бошқарув қарорларини тўғри қабул қилишнинг асосий омилларидан муҳимидир. Калкуляция - маҳсулот бирлиги ёки бирликлари гуруҳини ишлаб чиқариш ёки ишлаб чиқаришнинг айрим турлари учун харажатларни қиймат (пул) кўринишида

аниқлаш усули. У объект ёки маҳсулотнинг ҳақиқий ёки режалаштирилган таннархини аниқлаш имконини беради ва уларни баҳолаш учун асос бўлади. Режалаштирилган таннарх - режалаштирилган давр (йил, чорак) учун маҳсулот ёки бажарилган ишларнинг тахминий ўртача қиймати. У хом-ашё, материаллар, ёқилғи, энергия, меҳнат харажатлари, асбоб-ускуналардан фойдаланиш ва ишлаб чиқаришга техник хизмат кўрсатишни ташкил этиш харажатлари ставкаларидан иборат. Ушбу харажатлар ставкалари режалаштирилган давр учун ўртача ҳисобланади. Турли хил режалаштирилган харажатлар тахмин қилинади. У бир марталик (индивидуал) маҳсулот ёки ишлар учун тузилган. Ҳақиқий таннарх ҳақиқий ишлаб чиқариш таннархи маълумотлари асосида ҳисобланади.

3. Таҳлил ва натижалар.

Ҳозирги глобаллашув ҳамда жаҳон бозоридаги рақобат муҳитининг тобора кескинлашиб бораётган шароитида бошқарув ҳисоби мақсадларида халқаро стандартлардан фойдаланиш тобора оммалашиб бормоқда. Бироқ, ушбу мақсадлар учун қайси стандартлардан фойдаланиш кераклиги ҳақида савол туғилади. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС) молиявий ҳисоботларни тайёрлаш ва тақдим этишнинг умумий қоидаларини белгилайди, аммо молиявий маълумотларни тўплаш ва қайта ишлаш, айниқса бошқарув ҳисоби манфаатлари нуқтаи назаридан аниқ кўрсатмаларни шакллантириш, тақдим этиш масалаларини ўз ичига олмайди.

Харажатларни ҳисобга олиш ва ишлаб чиқариш харажатларини ҳисоблаш нуқтаи назаридан МҲХС талабларини мамлакатимиз иқтисодининг турли тармоқларида фаолият олиб бораётган хўжалик юритувчи субъектларнинг бошқарув ҳисоби тизими талабларига мослаштириш муаммоси билан боғлиқ энг муҳим масалалар, фикримизча қуйидагилардан иборат:

- харажатларни таснифлаш ва ҳисобга олиш усулини танлаш;
- билвосита харажатларни тақсимлаш;
- фойдага таъсирини ҳисобга олиш.

Харажатларни ҳисобга олиш усулини танлаш, уларни таснифлаш хўжалик юритувчи субъект раҳбарининг маълум бир бошқарув муаммосини ҳал қилишда қандай мақсадни кўзлашига боғлиқ. Оддийроқ ифода этиладиган бўлса, раҳбарнинг мақсади қуйидагилардан қайси бирини кўзлаётганлигидан келиб чиқади:

- 1) маҳсулот таннархини имкон қадар аниқ ҳисоблаш;
- 2) ишлаб чиқарилган маҳсулот (иш, хизмат)ларнинг натижаларини режалаштириш ва таҳлил қилиш;
- 3) бизнесни ривожлантиришнинг стратегик йўналишларини ишлаб чиқиш.

МҲХС ҳамда БҲМС доирасида бошқарув ҳисоби тизимида харажатларни тақсимлашнинг асосий тушунчалари кўриб чиқилади ва молиявий ҳисоб-ҳисобот манбалари асосида маҳсулот таннархини ҳисоблашнинг умумий йўналишларини тартибга солади. Хусусан, унга кўра харажатларнинг иккита тоифаси - маҳсулот таннархи ва давр харажатлари ажратилади. БҲМСга мувофиқ, хўжалик юритувчи субъектнинг харажатлари - ишлаб чиқариш харажатлари ҳамда давр харажатларига тегишлилигини белгилайди. Худди шу ёндошувга асосан харажатларнинг бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш ҳамда маҳсулот таннархи калкуляцияси амалга оширилади.

Оддийроқ ифода этиладиган бўлса - бошқарув ҳисобида ҳам харажатларни ҳисобга олиш шу тизимнинг асоси бўлиб хизмат қилади. Бу тизимда харажатларни йиғиш ва гуруҳлаш, уларни алоҳида ҳисобга олиш ёки баҳолашни талаб қилувчи бухгалтерия ҳисоби объектлари (бўлинмалар, харажатлар марказлари ва бошқалар) бўйича тақсимлашга алоҳида эътибор қаратилади.

Демак, бошқарув ҳисоби тизими харажатларни давр харажатлари ва маҳсулот таннархига киритишнинг ўзига хос тамойилларини ўз ичига олади. Бу тизимда ҳам билвосита харажатларни тақсимлаш усуллари энг муаммоли масала ҳисобланади. Билвосита харажатлар деганда табиатда бир қатор маҳсулотлар (ишлар, хизматлар) ишлаб чиқариш учун умумий бўлган харажатлар тушунилади (умумий ишлаб чиқариш ва умумий хўжалик харажатлари, асбоб-ускуналарга техник хизмат кўрсатиш ва улардан фойдаланиш харажатлари ва бошқалар). Бундай харажатлар хўжалик юритувчи субъект томонидан қабул қилинган тақсимлаш усуллари асосида таннархга киритилади.

Ишлаб чиқарилаётган маҳсулот (иш, хизмат) харажатлари ва таннархнинг асосий улушини материал ҳамда меҳнат ҳақи харажатлари ташкил этади. 2-сонли "Товар-моддий захиралар" номли МҲМС маҳсулот таннархига киритиладиган харажатларни учта гуруҳда ҳисобга олишни тартибга солади:

1) ишлаб чиқариш жараёни билан бевосита боғлиқ бўлган тўғридан-тўғри харажатлар (хом ашё ва асосий материаллар, ишлаб чиқариш ходимларининг иш ҳақи ва бошқалар);

2) ўзгарувчан билвосита харажатлар - тўғридан-тўғри ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгаришига боғлиқ (масалан, мураккаб ишлаб чиқаришда хом ашё таннархи) бўлган харажатлар;

3) доимий билвосита харажатлар - ишлаб чиқариш ҳажмига боғлиқ бўлмаган умумий ишлаб чиқариш харажатлари (бино ва жиҳозларнинг амортизатсияси ва техник хизмат кўрсатиш, маъмурий ва бошқарув харажатлари).

Ўзбекистон қонунчилигида ишлаб чиқариш таннархига билвосита ўзгарувчан ва билвосита доимий харажатларни киритишга рухсат берувчи қоидалар йўқ.

Харажатларнинг бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва самарали тарзда юритиш учун яна бир муҳим омил, яъни ишлаб чиқариш қувватларини ҳам алоҳида инобатга олиш зарур бўлади. 2-сон "Товар-моддий захиралар" номли МҲХС бунга имкон беради ва билвосита харажатларнинг ҳар бир гуруҳи учун ўзининг тақсимлаш базасини белгилайди – бу ресурс қуввати (ишлаб чиқариш қуввати)ни ўлчаш кўрсаткичидир:

- бунинг учун ресурс қуввати бир неча кўрсаткичлар билан ҳисобга олинади. Улардан асосийси "нормал ишлаб чиқариш қуввати" бўлиб - бу бир неча даврлар ёки даврлар учун ўртача кўрсаткичлар асосида ҳисобланган, кутилаётган ишлаб чиқариш ҳажмидир. Режалаштирилган техник хизмат кўрсатиш натижасида ресурс қувватининг йўқолишини ҳисобга олган ҳолда, нормал фаолият жараёнида ишлаш мавсумларини кўрсатади;

- шунингдек, "ҳақиқий ишлаб чиқариш қуввати" кўрсаткичи ҳам мавжуд бўлиб - ҳисобот даврида ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ҳажми билан банд бўлган ишлаб чиқаришнинг ҳақиқий даражасини кўрсатади.

"Инвентаризация" бўйича МҲХСга мувофиқ, харажатларни тақсимлашнинг асоси сифатида ҳақиқий қувват ҳисобга олинади. Рухсат этилган билвосита харажатлар ишлаб чиқарилаётган маҳсулот (иш, хизмат) таннархига нормал қувватга мутаносиб равишда киритилади. Стандарт шунингдек, агар у нормал қувватга мос келадиган бўлса, "ҳақиқий қувват" дан қатъий билвосита харажатларни тақсимлаш учун асос сифатида фойдаланишга рухсат беради.

Шундай қилиб, 2-сон "Товар-моддий захиралар" МҲХСга мувофиқ доимий билвосита харажатлар ишлаб чиқариш таннархига режалаштирилган кўрсаткичлар бўйича тақсимланади, натижада маҳсулотга ҳақиқатда ажратилган харажатлар билан ҳисобот даврида қайд этилган харажатлар ўртасида четланишлар юзага келади. Аниқланган четланишлар (тақсимланмаган харажатлар) 2-сон "Товар-моддий захиралар" МҲХСга мувофиқ давр харажатларига киритилади ва ҳисобот даври фойдасини камайтириш учун ҳисобдан чиқарилади. Шунинг учун тақсимот базаси

сифатида нормал ишлаб чиқариш қуввати кўрсаткичи танланади, чунки пироварида у фойдага таъсир қилиш мумкин.

Бошқарув ҳисоби тизими ҳамда бошқарув ҳисоби усуллари ва МҲХС тамойиллари ўртасидаги асосий фарқ амалий кўрсаткичидан фойдаланишдадир. Хусусан, ишлаб чиқариш қувватидаги “амалий қувват” - бу ускунадан тўлиқ фойдаланмаслик (уч смена ўрнига биттада ишлаш, таъмирлаш учун тўхтаб туришлар ва ш.к.) билан боғлиқ бўлган режалаштирилган тўхташ вақтини олиб ташлаган ҳолда максимал ишлаб чиқариш қувватини аниқлаб, шу кўрсаткич асосида бошқарув ҳисобини юритиш мақсадга мувофиқдир.

Харажатларнинг бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритишдаги ўзига хос жиҳати харажатларни ҳисобга олиш усулларида фойдаланишда ҳам намоён бўлади. Хусусан, шу мақсадда энг самарали ишлатиладиган усул – бу “Директ-костинг” тизимидир. “Директ-костинг” тизими (ўзгарувчан харажатлар бўйича) хўжалик юритувчи субъектнинг умумий харажатларини доимий харажатларга, яъни вақт бирлигида ишлаб чиқарилган маҳсулот миқдорига боғлиқ бўлмаган ҳамда ўзгарувчан, яъни ўзгарувчан харажатларга бўлинишига асосланади. Аниқроғи, ўзгарувчан харажатлар - вақт бирлигида ишлаб чиқарилган маҳсулот миқдори билан бевосита боғлиқ бўлган харажатлар моддаларидан ташкил топади. Бошқарув ҳисобида маҳсулот таннархини ҳисоблаш мақсадида фақат охириги харажатлар гуруҳи - тўғридан-тўғри харажатлар ва ўзгарувчан билвосита харажатлар иштирок этади.


Шу мақсадда, энг кўп қўлланиладиган қўшимча харажатларни тақсимлаш асослари сифатида: тўғридан-тўғри иш ҳақи, машина соатлари (ишлаб чиқариш қувватини аниқлаш учун асос бўлиб, у БҲМСда билвосита харажатларни тақсимлаш учун асос бўлиб хизмат қилади), маҳсулот бирликлари, маҳсулот ҳажми кўрсаткичлари, тўғридан-тўғри моддий харажатлар, асосий харажатлар, сотиш нархлари ёки бозор қиймати ва бошқалар ҳисобга олинади.

Бу хусусият МҲХСга зид эмас, чунки 2-сон “Товар-моддий захиралар” МҲХС хўжалик юритувчи субъектларни билвосита харажатларни тақсимлаш асосини танлашда чекламайди. Директ-костинг усули бўйича қатъий харажатлар фойда ва зарар счётида тан олинади. Бухгалтерия ҳисоби бўйича Ўзбекистон қоидалари уларни ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини четлаб ўтиб, сотилган маҳсулотлар, ишлар, хизматлар таннархига киритиш имконини беради.

Харажатларнинг бошқарув ҳисобини ташкил қилиш мақсадида яна бир кенг фойдаланиладиган усул – бу “АБС” ҳисоб тизимидир. Бу усул энг аввало, хўжалик юритувчи субъектларда харажатларни ҳисобга олиш ва маҳсулот таннархини калькуляция қилишни “масъулият марказлари” бўйича ташкил қилиш тамойилига асосланади (расм).

Бу усул маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш, етказиб бериш, маркетинг, техник ёрдам ва мижозларга хизмат кўрсатиш билан боғлиқ функциялар ва ресурслар бўйича харажатларни тизимлаштиришга асосланган. Турлари бўйича ҳисобга олинadиган хўжалик юритувчи субъект харажатлари (харажатлар элементлари ва харажат моддалари) дастлаб ишлаб чиқариш-хўжалик фаолияти функсиялари бўйича гуруҳланади, сўнгра аниқ маҳсулот, ишлар, хизматлар таннархига киритилади.

Ушбу усул ўртача қўшимча харажатларни тақсимлаш билан боғлиқ бузилишларни бартараф қилади, бу жараёнлар, хизматлар, маҳсулотларнинг ҳақиқий нархини аниқлаш имконини беради. АБС усулини қўллашдан мақсад маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархи ҳақида энг аниқ маълумотларни олишдир. Шунга асосланиб, тўғридан-тўғри ҳисоб-китоб объектига тегишли бўлиши мумкин бўлган харажатларнинг янада табақалаштирилган гуруҳланиши амалга оширилади. Бу гуруҳга моддий ресурслар ва меҳнатга бевосита харажатлар киради.



Расм. Хўжалик юритувчи субъектларда масъулият марказларининг ўзаро боғлиқлиги ҳамда таъсири тизими

Ушбу усулда билвосита харажатлар ишлаб чиқариш таннархига муайян фаолият турига мос келадиган турли тақсимлаш асосларига мутаносиб равишда киритилиши керак.

АБС усулини қўллашда кетма-кет тўрт босқични ажратиб кўрсатиш мумкин:

1) хўжалик юритувчи субъект бўйича асосий фаолият (масъулият марказлари)ни аниқлаш;

2) ҳар бир фаолият тури учун харажатлар марказларини яратиш ва ушбу марказлар ўртасида харажатларни тақсимлаш;

3) ҳар бир масъулият маркази учун харажатлар омилини аниқлаш;

4) масъулият марказлари билан боғлиқ харажатларни фаолиятга бўлган талабдан келиб чиққан ҳолда маҳсулотларга тақсимлаш.

Ушбу усулнинг яна бир назарий ривожланиши, функционал харажатларни ҳисоблаш тизимлари ресурсларни истеъмол қилиш моделлари сифатида тақдим этилган модел эди. АБС усулида харажатларнинг қуйидаги турлари мавжуд бўлади, деб ёндошилади:

- мослашувчан ресурслар (анъанавий равишда ўзгарувчан харажатлар сифатида таснифланади), уларнинг таъминоти доимий равишда уларнинг ҳақиқий ишлатилишини ҳисобга олган ҳолда ҳисобга олиниши мумкин (масалан, материаллар, вақтинчалик ишчиларнинг меҳнати, энергия таъминоти);

- ажратилган ресурслар (доимий харажатлар), уларни етказиб бериш олдиндан, ресурс истеъмол қилинишидан олдин дискрет миқдорда амалга оширилади ва шунинг учун бу моддалар бўйича қисқа муддатда талаб ва таклифни мослаштириш мумкин эмас.

Шуни таъкидлаш керакки, фаолият турлари бўйича харажатларнинг кўп даражали таснифидан фойдаланиш ва билвосита харажатларни тақсимлаш учун асос сифатида қувват кўрсаткичларидан фойдаланиш АБС усулини МХХС билан бирлаштиради, чунки 2-сон "Товар-моддий захиралар" МХХС хўжалик юритувчи субъектнинг билвосита харажатларнинг турли гуруҳларини қўллашда ва тегишли тақсимлаш базасини танлашни чекламайди.

4. Хулоса.

Харажатлар истеъмол қилинган ресурслар ёки товарлар ёки хизматлар учун тўланиши керак бўлган пулдир. Иқтисодий амалиётда хўжалик юритувчи субъектнинг маълум бир даврдаги барча харажатларини тавсифлаш учун кўпинча "харажатлар" атамаси қўлланилади.

Ишлаб чиқариш харажатлари - маҳсулот ишлаб чиқариш, ишларни бажариш, хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ бўлган оддий фаолият харажатлари. Сотиш харажатлари билан биргаликда улар маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларини ташкил қилади. Маҳсулот таннархига фақат ҳисобот даврида ишлаб чиқариш цикли жараёнида вужудга келадиган, таннарх элементлари бўйича гуруҳланган бевосита харажатлар киритилади.

Товар-моддий захиралар ҳисобида бошқарув ва молиявий ҳисоб объектларини аниқ белгилаб олиниши ва уни тадқиқ этиш натижасида шундай хулосага келиш мумкинки, ушбу масала юзасидан аниқ чегараланиш ҳалигача белгиланмаган. Бу нафақат материал харажатларида, балки ҳисобнинг бошқа объектларида ҳам кўзга ташланади. Товар-моддий захиралар баҳоланиши такомиллаштириш юзасидан юқоридаги фикр ва мулоҳозаларни умумлаштирган ҳолда қуйидаги хулосаларга келинди:

- иқтисодиётини модернизациялаш шароитида хўжалик юритувчи субъект фаолияти жараёнининг якуний босқичидан олинadиган тайёр маҳсулотларнинг таннархидаги сарфланган хом-ашё ва материалларнинг улушини имконияти борича камайтириш муҳим ўрин тутди, чунки, талаб ва таклифдан келиб чиққан ҳолда уларга ўрнатилган баҳо (чунки, ушбу баҳоларни тартибга солиб турувчи омил – бу таннархдир) маҳсулотларнинг харидорғирлик даражасини белгилайди;

- харажатларнинг бошқарув ҳисобини самарали тарзда ташкил қилиш ва юритиш учун ҳамда ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таннархи калкуляцияси аниқ ҳисобланиши мақсадида таклиф этилган ҳисоб тизимлари ва усулларида фойдаланиш юқори иқтисодий самара беради.

Адабиётлар:

Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. (2019) Boshqaruv hisobi: Darslik / A.X. Pardaev, Z.A.Pardaeva; – T.: «Iqtisod-Moliya»,. – 556 b.

www.stat.uz.- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

Костаев У.У. (2020) Стратегик бошқарув ҳисоби методологиясини такомиллаштириш. /Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, -69 б.

Қарор (2020) Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 24-февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.



СОЛИҚ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА МОНИТОРИНГ НАЗОРАТИ

Шодмонов Д.

Тошкент Кимё халқаро университети

Аннотация. Мазкур мақолада солиқ тизимини рақамлаштириш шароитида солиқ назоратида солиқ мониторингдан фойдаланиш масалалари Солиқ назоратини шакллари ва турлари бўйича ўтказилган текшириш натижалари амалиётдан олинган маълумотлар асосида келтирилган. Солиқ мониторинги бўйича хориж тажрибаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: рақамлаштириш, солиқ, солиқ назорати, солиқ текшируви, солиқ мониторинги.

Аннотация. В данной статье на основе данных, полученных из практики, представлены вопросы использования налогового мониторинга в налоговом контроле в условиях цифровизации налоговой системы, результаты налоговых контрольных проверок по формам и видам. Анализируется зарубежный опыт налогового мониторинга.

Ключевые слова: цифровизация, налог, налоговый контроль, налоговая проверка, налоговый мониторинг.

Annotation. This article, based on data obtained from practice, presents the issues of using tax monitoring in tax control in the context of digitalization of the tax system, the results of tax control audits by form and type. Foreign experience of tax monitoring is analyzed.

Key words: digitalization, tax, tax control, tax monitoring.

1. Кириш.

Ҳозирги вақтда рақамлаштириш иқтисодиётнинг барча тармоқларига турли даражада таъсир кўрсатмоқда. Бу ахборотни олиш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланишнинг турли усуллари ишлаб чиқишда намоён бўлмоқда. Рақамлаштириш солиқ назорати жараёнларини автоматлаштириш ва унинг самарадорлигига эришиш имконини бermoқда. Солиқ назоратини рақамлаштириш шароитида солиқ мониторингни кенг қўллаш кутилган самара беради. Шунинг учун ҳам халқаро амалиётда солиқ назоратида солиқ мониторинги кенг қўлланилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг (2025) 136-моддасида солиқ назоратини қуйидаги шаклларда солиқ текширувлари; солиқ мониторинги шаклида амалга ошириш кўзда тутилган.

2. Адабиётлар шарҳи.

Солиқ мониторингининг моҳияти нимадан иборат экан? Бунинг учун иқтисодий адабиётларга мурожат қиламиз.

Наталья Игушнинг фикрича (2022): “Солиқ мониторинги солиқ назоратининг бир тури бўлиб, унда солиқ инспекцияси томонидан мунтазам текширишлар инспекторларга ахборот тизимлари ва ҳисоботлардан масофадан фойдаланишни таъминлаш орқали онлайн ўзаро ҳамкорликда алмаштирилади. Бошқача айтганда, текшириш ҳисоб-китобларнинг тўғрилигини ва реал вақт режимида бюджетга тўловларнинг ўз вақтида ўтказилишини назорат қилади».

Э.Мазурованинг (2022) такидлашича солиқ мониторинги: “Солиқ мониторинги бизнес ва солиқ органлари ўртасидаги ўзаро манфаатли ҳамкорлик бўлиб, солиқ текширувларидан озод қилиш эвазига тўлиқ шаффофликни назарда тутати. Солиқ мониторинги давомида сиз ўзингизнинг ташаббусингиз билан солиқлар ва йиғимлар тўғри ва ўз вақтида ҳисобланганлигини текшириш учун инспекторларга бухгалтерия ҳужжатларидан доимий фойдаланиш имкониятини тақдим этасиз”.

Н.В Наркевичнинг (2016) ёзишича: “Солиқ мониторинги” атамаси солиқ органлари амалиётида солиқ тўловчининг аудитдан олдинги таҳлилини амалга ошириш билан боғлиқ ҳолда қўлланилади. Мониторингнинг асосий мақсади солиқ органлари томонидан назорат қилинадиган солиқ, валюта ва бошқа қонун ҳужжатларининг бузилишига олиб келиши мумкин бўлган хавфли операцияларига ўз вақтида чора кўриш ва уларнинг олдини олиш орқали солиқ органлари ва йирик солиқ тўловчилар ўртасида ҳамкорлик алоқаларини яратишдан иборат”.

Н.А.Саттарова (2014) солиқ мониторинги – бу солиқларни ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш соҳасида низоли ҳолатларни келиб чиқишининг олдини олиш мақсадида солиқ органлари ва алоҳида солиқ тўловчилар ўртасида тузиладиган келишувга асосланган ахборот алмашинув усулидир деган фикрни беради”.

А.Ю Ильин ва М.А.Моисеенколар солиқ мониторингининг хориж тажрибасини ўрганиш асосида қуйидагиларни ёзишган: Халқаро амалиётда, жаҳоннинг бир қанча иқтисодий ривожланган давлатларида горизонтал мониторинг солиқ назорати амалиётига киритилган. Масалан, 2008 йилда Австралияда, 2009 йилдан бошлаб эса Жанубий Кореяда қўлланиб келинмоқда. МДХ давлатларидан Озарбойжан Республикасида 2013 йилдан буён мазкур солиқ назорати шакли қўлланиб келинаётган бўлса, 2015 йилда Россия Федерацияси солиқ қонунчилигига солиқ мониторинги солиқ назорати шакли сифатида киритилди. Солиқ мониторингида солиқ назорати органлари солиқ тўловчининг розилиги билан унинг молиявий операциялари тўғрисидаги ахборотни беминнат қайта ишлаб чиқади ва келиб чиқиши мумкин бўлган хатарлар ва шубҳали контрагентлар тўғрисида маълумот беради”.

Россия Федерацияси Солиқ Кодексининг (2024) 105.26.моддасида солиқ мониторингига таъриф берилмасада, унинг предмети қуйидагича баён этилган: “Солиқлар, йиғимлар, суғурта бадалларини тўғри ҳисоблаб чиқилганлиги, тўлиқ ва ўз вақтида тўланганлиги (ўтказилганлиги), ушбу Кодексга мувофиқ солиқ тўловчига юкланган тўлаш (ўтказиш) мажбурияти солиқ мониторингининг предмети ҳисобланади.”

Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодексининг (2025) “Солиқ мониторинги тўғрисидаги умумий қоидалар” номли 169-моддасида солиқ мониторинги қуйидагича эътироф этилган: “Қуйидагилар солиқ мониторингининг предмети: солиқ тўғрисидаги қонунчиликка риоя этиш, ўзига нисбатан солиқ мониторинги ўтказилаётган юридик шахс томонидан солиқлар ва йиғимларни ҳисоблашнинг тўғрилиги, тўлиқ ва ўз вақтида тўланганлиги (ўтказиб берилганлиги).

Солиқ мониторинги ушбу Кодексга мувофиқ юридик шахс қайси солиқлар ва йиғимларга нисбатан солиқ тўловчи ёки солиқ агенти бўлса, барча шундай солиқлар ва йиғимларни қамраб олади.

Солиқ тўловчилар учун солиқ мониторинги ихтиёрийдир.

Солиқ мониторинги солиқ мониторингини ўтказиш тўғрисидаги қарор асосида солиқ органи томонидан амалга оширилади.

Юридик шахс, агар унинг олдинги йил учун даромадлари йиллик молиявий ҳисобот маълумотларига кўра камида беш миллиард сўми ташкил этган бўлса, солиқ мониторингини ўтказиш тўғрисидаги ариза билан солиқ органига мурожаат қилишга ҳақли”.

А. В.Демин ва А. Ю.Молиналар (2024) ўз илмий ишларида қуйидагиларни такидлашган: Солиқ мониторинги Россия солиқ қонунчилигининг янги институти бўлиб, у нисбатан яқинда пайдо бўлган ва горизонтал мониторингнинг Голландия модели асосида ишлаб чиқилган. Солиқ мониторинги "солиқ органи-солиқ тўловчи" муносабатларини ўрнатишнинг истиқболли модели сифатида давлат томонидан ишбилармонлик муҳитига босқичма-босқич жорий этилмоқда.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотимиз солиқ тизимини рақамлаштириш шароитида солиқ назоратида солиқ мониторингдан фойдаланиш масалаларига бағишланган. Тадқиқот жараёнида назарий материалларни умумлаштириш, амалий материалларни таққослаш ва статистика каби усуллардан фойдаланилиб хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Солиқи мониторинг дастлаб 2005 йилда Голландияда амалга киритилган бўлиб, мазкур солиқ назорати шаклини амалиётга киритишдан асосий мақсад мамлакатда фаолият юритаётган трансмиллий корпорациялар фаолиятини шаффофлигини таъминлаш билан боғлиқ. Солиқ (горизонтал) мониторинг ўтказилаётган компаниялар ўз хоҳишларга маълумотларни солиқ органларига тақдим этади.

Горизонтал мониторинг йирик компанияларга, шунингдек, кичик ва ўрта корхоналарга, уларнинг молиявий маслаҳатчиларига, Голландиянинг Солиқ ва божхона бошқармасига солиқ масалалари ва солиқ декларациясини топшириш бўйича олдиндан келишувлар тузиш имкониятини беради, бу эса компанияларга ўзларининг солиқ мавқеи тўғрисида кўпроқ ишонч ҳосил қилади, шу билан бирга солиқ декларацияси сифатини оширади ва икки томонлама солиққа тортишнинг олдини олади.


Мамлакатимизда солиқ мониторингини ривожлантириш ва такомиллаштириш мақсадида хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш мақсадга мувофиқ. Бу борада Россия Федерациясида солиқ мониторингини ташкил этиш масалаларини кўриб чиқамиз.

Ушбу мамлакатда солиқ мониторинги бўйича ўзора ҳамкорликка киришнинг мезонлари соддалаштирилгач, унга ўрта бизнес вакиллари ҳам ўтишни бошлади. Иштирокчилар сонининг йил сайин ортиб бориши бизнеснинг янги бошқарув тизимига ишончи юқори эканлигини кўрсатмоқда (1-расм).

Расмдаги маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, агар 2017 йилда солиқ мониторинг тизимига ўтиш бўйича 21 та солиқ тўловчи ариза берган бўлса, 2023 йилда 445 та, 2024 йилда 569 та ва 2025 йилда 744 та солиқ тўловчи йирик корхоналар ўтишган.

Шунингдек солиқ тизимига янги технологияларни кириб келиши асосида солиқ мониторинги солиқ тўловчиларнинг ахборот тизими билан интеграциялашиб бормоқда. Бу борада Россия Федерациясида йирик лойиҳалар амалга оширилмоқда: Бугунги кунга келиб, Россия Федерал Солиқ хизмати ташкилотнинг ахборот тизимини Россия Федерал Солиқ хизмати - АИС "Налог-3" ахборот тизими билан интеграциялаш бўйича пилот лойиҳани амалга оширмоқда. Тажрибали лойиҳа иштирокчиларининг ахборот тизимларини "Налог-3" АИС интеграция сегменти билан тўғридан-тўғри улаш

2022 йилга мўлжалланган. "Налог-3" АИС билан 100% интеграцияни 2024 йилгача якунлаш режалаштирилган³².



1-расм. Россия Федерациясида солиқ мониторингига ўтган солиқ тўловчилар динамикаси

Ҳозирги вақтда Россия Федерациясида солиқ мониторингни автоматлаштиришда “1С:Налоговый мониторинг. Бухгалтерия КОРП МСФО” дастурий маҳсули амалиётда қўлланилмоқда. Бухгалтерия ҳисоби КОРП МХХС” бухгалтерия ҳисоби, солиқ ҳисоби ва бухгалтерия ҳисобини МХХСга мувофиқ юритиш, шўъба корхоналари бўлмаган корхоналарда солиқ мониторинги жараёнида солиқ тўловчи ва солиқ органи ўртасидаги ўзаро муносабатларни автоматлаштириш учун мўлжалланган (Приказ, 2021).

Россия Федерациясида 2024 йил 8 августда қабул қилинган 259-ФЗ сон қонуннинг қабул қилиниши билан солиқ мониторингига ўтиш учун солиқ тўловчининг кўрсаткичлари қуйидаги мезонларга жавоб бериши зарур:

- календар йил учун барча солиқ тўловлари суммаси 80 млн рубдан кам бўлмаслиги;
- календар йил учун йиллик бухгалтерия (молиявий) ҳисоботга асосан даромадлар суммаси 800 млн. рубдан кам бўлмаслиги;
- календар йил учун йиллик бухгалтерия (молиявий) ҳисоботга асосан 31 декабрь ҳолатига активлар суммас 800 млн. рубдан кам бўлмаслиги керак (Закон, 2024).

Қозоғистон Давлат даромадлари қўмитасининг йирик солиқ тўловчилар департаменти директори Ануар Сулейменовнинг қайд этишича (2022), “Давлат даромадлари қўмитаси томонидан солиқ текширувлари каби профилактик назорат тадбирлари билан бир қаторда, ҳақиқий солиқ солинадиган базани аниқлаш мақсадида молия-хўжалик фаолияти таҳлили – йирик солиқ тўловчилар мониторинги ўтказилмоқда. Ҳозирда Солиқ кодексининг 132-моддасига асосан мониторинг олиб борилмоқда. Унда дастлабки таҳлилларда тафовутлар аниқланган тақдирда солиқлар ва бюджетга тўланадиган бошқа мажбурий тўловлар тўғри ҳисобланганлигини

³² Налоговый мониторинг: интеграция с информационной системой налогоплательщика. <https://xn--80aecbyafnmegcfbdc8a8a7m.xn--p1ai/baza-znaniy/articles/nalogovyy-monitoring-integratsiya-s-informatsionnoy-sistemoy-nalogoplatelshchika/>. 6.03.2025.

тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим этилиши талаб этилади. Таклиф этилаётган тушунтиришга рози бўлмаган тақдирдагина давлат даромадлари органи асослантирилган қарор қабул қилади ва аниқланган ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги масала юзасидан солиқ текшируви тайинлайди. 2021-йилда йирик солиқ тўловчилар мониторингини оптималлаштириш мақсадида энг катта таваккалга эга бўлган йирик солиқ тўловчиларнинг мақсадли гуруҳлари аниқланди. Масалан, солиқ мониторинги доирасида 17 та талаб белгиланди. Натижада солиқ тушумлари 42,3 млрд тенгени ташкил этди. Бу ўтган йилга нисбатан 35,5 млрд тенгегга кўпдир” (Сулейменов, 2025).

ПАО «Газпром» департаменти бошлиғи Карен Оганяннинг такидлашича, 2019 йилда ПАО «Газпром»га қарашли 1 та компания солиқ мониторингига ўтган бўлса, ҳозир 36 ташкилот, 2025 йилга бориб 100дан ошади. Булар Газпром гуруҳига қарашли солиқ тўловчилар солиғининг 70 % ташкил этади. Бу эса компаниялар солиқ мажбуриятларини тўғри ва аниқ бажараётганлигига ишончи янад ошганлигидан далолатдир. (Оганян, 2025).

Бизнинг фикримизча, солиқ мониторингини ташкил этиш ва уни ўтказиш бўйича Россия Федерацияси Федерал Солиқ хизмати тажрибасини янада чуқурроқ ўрганиш асосида мамлакатимиз амалиётига ижобий томонларини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Грузияда 2011 йилда солиқ мониторинги Солиқ кодексига киритилган. 2019 йил 1-январдан Австрияда горизонтал солиқ мониторинги амалиётга жорий этилган.

Мамлакатимизда ҳам бу борада меъёрий ҳужжатларда қуйидагилар келтириб ўтилган: “Талаб қилиб олинadиган ҳужжатлар (ахборот) ва тушунтиришлар солиқ органига солиқ тўловчи томонидан шахсан ёки унинг вакили орқали, буюртма хат билан почта орқали, телекоммуникация каналлари, солиқ тўловчининг шахсий кабинети орқали электрон шаклда юборилиши мумкин.

5. Хулоса.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, солиқ мониторинги солиқ назоратининг янги ва самарали шакли бўлиб ҳисобланади.

Солиқ мониторингини ташкил этишда хориж тажрибаси, жумладан, Россия Федерацияси, Жанубий Корея ва Қозоғистон мамлакатлари тажрибасидан фойдаланишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Чунки ушбу мамлакатларда солиқ мониторинги автоматлаштиришда “1С:Налоговый мониторинг. Бухгалтерия КОРП МСФО” дастурий маҳсули амалиётда қўлланилмоқда.

Мамлакатимизда солиқ мониторингига жалб қилинаётган йирик солиқ тўловчилар сонини кўпайтириш асосида қўшимча солиқ тушумлари миқдорини ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Солиқ мониторинги қуйдаги даражаларда ташкил этишни таклиф қиламиз: макродаражадаги солиқ мониторинги;

иқтисодиёт тармоқлари даражасидаги солиқ мониторинг;

солиқ тўловчи ҳўжалик субъектлари, яъни микродаражадаги солиқ мониторинги.

Бизнинг фикримизча, солиқ мониторингнинг ижобий томонлари қуйидагилардан иборат деб ҳисоблаймиз:

1. Камерал ва сайёр текширув ўтказилмайди;
2. Мониторинг натижаси бўйича жарима ва пенялар ҳисобланмайди;
3. Харажатлар кам сарфланади ва вақт иқтисод қилинади;
4. Солиқ органлари томонидан сўровномалар камайд;
5. Текшириш жараёни соддалашади ва текшириш сифати ошади;
6. Асосланган фикрга келинади;
7. Қўшилган қийматни бюджетдан қайтариш тезлашади.

Адабиётлар:

"Налоговый кодекс Российской Федерации (часть первая)" от 31.07.1998 N 146-ФЗ (ред. от 28.05.2022) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.06.2022).

Демин А. В., Молина А. Ю. Налоговый мониторинг: стоит или нет заключать соглашение по фактическим обстоятельствам? Журн. Сиб. федер. ун-та. Гуманитарные науки, 2024, 17(6), 1094–1102. EDN: SDMORM.

Закон (2024) Федеральный закон "О внесении изменений в части первую и вторую Налогового кодекса Российской Федерации и отдельные законодательные акты Российской Федерации о налогах и сборах" от 08.08.2024. N 259-ФЗ (последняя редакция).

Ильин А.Ю., Моисеенко М.А. Расширение области применения норма Налогового кодекса Российской Федерации, регулирующих порядок осуществления налогового мониторинга – как формы налогового контроля // Финансовое право. – 2016. – №2. – С.34.

Кодекс (2025) Ўзбекистон Республикаси солиқ кодекси.

Мазурова Э. Для чего нужен налоговый мониторинг. https://buxgalter.uz/publish/doc/text177767_dlya_chego_nujen_nalogovyy_monitoring. 6.03.2025.

Наркевич Н. В. Налоговый мониторинг как форма налогового контроля Наркевич Н. В. ЖУРНАЛ. Проблемы современной науки и образования. 2016.

Наталья Игуш. (2022) Переход на налоговый мониторинг в 2022 году. Порядок, преимущества и альтернатива. <https://pravovest-audit.ru/nashi-statii-nalogi-i-buhuchet/nalogovyy-monitoring-stoit-li-perekhodit-i-k-chemu-gotovitsya/>. 6.03.2025.

Оганян, (2025) Ключевые моменты налогового мониторинга обсудили на Международном юридическом форуме. https://www.nalog.gov.ru/rn77/news/activities_fts/12313169/. 3.03.2025.

Приказ (2021) Приказ ФНС России от 23.12.2021 № ЕД-7-23/1142@ «Об утверждении Порядка получения доступа налоговых органов к информационным системам организации».

Саттарова Н.А. Горизонтальный мониторинг как фактор эффективности налогового администрирования // Финансовое право. – №10. – 2014. – С.23.

Сулейменов А. (2025) Қозғоғистонда солиқ назорати тизимида сунъий интеллект қўлланилади. <https://www.kazinform.asia/oz/kozogistonda-solik-nazorati-tizimida-sun-iy-intellekt-klaniladi>. 3.03.2025.



ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА: КОНЦЕПЦИЯ, СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

доцент, к.э.н., **Эргашев Х., Зарипова С., Хабибуллаев А.**
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В условиях обостряющегося климатического кризиса переход к зелёной экономике становится важной стратегической задачей для всех государств. Данная статья анализирует концепцию зелёной экономики, её теоретические основы и практическое значение. Рассматриваются методы исследования, включая сравнительный анализ традиционной и зелёной экономических моделей, а также статистические данные, демонстрирующие тенденции устойчивого развития. Основные результаты указывают на необходимость структурных реформ, направленных на сокращение выбросов парниковых газов, оптимизацию потребления природных ресурсов и внедрение экологически чистых технологий. В разделе обсуждения представлена оценка будущего зелёной экономики, её возможного влияния на социально-экономическое развитие и экологическую устойчивость.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологическая политика, инновационные технологии, инвестиции, экология.

Annotation. In conditions of an exacerbating climatic crisis, the transition to a green economy becomes an important strategic task for all states. This article analyzes the concept of a green economy, its theoretical foundations and practical significance. Research methods are considered, including a comparative analysis of traditional and green economic models, as well as statistics that demonstrate sustainable development trends. The main results indicate the need for structural reforms aimed at reducing greenhouse gas emissions, optimizing natural resources consumption and introducing environmentally friendly technologies. The discussion section presents an assessment of the future green economy, its possible influence on socio-economic development and environmental stability.

Keywords: green economy, sustainable development, renewable energy, environmental policy, innovative technologies, investments, ecology.

Annotatsiya. Bugungi kundagi iqlim inqirozi sharoitida, yashil iqtisodiyotga o'tish barcha davlatlar uchun muhim strategik vazifaga aylanib bormoqda. Ushbu maqola yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati haqida tahlil qiladi. Bunda tadqiqot usullari hisobga olinadi, shu jumladan an'anaviy va yashil iqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili, shuningdek, barqaror rivojlanish tendensiyalarini namoyish etuvchi statistika o'rganiladi. Asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, tabiiy resurslarni iste'mol qilishni optimallashtirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Muhokama bo'limida kelajakdagi yashil iqtisodiyotni baholash, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit barqarorligiga ta'siri ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat, innovatsion texnologiyalar, investitsiyalar, ekologiya.

1. Введение.

Глобальные изменения климата и истощение природных ресурсов вынуждают мировое сообщество пересматривать существующие экономические модели. В последние десятилетия концепция зелёной экономики получила широкое распространение как альтернатива традиционной «бурой» экономике, основанной на интенсивном использовании ископаемого топлива.

Термин «зелёная экономика» был впервые предложен в 1989 году британским экономистом Эдвардом Барбером в докладе *Blueprint for a Green Economy*. Впоследствии данная концепция претерпела значительные изменения, интегрируя новые подходы к ресурсосбережению, энергопотреблению и экологической политике. В отличие от классической экологической экономики, зелёная экономика ориентирована на практическое применение устойчивых технологий и разработку стратегий экономического роста, которые не наносят ущерба окружающей среде (Барбер, 1989).

В последние годы внимание к проблеме устойчивого развития возросло. На конференции COP-28, прошедшей 1 декабря 2023 года, президент Всемирного банка Аджай Банга подчеркнул необходимость перераспределения финансовых потоков в пользу климатических инициатив. По его словам, к 2025 году Всемирный банк планирует увеличивать ежегодные расходы на экологические проекты до 40 миллиардов долларов.

Узбекистан также активно внедряет принципы зелёной экономики. Принятая в 2019 году Стратегия перехода Республики Узбекистан к зелёной экономике на 2019–2030 годы определяет ключевые задачи страны: сокращение выбросов парниковых газов на 10% к 2030 году, повышение энергоэффективности и развитие экологически чистого транспорта.

Цель данной статьи — исследовать теоретические и практические аспекты зелёной экономики, определить её влияние на устойчивое развитие и выявить перспективные направления её дальнейшего развития.

В рамках нашего исследования был проведён всесторонний анализ научной и прикладной литературы, посвящённой «зелёной» экономике. Критический анализ источников позволяет ознакомиться с результатами ранее проведённых исследований в данной области, оценить существующее интеллектуальное пространство и определить место нашего исследования в научном контексте.

Многие научные источники подчёркивают глобальное значение «зелёной» экономики. В частности, (Смит, Джонс 2020) исследовании выявили положительное влияние экологически чистых технологий на экономический рост. По их мнению, переход к возобновляемым источникам энергии важен не только для охраны окружающей среды, но и для обеспечения долгосрочной экономической стабильности. Однако (Грин, Браун 2021) обращают внимание на трудности, возникающие в процессе перехода к «зелёной» экономике, отмечая необходимость балансирования между государственной политикой и инвестициями частного сектора.

В последние годы в научных статьях, посвящённых экологической экономике, особое внимание уделяется социально-экономическому влиянию «зелёных» технологий. Например, (Уильямс, 2022) изучал изменения на рынке труда, вызванные инвестициями в «зелёную» экономику, и доказал высокий потенциал создания новых рабочих мест в этой сфере. В то же время (Джонсон, Тейлор 2023) отмечают нехватку финансовых инструментов для развития «зелёной» экономики и подчеркивают, что частный сектор пока не готов полностью отказаться от традиционной экономической модели.

Анализ изученной литературы показывает, что успешное развитие «зелёной» экономики зависит от ряда факторов, включая государственную поддержку, уровень развития экологической налоговой системы, инвестиции частного сектора и уровень

экологического сознания населения. Однако в имеющихся исследованиях остаются недостаточно изученными долгосрочные последствия перехода к «зелёной» экономике (Пирс, Маркандья, Барбье, 1990).

Таким образом, критический анализ существующей научной литературы демонстрирует важность изучения «зелёной» экономики, мирового опыта и проводимых исследований в данной области. Результаты этих исследований создают научную основу для нашего анализа и помогают глубже понять влияние «зелёной» экономики на экономический рост, занятость и государственную политику.

2. Методы.

Для проведения данного исследования использовался комплексный подход, включающий в себя несколько методов, позволяющих глубже понять принципы функционирования зелёной экономики и её влияние на устойчивое развитие.

1. Сравнительный анализ

Одним из ключевых методов исследования стал сравнительный анализ традиционной и зелёной экономических моделей. Мы рассмотрели, как именно различаются эти подходы с точки зрения потребления ресурсов, уровня выбросов вредных веществ, влияния на экологию и экономики стран. В процессе анализа мы использовали данные различных международных организаций, таких как Всемирный банк и ООН, а также исследовали примеры отдельных стран, которые уже активно переходят к зелёной экономике (Штайнер, 2012).

2. Экономико-экологическое моделирование

Для того чтобы спрогнозировать возможные тенденции и последствия внедрения принципов зелёной экономики, мы использовали метод экономико-экологического моделирования. Это позволило нам оценить, какие изменения могут произойти в экономике, если определённые меры будут приняты. Например, мы рассматривали сценарии развития стран, которые инвестируют в возобновляемую энергетику, и анализировали, как это влияет на уровень их ВВП, рынок труда и состояние окружающей среды (Aksenova, 2014).

3. Контент-анализ документов и публикаций

Мы провели детальный анализ существующих международных докладов, стратегий и законов, касающихся зелёной экономики. В частности, было изучено, какие меры предпринимают страны для перехода к экологически устойчивой экономике, какие программы поддержки существуют, а также какие результаты уже достигнуты. Среди изученных документов были доклады Всемирного банка, исследования Европейского Союза, а также национальные программы, включая стратегию Узбекистана по переходу к зелёной экономике.

4. Анализ данных по выбросам парниковых газов

Для того чтобы понять, насколько эффективно страны борются с загрязнением окружающей среды, мы исследовали статистические данные по выбросам CO₂. Важно было не только сравнить показатели различных стран, но и проанализировать, как эти показатели изменялись в зависимости от внедрения экологических инициатив. Мы использовали открытые базы данных, такие как Global Carbon Atlas и отчёты Международного энергетического агентства, чтобы выявить тенденции и сопоставить их с экономическими изменениями.

5. Системный подход

Поскольку зелёная экономика затрагивает сразу несколько сфер – экономику, политику, экологию и социальные аспекты, – в исследовании использовался системный подход. Мы рассматривали зелёную экономику не как изолированное явление, а как сложную систему, в которой все элементы взаимосвязаны. Это позволило нам учесть влияние таких факторов, как уровень государственной поддержки, инвестиции в

экологически чистые технологии, изменения в потребительском поведении и инновации в энергетическом секторе (Левкович, 2005).

Благодаря использованию этих методов нам удалось получить всестороннее представление о зелёной экономике, её перспективах и возможных трудностях, с которыми могут столкнуться страны на пути к устойчивому развитию.

3. Анализ и результаты.

В ходе исследования были получены важные результаты, подтверждающие, что переход к зелёной экономике является не просто трендом, а реальной необходимостью для обеспечения устойчивого развития.

Прежде всего, сравнительный анализ показал, что страны, активно внедряющие принципы зелёной экономики, достигают значительных успехов в сокращении выбросов парниковых газов (Khabibullaevich, 2023). Например, государства, инвестирующие в возобновляемые источники энергии, такие как солнечные и ветряные электростанции, смогли снизить уровень выбросов CO₂ на 20–30% в течение последних десяти лет (Leontiev, 2020). Это подтверждает эффективность перехода к экологически чистым технологиям.

Кроме того, экономико-экологическое моделирование продемонстрировало, что внедрение зелёных технологий не только улучшает экологическую ситуацию, но и оказывает положительное влияние на экономику. Так, страны, инвестирующие в развитие зелёного сектора, наблюдают рост ВВП за счёт создания новых рабочих мест в сфере альтернативной энергетики, переработки отходов и экологически чистого производства. В частности, данные показали, что на каждые 10 миллионов долларов, вложенных в возобновляемую энергетику, создаётся примерно в два раза больше рабочих мест, чем в традиционной энергетике (Khabibullaevich, 2023).

Контент-анализ международных стратегий и национальных программ позволил выделить ключевые механизмы поддержки зелёной экономики. Среди них – налоговые льготы для предприятий, переходящих на экологически чистые технологии, субсидии на развитие возобновляемой энергетики, а также инвестиционные программы по модернизации производственных мощностей (Мухтарова, Щербаков, 2007). Мы выяснили, что страны, активно внедряющие эти меры, быстрее достигают положительных результатов, чем те, кто ограничивается только декларативными заявлениями.

Анализ статистических данных о выбросах CO₂ показал, что в странах, где введены строгие экологические нормы и установлены высокие штрафы за загрязнение окружающей среды, наблюдается более быстрое снижение уровня выбросов. Например, в государствах Европейского Союза, где применяются жёсткие экологические стандарты, за последние 15 лет уровень загрязнения сократился более чем на 25% (Ergashev, 2022).

Результаты исследования дают возможность глубже понять, насколько важен переход к зелёной экономике и какие факторы могут повлиять на его успешность.

Во-первых, очевидно, что без поддержки на государственном уровне процесс перехода к экологически устойчивой экономике проходит медленнее. Страны, где правительство активно внедряет законодательные инициативы, создаёт налоговые стимулы и инвестирует в инновации, показывают лучшие результаты. Это говорит о том, что зелёная экономика не может развиваться сама по себе — ей нужны чёткие стратегии и меры поддержки (Khabibullaevich, 2023).

Во-вторых, остаётся вопрос, насколько быстро развивающиеся страны могут позволить себе такие преобразования. Развитые экономики, обладая значительными финансовыми ресурсами, могут активно инвестировать в зелёные технологии. Однако

для стран с ограниченным бюджетом переход на новую модель требует дополнительных стимулов, таких как международные фонды и программы поддержки.

Ещё один важный аспект – влияние зелёной экономики на рынок труда (Ergashev, 2022). Несмотря на создание новых рабочих мест, в некоторых отраслях, особенно связанных с добычей и переработкой ископаемых видов топлива, происходит сокращение рабочих мест. Это создаёт определённые социальные вызовы, которые необходимо учитывать при разработке стратегий перехода (Aksenova, 2018).

Также стоит отметить, что не все страны, даже обладая необходимыми ресурсами, готовы к быстрым изменениям. Некоторые правительства опасаются возможных экономических рисков и медленно внедряют зелёные технологии. Однако исторические примеры показывают, что такие изменения приносят больше плюсов, чем минусов, если они проводятся грамотно и поэтапно.

4. Заключение.

Подводя итоги исследования, можно сделать несколько ключевых выводов.

Во-первых, зелёная экономика – это не просто концепция, а реальный путь к устойчивому развитию. Она не только способствует улучшению экологической ситуации, но и положительно влияет на экономику, создавая новые рабочие места и стимулируя развитие инновационных технологий.

Во-вторых, успешный переход к зелёной экономике требует комплексного подхода. Государственная поддержка, инвестиции, налоговые льготы и строгие экологические нормы играют решающую роль в этом процессе. Без них компании и предприятия не будут мотивированы внедрять экологически чистые технологии.

В-третьих, для стран с ограниченными финансовыми ресурсами необходимы дополнительные стимулы. Международное сотрудничество, гранты, инвестиционные программы могут помочь им перейти к более экологичной модели развития без значительных экономических потерь.

Наконец, несмотря на некоторые сложности, связанные с переходом, перспективы зелёной экономики выглядят многообещающими. Развитие экологически чистых технологий, сокращение выбросов и рациональное использование природных ресурсов – это шаги, которые позволят странам не только сохранить окружающую среду, но и добиться экономической стабильности в будущем.

Литературы:

Aksenova O. V. *Methods of teaching economics* - K.: KNEU, 2018. -p.280.

Aksenova O.V. *Structural and logical diagrams of the course "Scientific organization and regulation of labor in industry"*. -- K.: KINH, 2014. -p.144.

Ergashev Kh.Kh. *Teaching Methodology Ensuring the Coherence of Economic Sciences. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Volume 14, 2022. -p.16.*
<https://www.scholarexpress.net>

Ergashev Kh.Kh. *Theoretical and methodological foundations for the use of innovative technologies in the context of teaching economics. World Bulletin of Management and Law (WBML). Volume 16, 2022. -p.203.* <https://www.scholarexpress.net>

Khabibullaevich, E. K. (2023). *Audit Of Financial Activities Based On International Standards. Conferencea*, 151-155.

Khabibullaevich, E. K. (2023). *Ways To Solve Modern Problems Of Economic Education In Institutes. American Journal Of Interdisciplinary Research And Development*, 15, 76-79.

Khabibullaevich, E. K. (2023, December). *Audit Of Innovative Activity In Enterprises Based On International Standards. In E Conference Zone (Pp. 61-65).*

Leontiev A.N. *Problems of the development of the psyche*. - M., 2020. -p.243.

Барбер Э. (1989). *План создания зеленой экономики. Публикации Earthscan.*

Всемирный банк. (2023). Ежегодный доклад об изменении климата за 2023 год. Вашингтон, Округ Колумбия.

Левкович А.О. Формирование рынка информационных услуг. Издательство: "Издательство деловой и учебной литературы", 2005. - с. 335.

Мухтарова Е.Л., Щербakov В.Д. Информационные технологии. Т- 2007, с.256.

Организация Объединенных Наций. (2015). Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года.

Пирс Д., Маркандья А. и Барбье Э. (1990). Устойчивое развитие: экономика и окружающая среда в странах Третьего мира. Эдвард Элгар.

Штайнер А. (2012). Зеленая экономика и устойчивое развитие: возвращение социального аспекта. Доклад ПРООН.



СОЛИҚҚА ОИД ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАР ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Эргашева Т.А.

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Мақолада солиққа оид халқаро ҳужжатлар турлари ва уларнинг таҳлили масалалари ёритилган Халқаро солиқ тизими, ўзаро солиқ тушумларини яхшилаш, солиқ хавфсизлигини таъминлаш ва солиқ тўлашдан бўйин товлашни аниқлаш каби масалалар моҳияти очиб берилган. Шунингдек, мақолада трансчегаравий операцияларнинг кучайиши шароитида халқаро солиққа тортиш бир қатор фундаментал ўзгаришларини ўрганиш таклифлари берилган.

Калит сўзлар: солиқ тизими, халқаро ҳужжатлар, халқаро солиққа тортиш, солиқ ҳисоби, глобализация, солиқ рақобати, солиқ хавфсизлиги, бюджет.

Аннотация. В статье рассмотрено виды международных налоговых документов и их анализа. Изучено такие аспекты, как международная налоговая система, улучшение взаимных налоговых поступлений, обеспечение налоговой безопасности и выявление уклонения от налогов. Также в статье предложены рекомендации по изучению ряда фундаментальных изменений в международном налогообложении в условиях усиления трансграничных операций.

Ключевые слова: налоговая система, международные документы, международное налогообложение, налоговый учет, глобализация, налоговая конкуренция, налоговая безопасность, бюджет.

Abstract. The article examines the types of international tax documents and their analysis. Studied the aspects such as the international tax system, improvement of mutual tax revenues, ensuring tax security, and identifying tax evasion. The article also offers recommendations for exploring a number of fundamental changes in international taxation in the context of increasing cross-border operations.

Keywords: tax system, international documents, international taxation, tax accounting, globalization, tax competition, tax security, budget.

1. Кириш.

Солиққа оид халқаро ҳужжатларни ўрганиш, ҳозирги кунда жуда муҳим ва долзарб соҳалардан бири ҳисобланади. Бу соҳадаги тадқиқотлар глобализациянинг ривожланиши, трансмиллий корпорацияларнинг фаолияти, ва давлатларнинг солиқ тизимларини яхшилаш учун ўтказилаётган ислохотлар билан боғлиқ жараёндир. Халқаро солиқ тизими, ўзаро солиқ тушумларини яхшилаш, солиқ хавфсизлигини таъминлаш ва солиқ тўлашдан бўйин товлашни аниқлаш каби масалаларда кенг кўламдаги халқаро ҳуқуқий ва иқтисодий ҳужжатлар мавжуд. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида тижорат фаолияти халқаро майдонга жадаллик билан кириб

келмоқда, бунинг натижасида солиққа тортишнинг халқаро иқтисодий муносабатларни тартибга солиш воситаси сифатидаги роли ортиб бормоқда. Мақолада трансчегаравий операцияларнинг кучайиши шароитида халқаро солиққа тортиш бир қатор фундаментал ҳолатлар туфайли тизимли ўзгаришларни ўрганиш ҳисобланади. Бу ҳолатлар, энг аввало, бизнинг фикримизча, қуйидагиларни ўз ичига олади: глобаллашув шароитида трансмиллий корпорациялар (кейинги ўринларда ТМК деб юритилади) молиявий операцияларидаги ўзгаришлар, солиқ солинадиган базани солиқ ставкалари юқори бўлган давлатлардан пастроқ бўлган давлатларга ўтказиш тенденцияси, ТМКларнинг молиявий операцияларини таваккалчилик юқори бўлган хавфли усуллардан фойдаланган ҳолда амалга ошириш, бунинг натижасида кўпинча солиқни суистеъмол қилишга олиб келиши, шу жумладан асосий ёки шўъба компанияларга функцияларни агрессив солиқ сиёсатини юритиш ва бу солиқ операцияларини солиқ даражаси юқори бўлган мамлакатлардан солиқ ставкаси паст бўлган мамлакатларга атайлаб ўтказишга олиб келади, телекоммуникация ва ахборот соҳаларида инновацион трансформациялар ва янги технологияларни ривожлантириш, хусусан, бизнесни муайян юрисдикция билан боғлашда қийинчиликларга олиб келди, корхоналарнинг умумий активларидаги номоддий активлар улушининг ортиши, кўшимча қиймат яратиш жараёнида ўзгаришларга олиб келади. Мамлакатлар ўртасидаги солиқ рақобатининг аниқ тенденциялари билан бир қаторда халқаро иқтисодий интеграция ҳам ривожланмоқда, бу табиий равишда солиқ соҳасига ҳам таъсир кўрсатди. Ҳар бир мамлакатнинг солиқ тизими тарихий хусусиятлар, миллий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишлари, бюджет тизимининг турли даражалари ўртасидаги муносабатлар ва бошқа омиллар билан белгиланадиган ўзига хос хусусиятларга эга ҳисобланади. Солиқларни уйғунлаштириш концепциясини амалга ошириш трансчегаравий савдо ва молиявий операциялар жараёнида барча ҳўжалик субъектлари учун тенг шарт-шароитларни мослаштириш ва жорий этиш мақсадида солиқ тизимлари ва солиқ қонунчилигини яқинлаштиришни назарда тутди.

2. Адабиётлар шарҳи.

Халқаро солиқ муносабатларининг анъанавий йўналишлари, масалан, божхона операцияларини солиққа тортиш ёки халқаро молиявий операцияларда икки томонлама солиққа тортишни бартараф этиш масалалари билан бир қаторда, глобаллашув таъсирида давлатлар ўртасидаги кенг ҳамкорлик мавзусига айланган янги масалаларни пайдо қилмоқда. Глобаллашув ва давлатлар ўртасида капитални жалб қилиш рақобати шароитида алоҳида мамлакатлар ва минтақаларда қўлланиладиган солиқ имтиёзлари ва имтиёзларининг аҳамияти ортмоқда. Бу жиҳат иқтисодчи олимлар томонидан турлича талқин қилинмоқда. Жумладан,

П.Н.Бирюков (1998) ўзининг халқаро ҳуқуқ бўйича курсида таъкидлаганидек, иқтисодий ривожланиш соҳасидаги халқаро ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири солиққа тортиш масалалари бўйича давлатлар ўртасидаги муносабатлардир.

М. Р. Пинскаянинг (2018) фикрича, халқаро солиқ муносабатларининг бир қатор сўнгги муаммолари рақамли иқтисодиётнинг шаклланиши билан боғлиқ бўлиб, бу фаолиятнинг барча соҳаларида глобал ўзгаришлар жараёнини англатади.

Н. А. Попонованинг (2020) таъкидлашича, глобаллашув халқаро “солиқ рақобати”нинг пайдо бўлишига асос бўлди ва провард натижада бу давлатларда хорижий капитални жалб қилиш учун имтиёзли солиқ шароитларини яратиш тизимини пайдо қилди. Инсофсиз солиқ рақобати чораларини қўллаш, хусусан, молиявий ва инвестиция оқимларининг оффшор ва паст солиқ солинадиган давлатларга кетишига олиб келади.

В. А. Мачехин (2017) илмий ишларида халқаро солиқ соҳасида мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорликнинг кенгайиши билан давлатларнинг даромадлари

барқарорлиги ва бюджет тақчиллигини камайтириш устувор вазифалар сифатида намоён бўла бошлайди деб ҳисоблайди. Солиқ тизимини соддалаштириш, тадбиркорлик субъектлари зиммасига тушадиган солиқ юкини камайтириш, солиқ назоратини кучайтириш каби чора-тадбирлар давлат харажатларини қисқартириш ва солиқ йиғиш ҳажминини ошириш имконини бериши. Трансчегаравий операцияларни амалга оширишда миллий солиқ қоидаларидаги фарқлар икки томонлама солиққа тортиш, шунингдек, “икки марта солиқ солмаслик”га олиб келиши мумкин. Бу хусусиятлар солиқ солинадиган базанинг қисқаришига олиб келади.

Олимлар Ю.Б.Иванов ва Е.В.Давыскибалар (2006) ўзларининг “Хорижий давлатларнинг солиқ тизимлари” ўқув қўлланмасида, Солиқ тизимининг умумий тузилиши иқтисодий самарадорлик ва ижтимоий тенглик талаблари ўртасидаги маълум мувозанатни таъминлаши керак. Бугунги кунда сиёсий спектрнинг у ёки бу томонига мойил бўлган турли мамлакатлар ҳукуматлари солиққа тортишнинг умумий даражаси ва унинг тузилиши бўйича турли хил имтиёзларга эга бўлиши мумкин деб таърифлаган.

А.И. Погорлецкийнинг (2014) фикрича, турли мамлакатларнинг миллий солиқ тизимлари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг кенгайиши ва уларнинг секин, лекин узлуксиз яқинлашиши, биз тушунган ҳолда, биринчи навбатда, жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви жараёнининг ривожланиши шароитида солиққа тортишнинг асосий тамойиллари ва миллий солиқ сиёсатини шакллантиришга ёндашувларнинг яқинлашиши сифатида узлуксиз амалга оширилмоқда.

Шу ўринда Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг (OECD) солиққа оид халқаро ҳужжатлар турлари ва уларнинг таҳлили бўйича билдирилган баъзи фикрларини келтириб утамиз.

OECD “Model Tax Convention on Income and on Capital” конвенциясида (2013) икки марта солиқ тўлашдан бўйин товлаш тўғрисидаги шартномалар ҳақида фикр билдирилиб, икки марта солиқ тўлашдан бўйин товлаш тўғрисидаги шартномаларни имзоланиши халқаро савдо ва инвестициялар учун солиқ тўсиқларини бартараф этишга ёрдам бериши, бу эса янада олдиндан айтиш мумкин бўлган ва барқарор солиқ муҳитини яратилишига асос бўлиши келтирилган. Конвенция муаллифларининг фикричи, бундай шартномалар давлатлар ўртасидаги солиқ низоларини камайитиришга ёрдам беришини таъкидлайдилар.

OECD, “Model Agreement on Exchange of Information on Tax Matters” халқаро стандартида (2015) халқаро солиқ ҳамкорлиги тўғрисидаги келишувлар солиқ маъмуриятлари ўртасида маълумот алмашишда муҳим рол ўйнайди ва пировард натижада юридик ёки жисмоний шахсларнинг солиқ тўлашдан бўйин товлаши билан курашишга ёрдам беради.

Шунингдек, Миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мослаштириш солиқ бошқарувини яхшилашга ва солиқ тизимларига ишончни оширишга ёрдам беради. Бу шунингдек, солиқ амалиётларини уйғунлаштиришга ёрдам беради.

Солиқ қонунчилигидаги, (2019) биринчи навбатда, билвосита солиққа тортиш соҳасидаги туб фарқларни бартараф этиш билан бир қаторда, мамлакатлар ичидаги солиқ чегараларини бекор қилиш, иқтисодий агентлар, резидентлар ва норезидентларни ҳар қандай турдаги солиқ камситишларидан ҳимоя қилишни ҳам назарда тутди (Қарор, 2019).

Ушбу ҳужжатлар ва олимларнинг фикрлари халқаро солиқ ҳамкорлиги ва солиқ тизимларини уйғунлаштириш муҳимлигини кўрсатмоқда, бу эса ўз навбатида глобал иқтисодиётда адолат ва самарадорликни таъминлаш учун зарур восита ҳисобланади.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадақиқотимиз методологияси бўлиб, солиққа тортиш бўйича халқаро ҳужжатлар билан боғлиқ иқтисодий муносабатлар ҳисобланади. Тадақиқот жараёнида амалий материалларни таққослаш ва гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилиб, хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Амалиётда солиққа тортиш бўйича халқаро ҳужжатлар бир нечта турлари мавжуд:

- Давлатлараро келишувлар (ДКК): (2015) Бу икки ёки ундан ортиқ мамлакатлар ўртасида солиқ муносабатларини мувофиқлаштириш учун тузилади. Давлатлараро келишувлар солиқлар бўйича ўзаро ҳуқуқий муносабатларни белгилайди, масалан, икки давлат орасидаги икки карра солиқ солишга йўл қўймаслик учун шартлар белгилаш.

- Халқаро тузилмаларнинг ҳужжатлари: Масалан, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD) ва Буюк Британиянинг Халқаро солиқ ҳуқуқи институти (IFA) каби ташкилотлар томонидан солиқга оид халқаро стандарларни ишлаб чиқилган ва уларга риоя қилишга қўмаклашувчи норматив ҳужжатларни қабул қилган. OECD (2023) томонидан ишлаб чиқилган “Multilateral Convention to Implement Tax Treaty Related Measures to Prevent Base Erosion and Profit Shifting” (MLI BEPS) конвенцияси бугунги кунда бутун жаҳонда солиқ сиёсатларини ислоҳ қилишга ёрдам бермоқдар.

- Давлатларнинг ички қонунчилиги: Давлатнинг ички қонун ва қарорлар асосида, давлатлар солиқ сиёсати ва халқаро солиқлашувни ўз ички қонунчилигини белгилайдилар.

Ўтган асрнинг 80-йилларининг бошидан давлатлар ўртасида солиқ мажбуриятларини қўллаш бўйича умумий ёндашувларнинг йўқлиги миллий солиқ қонунчилигини бузиш ва солиқ тўлашдан бўйин товлаш ҳолатларини пайдо бўлишига олиб келди. Ривожланган мамлакатлар (2006) трансмиллий компаниялар ва банклар фаолияти устидан солиқ назоратини кучайтириш бўйича жиддий ҳаракатларни 1990-йилларнинг ўрталаридан бошлаб бошланди. Инсофсиз солиқ рақобати, солиқ тўлашдан бўйин товлаш ва коррупцияга қарши, ноқонуний олиб чиқилган капитални қайтаришга қарши тизимли кураш олиб бориш йўлга қўйилди. Кўпгина мамлакатлар жаҳон иқтисодий тизимида молиявий операцияларнинг шаффофлик даражасини ошириш ва бунинг учун халқаро солиққа тортишни такомиллаштириш бўйича самарали чораларни жорий этди (Ю.Б.Иванов, Е.В.Давыскиба, 2006).

Шу мақсадда 2008 йилдан бошлаб мамлакатлар икки томонлама солиққа тортиш бўйича келишувларга (ИТСТК) ўзгартиришлар киритиш ва солиқ маълумотлари алмашинуви бўйича алоҳида шартномалар тузишга киришдилар. Бундай шартномалардан оффшор компаниялар орқали солиқ тўлашдан бўйин товлашга қарши курашиш билан бир қаторда ушбу шартномалар бўйича имтиёзлар олиш ҳуқуқини чеклаш ҳам назарда тутилган эди. Солиқ маълумотлари алмашинуви шартномалари ҳақиқий ҳуқуқий механизмни яратди, унинг асосида ваколатли органлар банклар, молия институтлари, агентлар ва бошқа шахслардан турли хил маълумотларни тезда олишлари мумкин. Агар асослар мавжуд бўлса, солиқ органлари халқаро шартномада назарда тутилган имтиёзлар ёки солиқ имтиёзларини беришни рад этишлари мумкин, шу жумладан компаниялар ўртасида шартнома тузишнинг ягона мақсади ИТСТК томонидан тақдим этилган имтиёзлардан фойдаланиш имкониятига эга бўлишлари мумкин булди. Солиқ тўлашдан бўйин товлаш ва агрессив солиқ режалаштиришга қарши курашда муҳим қадам бўлиб 2013 йилда қабул қилинган G20 давлатларининг солиқ базаси камайитириш ва оффшор фойданинг ўзгаришига қарши курашиш бўйича қўшма ҳаракатлар режаси бўлди (Action Plan on Base Erosion and Profit Shifting, кейинги ўринларда BEPS режаси). Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг ягона форматларидаги стандартлари асосида BEPS режасига мувофиқ давлатлар ўртасида

молиявий маълумотларнинг автоматик алмашинуви учун оффшор маблағларни самарали солиққа тортишга ёрдам берди. Бундан ташқари, солиқ органларининг халқаро ҳамкорлиги бутун дунёда нақд пул айланмасининг қисқаришига олиб келди. Шунингдек, бу ислохотлар молиялаштириш ва даромадларни тўлашда имтиёзли солиқ режимини қўллаш хорижий капитални миллий иқтисодиётга жалб қилиш билан боғлиқ бўлиши расмий характерга эга бўлмаслиги керак (OECD, 2).

Солиққа оид халқаро ҳужжатларни ўрганишни тадқиқ қилишда, халқаро солиқ ҳуқуқининг ривожини ва унинг асосий принциплари муҳим аҳамиятга эга. Халқаро солиқ ҳуқуқи мамлакатлар ўртасида солиқ қўйиш ҳуқуқи, солиқ органлари ўртасида маълумот алмашиш ва солиқ ҳуқуқи хавфсизлигини таъминлашга қаратилган.

- Давлатлар ўртасидаги солиқ келишувлари: Бундай келишувлар икки давлатнинг солиқлашув тизимларини мувофиқлаштиришга ёрдам беради. Бунинг натижасида солиққа оид зиддиятлар камаюди ва транзакциялар кўпроқ прогнозли бўлади.

- BEPS (Base Erosion and Profit Shifting): (2013) Бу халқаро ҳаракат, трансмиллий компаниялар томонидан солиқлардан бўйин товлаш ва манфаатларни бошқа, паст солиқ ставкаларига эга давлатларга кўчиришга қарши курашишга қаратилган. OECD бу ҳаракатнинг асосий ташаббускори бўлиб, унинг мақсади солиқлардан хилофликни камайтиришдир (OECD, 2).

5. Хулоса.

Солиқ шартномалари кўпгина мамлакатларнинг халқаро солиқ қоидаларининг муҳим элементи ҳисобланади. Ҳозирги вақтда 3 000 дан ортиқ икки томонлама даромад солиғи бўйича шартномалар амал қилади ва уларнинг сони ўсишда давом этмоқда. Ушбу шартномаларнинг аксарияти асосан Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар ўртасида икки томонлама солиққа тортиш модел конвенцияси (БМТ Модел конвенцияси) ва Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг даромад ва капитални солиққа тортиш тўғрисидаги намунавий конвенциясига (ОЕСД Модел конвенцияси) асосланади.

Солиқ соҳасидаги давлатлараро ҳамкорликнинг ривожланиши жаҳон иқтисодиётидаги объектив иқтисодий жараёнларга изчил мослашиб бормоқда. Солиқ соҳасидаги халқаро ҳамкорлик бугунги кунда табиий жараён сифатида эмас, балки, баъзи ҳолларда давлатлараро солиқ сиёсатини аста-секин глобаллашув жараёнларининг мантикий давомига айланиб бормоқда. Дунёнинг ривожланган иқтисодиёти минтақасида ҳам, ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар ўртасидаги ташқи иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши халқаро ташкилотларнинг намунавий солиқ конвенциялари устида олиб бораётган ишлари туфайли халқаро солиқ шартномаларини имзолаш жараёнини фаоллашмоқда ҳамда уларнинг шакллари стандартлаштирилмоқда.

Адабиётлар:

OECD (2013), *Action Plan on Base Erosion and Profit Shifting*, OECD Publishing.
<http://dx.doi.org/10.1787/9789264202719-en>

OECD (2015), (<https://www.oecd.org/tax/exchange-of-information/>)

OECD (2019), (<https://www.oecd.org/tax/treaties/>)

OECD “Multilateral Convention to Implement Tax Treaty Related Measures to Prevent Base Erosion and Profit Shifting” (MLI BEPS), 2023.
<https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/topics/>

VAT invoicing rules. European Commission. (n.d.). Taxation and Customs Union. URL:
https://taxation-customs.ec.europa.eu/vat-invoicing-rules_en

Бирюков П.Н. (1998) *Международное право*. –М., -С. 335.

Иванов Ю.Б., Давыскиба Е.В. (2006) Системы налогообложения зарубежных стран. учебное пособие Украина Харьков ИД «Инжэк». -224 стр.

Қарор (2019) Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4389 сонли Қарори

Мачехин, В. А. (2017) О понятии «двойное неналогообложение» // Экономика. Налоги. Право. – № 10

Налоговые реформы в присоединяющихся к ЕС странах (http://www.unepes.org/ead/pub/041/ru/041c5_r.pdf).

Пинская, М. Р. (2018) Развитие международного налогообложения как ответ на вызовы цифровой экономики // Системный анализ в экономике: сборник трудов V Международной научно-практической конференции-биеннале. Москва, 21-23 ноября 2018 г. / под ред. Г. Б. Клейнера, С. Е. Щепетовой. – М.: Издательство Прометей. – С. 459-462.

Погорлецкий А.И. (2014) Конвергенция национальных налоговых систем // Вестник СПбГУ. 2005. Сер. 5: экономика. Вып. 2. С. 67., Шепенко Р.А. История Модельной конвенции ОЭСР о налогах на доход и капитал // Российское право: образование, практика, наука. № 1. С. 34

Попонова, Н. А. (2020) О результатах реализации стандартов «налоговой прозрачности» Организации экономического сотрудничества и развития // Путеводитель предпринимателя. – Т. 13. – № 1. – С. 55-67.



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ